

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**



TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH”
KAFEDRASI**

**“SOLIQ NAZARIYASI”
FANIDAN**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Таълим соҳаси: 230000 – Иқтисод

Таълим йўналиши: 5230800 - Солиқлар ва соликқа тортиш.



TOSHKENT-2018/2019

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi o‘quv va ishchi o‘quv reja hamda o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: Jo‘rayev A.S.

- TMI, “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasи mudiri, i.f.d., professor

Meyliev O.R.

- TMI, “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasи katta o‘qituvchisi

Berdiyeva O’.A.

- TMI, “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasи katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar: Xudoyqulov S.K.

- TDIU, “Moliya va soliqlar” kafedrasи mudiri, i.f.n., dotsent.

Amanov A.M.

- TMI, “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasи dotsenti, i.f.n., (ichki)

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi kafedraning _____ yig’ilishi muhokamasidan o‘tkazilgan va fakultet Kengashida ko’rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

Jo‘rayev A.

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi Sug’urta fakultet Kengashida muhokamadan o‘tkazilgan va tavsiya etilgan (_____)

Fakultet dekani

Safarov G’.

Kelishildi:

O‘quv-uslubiy boshqarma boshligi

Baymuradov T.

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

Qo’ziyev I.

MUNDARIJA

KIRISH.....5

O'QUV MATERIALLARI.....6

Ma'ruzalar matni.....6

1-modul. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va soliq tizimi

1-Mavzu. “Soliq nazariyasi” fanining predmeti, mazmuni va uni o’rganish usullari.....6

2-Mavzu. Soliqlarning vujudga kelishi va rivojlanish tarixi.....14

3-Mavzu. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari.....35

4-Mavzu. Soliq elementlari va ularning tavsifi.....57

5-Mavzu. O’zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning shakllanishining nazariy asoslari77

2- modul. Soliq siyosati va soliq ishini tashkil etish asoslari

6-Mavzu. Soliq munosabatlari sub’ektlarining huquqlari va soliq majburiyatlarining bajarilishi89

7-Mavzu. Soliq siyosati va uning asosiy yo’nalishlari.....114

8-Mavzu. Soliqqa oid huquqbazarlik tushunchasi, turlari va javobgarlikto’g’risidagi umumiy qoidalar.....134

9-Mavzu. Soliqlar va makroiqtisodiy holatning uzviy bog’liqligi.....154

10-Mavzu. Soliq ishini tashkil etish asoslari.....169

11-Mavzu. Xalqaro soliqqa tortish.....186

AMALIY MASHG’ULOT O’TKAZISH MATERIALLARI.....196

1-modul. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA SOLIQ TIZIMI

1-Mavzu. “Soliq nazariyasi” fanining predmeti, mazmuni va uni o’rganish usullari.....196

2-Mavzu. Soliqlarning vujudga kelishi va rivojlanish tarixi.....201

3-Mavzu. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari.....207

4-Mavzu. Soliq elementlari va ularning tavsifi.....214

5-Mavzu. O’zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning shakllanishining nazariy asoslari77

2- modul. Soliq siyosati va soliq ishini tashkil etish asoslari

6-Mavzu. Soliq munosabatlari sub'ektlarining huquqlari va soliq majburiyatlarining bajarilishi	
7-Mavzu. Soliq siyosati va uning asosiy yo'nalishlari.....	229
8-Mavzu. Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi, turlari va javobgarlikto'g'risidagi umumiy qoidalar.....	235
9-Mavzu. Soliqlar va makroiqtisodiy holatning uzviy bog'liqligi.....	238
10-Mavzu. Soliq ishini tashkil etish asoslari.....	243
11-Mavzu. Xalqaro soliqqa tortish.....	246
MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATERIALLAR.....	249
O'QUV PORTFOLIYASI.....	
GLOSSARIY.....	212
ILOVALAR.....	273
Fan dasturi.....	215
Ishchi fan dasturi.....	225
Test.....	246
Ishchi fan dasturiga muvofiq baholash mezonlarini qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.....	
O'UM ning electron varianti.	

KIRISH

Oliy ta'limning davlat standartlari, malaka talablariga asosan “Soliqlar va soliqqa tortish” bakalavriat ta'lim yo‘nalishi o‘quv rejasining ixtisoslik blokida “Soliq nazariyasi” fani o‘qitiladi. Ushbu fanni o‘qitish jarayonida soliqlarning mohiyati, belgilari, ob’ektiv zarurligi, soliq siyosati, soliq tizimi va soliqqa tortish nazariyalari haqidagi tushunchalarni chuqur bilishlari zarur. Buning uchun soliq nazariyasi fanini puxta o’zlashtirish kerak. Bu esa o‘z navbatida soliq to’lovchilarning madaniyati va soliqqa oid bilimlarining yuksalishiga bevosita ta’sir ko’rsatadi va chuqur o‘rganiladi.

“Soliq nazariyasi” fanini o‘qitishdan maqsad - talabalarda soliqlar va soliqqa tortish munosabatlarining tarixi, elementlari, funktsiyalari va soliq tizimining nazariy asoslarini, O’zbekiston va iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimining shakllanish va rivojlanish evolyutsiyasini o’rganish bo'yicha bilim, ko’nikma va malaka shakllantirishdir.

Shu maqsadda “Soliq nazariyasi” fani bo'yicha o‘qitishning ilg‘or pedagogik texnologiya qoidalari asosida o‘quv-uslubiy majmua ishlab chiqilgan.

O‘quv-uslubiy majmua tarkibi har bir dars mashg‘ulotlari uchun ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, mustaqil ta’lim, glossariy, ilovalardan tashkil topgan.

O‘quv-uslubiy majmua tarkibi mazmunan quyidagicha ifodalangan:

- ma’ruzada har bir mavzu bo'yicha 10-20 bet hajmda matn ishlab chiqilgan hamda foydalanilgan mahalliy va xorijiy manbalar ko’rsatilgan;
- amaliy mashg‘ulotda nazorat savollari, mavzularga oid masalalar, keys metod topshiriqlari keltirilgan;
- mustaqil ta’limda har bir mavzu muammolarini o‘zida aks etgan savolnomalar, muammoli vaziyatlarni qamrab olgan topshiriqlar berilgan;
- glossariyda mavzular doirasida asosiy tayanch so‘z va iboralarning (o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi) talqinlari keltirilgan;
- ilovalarda fan bo'yicha namunaviy dastur, ishchi dastur, fanga oid test variantlari o‘rin olgan.

O'QUV MATERIALLARI

MA'RUZALAR MATNI

1-MODUL. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA SOLIQ TIZIMI

1-MAVZU: “SOLIQ NAZARIYASI” FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA METODI

Reja:

1. “Soliq nazariyasi” fani ijtimoiy-iqtisodiy fan sifatida.
2. Fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog‘liqligi.
3. “Soliq nazariyasi” fanini o’rganish usullari.
4. Soliqqa tortishga kirish.

Tayanch so’z va iboralar: soliq nazariyasi, maqsad, metod, predmet, munosabat, amaliyot, nazariya.

1. “Soliq nazariyasi” fani ijtimoiy-iqtisodiy fan sifatida.

Soliq munosabatlari davlatning bajaradigan vazifa va faoliyati amaliy jarayonining ibtidosini tashkil etadi. Chunki, har qanday ustqurtma muayyan iqtisodiy bazisdan oziqlanadi. O’z navbatida, bazisning fundamental asosini yaratuvchi omillar, ayni paytda uning qismatini ham belgilaydi. Mazkur ta’kiddan kelib chiqib, ana shu bazisning oqilona asosini shakllantiruvchi soliq hamda uning tizimini jamiyat tarixi taraqqiyotida tutgan rolini ko’zdan kechiradigan bo’lsak, o’ziga xos dastak ekanligini ilg‘ash qiyin emas.

Chunki, har qanday jamiyat o’zining xususiyati va tabiatiga ko’ra, bu jarayonga hamohangdir. G’oyat ma’suliyatli, o’z navbatida o’ta yuqori darajadagi ehtiyojni o’zida ifodalagan soliqlarning o’ziga xos rivojlanishi natijasida ularning jamiyat taraqqiyotida yangi qirralari, imkoniyatlari ortib bordi.

“Soliq nazariyasi” fani soliqlarning nazariy jihatlarini, xususiyatlarini o’rganishdagi asosiy fan hisoblanadi. Fanning predmetiga to’xtalishdan oldin “Soliq” kategoriyasiga qisqacha to’xtalib o’tadigan bo’lsak, “Soliq” kategoriyasi - bu muhim iqtisodiy jarayon bo’lib, uning paydo bo’lishi va amal qilishi kishilik jamiyatining mavjudligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Soliqlar har bir davlat faoliyatini moddiy jihatlarini ta’minlaydi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi.

Amaliyotda va umuman iqtisodiy fanda soliqlarning mohiyatiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Shu sababli, ushbu kategoriya har bir davlat tomonidan o’ziga xos tarzda foydalilanadi.

Davlat asta sekin rivojlanib borishi bilan, uning funktsiyalari ham muvofiq ravishda kengayib boradi. Bu esa, soliqlarga nisbatan qo'yiladigan talabning kuchayishiga olib keladi. Shu sababli, soliq tizimi tobora murakkab va ko'p qirrali bo'lib boradi. Kishilik jamiyati rivojlanishi tarixi shuni ko'rsatadiki, davlat ma'muriy boshqaruv bilan shug'ullangan hollarda, uning ehtiyojlari ma'lum darajada saqlanib qoladi, davlatning iqtisodiyotni boshqarish majburiyati paydo bo'lsa, uning xarajatlari va aholidan olinadigan tushumlari ko'payadi. Bunday holatda, soliqlarning shakllari pang baranglashib boradi.

Har qanday fan o'zining predmetiga ega, ya'ni izlanish ob'ektiga ega bo'ladi. Masalan, texnologiya fanining predmeti bo'lib kimyoviy moddalarning tarkibini o'rganish hisoblansa, mashinasozlik fani uchun mashinalar mexanizmi xarakteristikasi bo'lsa, Soliq nazariyasi fanining predmeti soliq munosabatlarini (harakatini) o'rganishdir.

Demak, soliq nazariyasi fanining predmeti - bu soliq to'lovchilarning majburiy to'lovlari bo'yicha davlat byudjeti bilan iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarining nazariy jihatlarini o'rganishdan iborat. Ushbu keltirilgan ta'rifdan ko'rishimiz mumkinki, fan o'z predmetini o'rganishda turli usullarning o'zaro aloqasining nazariy jihatlarini o'rganar ekan. Jumladan, soliq to'lovchilar va uni o'zlashtiruvchi, davlat byudjeti, majburiy to'lovlari, moliyaviy munosabatlar kabi elementlarning o'zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonlarining nazariy jihatlari, qirralari keng ko'lamda o'rganiladi.

Fanning mohiyati shu o'rtadagi moliyaviy munosabatni ya'ni soliq to'lovchi bilan davlat o'rtasidagi munosabatni chuqur o'rganish, soliq munosabatlarida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini e'tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu muvozanatni saqlashda, tomonlar adolatlik tamoyiliga amal qilish zarur. Tushunarliroq qilib aytilsa, byudjetga soliqlarni olishda soliq to'lovchilar bo'yniga ortiqcha og'irlik osmaslik, ularni o'z ishlab chiqarishdan manfaatdorligini so'ndirib qo'ymaslik, ularning dasturlari va rejalarini tez-tez o'zgartirishga olib bormaslik va hokazolarga e'tibor berish ko'zda tutiladi. Bu erda tomonlarning do'stona munosabatda bo'lismi, bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlar bo'lishini o'rgatadi.

Fanning predmetini chuqur o'rganish shuni ko'rsatadiki, munosabatlarda bir tomonlama zo'ravonlik munosabati bo'lguday bo'lsa, ikkinchi tomon unga javoban o'z daromadlari, boshqa soliq ob'ektlarini har xil yo'llar bilan yashiradi. Bunday hollarda, har qanday huquqiy hujjatlarning ham kuchi etmay qolishi

mumkin. Daromadlarni soliq sub'ektlarini yashirish holati ham munosabatlarni buzadi.

Demak, soliq nazariyasi fanini chuqur o'rganish orqali amaliyatda soliq tushumlari rejalarini muvaffaqiyatli bajarish vazifasiga ham erishish mumkin.

2. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligi.

Odatda soliq nima o'zida nimalarni ifoda etishi borasidagi bilimlarni olish murakkab masala hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda bu fanni filga qiyoslash mumkinki, uni tasvirlab bergen taqdirda ham u haqida yetarli tasavvur hosil bo'lmaydi, magaramki bu filni o'z ko'zingiz bilan ko'rmaguningizgacha.

Soliqlar masalalariga doir bilimlarni o'rganish boshqa fanlardan ham xabardor bo'lishni talab etadi. Jumladan, "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi», "Iqtisodiyot nazariyasi", "Moliya", "Soliq ma'murchiligi", "Soliqlar va soliqqa tortish" kabi fanlar shular jumlasidandir.

Fanning iqtisodiy ta'limotlar tarixi bilan bog'liqlik jihatni shundan iboratki, agarda iqtisodiy ta'limotlar tarixi fani o'z predmetida asosan jamiyat taraqqiyoti davrlarida ulardagagi muammolarni echib berishga qaratilgan turli shaxslarning iqtisodiy fikrlarini, g'oyalarini, turli nazariyalarni o'rgansa, Soliq nazariyasi fani ham o'z predmetini o'rganishda soliqlarga tegishli bo'lган turli xil g'oyalar va nazariyalarni o'rganadi.

Soliq nazariyasi fani iqtisodiy nazariya fani bilan chambarchas bog'liqdir va uning maxsus bo'limi, ya'ni chuqurlashtirilgan, kengaytirilgan bo'limidir. Chunki soliq nozariyasining qonuniyatları umumiqtisodiy nazariya qonuniyatlaridan chetga chiqmasdan, ularga asoslanadi.

Shuningdek, mazkur fan moliya nazariyasi fani bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun moliya ham, soliq ham pul munosabatlarini ifodalaydi. Ularning ikkalasi uchun yagona asos pul munosabatlarining mavjudligidir. Lekin Soliq nazariyasi o'ziga xos bo'lган pul munosabatlarini, ya'ni soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi majburiy pul munosabatlarini o'rganadi.

Fanning soliqlar tarixi fani bilan bog'liqlik jihatni shundan iboratki, soliq nazariyasi fanida ham soliqlarning rivojlanish bosqichlari, davrlari, har bir davrda va davlatda amal qilgan soliqlar, ularning tarkibi va tuzilishi, dinamikasi kabilar o'rganiladi.

Soliq ma'murchiligi fani bilan soliq nazariyasi fanining bog'liqligi shundan iboratki, soliq ma'murchiligidagi soliq ishini tashkil etish davlat nuqtai-nazaridan yoki davlat miqyosida va korxona miqyosida olinadigan bo'lsa, soliq menejmenti

ishlarini tashkil etish nazariyalari soliq nazariyasining ajralmas qismini tashkil etadi.

Fan shuningdek, soliqlar va soliqqa tortish fani bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Soliq nazariyasi fani o’z predmetini o’rganar ekan, bиринчи navbatda bugungi kundagi mamlakatimiz soliq tizimi bilan hamnafas bo’lishi lozim. Bunda amaldagi soliq mexanizmining nazariy masalalari ochib beriladi.

Soliq nazariyasi fani davlat byudjeti fani bilan ham o’zaro bog‘liqdir. Chunki soliqlar oxir oqibatida byudjet daromadlarini shakllantiradi. Soliqlar (daromadlar) bo’lmasa, byudjet munosabatlarining o’zi bo’lmaydi. Bu fan chet mamlakatlar soliq, buxgalteriya hisobi, soliq huquqi fanlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Soliqlarning paydo bo’lishi davlatning paydo bo’lishi bilan bog‘liq bo’lganligi uchun hamda hozirgi O’zbekistonda ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat uni tashkilotchisi ekanligidan soliqlar va soliqqa tortish fani davlatning o’ta zarur bo’lgan xilma - xil vazifalari bilan chambarchas bog‘liq va ularga asoslanadi. Davlat mamlakatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish uni taqsimlashning qonun - qoidalarini ishlab chiqadi. Bu taqsimlashdagi munosabat bozor iqtisodiyoti sharoitida pul orqali amalga oshirilganligidan davlat uni taqsimlashni ham pul munosabatlari orqali, ya‘ni soliq, pul va kredit orqali amalga oshiradi. Davlatning bunday faoliyatini o’rganish - soliqlar va soliqqa tortish fanining diqqat - markazida turadi.

Bozor iqtisodiyoti talab va taklif, raqobat, qiymat va boshqa qonunlar orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti - erkin iqtisodiyot, pulli munosabatlar iqtisodiyotidir. Soliqlar ham pul munosabatlarini ifoda etganligi uchun bozor iqtisodiyoti tarkibiga kiradi, uning ajralmas qismidir. Bozor iqtisodiyoti qonunlari - soliqlar va soliqqa tortish fanining asosi bo’lib xizmat qiladi. U qonunlarni chuqur anglamasdan turib soliqlar va soliqqa tortish mexanizmini tushunib bo’lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti qonunlarini o’rganib chiqib, davlat yalpi ichki mahsulot qiymatini soliqlar orqali taqsimlash vazifasini o’z zimmasiga oladi. Shunday ekan, davlat to’g‘risidagi ta‘limot - davlat iqtisodiyotni boshqarishda bosh rol o’ynashi soliqlar va soliqqa tortish fanining asosi bo’lib xizmat qiladi. Davlat bozor iqtisodiyotini boshqarishda etakchilik, boshqaruvchilik rolini o’ynaydi. Davlat soliqlarni iqtisodiy mohiyati va vazifalarini o’rganib chiqib, uni amaliyatga tadbiq qilishni o’z zimmasiga oladi.

Soliq xizmati xodimlari o’zlariga qonuniy hujjatlarda yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun faqat amaliy jihatdan soliqlarni bilibgina qolmasdan, soliqlarning mohiyati, belgilari, ularning ob‘ektiv zarurligiga,

davlatning soliq siyosati, soliqlar tizimi, soliqqa tortish tizimi, soliq idoralari tizimi va boshqalar kabi nazariy masalalarni chuqur bilishlari zarur. Buning uchun esa soliqlar va soliqqa tortish fanini chuqur o'rganish kerak. Shuni nazarda tutish zarurki, Leonardo da Vinchi aytganidek: «Nazariya qo'mondon, amaliyot askarlardir» Nazariya amaliyotni to'g'ri yo'lga boshlovchi kompasdir. Har qanday vazifalarni kadrlar hal qiladi. Shuning uchun, ular chuqur nazariy bilimga va kasb mahoratiga ega bo'lishlari zarur.

3. “Soliq nazariyasi” fanini o’rganish usullari.

Har bir fanning shakllanishi fanning predmetini shakllanishi bilan bиргаликда, унинг илмий билиш усулларининг қарор топиши билан ҳам bog‘лиq. Har qандай fanni o’рганишдаги усуллар умумий тавсифга ега, лекин har bir fan o’z predmetidan kelib chiqib, o’зининг илмий билиш усулларига ега. Shuning uchun, fanni o’рганишдаги усуллар умумий va alohida усулларга bo’linadi.

Tabiat, jamiyat va tafakkurning rivojlanish qonunlarini o’rganishning birdan-bir to’g‘ri ilmiy usuli dialektik usuldir. Shuning uchun, ham ushbu ilmiy bilish usuli barcha fanlarning, shu jumladan Soliq nazariyasi fanining ham nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Dialektik usul shuni ko’rsatadiki, rivojlanish quyidan yuqoriga qarab sodir bo’ladi. Bilish esa oddiydan murakkabga tomon rivoj topib boradi. Shuning uchun, ushbu usul tadqiqotning induktsiya va deduktsiya usullarini o’z ichiga oladi.

Xususiy, yakka fakt olinib, uning asosida umumiy qoida hosil qilinadigan bo'lsa - bu induktsiyadir. Avval, boshdanoq barcha xususiy hollarni o'z ichiga olgan umumiy qoida hosil qilinsa bu - deduktsiyadir.

Shu bilan, birga barcha iqtisodiy fanlar kabi «Soliq nazariyasi» fanining ham o’ziga xos ilmiy bilish usullari mavjud. Ulardan biri ilmiy abstraktsiya usulidir. Ilmiy abstraktsiya usulining mohiyati shundan iboratki, bunda tahlil paytida ob’ektning faqat bir tomoniga, o’rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e’tibor qaratiladi va halal berishi mumkin bo’lgan ikkinchi darajali unsurlarning ta’siri e’tiborga olinmaydi.

Soliq nazariyasi fani shuningdek, o'z predmetini o'rghanishda nazariy tahlil va sintez usulidan ham foydalanadi. Tahlil - bu o'rganilayotgan butun ob'ektni qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish, bo'lsa, sintez esa, o'rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab, umumiy xulosa chiqarishdir. Soliqlarga doir murakkab nazariy masalalar mana shu yo'l bilan o'rganiladi.

Fan o'z predmetini o'rganishda makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy holda tahlilni qo'shib olib borish muhim o'rinni tutadi. Soliqlarning nazariy masalalarini mikroiqtisodiy jihatdan o'rganishda iqtisodiyotning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar nuqtai-nazaridan, ular bilan davlat byudjeti o'rtasidagi munosabatlar tadqiq etilsa, makroiqtisodiy jihatdan tahlil etishda esa, davlat miqyosida, ya'ni soliqlarning nazariy masalalari makroiqtisodiy darajada o'rganiladi.

Shuningdek, fan o'z predmetini o'rganishda taqqoslash, statistik, grafik usullaridan ham foydalanadi. Jumladan soliqlarni davrlar bo'yicha taqqoslash, ulardan tushumlarni jadvallar orqali ifodalash, o'zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta'sirini grafik usulida tasvirlash va shu kabilardir. Masalan, soliqlar o'zgarishini yalpi talab va yalpi taklifga ta'sirini mana shu usul bilan ifodalash mumkin.


4. Soliqqa tortishga kirish.

Ko'pchilik soliqqa tortishni nima ekanligini tushunishmaydi, shunday bo'lsa ham, soliq bizning kundalik hayotimizga ta'sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Rasmdagi shaxs umrining ko'p qismi davomida Buyuk Britaniya Ichki Daromadlar Xizmatiga soliq to'layotganini va bu jarayon juda murakkabligini, uni hanuzgacha tushinmaganini izohlaydi. Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida soliq tizimi juda murakkab, faqat juda oz kishilar (ayrim professional soliq maslahatchilari, advokatlar) soliq tizimini tushunishadi, shunga qaramay, fuqarolar va tadbirkorlar ularga nisbatan mavjud barcha soliq majburiyatlariga to'liq bo'ysunishadi. Albert Eishteyn «Dunyodagi tushunish qiyin bo'lgan so'z bu — daromad solig'idir» deb ta'kidlab o'tgan. Adolatli ravishda shuni ta'kidlash joyizki, qiyinchiliklarning katta qismi soliq qoidalari tug'ri qullanilishiga bog'liq, agar ular qullanilsa faqatgina taxnik hisob kitoblarda amalga oshiriladi xolos, bundan keyingina soliq qancha miqdorda to'lanishini aniqlash kerak bo'ladi. Bundan keyingi qiyinchilik barcha mamlakatlardagi mavjud soliq tizimining bir biridan farqi bilan ifodalanadi.

Soliqqa tortishga xos bo'lgan yana bir noaniqlik bu soliqlarga nisbatan yondashuv turli xil fanlar nuqtai nazaridan berilganligi bilan izohlanadi va buni quyida ko'rib chiqamiz. Ushbu fan turli iqtisodiy fanlar bilan bevosita bogliq va ular bilan uzviylikda o'zaro bog'langan. Shuning uchun ko'pchilik bu fanga boshqa fanlarni o'rganish orqali ham kirib keladi. Buxgalteriya hisobi, huquqiy fanlar, iqtisodiy fanlar orqali soliqqa tortishni o'rganishga intiladi, vaholanki soliqqa tortish alohida fan sifatida boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro

aloqadorlikda o'rganiladi. Tarixchi Neyl Ferguson o'zining «Pulning paydo bo'lishi, dunyoning moliyaviy tarixi» kitobida quyidagilarni alohida qayd etib o'tgan: "buyuk tarixiy voqealari ortida moliyaviy sirlar yotadi" va shuni tavsiya etadi moliya tarixi orqali tarixga qayta nazar tashlash mumkin. Shuning uchun ham soliqqa tortish moliya tarixining ajralmas qismidir. Ushbu fanning kelajagini belgilashda soliq shart sharoitlarini o'rganish orqali bu mashaqqatli yo'lidan o'tadi.¹

Bu yana shuni aniqlab beradiki, xususiy sektorda soliqqa tortish bo'yicha kim ishlasa turli professional tashkilotlarga, hisob institutlari, yuridik hamjamiyatlarga taaluqli bo'lishi mumkin va o'zlarini soliq konsultantlari, soliq amaliyotchilari, soliq advokatlari, soliq hisobchilari sifatida atashlari mumkin va turli kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lislari mumkin. Yana shuni unutmaslik kerakki, soliq mutaxassislari soliq idoralari uchun ishlaydilar va davlat xizmatchilari sifatida faoliyat yuritadilar yoinki jamiyat xizmatchilari maqomida buladilar.



1.1-rasm. Soliqning iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligi

¹ Jane Fracknall-Hughes. The Theory, Principles and Management of Taxation: An introduction, Routledge Taylor and Francis Group. 2017

Talabalarga soliq hisoblashda uchraydigan muammolarni yechish uchun juda ko'p foydali adabiyotlar mavjud, lekin ularning faqat oz qismigina soliqqa tortishning rivojlanish asoslarini belgilovchi tamoyillar va nazariyalarni to'liq yoritib beradi. Bu masalani yoritib beruvchi har qanday darslik qalin va og'ir bo'lishi talab etiladi. Asosiy maqsad talabalarni fan doirasida dastlabki ko'nikmalardan tortib to qiyin masalalarni hal qilishgacha jarayonda qatnashtirib, soliqqa tortish nazariyasi va tamoyillariga olib kirish, va buning natijasida bu sohadagi bilimlarini oshirish bilan ifodalanadi. Oddiy hisob kitoblarni amalga oshirishda soliqqa tortish nimaga kerak va u nimaga ishlataladi degan tushunchaga ega bo'lish shart emas. Lekin quyida beriladigan ma'lumotlar orqali talabalarda soliqqa tortishning nisbatan qiyin bo'lgan fan sohasi ekanligini isbotlaydi.

2-mavzu: Soliqlarning vujudga kelishi va rivojlanish tarixi

Reja:

- 1. Soliqqa tortish tarixining paydo bo'lishi.**
- 2. Soliqlarning paydo bo'lishi, ilk ko'rinishlari va rivojlanish bosqichlari (I-davr, II-davr, III-davr).**
- 3. Mamlakatimiz hududida soliqlarning paydo bo'lishi, o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanishi.**
- 4. Amir Temur va temuriylar davrida soliqlar, soliqqa tortishning xususiyatlari.**
- 5. Oktyabr inqilobigacha bo'lgan davrda soliqlar, soliqqa tortishning rivojlanishiga umumiy tavsif.**
- 6. Sobiq ittifoq davrida soliqlarga bo'lgan yondashuv.**

Tayanch so'z va iboralar: o'lpon, molujihot; tag'or, boj, qo'nalg'a, shilon puli, peshkash, o'lpon, juzya, xiroj, qishloq xo'jaligi solig'i, hunarmandchilik solig'i, mulk solig'i, renta soliqlari.

1. Soliqqa tortish tarixining paydo bo'lishi.

Soliq solishlar, soliq tarixida muhokamali obektlarning ko'pligiga qaramasdan, ularning hammasi ham ma'lum bo'limgan, ularning ko'pchiligi munozarali, har xil ko'rinishda, bo'lgan. Boshqaruvchilar va davlatlarning soliq daromadlariga muhtojligining sabablari berib o'tillgan. Lekin soliq to'lash har doim majburiy bo'lgan. Fransiya qiroli Lyudovik XIV ning moliya vaziri Jan – Batist Kolberom soliqning xususiyatlarini qisqa qilib ko'rsatib bergan: Soliqqa tortish san'ati xuddi o'rdakning patina yulishda kam sonli vishillash bilan ko'p miqdordagi patlarga ega bo'lishga o'xshaydi.

Soliq tarixida keng tarqalgan eng ko'p asosiy masalalar bular qabul qilingan adolatsiz soliqlarga qarshi isyon ko'tarish va qarshi kurashish bo'lgan. Bunday qarshiliklarning asosiy sabablaridan yana biri bu soliq yig'imlar, soliq yig'uvchilar va soliq darajalari bo'lgan. David Burgning "Butun dunyo soliq isyonlari tarixi" deb nomlangan kitobi juda ko'p davrlarda mamlakatlardagi soliqlarga qarshi g'alayonlarni qamrab olgan. U ko'plab tarixiy hodisalarini xususan: Amerikada Magna Karta revolutsiyasi va 1789-yilda Fransiyada Revolutsiya kabi soliqqa qarshi g'alayonlari o'tkazilgan. Bu g'alayonlar tez-tez bo'lib turgan va " iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va diniy muammolarni o'z ichiga olgan".²

Magna Karta qo'zg'alonida soliq muammolari muhim o'rinda bo'limgan. Magna Karta qo'zg'alonni tufayli o'z davri uchun muhim bo'lgan mamalakatni boshqarish qonuni ishlab chiqilgan va inson huquqlari haqidagi birinchi

² Jane Fracknall-Hughes. The Theory, Principles and Management of Taxation: An introduction, Routledge Taylor and Francis Group. 2017

konstitutsiyaviy hujjat hisolangan. Ko'plab Moliyaviy mojarolar sababli yuzaga kelgan Magna Karta qo'zg'oloni avjiga chiqqan vaqtida qirol Jon Angliya taxtiga o'tirgan. Qo'zg'lon qamrab olgan vaqtida Yevropada soliqlar o'zgara boshlagan. Xalqdan olinadigan daromad soliqlar va mol-mulklar yer egalari tomonidan boshqarilgan bu esa mamlakat uchun o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun yetarli bo'limgan va shuning uchun soliqlarni oshirishga majbur bo'ldi. Yer egalarining mulklari va savdodan tushgan pullari soliqlar bilan nazorat qilinmagan. Qirol Jon 1199-yilda tang ahvoldagi qirollikni meros qilib oladi. Qirol Jon tezlik bilan akasi Richardning o'rniga taxtga o'tiradi. Akasi Richard ham qasrdagi ishlarni boshqargan. 1204- yilda Jon Normandiyani Fransiyaga boy beradi. Shundan so'ng qirol Jon daromadlarni oshirish uchun bir soliqni ikki soliq turiga almashtiradi va bunda soliq turlari oshgan va ular tez-tez majburiy ravishda undirib olingan. Va buning oqibatida Qirol Jon Senterbur arxipeskopi Stephen Langton bilan kelishmay qoladi va papa Angliyani 6 yil qo'l ostida ushlab turdi. Tezda Qirol Jon Angliyadagi barcha cherkovlarning mol-mulkini qo'liga oldi lekin ko'p miqdordagi pul evaziga ularni almashdi.

Kelajak uchun soliqning asosiy mazmuni.

Manga Karta qo'zg'aloni Fransiya Revolutsiyasi bilan o'xhash, bunga ko'ra Lues XVI qirollikni inqiozli holatda meros qilib oladi. Yetti yillik urush va Fransuzlarning Amerika Mustaqillik urushiga jalb qilinishi Fransiyani inqirozga olib keladi. Revolutsianing bo'lishiga bundan boshqa ko'plab sabablar bor edi : eski tuzumning qiyinchiliklari, jamiyatdagi tengsizlik, burjuaziyaning oddiy xalq ustidan asossiz shikoyatlari va soliq to'lovlari kabilar. Faqtgina Cherkovlar emas, hattoki ba'zi zodagonlar ham to'g'ri soliqlarni to'lamaganlar. Soliqlarni yig'ib beruvchilar uzoq vaqt o'zlarining feodal yerlarini qo'lida saqlab qolganlar. O'n yettinchi asrning oxiriga kelib to'g'ri soliqlar zodagonlikning belgisi sifatida namoyon bo'lgan. Agarda kimning puli bo'lsa va ular soliqlarni to'lashga qurbi yetsa ular kam soliq to'laganlar. O'zi uchun imtiyozlarni sotib olish juda ham oson bo'lgan biron bir boy inson uchun. Soliq to'lay olmaydigan o'rtaida nomutanosibliklar bo'lgan.

Amerika Mustaqillik Urushida Amerika kolonistlarinig Britaniya Parlamentining soliq to'g'risida chiqqan qarorlariga qarshi g'azabi asta-sekinlik bilan kuchayib bordi. Soliqlarning ko'p qismi askarlar uchun, himoya uchun sarflangan va Yetti Yillik Urushda ko'payib ketgan Britaniya hukumatining qarzlarini to'lashda sarflangan. Amerika koloniyalari o'zlarining moliyaviy qiyinchiliklari haqida ayta olishi uchun parlament a'zolarini saylashda ishtirok eta olmagan. Bu esa odamlarga yomon ta'sir ko'rsatgan shuning uchun ular "tushuntirib berilmagan soliq bizga kerakmas" deb norozilik bildirishgan. Noroziliklarning bir nechta asosiy sabablari bor, Amerika kolloniyalari uchun bir nechta qarorlarlar rejalshtirilgan, masalan 1733-yildagi molesas solig' va 1764-yildagi Shakar soliqlaridir. Bu soliqlar Stamp qaroriga ko'ra plantatsiyalardan olingan. Bu qarorga ko'ra koloniyalardan shtamplangan qog'ozlardan fodalanish talab qilingan. Bu shtamplangan qog'ozlar Londondan sotib olingan va soliqlar

Britaniya pulida to’langan. 1766-yilda bu soliqlar bekor qilinadi. Eng muhim soliq bo’lgan choy solig’i joriy etiladi.

Soliq tarixida ko’plab turli soliqlar turli yo’llar bilan rivojlanib borgan va turli soliqlar qabul qilingan va bu hukumat zukkoligi va hukmdorlarning aholi soliqlarini oshirishi natijasida sodir bo’lgan. Jamiyat rivojlanishi bilan soliq tizimi ham rivojlanib brogan, masalan hisobni yuritish, bug’galteriya yozuvlari va daromadlarni hisoblay boshlanishi natijasida. Ko’plab soliqlar esa faqat o’z davridagina qo’llangan hozirda esa is’temoldan chiqqan, bunga sabab jamiyat rivojlanishidir. Biz buni qiroq John davridagi “harbiy” soliq misolida ham ko’rshimiz mumkin. Bu soliq yirik yer egalari tomonidan urush vaqtida qiroq armiyasiga ritser yuborish tarzida amalga oshirilgan. Asta sekin bu soliq pul ko’rinishiga o’tgan va qiroq pullarni yollanma ishchilar yollashga sarflagan. Bu kabi xizmatlarni pul ko’rinishda o’lchash uchun puldan foydalanishdan avval bu kabi o’zgarishni iloji bo’lmagan. Ammo puldan foydalanish keng tarqalishiga qaramasdan hamma ham unga ega bo’lmagan va soliqlarni boshqa yo’llar bilan to’lagan.

Vaqt o’tgan sari ko’plab soliqlar paydo bo’la boshlagan masalan vino uchun soliq export tavarlar uchun soliq(tunnage, poundage) , chorva hayvonlari uchun, xom ashyo materiallari, ishlab chiqarish tavarlari uchun, spirtli ichimliklar uchun soliqlar mavjud bo’lgan. Bundan tashqari yerdan , o’choqdan, oynalar, shishalar, butulkalar, shamlar, charm, o’yin kartalari, kristallar, sovun, qog’oz, kraxmal, meditsina vositalari, metal qoplamlar, temir, g’isht , kafel, shlyapa, qo’lqop, yog’och, xizmatkorlar hatto qushlarga ham soliq solingan.

Yana bir soliq solish muqarrar oqibatlari biri hisoblash vositasi bo’lishi kerak, ishonchli tizimlari bo’lishi kerak va jarayonlariga ega bo’lishi kerak soliq to’plash va uni boshqarish uchun, yani soliq rasmiyatshiliklari. soliq tarixi asosiy mavzusi ham mamlakat fuqarolar xizmatining moliyaviy elementining rivojlanishidir.

Bu mavzuda soliq tarixi asosida ko’plab mavzular bayon qilingan , ularning hammasi soliqning asosiy kamchiliklari berilgan. Bu yerda bu fanning to’liq adolatli emasligini ko’rsatish emas aksincha foydalanuvchiga qiziqroq malumotlar berishdir. Soliqning tarixiy qismi juda muhimdir. Chunki har bir mamlakatning yillar davomida shakllanib rivojlanib kelgan o’z soliq tizimi mavjud va bu rivojlanishlarga nazar solish orqali biz qaysi soliq turi samaraliroq qaysi biri esa foydasiz ekanligi haqida aniq fikrga ega bo’lishimiz mumkin.

2.Soliqlarning paydo bo’lishi, ilk ko’rinishlari va rivojlanish bosqichlari (I davr, II davr, III davr).

Soliqlarning paydo bo’lishi va rivojlanishi davlat moliyasining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida soliq to’lovchilar mol-mulkining bir qismini majburiy ko’rinishda davlat xazinasiga o’zlashtirilishi sifatida undirish uzoq davrga borib taqaladi. Soliqlarning qachon paydo bo’lganligi haqida hech qanday aniq ma’lumot tarixiy kitoblarda uchramasada, lekin soliqlarning ilk ko’rinishi sifatida

qurbanlik qilingan noz-ne'matlar e'tirof etiladi. Buning xususiyati shundan iboratki, u majburiy bo'lmay ixtiyoriy tarzda amalga oshirilgandir. Qilingan qurbanliklar esa, kambag'allarga, nochorlarga, etimlarga, muhtojlarga ulashib berilgan.

Keyinchalik joriy etilgan soliqlar esa, bevosita qabila hamda urug'lar o'rtasida davom etib turgan urush-janjallarga bog'liqdir. Bunday soliqlar natura shaklida bo'lib, bir qabilani bosib olish yoki o'zini muhofaza qilish uchun safarbar etilgan.

Soliqlar tarixda inson tsivilizatsiyasi bilan birga rivojlanib, uning ajralmas qismi hisoblanadi. Soliqlarning iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'ringa chiqishiga avvalambor davlatning shakllanishi, jamoalarning sinflarga bo'linishi, qadimgi ijtimoiy tuzumning vujudga kelishi, hamda ularning ma'lum moliyaviy manbaga ehtiyoj sezishlari sabab bo'lgan.

Ingliz iqtisodchisi S. Parkinson so'zi bilan aytganda: "Soliqlar ko'hnadir – xuddi dunyodek, uning yuzaga kelishida qachondir bir mahalliy qo'mondan o'z hududida joylashgan daryo yoki tog'dan savdogar hamda sayohatchi o'tsa, ulardan haq olishi sabab bo'lgan"³.

Soliqlar paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayonida ularning shakllari ham o'zgarib kelmoqda. Agarda bugungi kunga kelib soliqlar asosan pul shaklida undirilayotgan bo'lsa, ular qadimda bir qancha ko'rinishlarda, jumladan, mehnat shaklida, natura shaklida undirilgan. Shu bilan birgalikda jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti yuksalishiga mos ravishda soliqlarning pulli shaklda undirilishi ham tobora rivojlanib bordi.

V.Pushkaryova soliqlar rivojlanish tarixini 3 bosqichga ajratib ko'rsatadi⁴. Ularning har biri u yoki bu xususiyatlari hamda afzalliklari bilan ajralib turadi.

Birinchi bosqichda soliqlarning rivojlanishi qadimgi va o'rtalasrlar qishloq xo'jaligi tizimiga xos bo'lib, tartibsiz hamda asossizligi bilan ajralib turadi. Xuddi, shu davrda soliq mexanizmi undirilishi joriy etildi.

Soliqlarning joriy etilishi davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ularning amal qilishiga davlat apparatining shakllanishi, armiya, sud va ularning moliyaviy manbalar bilan ta'minlash zaruriyati, tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilishi kabi omillar sabab bo'lgan.

Ilk soliqlar tizimsiz to'lovlar ko'rinishida bo'lib, ular natura shakliga ega bo'lgan. Aholi soliqlarni ekinlar hosilden, savdo-sotiqdan hamda ovlagan hayvonlaridan to'laganlar. Urush vaqtida esa, qo'shimcha oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-aslahalar etkazish, nochor bo'lsa askar sifatida qo'shimcha jalg etilgan. Rim imperiyasi hamda Afinada tinch-totuv paytlarda soliq olinmagan. Soliqlarni joriy etish va undirish faqat urush davrlariga to'g'ri kelgan.

Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi va mustahkamlanishi soliqlarning hozirgidek pul ko'rinishiga kelishiga olib keldi. Oldin soliqlar, asosan, chegara va

³ Parkinson S. Zakon i doxodi. - M.: PKK "Interkontakt", 1992. - S.14-15.

⁴ Pushkareva V. Istorya finansovoy misli i politiki nalogov. Uchebnoe posobie. - M.: Infra-M, 1996. - S.17.

qo'shin ehtiyojlariga, shahar atrofini mustahkamlashga, yo'l va ibodatxona qurilishlariga yig'ilgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan soliqlar davlat xazinasi daromadining birinchi galdeg'i manbai bo'lib qoldi.

Hozirgi davr soliq tizimiga mohiyatan o'xshash ilk soliq tizimi qadimgi Rimda shakllangan. Bu soliqlar faqat urush xarajatlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lган. Rim aholisi o'zining mol-mulki, turmush darajasi hamda oilaviy ahvoldidan kelib chiqqan holda, soliq to'lashgan. Soliq summalari maxsus shaxslar tomonidan hisob kitob qilingan.

Rimda davlat tashkilotlarining rivojlanishi bevosita imperator Oktavian Avgustin (er.av. 63-14 yillar) tomonidan soliq islohotini amalga oshirishga, oqibatda esa, ilk pul soliqlari joriy bo'lishiga olib keldi. Soliqlarni joriy etish va uni nazorati bilan shug'ullanuvchi moliyaviy muassasa shakllandi. Er solig'i davlat soliqlarining asosiy ulushini tashkil etgan. Shu qatori ko'chmas mulkdan, baliqlardan, chorva va boshqa mollardan soliqlar undirilgan. To'g'ri soliqlardan tashqari egri soliqlar ham bo'lган. Masalan, oborot solig'i 1 %, qullar savdosidan oborot solig'i 4 % va boshqalar. Bu davrga kelib soliqlar nafaqat fiskal, balki u yoki bu iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha tartibga soluvchilik vazifasini ham bajara boshlagan.

Ammo XVII asrgacha Evropada soliqlar tartibsiz undirilganligi uchun yagona tizimga ega bo'lмаган. Ularning taqdiri urush natijalariga bog'liq bo'lib, goh kamayib, goh ko'payib ketar, natijada aholining tinka-porasini quritgan edi. Faqatgina XVII asr oxiri XVIII asr boshlariga kelib soliqlar rivojlanishining ikkinchi bosqichi boshlanadi.

Ikkinci bosqichning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda soliqlar davlat byudjetini shakllantirishning asosiy manbasi sifatida ko'rilib. Soliq ob'ektlarini aniqlash va soliqqa tortish qonun qoidalarini tartibga soluvchi ilk soliq tizimi yuzaga kelgan. To'g'ri va egri soliqlar ilk bor ajratilib, bu soliqlarning muhim va ahamiyatli jihatlari ochib berilgan. Soliqlar ichida asosiy o'rinni aktsizlar egallagan. Bular qonuniy ravishda shahar darvozalarida mamlakatga kiritiluvchi yoki undan chiqariluvchi tovarlardan undirilib, hamma daromadlar va tushumlar soliqqa tortilgan.

Evropa mamlakatlarida demokratianing rivojlanishi natijasida soliqlarni hisoblash va undirish borasida aholining haq-huquqlarini himoya qilish masalalari o'rta ga tashlandi. Natijada 1689 yil Angliyada «Bill huquqlari» kitobida qat'ian xalq vakillari organlariga davlat daromadlari hamda xarajatlari to'g'risida ma'lumot berishi belgilandi.

Frantsiyada faqatgina 1791 yil «Ulug' Frantsuz revolyutsiyasi» dan keyin davlat byudjeti va soliqlari haqida ma'lumot berila boshlandi.

Soliqqa tortish tizimi rivojlanishi bilan bir qatorda soliqqa tortish nazariyasi ham asta-sekin takomillashib bordi. Soliqqa tortish nazariyasining ilk asoschisi shotlandiyalik iqtisodchi Adam Smitdir (1723-1790). U o'zining "Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari" nomli kitobida (1776) ilk bor soliq tamoyillarini asoslab berdi, soliqlarning davlat moliyasi tizimidagi ahamiyatini

soliq to'lovchilarga tushuntirib, ularni davlatga to'lash qullik emas, balki erkinlik alomati ekanligini asoslab berdi.

Uchinchi bosqichning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda soliqlarning kamayishi hamda soliqlarni o'rnatish va undirishga oid qonun-hujjalarning kuchayishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Jamiyatda moliya ilmining rivojlanishi bilan soliqqa tortish muammolari va uslubiyatlariga bag'ishlangan yangi-yangi ilmiy-nazariy qarashlar vujudga keldi. Ammo hech qanday iqtisodiy maktab soliqlarning fiskal funktsiyasidan muhimroq qarashni ilgari sura olmadi. XIX asrning ikkinchi yarmida ko'p mamlakatlar yangi ilmiy nazariyalarni hayotga tatbiq etishga uringanlar, lekin faqatgina birinchi jahon urushidan so'ng yangi ilmiy qarashlarning samarasi o'laroq soliq tamoyillari hozirgi mukammal ko'rinishga ega bo'lган. Ayni shu vaqtida zamonaviy soliq tizimining poydevori qurila boshlandi, to'g'ri soliqlarning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi hamda byudjet daromadlari ulushining katta qismini to'ldiruvchi jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqlarni progressiv stavkalari joriy etildi. Shu bilan birga tan olish lozimki, shu vaqtgacha biror bir davlatda mukammal soliq tizimi amal qilmaydi. Hozirgacha iqtisodiyot ilmi soliqqa oid ko'pdan-ko'p savollarga javob topa olmayapti. Ammo rivojlangan mamlakatlarda doimo amalga oshiriladigan islohotlar shundan dalolat beradiki, barcha hatti-harakatlar soliqlarningadolatli, teng taqsimlangan hamda aholini ijtimoiy muhofaza qilish kabi unsurlarning rivojlanishiga katta ahamiyat berilgan.

3. Mamlakatimiz hududida soliqlarning paydo bo'lishi, o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanishi.

Mamlakatimiz tarixida miloddan oldingi va miloddan keyingi davrlarda hukmronlik qilgan davlatlarda, davlat boshliqlarining oliy maqsadlari o'z xazinasini tinmay to'ldirib borish, keyingi avlodlariga 2-3 barobar ortiq boylik qoldirish bo'lган. Yig'ilgan xazinalarning eng ko'p qismi unumsiz tadbirdarga tartibsiz sarflanib, hatto isrof bo'lganligi ayon. Miloddan oldingi birinchi ming yillikning boshlaridayoq Markaziy Osiyo hududlarida ko'chmanchilik sharoitida, o'zları uchun qulay joy izlab yurgan ko'plab urug' va qabilalar, yer maydonlari, suv, o'tloqlarni egallash maqsadida kurashib kelganlar, ayrim hollarda esa, o'zlaridan kuchliroq, yirik qabilalarga yer solig'i, ya'ni o'lpon to'lab turganlar.

Tarixiy manbalar podshoh xazinasining dastlabki asosiy manbai sovg'a-salom bo'lganligidan dalolat beradi. Lekin Doro hukmronligi davriga kelganda soliqlar joriy qilinadi. "Doroni Forslar savdogar deyishlariga sabab, u birinchi bo'lib soliqlarni joriy etganligidadir" deb yozgan edi Gerodot. Doro soliq tizimini faqat o'z mamlakatida emas, balki zo'rlik bilan qaram qilib olgan mamlakatlarga ham joriy etdi. Soliq miqdori satin pul birligi talant hisobida aniqlangan. Ahamoniylar hukmronligi davrida Markaziy Osiyoda yashovchi qabilalardan soliqlar salkam ikki asr mobaynida yillik xiroj va harbiy otryadlar etkazib berish shaklida undirilgan. Bu davrda soliq turlari ham har xil bo'lган. Masalan, sak va kasbiylar kabi qabilalar 250 talant (1 talant 25 kg. 248 gr. Sof oltinga teng bo'lган), ya'ni

6312 kg. miqdorida, parfiyaliklar, xorazmiylar, so'g'dlar va oriylar 300 talant, ya'ni 7575,4 kg. miqdorida xiroj to'lashgan. Qat'iy belgilangan xirojlardan tashqari har xil sabablarni ro'kach qilib qo'shimcha soliqlar ham joriy etilar va ular suv yo'lini to'sib qo'yish yoki boshqa xil zo'ravonlik kabi tahdidlar orqali undirib olinar edi.

Erondagi qadimgi Persapol shahridan topilgan uzoq ajdodlarimiz - baqtriyaliklar, xorazmliklar, so'g'dlar va saklar tasvirlagan rasmlarda, saklar kiyim-kechak, baqtriyaliklar tuya va idishlar, xorazmliklar dudama xanjar, jangavor bolta, bilakuzuk va otni shohga olib borayotgan manzara chizilgan. So'g'd bitiklariga ko'ra O'rta Osiyoga mashhur otlar, oltin, firuza va qimmatbaho toshlar olib kelingan.

Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyon bosib olib, uni o'z sultanati tarkibiga kiritgach, bu erda istiqomat qiluvchilar soliqlarni yunonlar tamoyili bo'yicha to'lay boshlaganlar. Yunonistonda soliqqa tortish Markaziy Osiyodagidan farq qilib, soliqlar daromad solig'i va ehsonlardan iborat bo'lgan. Daromad solig'i daromadning o'ndan yoki yigirmadan biri miqdorida undirilgan va jamoat manfaatlarini himoya qilish maqsadlari yo'lida ishlatilgan. Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyoda asosan Ahamoniylar barpo etgan davlat apparati tuzilmasini saqlab, mahalliy zadagonlar tarkibidan satraplar hokimiyatini tuzgan. Maxsus soliq xizmati joriy qilmagan, soliq undirish vazifasi muayyan kishi zimmasiga yuklatilgan. Ular esa soliq to'lovchilardan xazina bilan tuzilgan shartnomada belgilangandan ko'ra ko'proq soliqlar yig'ib, o'z manfaatlari uchun ham qo'shimcha mablag'lar to'plab olishgan.

Eramizdan oldingi 140 yilda Yunon-Makedon mamlakati barham topdi. I asrning oxiridan boshlab to hozirgi eramizning IV asr o'rtalarigacha Markaziy Osiyoda Kushon podsholigi hukmronlik qildi. Bu davrda soliqlarni hisoblash va undirish tartibi haqida etarli ma'lumot bo'lmasa ham, lekin ayrim arxeologik topilmalar, soliqlar oltin bilan hisoblanishini, undagi hujjatlar soliqlarni qabul qiluvchi xazinabon lavozimi bo'lganligidan darak beradi. Surxondaryoning Denov shahriga yaqin Dalverzintepa qishlog'idan topilgan Kushon davlati davrida bunyod etilgan saroy qoldiqlari orasidan 40 kg dan ortiq oltin joylashtirilgan xum topilgan. Ashxobod yaqinidan topilgan bitiklar, yozuvlar esa soliq to'lash bo'yicha katta devon bo'lganligidan darak beradi. Bu hujjatlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, soliq yig'ish va mahsulotlarni asrashga ko'pdan-ko'p amaldorlar jalg qilingan.

IV-VI asrlardagi turkiy qavmlar tarixiga oid qadimgi manbalarda qabilalar, urug'lar o'rtasida sodir bo'lgan to'qnashuvlarda mag'lubiyatga uchragan tomon aholisi yangi hukmdorlariga mavjud yer yoki chorvalari uchun soliqlar to'lab turganligi, dehqonchilik yoki chorvachilik bilan shug'ullanish imkonini bo'limgan joylarda esa soliq o'rniga belgilangan miqdorda konlardan ma'danlar qazib bergenliklari kabilar haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Arablar istilosigacha Markaziy Osiyoda shakllangan soliqlar tizimining xususiyati shundan iboratki, bu davrda quldarlik va feodal davlat boshqaruvinining o'ziga xos belgilari birlashib ketgan, hatto ayrim hollarda zadagonlar lashkar

boshilarga maosh to'lamasdan, uning o'rniga ikkitoy tizimi joriy qilingan. Soliqlarni undirishda mahalliy oqsoqollar bilan birga soliq undirishni ijara usuli ham qo'llanilgan. Soliqlar ko'pchilik hollarda tumanlar bo'yicha belgilanib, to'lovchilarning xususiyatlari e'tiborga olinmagan.

651 yildan boshlab mamlakatimiz hududida arablar hukmronligi o'rnatildi. Soliqqa tortish tizimi bir mucha murakablashdi va soliqlarning turli xillari paydo bo'ldi. Masalan, xayr-ehson ehtiyojlari uchun soliq - zakot (mol-mulkdan 2,5 foiz miqdorida) ijtimoiy keskinlikni yumshatish uchun mo'ljallangan, kambag'allar, etimlar va yo'lovchilarga xayr-ehson berishda foydalanilgan.

Bundan tashqari, quyidagi soliqlar mavjud edi, vazifa - o'lpon, juzya - jon solig'i, xiroj - yer solig'i.

Xiroj quyidagi shakllarda undirilgan:

Misaha - ishlov beriladigan maydon birligidan qat'iy stavkalarda;

Muqota - qat'iy belgilangan summada;

Muqosama - hosilning muayyan ulushida (1/3 qismi).

Xiroj Navro'z bayrami arafasida yig'ib olingan. Juzyani musulmon bo'limgan fuqarolar (ozod erkaklar) to'laganlar. Xotin-qizlar, keksalar, kambag'allar va qullar bu soliqni to'lashdan ozod qilingan. Juzyani hisoblashda o'ziga to'qlik darajasi hisobga olingan va soliq pul yoki natura shaklida undirilgan. Yuqoridagi soliqlardan tashqari chorvadorlardan, hunarmandlardan va savdogarlardan soliqlar olingan.

Arablar hukmronlik qilgan davr soliq siyosatida ancha muvaffaqiyatlarga erishilgan bo'lsada, ammo ba'zi kamchiliklar ham mavjud bo'lган. Xususan, Noib Ashras olib borgan soliq siyosatida, qisqa vaqt ichida ikki qarama-qarshi yo'l tutilgan. Oldiniga musulmonlar juzya va xirojdan ozod etilgan. Ammo ko'p vaqt o'tmay xazinaga tushumlarning keskin qisqarib ketishi bu farmonni bekor qilishga majbur etgan. Oqibatda So'g'd va Buxoroda norozichilik kuchayib, u qo'zg'olonga aylangan. Ashrasning muvaffaqiyatsiz soliq siyosati tufayli arablarga qarshi qudratli harakat avj olib, Movaraunnaxrning tez orada arablar ixtiyoridan chiqishi bilan yakunlandi.

Ikki asrdan ko'proq hukmronlik qilgan arablar sultanati tugab, Somoniylar (869-1005 yillar) hukmronligi o'rnatilgach, ular davlatida o'nta devon tashkil etildi. Devonlardan uchtasi Devoni mustavfiy (kirim-chiqim ishlarini boshqargan) va Devoni muhtasib (bozorda toshu-tarozi, narx-navo va musulmonlar tomonidan shariat qoidalari bajarilishi ustidan nazorat qilgan), Devoni mushrif (davlat ishlari, xususan kirim-chiqim ishlarini yuritgan hamda soliqlarni ham nazorat qilgan).

Movaraunnaxrda IX-X asrlarda erlarni soliqqa tortish ular kimga tegishli ekanligiga bog'liq edi. Erlar uch toifaga bo'lingan:

Birinchi toifa yerlar - sultonga tegishli bo'lib (mulki sultoniy), bunday yerustidan nazorat keyinchalik «Mulki devoni» deb nomlangan devon (mahkama) amaldorlari tomonidan amalga oshirilib, ushbu toifadagi yerlar haddan tashqari ko'p edi. Bunday yerlarga asosan dehqonlar yerlari kirgan.

Ikkinci toifa - yerlar shaxsan hukmron sulolaning ayrim a'zolari, qadimiy dehqon zadagonlar, shunchaki boy dehqonlarga, sayyidlar (Muhammad

payg‘ambar xonadoni avlodlari), ayrim ruhoniylar, turk gvardiyasining ayrim rahbarlari, savdogarlarga tegishli bo’lgan xususiy mulk yerlar.

Uchinchi toifa yerlar - musulmon diniy muassasalariga, ya’ni masjid, madrasa, xonaqoh maqbaralarga vaqtincha yoki umrbod foydalanish uchun berilgan vaqf yerlar.

Xiroj uchala toifa yerlaridan ham olingan bo’lib, ular «mulki xiroj» deb atalgan, lekin bunda oliy musulmon ruhoniylarga, avvalo sayyidlarga tegishli yerlar soliqqa tortishdan to’liq yoki qisman ozod qilingan.

X asr boshlarida Movaraunnaxrni Qaraxoniylar egalladi, ya’ni dariyzabon sulolasi o’rnini turkiyzabon sulolasi egallagach, markazlashtirilgan davlat o’rniga mamlakatni boshqarishning ulus tizimi o’rnatilib, barcha yer xon mulki hisoblangan, dehqonchilik yeregaligi instituti sifatida tarix sahnasidan tushishiga sabab bo’ldi. Bu davrda “iqta” soliq yig‘ishning asosiy manbaiga aylangan. “Iqtadorlar” o’z navbatida dehqonlarning oddiy jamoatchiga aylanishiga zamin yaratdi. Yerlar muayyan muddatga “Iqtadorlar” foydasiga muayyan daromadni to’liq yoki qisman olish huquqi bailan sovg‘a qilingan. “Iqta” sohiblari dehqonlardan maxsus qaror bilan belgilangan soliqlarnigina olishi mumkin edi. “Iqta”ga nafaqat yerdan, balki soliqqa tortishning boshqa ob’ektlaridan (tegirmon, hammom, bozordagi do’konlar) olinadigan soliqlar va daromadlar ham berilishi lozim edi.

1221 yilda O’rta Osiyoda mo’g‘ullar hokimiysi o’rnatildi. Bu hududlarda soliq siyosatini olib borish maqsadida ular tomonidan qurultoyda taklif etilgan tadbirilar hayotga tatbiq etila boshlandi va Mahmud Yalavoch boshchiligidida o’lkadagi xalqlardan turli xildagi soliqlarni undirar edilar. “Kalon” solig‘i dehqonlardan yig‘iladigan asosiy soliq bo’lib, u hosilning o’ndan bir qismini tashkil etgan. Chorvadorlardan “ko’pchur” solig‘i olingan bo’lib, uning miqdori har yuz bosh qoramoldan birga teng edi. Bundan tashqari “Yaso” qonuni bo’yicha aholidan davlat foydasiga “shulsi” deb atalgan soliq undirilgan. Ushbu soliq turining miqdori har bir otardan ikki yashar qo’y va har ming otdan bir biyani (qimiz uchun) tashkil etgan. Shuningdek, mamlakatdagi savdo yo’llarida joylashgan bekat – “yom” (jom) larning xarajatlari ham aholi zimmasiga yuklatilib, ularning miqdori shu darajada ko’payib ketar ediki, ba’zi hollarda har bir “yom” uchun 20 ot-ulov, so’yish uchun qo’ylar, sog‘ish uchun sog‘uvchisi bilan biyalar, aravalor va boshqa sarf-xarajatlar ajratilgan.

Mo’g‘ullar istilosi davrida dehqonlar va hunarmandlarning ahvoli yil sayin yomonlashib bordi, chunki yersolig‘ini to’lashdan tashqari dehqonlar turli xil majburiyatlar va xizmatlarni bajarishardi. Hunarmandlar, ayniqsa, quroq tayyorlab berish kabi majburiyatlarni olgan edi. Feodal va zadogonlarga xonzoda va xon xotinlari yorliq hamda payzalar tarqatgan, bu unvonlar dehqon va hunarmandlardan turli xizmat hamda majburiyatlarni bajarishni talab qilish huquqini bergen. Payza ko’rsatilganda mahalliy aholi, masalan sayohat qiluvchini ovqatlantirishi va unga xona, otiga em berishi va boshqa qulayliklar yaratishi shart edi.

Yil sayin aholining yashash sharoiti og'irlashib borishi mamlakatning ko'p joylarida qo'zg'olonlar ko'tarilishiga sabab bo'lди. Bu qo'zg'olonlar zudlik bilan bostirilgan bo'lsada, lekin mo'g'ul hukmdori Munnexon Movaraunnaxrda soliq to'lovchilar amalga oshirayotgan tartibsizliklar va suistemolliklarga tegishli farmon chiqardi. Unga ko'ra boy kishi 10 dinor, kambag'allar esa 1 dinor to'laydigan bo'lди. Chorva solig'i 100 tuyoqdan bir bosh olinishi belgilandi. Musulmon, xristian va butparastlar ruhoniylari, shuningdek, keksa va ishlashga noqobil kishilar soliq to'lamaydigan bo'lдilar.

Soliq yig'ishga mas'ul etilgan Mahmud Yalovoch qo'zg'olondan so'ng o'z lavozimidan bo'shatildi va Movaraunnaxrdan haydab yuborildi. Soliq yig'uvchi va noib etib uning o'g'li Mas'udbek tayinlanib, u bu lavozimda 51 yil xizmat qildi. U mo'g'ullarga o'lpon va soliqlarni o'z vaqtida to'lab turdi. Natijada mo'g'ullar Movaraunnaxrni boshqarish ishiga aralashmaganlar. Bunday holat Amir Temur hokimiyatini o'rnatilguncha davom etdi.

4. Amir Temur va temuriylar davrida soliqlar, soliqqa tortishning xususiyatlari.

Amir Temur insoniyat tarixida yirik davlat arbobi va o'rta asrning engilmas, betakror lashkarboshisi sifatida Markaziy Osiyo hududida yirik saltanat barpo qilib, o'z saltanati tarkibiga hozirgi 27 ta davlatni birlashtirdi. U hamisha o'z davlat tizimini takomillashtirib borishni o'ylar, mo'g'ullardan farqli o'laroq, boshqa o'lkalarni zabit etishnigina emas, balki aksincha, u yerlarni idora qilish to'g'risida ham qayg'urar edi.

Shu bilan birgalikda davlatni adolatli idora etishda soliq siyosatining o'rni beqiyos ekanligini yaxshi tushunar edi. Amir Temurning soliqlar masalasi bilan jiddiy shug'ullanganligini isbotlaydigan qator dalillar bor.

Amir Temur soliq siyosatining asosiy yo'naliishlari uning farzandlariga siyosiy vasiyati bo'lmish "Temur tuzuklari" da ifodalangan: "Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solib qo'yishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish (davlat) xazinasining kambag'allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi".⁵

Soliqlarni hisoblash qoidalari ham ishlab chiqilgan: "Yana amr qildimki, xirojni ekindan olingan hosilga va arning unumdarligiga qarab yig'sinlar. Chunonchi, doim uzlusiz ravishda koriz, buloq va daryo suvi bilan sug'oriladigan ekin yerlarini hisobga olsinlar va unday yerdan olinadigan hosildan ikki hissasini raiyatga, bir hissasini oliy sarkorlik (saltanat xazinasi) uchun olsinlar. Lalmikor yerlarni esa, jariblarga bo'lsinlar, hisobga olingan bu yerdan (soliq olishda) uchdan bir va to'rtdan bir qoidasiga amal qilsinlar".⁶ Ushbu jumlalardan ko'rishimiz mumkinki, soliq yerning lalmikor va sug'oriladigan qismlaridan

⁵ «Temur tuzuklari». Toshkent «Cho'lpon», 1991 y. 98 bet.

⁶ «Temur tuzuklari». Toshkent «Cho'lpon», 1991 y. 99 bet.

alohida-alohida tartibda undirilgan. Bundan tashqari yangi yerlar o'zlashtirishni rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari ham belgilangan: "Yana amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa, yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'kartirsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olinmasin, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchunchi yili esa olik-soliq qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig'ilsin"⁷.

Mahsulot tarzidagi soliqni soliq puli bilan almashtirib turish mumkin bo'lган: "Agar raiyat ro'yxatga olingan yerlaridan beriladigan soliqni naqd aqcha bilan to'lashga rozi bo'lsa, naqd aqcha miqdorini sarkorning hisoblangan g'allaning mazkur davridagi narxiga muvofiq belgilasinlar"⁸. Amir Temur olib borgan soliq siyosatining muhim xususiyatlari sifatida shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, u tomonidan zabit etilgan o'lkalarga nisbatan alohida soliq siyosati yuritilan. "Agar yerlik fuqaro azaldan berib kelgan xiroj miqdoriga rozi bo'lsa, ularning roziligi bilan ish ko'rsinlar, aks holda (xirojni) tuzukka muvofiq yig'sinlar"⁹.

Amir Temur farmoyishiga binoan soliq undirish ishlari rahm-shavqatga asoslangan bo'lishi lozim: "Amr qildimki, hosil pishib etilmasan burun raiyatdan molu jihat olinmasin. Hosil etilgach, hosilni uch bo'lib olsinlar. Agar raiyat soliq to'lovchi yubormasdan, soliqni o'zi keltirib bersa. U holda u yerga soliq to'plovchi yubormasinlar. Agarda oliq-soliq oluvchini yuborishga majbur bo'lsalar, ular soliqlarni buyruq berish va yaxshi so'z bilan olsinlar, kaltak, arqon ishlatish, ishni urish-so'kishgacha olib bormasinlar. Ularni band etib, zanjir bilan kishanlamasinlar. Yana buyurdimki, xirojni raiyatdan kaltaklash va savalash yo'li bilan emas, balki ogohlantirish, qo'rqtish va tushuntirish yo'li bilan undirsinlar. Qaysi hokim hukmining ta'siri cho'p va kaltaklash ta'siridan kamroq bo'lsa, unday hokim hukumat yurgizishga yaroqsizdur"¹⁰.

Ma'lumki, Amir Temurgacha soliq to'lovchilarning ish haqi soliq to'lovchilar hisobiga bo'lib, ular qonunda ko'zda tutilmagan soliqlarni undirishga ham harakat qilar edilar. Amir Temur soliq undiruvchilarga xalqning ustiga yuk bo'lmasligi uchun ularga maosh tayinladi.

Amir Temur davrida mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi muhim ahamiyatga ega hisoblangan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini asosan yer egalari bo'lган dehqonlar va yerga ishlov beruvchi ijarchilar amalga oshirganlar. Bu davrda asosan dehqonchilik bilan bog'liq bo'lган xiroj va ushr soliqlari amal qilgan. Bundan tashqari mamlakatda bog'dorchilik va chorvachilik rivojlanishi uchun mol sardaraxt, mol o'tloq, mol suvoq, mirobona soliqlari ham amal qilgan. Yer solig'i etishtirilgan hosilga va yerning sifatiga qarab hosilning 1/10 dan (ushr) to 1/3 qismigacha miqdorida olingan. Savdogarlar va hunarmandlar tamg'a yoki zakot to'lashgan, chegaradan o'tgan mollar hisobidan ham boj olingan. Bu soliqlar davlat xazinasining asosiy manbai hisoblangan.

⁷ «Temur tuzuklari». Toshkent «Cho'lpon», 1991 y. 99 bet.

⁸ «Temur tuzuklari». Toshkent «Cho'lpon», 1991 y. 98 bet.

⁹ «Temur tuzuklari». Toshkent «Cho'lpon», 1991 y. 98 bet.

¹⁰ «Temur tuzuklari». Toshkent «Cho'lpon», 1991 y. 72 bet.

Yuqoridagi soliqlardan tashqari favqulodda soliqlar ham amal qilgan bo'lib, ularga: molujihot - yer solig'inining bir turi; tag'or - oziq-ovqatlarni rekviziyaga qilishda qo'llanadigan natura solig'i; ixrojot - saroylarga qarash uchun maxsus yig'im; boj - savdogarlardan chegarani kesib o'tishda undiriladigan bojxona solig'i; sarmushar - jon solig'i; xonamushar - har bir xonadondan olinadigan yig'im; qo'nalg'a - elchi, amaldorlar, choprarlarni bepul qabul qilish va mehmon qilish yig'imi; shilon puli – noiblarni ziyofat qilish yig'imi; peshkash - yuqori mansabdagi amaldorlarga sovg'a berish uchun yig'implarni kiritish mumkin.

Amir Temurning o'zbek davlatchiligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan katta xizmatlaridan biri davlat boshqaruv tizimining mumtoz namunalarini qayta tiklash bilan chegaralanmasdan, zamon talablarini ko'zda tutib, yangi usullarni joriy qilishidir. Uning strategiyasida insonparvarlikka asoslangan mukammal jamiyat qurish g'oyasi markaziy o'rinni tutadi. Ungacha xazinani idora qilish nafaqat dargoh tamoyiliga asoslangan bo'lsa, u dargoh va vazirlik tamoyillarini qo'shib olib bordi. Xazina daromadlari soliqli va soliqsiz daromadlarga ajratildi. Xazina xarajatlari tarkibidan obodonchilik, ijtimoiy-madaniy, shu jumladan, fan, madaniyat, ijtimoiy ta'minot xarajatlarining hissasi ortib bordi. Bularning hammasi mamlakatning iqtisodiy va madaniy jihatdan mustahkamlanishi, uning xalqaro mavqeini oshirishda faol ta'sir etdi.

Amir Temur Markaziy Osiyo iqtisodini rivojlantirishga, fan va madaniyatni qanchalik ko'tarishga uringan bo'lmasin, shafqatsiz to'lqinlar u tashkil etgan buyuk sultanatni parchalanishiga, parokanda bo'lishiga olib keldi. Uning vafotidan so'ng avlodalari o'rtasida taxt uchun kurash uzoq davom etib, shahzodalar o'rtasida olib borilgan kurash o'lkaning moliya-soliq tizimiga ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Harbiy xarajatlarning ko'payib borgani sari uning manbai hisoblangan soliq tizimi izdan chiqdi.

XV asr davomida Movaraunnaxr va Xurosonda avvalgidek yer mulkchiligining asosan to'rt shaklidagi: mulki devoniyligi - davlat yerlari, mulk - xususiy yerlar, mulki vaqf - madrasa va masjidlar tasarrufidagi yerlar va nihoyat jamoa yerlari bo'lgan. Dehqonchilik yerlarining eng katta qismi davlat mulki hisoblangan. Bu yerlarga, avvalgidek, mamlakat hukmdori sulton yoki amirlar egalik qilgan. Temuriylar davrida davlat yerlarini suyurg'ol tarzida in'om qilish ham keng tarqalgan. Suyurg'ol yerlar hajmi, sharti hamda yer va yorliqqa ega shaxslarning tabaqasi jihatidan turlichcha bo'lgan. Odatda, shahar yoki viloyatlardan to alohida qishloqqacha suyurg'ol shaklida in'om etilgan. Butun bir shahar yoki viloyat ko'pincha hukmonron sulola namoyondalari yoki yirik harbiy va davlat mansabdarlariga berilgan. Amir Temur davrida bo'lganidek temuriylar davrida ham suyurg'ollarni slashish amaliyoti keng tarqaldi. Markaziy hokimiyat vakillari - Shohrux, Ulug'bek, Abu Said, Sulton Husayn yoki uluslarni boshqargan shahzodalar yerlarga meros tarzida egalik qilish uchun slashganlar.

Suyurg'ol egasiga o'z suyurg'oli doirasida amaldorlar tayinlash, soliqlar va turli to'lovlarini to'plash hamda aybdorlarni jazolash huquqi berilgan. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Shohrux davrida Xorazm - Shoh Malik; Farg'ona - Mirzo Ahmad; Tus, Mashhad, Obivard, Nisoni o'z ichiga olgan Xuroson -

Boysung‘ur; Qobul, G‘azna va Qandahor viloyatlari Mirzo Qaydu bahodirning suyurg‘oli edi. Suyurg‘ol yorlig‘iga ega bo‘lgan viloyat hukmdorlari markaziy hokimiyatga faqat nomigagina qaram bo‘lib, odatda, ular deyarli mustaqil edi. Suyurg‘ol egalari tobelligini kuchaytirish maqsadida markaziy hokimiyat ba’zan ular tasarrufidagi yer maydonlarini qisqartirar yoki ularning ma’muriy va adliya jihatidan haq-huquqini cheklab qo’yar edi. Suyurg‘ol egasi markaziy hukumatga bo’ysunmagan taqdirda suyurg‘ol huquqidan mahrum bo’lar va hokim uning viloyatini boshqa shaxsga berar edi.

Temuriylar davrida dehqonchilik maydonlarining ikkinchi kattagina qismi xususiy yerlardan iborat bo‘lib, yirik mulkdorlarning katta yer maydonlari ham, mehnatkash ziroatchilarining mayda paykallari ham xususiy mulk qatoriga kirgan. Mulk yerlarining katta qismi ma’muriy, harbiy va diniy arboblarning tasarrufida bo‘lgan. Bosh hukmdor tomonidan yirik mulk egalariga biron xizmati uchun taxxonlik yorlig‘i berish keng tarqalgan. Tarxonlik yorlig‘ini olgan mulkdorlar, asosan barcha soliq, to’lov va majburiyatlardan ozod qilingan. Tarxonlik yorlig‘i, odatda amirlar, beklar, saroy amaldorlari, sayyidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga berilgan. Bunday yorliqni olgan mulkdor ismiga tarxon so’zi qo’shib aytilgan.

Ulug‘bek davrida Samarcand yana ravnaq topdi. Bu davrda san’at va ilm-fan rivoji uchun shu qadar katta ishlar qilindiki, bu davrni “Samarqandning oltin davri” deb atay boshlashdi. U soliq siyosatida dehqonlardan olinadigan soliqlarni kamaytirdi va dehqonlar faravonligini o’stirishga imkon yaratdi. Tushumlar qisqarishining o’rnini esa tamg‘a - hunarmand va savdogarlardan olinadigan yig‘imni ko’paytirish hisobiga to’ldirdi.

Temuriylar davridagi soliqlarni o’rganishda ayrim faktlarni keltirib o’tish o’rinli. Masalan, temuriylardan Husayn Boyqaro mamalakatdagi isyonlar tufayli xarajatlar ko’payganini hisobga olib, Hirot hokimi Muboriziddin Valibekka nishon yuborib, yangi xarajatlar uchun Hirot va uning tevarak atrofidagi tumanlardan 100 ming dinor kepakiy to’plab jo’natishni buyurdi. Hirot hokimi tumanlardan faqat yarmini, qolganini esa aholidan sarmushar, ya’ni jon solig‘i sifatida undirishga qaror qildi. Bunday mehnatkash xalqqa judayam qiyin bo‘lgan bir sharoitda Alisher Navoiy Hirot aholisi zimmasiga tushgan 50 ming dinorni o’z jamg‘armasi hisobidan to’ladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, Amir Temur va temuriylar davrida bir qadar tartibli soliq tizimi amal qilgan.

5. Oktyabr inqilobigacha bo‘lgan davrda soliqlar, soliqqa tortishning rivojlanishiga umumiyl tavsif.

Temuriy shaxzodalarning o’zaro to’xtovsiz olib borgan taxt talashishlari oxir oqibatda saltanatning Shayboniyxon qo’liga o’tishiga olib keldi va XVI asr boshlaridan Movaraunnaxrda yangi shayboniylar sulolasi qaror topdi. Ular deyarli yuz yil hukmronlik qilib, temuriy zadagonlar va ular bilan bog‘langan oliy ruhoniylar va yer sohiblari yo’q qilindi, ularning yerlari, mulklari va boshqa

boyliklari ko'chmanchi o'zbek zadagonlari qo'liga o'tdi. Lekin shayboniylar davlatining ijtimoiy tuzumi temuriylar davlati xususiyatlarini saqlab qoldi. Avvalgidek muayyan shaxslarga dastlab davlat xazinasiga tushgan soliqlarni ma'lum vaqt o'z foydasiga undirish huquqi berildi. Buxoroda bunday shartli tuhfa forscha «tango» atamasi bilan atala boshladi.

Shayboniylar davlatida soliq, o'lpon va majburiyatlar tizimi ancha murakkab bo'lган. Rasman 90 ga yaqin soliq va o'lponlar undirilgan. Asosiy soliq xiroj bo'lib, u sug'oriladigan yerkarning 30-40 foiziga solingan; davlat apparati, sipohiylar va xon saroyini boqish uchun ixrojot olingan; bog'lar, polizlar, bedazorlar ham soliqqa tortilgan. Agar davlat apparati pulga juda muhtoj bo'lsa, favqulodda soliqlar joriy etilgan. Soliq va o'lponlardan tashqari majburiy ishlab berish majburiyati bo'lib, ular ichida eng og'iri yasoq bo'lган, ya'ni aholi kanallar, xandaklar qazish, yo'llar qurish, o'tin, somon, shox-shabba yig'ishga safarbar qilingan va tekin ishlab bergen. Yuqoridagilardan tashqari shayboniylar davrida tog'or, ulufa, qo'nalg'a, madadilashkar, boj, tansuqot, tuhfa va boshqa soliqlar amal qilgan.

XVII asr va XVIII asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyoda markazlashgan davlat uchta mustaqil davlatga: Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklariga bo'linib ketdi. Ularning har biri o'z chegarasi, davlat tizim va xazinasi, o'zining mustaqil moliyasiga ega edi.

XVI asrdayoq tashkil topgan Xiva xonligi inqirozni boshidan kechirar edi. Soliq yukining og'irligi dehqonlar, shaharliklar va ko'chmanchi – turkman qabilalari zimmasiga tushardi. Turkmanlar yer-mulk solig'i - hosilning o'ndan bir qismini va o'nlab ming bosh qo'yni «xon qozoni» uchun soliq sifatida to'lar edilar. Adoqli-xizr qabilasi xonga navkarlar yoki gvardiya etkazib berar edi. O'lpon faqat xon uchun emas, balki xon sulolasining ayrim vakillari uchun ham undirilardi. Turkman qabilalari tez-tez qo'zg'olonlar ko'tarib, vaqtı-vaqtı bilan muayyan mustaqillikka erishardilar.

Xiva xonlari xazinasi XVII asrda alohida xazinachilar qo'lida edi. Quyi ma'muriy apparat arboblar (qishloq oqsoqollar) dan iborat edi. Qishloqlarda yer egalari zimmasiga ularga bo'ysunuvchi aholi hisobidan yo'ldan o'tib boruvchi elchilarni oziq-ovqat bilan ta'minlash majburiyati yuklangan edi. Xiva xonligida shu vaqtda xon xazinasiga daromadning asosiy qismi o'troq va yarim ko'chmanchi aholi ishlov beradigan haydaladigan yerdan tushar edi. Xazinaga qarashli yoki davlat yerlarida yashaydigan dehqonlar forscha dahyak yoki arabcha ushr so'zi bilan nomlanadigan xiroj, chig'irlar yordamida sug'oriladigan yerdan hosilning beshdan bir qismi miqdorida to'lagan. Xususiy mulk qilib berilgan yerdan xiroj ular qanday toifaga bog'liqligiga qarab olinardi. Xon yorlig'i bo'yicha muayyan mulk qilib berilgan xususiy mulk yorliq yerkari va azaldan xususiy mulknini tashkil etgan odatdag'i xususiy mulk yerkari solg'it deb nomlanuvchi, pul bilan to'lanadigan yer solig'iga tortilgan. Aday mulk (oddiy xalq tilida atay mulk) yerdan yerkari solig'iga emas, balki qura solig'iga undirilgan, bu soliqni to'lovchilar o'z mulkiy ahvollariga ko'ra kiritiladigan toifaga muvofiq hisob-kitob qilingan va shu sababli daromad solig'iga xususiyatlariga ega bo'lgan. Solg'itni xazinaga va

dahyakni o'z vaqf muassasasi foydasiga kiritishga majbur bo'lgan vaqf yerining ijarchilari eng og'ir ahvolga tushib qolgan edilar. Sayyidlar, xo'jalar, shayxlar va mansabdor shaxslarning yerlari maxsus xon yorliqlari bilan xiroj to'lashdan ozod qilingan. Bunday shaxslar turkcha-forscha so'z bilan yorliqdor deb nomlangan. Navkarlarga tegishli yerlar ham xirojdan ozod qilingan. Tovar bitimlar uchun soliqlar - zakot va tarozi yig'imlari belgilangan. Xonlik savdo markazlari (Urganch, Xonqa, Xiva, Gurlan va boshqa shaharlar) savdogarlari bundan tashqari har yili xonga boy puli solig'ini to'lashgan. Uning hajmi xonning maxsus farmoni bilan savdo shaharchalariga yuborilib, har bir savdogarni xon xazinasiga go'yo qaytarish sharti bilan muayyan summani taqdim qilishga majbur qilingan, biroq odatda bu summa hech qachon qaytarilmagan. Ana shu o'ziga xos tarzdagi qarzlar bir yilda ikki-uch marotaba olingan. Ko'chmanchi va chorvadorlardan xon xazinasiga chorva umumiy tuyog'inining qirqidan bir miqdorida zakot olingan. Bundan tashqari Amudaryoning o'ng sohilidagi chorva egalaridan olinadigan tarcho'b yig'imi ham bo'lib, poda sohildagi to'qaylar orasidan o'tganida shox-shabbalardan kavshanganligi uchun ana shu soliq olingan. To'qaydan o'tgan har bir podadan bitta qo'y olingan. Xiva xonligida o'lpon yig'ish uchun hokimlar (okrug hukmdorlari), ularning noiblari yoki qozilar javob berishgan. Ular huzurida bojmonlar (boj yig'uvchilar) va zakot yig'uvchilar, agar hududda davlat yerlari ham bo'lsa, mushriflar (natura shaklida to'lanadigan o'lponlarni yig'uvchilar) ham xizmat qilgan. Qishloqlarda ma'muriy-mirshablik tarkibidagi barcha ishlar bilan oqsoqollar shug'ullanib, ular aholidan o'lponlar ham yig'ishgan. Xonlikning ma'muriy va moliya-soliq apparati pul bilan ta'minlanmaganligi sababli, o'lponlarni, ayniqsa, dahyakni yig'ishda jiddiy suiste'molliklar qilishga yo'l qo'yilgan.

XVIII – XIX asrlarda xonlikda turli ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida ayrim soliqlarning nomi, mohiyati o'zgarib turdi, yangi soliqlar va yig'imlar joriy qilindi. Masalan, Xiva xonligida solg'it, solg'it-kesma, cho'p puli, changalak kabi soliqlar amal qilgan. Xonlikda salkam 25 ta mahalliy soliqlar undirilgan. Ular orasida lavozimlarni sotishdan ko'rildigan daromadlar alohida ajralib turardi. Natura shaklida o'lponlar boshqa xonliklarga qaraganda og'irroq bo'lgan. Masalan, qazuv - katta va kichik soylarni yig'ilib qolgan loyqalardan tozalash, 15-25 kun davom etgan. Ko'chuv - suv toshqiniga qarshi inshoatlarni barpo qilish 15 - 25 kun, begor - ko'priklarni ta'mirlash, xon va uning amaldorlari uchun saroylar qurish 12 kun va undan ortiq davom etgan.

Tarixiy manbalar Xiva xonligida quyidagi soliqlarning amal qilganligidan dalolat beradi: begor; qazuv (balo qazuv deb ataluvchi 6 kunlik majburiy mehnat va suv taqsimlovchi tarmoqlarni tozalash); qochuv (ehtiyyot dambalarini qurish uchun safarbar qilish); olg'ut (bir yo'la olinadigan yig'imlar, solg'ut bunga kirmaydi); solg'ut (yer solig'i); miltiq solig'i (qo'shinga quroq-aslaha sotib olish uchun olinadigan pul solig'i); arava oluv (aravalardan davlat ehtiyoji uchun safarbar qilish); uloq tutuv (tuya va otlarni, aholini safarbar qilish); qo'nolg'a (dehqonlar tomonidan amaldorlarga kechasi tunash uchun joy berish); so'ysin (uy egasining qo'noqda qolgan kishini qo'y yoki buzoq so'yib mehmon qilishi);

chopar puli (soliq yig'ish xabarini etkazganlik uchun to'lanadigan haq); tarozi haqi (soliq to'lash jarayonida tarozibonga beriladigan pul); mirobona (mirob foydasiga beriladigan pul); darvozabon puli (yuk bilan shaharga kirganda shahar darvozaboniga beriladigan pul); otlanuv (xalq lashkari va xon qatnashadigan ovda majburiy qatnashish); ipak moli (aholi ipakchilik daromadining 1/40 qismini olish); mir tumon haqi (mahalliy hokim haqi); shig'ovul puli; pul solig'i to'lash paytida xazinachiga to'lanadigan soliq; qo'rvubon puli (daraxt qorovuli yoki yaylovnii nazorat qilib turuvchi shaxsga to'lanadigan haq; mushrifona (hosilni tekshiradigan va miqdorini belgilaydigan kishiga beriladigan pul); afanak puli; chiviq puli; ommaviy ishlar o'tkazish davrida ruhoniylar foydasi uchun yig'iladigan pul va boshqalar.¹¹

Buxoro amirligi moliya tizimi negizida arablar istilosiga davrida butun musulmon Sharqi o'zlashtirgan soliq - xiroj turgan. Xiroj yerdan olinadigan hosilning beshdan bir yoki uchdan bir qismi sifatida olingan, ushr solig'i esa o'ndan bir qismni tashkil etgan. Hunarmandlar o'z qobiliyati, didiga mos ravishda bayramlarda xonga o'z buyumlarini taqdim etishgan. Favqulodda hollarda ular har bir do'kondan yig'im to'lashgan.

Buxoro amirligida o'lpon yig'ish bilan devonbegi - moliya vaziri shug'ullangan. Ular daftarlari - o'lpon ro'xatlarini tuzgan. Moliya amaldorlari devonbegi rahbarligida kadastrlar, amir saroyining moliya hisoboti va moddiy qismi bilan shug'ullanganlar. Natura majburiyatları ustidan nazoratni arbob olib borgan. XIX asrning birinchi yarmida xususiy mulk yer soliqlari Buxoro amiri xazinasiga eng ko'p daromad keltirgan. Ular ichida eng ahamiyatlisi hali ham xiroj edi. Xiroj yerkarsi (zamini xirojiy) amirlikdagagi dehqon aholiga tegishli uchastkalarning katta qismini tashkil etgan. Xiroj muayyan yer uchastkasidan belgilangan summada pul va ma'lum miqdorda don bilan undirilgan (xiroji vazifa) yoki hosilning beshdan, oltidan, sakkizdan bir qismi miqdorida hosilning mutanosib qismini to'lashda (xiroji muqassama) ifodalangan. To'lanadigan soliq hajmi esa sinov tariqasida yanchish yo'li bilan olingan.

Tokzor, yo'ng'ichqazor, mevali daraxtzorlardan tanobona olingan. 1807 yili amir Haydarning bir yorlig'ida har tanob yerdan bir tillordan tanobona olinishi zarurligi ko'rsatilgan. Agar ekinzor egasi tanobona to'lashdan bosh tortsa, hosilning uchdan bir qismi mol (xiroj) tariqasida olingan. Ba'zida xiroj hosilning yarmini tashkil etgan. Shohmurod zamonida har bir ziroatchidan qo'shpuli olingan.

XV-XVII asrlarda zakot beva-bechoralar, musofirlar foydasiga olingan bo'lsa, XVIII asrdan boshlab xazina foydasiga olinadigan bo'ldi. Zakot to'lashdan bosh tortgan qabilalar ustiga omonpuli (moli omoniy) olingan.

Kanallar, inshoot, qal'a, ko'priklar, yo'llar ta'miri hashar yo'li bilan amalga oshirilgan. Boshda hasharchilar oziq-ovqat bilan ta'minlangan. XVIII asrdan boshlab hasharga keluvchilar oziq-ovqati, ish asboblari, ot-aravasi bilan kelishi lozim bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha XVIII asrgacha qadim zamonlardan olimlar, qozilar, sipohiylar va navkarlar xiroj hamda tanobona to'lashdan ozod etilganlar.

¹¹ Saburova S. «Xiva xonligida soliq (Qo'ng'irotlar davri)». «Soliq to'lovchining jurnali» 2001 yil 12-son.

XIX asrning 50-yillari oxirida qishloq dehqon aholisining ko'pchiligi qonun bilan belgilangan yer solig'i – xiroj yoki amlokdan tashqari, poliz yoki bog' bilan band bo'lgan har bir tanob yer (tanob puli) va yo'ng'ichqazar uchun (alaf puli) alohida soliqlar to'langan. Bu ikkala soliq ko'pincha tanoba yoki tanob puli deb atalardi. Zarafshon vodiysida yashovchi bir necha dehqon jamoasi amir Nasrulloha murojaat etib, ularning uyidan olisda joylashgan polizlarga solinadigan tanobani kamaytirishni iltimos qiladi. Amir iltimosni qondirgach, polizlardan alohida soliq - qo'shpuli olna boshlandi. Zakot eng muhim soliq bo'lib, uni to'lash har bir musulmon uchun besh farzning biri hisoblanib kelingan. Bu mol-mulk solig'ini undirish uchun amaldorlar tayyorlangan va zakot olish ob'ektlari aniqlangan. Ko'chmanchi va chorvadorlardan zakot chorvadan pul yoki natura shaklida (besh tuyadan bitta, qirq qo'ydan bitta) undirilgan. Ishchi mollardan olinadigan alohida yig'im ham mavjud bo'lib, uni yaksara deb atashgan. U bir juft ot yoki ho'kizdan bir botmon bug'doy hajmida olingan. Bitta ishchi moliga ega bo'lganlar bu miqdorning yarmini to'lashgan, u nimsara deb atalgan. Suv tegirmonlari va juvozlardan pul yoki naturada yig'im undirilgan, uning hajmi korxonaning qanday tuzilgani va daromad keltirishiga hamda qishloq xo'jalik jihatidan qanday ahamiyatga egaligiga qarab o'zgarib turgan.

Tarixdan ma'lumki, XIX asrning 50-yillardan boshlab, Rossiya O'rta Osiyoni bosib ola boshladi. Buxoroning ma'lum qismini bosib olgach, Amir juda og'ir shartnomani qabul qiladi. Rossiya bilan urush paytida amir Muzaffar aminona (sodiq fuqarolik) deb nomlangan maxsus soliqni joriy etdi va u doimiy soliqqa aylanib, amirlik tugatilguncha (1920) amal qildi. Zakot va aminonadan tashqari savdo yig'imlariga (dalloli), bir viloyatdan boshqasiga olib o'tilayotgan tovarlar va umuman yuklardan olinadigan maxsus bojlar ham kirgan. Zakot bilan birga tovar dastlab olib chiqilgan joydan uzoqlashuviga qarab uning narxi ancha ko'paygan. Tovarlarni daryordan olib o'tganlik uchun suv puli, bozordagi joy uchun puli taxtajoy kabi soliqlar ham mavjud bo'lган.

Buxoro amirligida moliya, asosan mol-mulk solig'i bilan qushbegi poyon shug'ullangan. U ark etagida yashagani, mahkamasi shu yerda bo'lGAN bois qo'yi qushbegi deb atalgan. Davlatdag'i barcha zakot yig'uvchilarining boshlig'i mavjud bo'lib uni ham zakotchi kalon (oliy zakot yig'uvchi) deb atashgan.

XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligining soliq tizimi Buxoro amirligi bilan o'xhash bo'lgan. Bu yerda ham g'allazorlardan xiroj yig'imi uzumzorlar, polizlar, bog'lar va texnika ekinlari bilan band bo'lgan yerdan tanobona undirilgan. Tovarlar, mol-mulk va chorvadan zakot olingan. Shaxsan xonga qarashli qishloqlardan xoslik - undiruvchi amaldorlarga emas, balki bevosita xonga beriladigan yoki xonning maxsus farmoni bilan u yoki bu a'yonlarga ta'minot uchun beriladigan soliq undirilgan. Odatdag'i soliqlardan tashqari xonlar yangilarini ham joriy etgan. Bunda ayniqsa Xudayorxon ajralib turgan. U ekilgan mevasiz daraxtlardan, poytaxtga olib kelingan pichandan, tog' o'rmonlarida kuydiriladigan pista ko'mirdan soliq olgan. Xudayorxon xazinadagi etishmovchilikni xilma-xil musodara qilishlar va chayqovchilik vositasida to'ldirgan.

O'rta Osiyon Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi bu yerda asrlar davomida qaror topgan tizim - qishloq xo'jaligi solig'ining soliq tizimi o'zgara bordi. Avval chor hukumati dehqonlardan soliq olishni kamaytirdi, lekin yerlarni soliqqa tortishning xiroj va tanob tizimini saqlab qoldi. Soliplarni mutlaqo pul bilan to'lash tartibi joriy etildi, davlat foydasiga natura shaklidagi majburiyatlar bekor qilindi. Soliq undirish ishlari saylab qo'yiladigan qishloq idoralariga topshirildi.

1886 yilda Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risida yangi nizom joriy qilindi. Unda yerga oid munosabatlarda qator tadbirlar o'tkazish ko'zda tutilgan edi: barcha yerlarning xazinaga tegishliligi e'lon qilindi va ilgari kim yerkarga ishlov bergen bo'lsa, yer o'shangan foydalanish uchun berildi va barcha yerlar soliqqa tortildi. Chor hukumati 1867 yilda ko'chmanchi aholi uchun o'tov yig'imi joriy qildi, unga binoan har bir o'tovdan soliq undirila boshlandi.

Chor Rossiyasining asosiy maqsadi xonliklarni yarim mustamlakadan haqiqiy mustamlakaga aylantirish edi. Shu munosabat bilan XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston General gubernatorligi tashkil qilindi. Bosib olingan Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliliklarini anchagina qismi Chor Rossiyasi uchun faqat xom ashyo va tabiiy resurslar manbaigina emas, balki byudjetning daromad manbai sifatida muhim siyosiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Xiva xonligida 1898 yildan 1902 yilgacha bo'lgan davrda 250-300 pud mis tangalar zarb qilingan. Xiva xoni bunday tangalar tushumidan savdogarlarga majburiy tarzda qarzlar berar, buning uchun kredit summasining 15 foizini to'lashni talab qilardi. Ana shu mablag'lar evaziga o'ndan ortiq paxta tozalash zavodi qurildi, paxtaning deyarli hammasi Chor Rossisiga jo'natilar edi.

Bu hududlarda Turkiston General gubernatorligi moliyasini tashkil etishda quyidagi vazifalar belgilandi:

- A) Xonliklarning zabit qilingan hududlarida o'z valyutalari o'rniga rus valyutalarini joriy qilish;
- B) Davlat molisini boshqarishda byudjet-smeta rejimini joriy qilish;
- V) Mavjud soliq tizimini Rossiya soliq tizimi andozasiga moslab, tubdan o'zgartirish.

Chor Rossiyasi qo'yilgan vazifalarning deyarli hammasiga erishdi. Bu hududlarda an'anaga aylangan zakot o'rniga hunarmandchilik solig'i, xiroj o'rniga esa - oklad tizimi joriy etildi. Bulardan tashqari aktsiz soliplari, paxtaga va boshqa xomashyolarga solinadigan soliplar to'g'ridan-to'g'ri Chor Rossiyasi byudjetiga borib tushar edi. 1914 yil 12 noyabr qonuniga binoan, temir yo'l va bandargohlarda har pud paxtadan alohida muvaqqat soliq olish belgilandi. 1915 yil yanvaridan boshlab mahalliy aholi harbiy majburiyatlarni bajarish o'rniga, harbiy soliqqa tortildi. Bu soliq jami bevosita soliq turlarining 21 % miqdorida olingan.

Ammo 1914 yilda boshlangan birinchi jahon urushi xazina xarajatlarini keskin oshishiga sabab bo'ldi. Xarajatlarni qoplash maqsadida aholidan yig'iladigan soliplar miqdori to'xtovsiz ko'payib bordi.

6. Sobiq ittifoq davrida soliqlarga bo'lgan yondashuv.

1917 yil oktyabrda bolsheviklar zo'rlik bilan amalga oshirgan to'ntarish Sobiq Ittifoq xalqlari, shu jumladan O'zbekiston tarixida salkam 75 yil davom etgan yangi mustamlakachilik sahifasini boshlab berdi. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tilishi munosabati bilan agrar ishlab chiqarishni yuksaltirishga qaratilgan xo'jalik tadbirlari zanjirida mustaqil ish olib boruvchi yakka dehqonning manfaati oldingi o'ringa qo'yildi. 1919 yil mart oyida yangi iqtisodiy siyosat (NEP) e'lon qilinishi munosabati bilan yangi soliq siyosati tashkil etildi. Mazkur tizim qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, daromad, mulk va renta soliqlari, tamg'a yig'imlari, meros va boshqa bojlar kabi majburiy to'lovlarini o'z tarkibiga qamrab olgan. 1922 yil 11 aprelda "Natura solig'i haqida"gi qaror qabul qilindi. Mazkur qarorga ko'ra dehqonlarning noroziligiga sabab bo'lgan oziq-ovqat razvedkasi o'rniga yalpi hosilning 10 foizi miqdorida oziq-ovqat solig'i belgilandi. Lekin oradan ko'p vaqt o'tmay xo'jalikning katta-kichikligidan kelib chiqib, soliqni tabaqalashtirish joriy etildi. Soliq quyidagi proportsiyalarda olinishi belgilab qo'yildi: 2 desyatina gacha yeri bo'lgan xo'jaliklardan hosilning 5 foizi, 2-4 desyatina gacha 10 foizi, 4-6 desyatina gacha 12 foizi, 6-8 desyatina gacha 14 foizi va hokazo.

Yangi iqtisodiy siyosat paxtachilik siyosatiga ham muayyan o'zgarishlar kiritdi. Paxtachilikni mehnat qurollari bilan ta'minlashga e'tibor kuchaytirildi. Ularga turli xil imtiyozlar berilib, ot-ulov solig'idan, kamquvvatli xo'jaliklar oziq-ovqat solig'idan ozod qilindi. Bularning hammasi dehqonlarning kayfiyatiga, ularni ko'proq paxta etishtirishga bo'lgan intilishida o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi.

1923 yil 13 iyunda ba'zi ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida oziq-ovqat solig'idan yagona qishloq xo'jaligi solig'iga o'tish to'g'risida dekret chiqarildi. Natijada, tovar-pul munosabatlarining sub'ekti bo'lgan dehqonlarning roli sezilarli ravishda kuchaydi. Xususiy kapital asosida tashkil etilgan vositachilik va savdo shirkatlari qat'iy mafkuraviy nazorat ostida bo'ldi. Ko'pincha, xususiy larda juda katta miqdorda soliq solinar, tadbirkorlarning erkin faoliyati esa butunlay cheklab qo'yilgan edi. Keyinchalik davlat xususiy sektorni tugatishni tezlashtirish maqsadida qo'shimcha soliqlar undirildi.

1923-1925 yillarda quyidagi soliqlar amal qilgan:

1. To'g'ri soliqlar:

- qishloq xo'jaligi solig'i;
- hunarmandchilik solig'i (savdo va ishlab chiqarish korxonalariga);
- mulk solig'i;
- renta soliqlari;
- gerb yig'imlari va boshqalar.

2. Egri soliqlar:

- aktsiz soliqlari (choy, kofe, shakar, tuz, alkogolli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, neft mahsulotlari va boshqa turdag'i tovarlarga nisbatan joriy etilgan);
- turli xil bojlar.

1922-1923 yillarda to'g'ri soliqlar byudjetni soliqli daromadlarining 43 foizini, 1923-1924 yillarda 45 foizini, 1925-1926 yillarda 82 foizini tashkil etgan.

1930 yillarda yangi soliq islohotlarini o'tkazish talab qilindi. Soliq islohotlari o'tkazishning asosiy sababi quyidagi kamchiliklarni yo'qotishga qaratilgan edi.

- soliqlar sonini qisqartirish maqsadida oborot solig'ini joriy etish;

- bir soliq ob'ektini bir necha marotaba soliqqa tortilishi va baholarni rejalashtirishning murakkabligini tugatish. Buning uchun foydadan ajratmalar va kooperatsiyada daromad solig'i joriy etildi.

Oborot solig'i tarkibiga bir necha soliq va foydadan ajratmalarga 6 xil soliq birlashdi. Olib borilgan soliq islohoti natijasida korxonalarga byudjetga olinadigan daromadlar 7 baravar ortdi.

Lekin shunga qaramasdan respublikada birorta og'ir industriya giganti barpo etilmadi, chunki ularni qurish milliy mustamlakachilik manfaatlariga mos kelmas edi. Shuning uchun respublikada paxtachilikni rivojlantirish bilan bog'liq sanoat tarmoqlari, oziq-ovqat, engil sanoat tarmoqlarini kengaytirishgagina ahamiyat berildi. Sanoat korxonalarining aksariyati xom ashyo, yarim tayyor mahsulot ishlashga ixtisoslashtirildi. Chunki tayyor mahsulotdan tushadigan mo'maygina daromad O'zbekiston xom ashynosini qayta ishlashga moslashgan Ittifoqdagi markaziy korxonalar tomonidan amalga oshirildi.

Ikkinci jahon urushi boshlangandan so'ng O'zbekiston front ehtiyojlarini ta'minlovchi moddiy bazaga aylandi. Byudjetdan harbiy tadbirlarga sarflangan mablag'lar 114,7 milliard so'mni tashkil etib, shundan 58,8 milliard so'm yoki 50,8 foizni harbiy xarajatlar tashkil qilgan edi. Bundan tashqari, respublika frontga 4 mln. 148 ming tonna paxta, 54 ming tonna pilla, 3 mln. 83 ming dona qora ko'l terisi va oziq-ovqat mahsulotlari jo'natgan. O'zining vatanparvarlik burchini yuksak darajada namoyish qilgan O'zbekiston xalqi fashizm ustidan faqat Sobiq Ittifoqni emas, eng avvalo o'z xalqini saqlab qoldi. O'zbekiston hududida urush harakatlari sodir bo'limgan bo'lsada, boshqa respublikalar qatori bu erda ham iqtisodiy tizim izdan chiqdi. Iqtisodiyotni qayta tiklash ishlari boshlanib, qator tadbirlar belgilandi. Jumladan, soliq tizimiga katta e'tibor qaratildi. Bu yo'nalishda soliq miqdori xo'jalik tomorqasiga qarab belgilanadigan bo'ldi. Natijada ayrim viloyatlarda uzumzorlarni kesib tashlashga o'xshash hodisalarga barham berildi. Soliq 2-3 baravar kamaydi.

1958 yildan boshlab aholi mablag'i hisobidan «ixtiyoriy» tartibda yoziladigan zayomlar bekor qilindi, daromad solig'i va boshqa soliqlar qisman kamaytirildi.

1965 yildan boshlab foydadan ajratmalar to'lovi o'rniiga 3 xil ko'rsatkich asosida hisoblanadigan to'lovlardan joriy qilindi. Bu to'lovlardan turli korxonalar misolida sinovdan o'tkazildi. Lekin ular kutilgan natijani bermaganligi sababli milliy daromadning o'sish sur'atlari pasayib ketdi.

Shu munosabat bilan 1987 yil 7 iyulidagi moliya mexanizmini qayta qurish qaroriga muvofiq sanoat korxonalari va tarmoqlari asosiy e'tiborni joriy masalalarni hal qilishga qaratib, moliya va iqtisodiy masalalardan chetlashganliklari tanqid qilindi, korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga etarli e'tibor berilmaganligi ko'rsatildi. Qarorning ikkinchi bandida

oborot solig‘ining to’lovchisi bevosita mahsulot etishtiradigan korxona bo’lishi kerak deb ko’rsatilgan. Bu moddaning ahamiyati shundan iboratki, bir tomondan respublikaning asosiy hal qiluvchi xom ashyosi hisoblangan paxta, pilla, rangli metallardan foydalanib boshqa respublikadagi korxonalarga mahsulot ishlab chiqarsa, ular joyida soliqqa tortilib, ikkinchi tomondan paxta va boshqa xom ashyolarni sotishdan kelgan daromadlar soliqqa tortilmas, respublika byudjeti bu daromadlardan mahrum edi. Bu tadbirlar O’zbekistonda moliya tizimidagi inqirozlarni kuchaytirdi. Natijada iqtisodiy ko’rsatkichlar bo’yicha respublika Ittifoqda oxirgi o’rinlardan birini egallar edi.

Sobiq Ittifoq davrida davlat bilan davlat mulkchiligi o’rtasida soliq munosabatlari bo’lishi mumkin emas degan mafkuraviy aqidaga tayangan holda davlat bilan davlat mulkiga tegishli korxonalar va tashkilotlar o’rtasida soliq munosabatlariga barham berishga harakat qilingan, lekin yuqorida ko’rib o’tganimizdek, Sobiq Ittifoq davlati tashkil etilgandan e’tiboran uning hududida turli xil soliqlar amal qilgan va davlatning soliqsiz mavjud bo’la olmasligini yana bir bor ko’rsatdi.

Soliq sohasidagi o’ta muhim o’zgarishlar Sobiq Ittifoq KPSS MQ ning 1987 yil iyul plenumida tasdiqlangan “Davlat korxonalari (birlashmalari) to’g’risida”gi qonuni qabul qilinishi bilan bog‘liq. Unga muvofiq korxonalar mulkchilik shaklidan qat’iy nazar byudjetga to’lovlar bilan bir qatorda ular foydasini soliqqa tortish mumkinligi ham rasmiy ravishda tan olindi va 1991 yil 1 yanvaridan e’tiboran xalq xo’jaligining barcha tarmoqlarida mulkchilik shaklidan qat’iy nazar korxonalar va davlat o’rtasidagi munosabatlar soliq usuliga o’tkazildi.

3-mavzu: Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari.

Reja:

- 1. Soliq atamasiga nisbatan turli qarashlar va uning mohiyati. Soliqqa tortishning maqsadlari.**
- 2.Soliqlarning iqtisodiy mohiyati, ob'ektiv zarurligi va xususiyatlari.**
- 3.Soliqlarning umumiy belgilari va boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqi.**
- 4.Soliqlarning funktsiyalari va vazifaları.**
- 5.Soliqlarning tamoyillari.**

Tayanch so'z va iboralar: soliq kategoriyasi,iqtisodiy qarashlar, soliqning iqtisodiy mohiyati, ob'ektiv zarurligi, xususiyat, funktsiya, vazifa, tamoyil.

1. Soliq atamasiga nisbatan turli qarashlar va uning mohiyati. Soliqqa tortishning maqsadlari.

Zamonaviy soliq falsafasi yoki nazariyasi odatda klassik iqtisodchi olimlar, eng avvalo Adam Smit, tomonidan boshlangan deb hisoblanadi. Lekin zamonaviy siyosiy falsafaning asoschisi Tomas Gobbs (1588-1639), iqtisodchi va faylasuf Uiliam Petti (1623-87) kabi ilg`or olimlarning ham hissasi katta. Gobbs ko`proq iqtisodiy nazariyalari bilan taniqli bo`lsa ham, u bir qancha asarlarida, jumladan o`zining eng mashhur "Leviathan" asarida soliqlarga katta e`tibor bergen. Uning soliq nazariyasi ma`lum darajada murakkab deb qaraladi va unda soliq kishilarning boyligiga emas, balki uning himoyasi va qonun ustivorligini saqlab turish, keyingi o`rinda harbiy hizmat uchun davlatga bo`lgan qarzi orqali aniqlanishi kerak deb qaraladi. U shuningdek, o`z mehnat layoqati bilan yashash uchun yetarli mablag` topa olmaydiganlarga ijtimoiy ta`minot berishni qo`llab quvvatlaydi.¹²

Petti "Soliqlar va yig`imlar xazinasi" (1662) asarida Fransiya bilan yuzaga kelayotgan urush uchun jamg`rmalar yig`ilishida qirol tomonidan qo`llanilishi mumkin bo`lgan soliqlar va daylat harajatlari prinsplarini tuzib chiqishga uringan. U olti turdag'i davlat harajatlarini tuzib chiqqan: himoya, boshqaru, cherkov, ta`lim, infrastruktura va barcha turdag'i zaiflarni qo`llab quvvatlash va birlamchi mahsulotlar uchun xarajatlar. U qariyalar, kasallar, yetimlar va shu kabilarga ta`minot uchun qilinadigan davlar harajatlarini qo`llab quvvatlagan.

"Uzoq o`nsakkizinch asr" (1688-1800) deb ataluvchi bu davrda Adam Smit va uning izdoshlari hozirgu kundagi zamonaviy soliq nazariyasini ishlab chiqishgan. Bu davr nafaqat Buyuk Britaniya, balki butun dunyoda barcha turdag'i g`oyalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Bu yillar davomida ko`plan ahamiyatli voqealar, Amerika mustaqillik urushi, soliq masalalari asosida kelib chiqqan Fransiya revolutsiyasi yuz bergen. Antony Eshli Kuper, uchinchi

¹² Jane Fracknall-Hughes. The Theory, Principles and Management of Taxation: An introduction, Routledge Taylor and Francis Group. 2017

Graf Shaffesbury, ko`zga ko`ringan davlat arbobi, 1706- yil Gollandiyadagi hamkasibiga shunday yozadi:

Adam Smit Shotlandiya ma'rifatparvarchiligining yetakchi figuralaridan biri edi, u Devid Yumni va boshqa zamonasining mutafakkirlarini yaxshi tanigan, jumladan: Fransuz dramaturgi va siyosiy faol Voltr; Amerikalik siyosatchi Benjamin Franklinlarni ham. 1776 yilda u “Millatlar boyligi sabablari va tabiatiga kirish” nomli ishini tugatdi va chop etdi. O’ziga xos nazariyasi bilan birga buyuk mazmunga ega, soliqlar va soliqqa tortish qoidalariga bat afsil sharga ega bo’lgan 5-kitobi; qaysiki hozirgi kungacha soliqqa torlishning muhim asosi bo’lib hisoblanadi, garchi amaliyotda saqlanib qolgan bo’lsada, uning konsepsiyalari darz ketganligini ko’rshimiz mumkin.

Birinchi qoida Gobbes va Lokki hisoblanadi (himoyani saqlashga o’z hissasini qo’shamoqchi bo’lgan har bir odam o’z mulkidan bir qismini uni saqlab qolish uchun berishi kerak)(teparoqqa qarang) daromadning bir qismini ma’lum bir proporsiyada soliq tarzida to’lash nazarda tutilmoqda. Ammo Smit chuqurroq kirib boradi: u Lokkining 2 potensial kurashuvchi yondashuvlarini birlashtiradi; ular: foyda yondashuvi va “to’lov qobiliyati” yondashuvi. Lokki inson himoyaga o’z hissasini qo’shishi uchun o’z ulushini to’lashi kerak deydi. Bu Smitning bayonotidagidek talqin qilinishi mumkin. Boshqacha xulosa qilib aytganda, daromaddan to’lanadigan ulushi to’lovga qobiliyatidan boshqa bir asosga ega bo’lishi kerak. Garchi Smit Yumning yondashuvchisi bo’lgan bo’lsada, qoidalarni o’rnatish tili ijtimoiy shartnomaga nazariyasi asarlarini ko’rsatadi, lekin bu bir tomonlama fikr hisoblanadi, u tufayli xarajatlar ko’payib, tan olinmay qolishi mumkin deb ehtiyyotkorlik bilan tanlangan.

Smit ham progressiv soliqqa tortishga qaror qilganiga ishora bor: Boylar jamoaviy harajatlar yoki daromadlarga o’zining hissasini qo’shishi bejiz emas. Smitning holistik nazariyasida insonlarning imkoniyati yoki qobiliyatiga qarab soliqqa tortilishi kerak deb hisoblanadi. 1- bobda ko’rib chiqqanimizdek, adolat vertikal yoki gorizontal ko’rinishda bo’lishi mumkin dedik, adolat amaliyotda to’lov qobiliyati bilan qanday o’lchanishi lozimligi qiyin masala hisoblanadi.

Ammo birinchi ko’z tashlaganda soliqqa tortiladigan har bit ko’chirma yoki bazani biz oldindan bilishimiz kerakligi to’g’ri deb hisoblaymiz.

Qulaylik nazariyasida soliqqa to’lanayotgan pul har doim ham qulay emasligini ko’rshimiz mumkin. Bu yerda 4 asosiy soliq to’lanadigan sharoit keltirilgan:

1. Mahsulot yoki xizmatga pul to’langanda, QQS kabi egri soliqlar yuzaga chiqadi, mahsulotning jami bahosiga qo’shilib, to’lanayotgan paytda uncha ko’zga tashlanmaydi. (4va8-bo’limlarni ko’ring)
2. Ishchi ish haqi olganga daromadiga qarab bir qismi daromad solig’iga tortiladi.
3. Firma yoki korxona daromad ko’rganda, summaning katta kichikligiga qarab, soliqqa tortiladi.

4. Belgilangan to'lovlar orqali, agar bir daromad yoki foyda nihoyasiga yetkazilsa, bir marta qurshov usulida soliqqa tortiladi.

Smitning nazariyalari yuqori samaradorligiga qaramasdan juda oddiy hisoblanadi. Buyuk Britaniyadagi kuchuk solig'i to'layotgan odamga yig'ilayotgan summadan qimmatroqqa tushmaganligi bunga misol bo'lshi mumkin. 1987-yilgacha Buyuk Britaniyada kuchuk solig'i bo'lgan, yani kuchugi bor insonlar kuchuk litsenziyasini olishga majbur qilingan. U litsenziya pochta idorasidan olingan. Litsenziya narxi 37 pens bo'lgan va u litsenziya 1987-yilda bekor qilingan.

“Millatlar boyligi sabablari va tabiat” ehtimol tovarga qo'yiladigan soliqlar haqidagi munozaralarga bag'ishlangan. Ular mukammallikdan ancha uzoqda edi. Qulaylik nuqtai nazaridan amaliy hisoblangan, ammo tuz yoki sham kabi mahsulotlarga talab boylardan ko'ra kambag'allarda ko'proq bo'lgan. Agar soliq tariflari juda katta qo'yilgan bo'lsa, bu kamroq soliq stavkalarida olinadigan daromaddan ko'ra kamroq daromad keltirishiga olib keladi, bu fenomen Laffer egri chizig'i yoki Laffer effekti deb ataladi. Bu g'oya bиринчи bo'lib Jonatan Swift(1667-1745) tomonidan keltirilgandir. Swift soliq teoriyachisi bo'lib emas, balki taniqli ocherkchi, satirk, siyosiy pamfletchi sifatida tanilgan, ammo uning xatlaridan iqtisodiy g'oylarga chuqur qiziqishi bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

Xalqlar boyligining tabiatni va sabablari haqida tadqiqot nomli kitobga bag'ishlangan, balki, mol mulklarga soliqlar muhokamasi uchun. Shu kabi soliqlar qulayligi bo'yicha foydali , biroq zarur ehtiyojlar uchun bu hammaga ham birdek foydali emas misol uchun tuz va shamdon, bu maxsulotlar boy u kambag`alga birdek zarur. Kelishilgan narx yuqori bo'lishi mumkin va aholi umumiyl qilib aytganda qancha soliq to`lash kerakligini bilmaydi va ba`zi soliq stavkalarini bo`zilgan. Agar yuqori soliq stavkalarini yoki tariflari o`rnatsa past stavkalar va tariflar o`rnatilganidan kamroq darajada daromad yig'ilishiga olib kelishi hozir Laffer egri chizig'I va Laffer samarasini orqali tanish. Bu fikr dastlab Jonatan Swift tomanidan (1667-1745) Irlandiya qirolligining kambag`al ishchi xizmatchi va savdogarlariga javob nomli asarida ilgari so`rilgan. Swift essaychi satirachi va siyosatchi sifatida mashhur hisoblanadi, soliq nazariyasichisi emas , biroq bu asarda qiziqarli iqtisodiy fikrlarni olish mumkin.

Mamlakatda, umuman olganda, soliqlarning joriy qilinishining sabablari iqtisodiyotni rivojlantirish va davlat majburiyatlarini kamaytirishdir.

Odatda soliq nima o'zida nimalarni ifoda etishi borasidagi bilimlarni olish murakkab masala hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda bu fanni filga qiyoslash mumkinki, uni tasvirlab bergen taqdirda ham u haqida yetarli tasavvur hosil bo'lmaydi, magaramki bu filni o'z ko'zingiz bilan ko'rmaguningizgacha.

Bugungi kungacha soliqlarning mohiyatini belgilab beruvchi turli xildagi urinishlar bo'lgan va quyida biz tomonimizdan ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz va shu o'rinda eslatib o'tish joizki, ushbu ta'riflar yakuniy ta'riflar emas.

- Soliq bu - davlatni qo'llab-quvvatlash uchun aholidan, mol-mulkardan va tovar aylanmasidan olinadigan majburiy to'lov.

(Ingliz tilining Oksford lug'atidan)

- Soliq bu - davlat manfaatlari uchun jismoniy va yuridik shaxslardan majburiy tarzda undiriladigan to'lov.

(*Ingliz tilining izohli lug'atidan*)

- Soliq bu - hukumatni saqlab turish uchun zarur bo'ladigan alohida shaxslarga va mulkka nisbatan qo'llaniladigan soliq olish shakli.

(*Uebster internet lug'atidan*)

- Soliq bu – jamiyatning barcha a'zolari farovonligi uchun hukumat hisobiga undiriladigan to'lov. Kimdan qancha olish va qancha qismini qoldirish hamda undirilgan to'lovlar nima uchun ishlatalishi haqida hukumat ishonch bildirgan kishilargina hukm chiqarishlari mumkin.

(*Djonson 1913 (1775), 2-bet*)

- Soliq bu – davlat organlari tomonidan undiriladigan va uning o'rniغا to'g'igan to'g'ri hech narsa berilmaydigan majburiy to'lov.

(*Djeyms va Nobs2012, 12-bet*)

Soliqqa oid boshqacha ta'riflarni turli xildagi adabiyotlarda yana ham chuqur ko'rib chiqish mumkin. Quyidagi xos so'zlar "majburiy", "undirish" va "yuk" degan umumiylar xarakterdagisi ta'riflar, hattoki soliq va soliqqa tortish tushunchasining o'zi ham ko'pchilik uchun unchalik kerak bo'limgan talqin sifatida qo'llaniladi. Bu esa bizni soliqni undirish sabablariga to'xtalishga olib keladi.¹³

Soliqqa tortishda turli xil buyumlar orasidagi farqlarni ajratib olish muhim hisoblanadi, chunki ular turli xil usullar bilan soliqqa tortiladi, umumiylar faravonlikni ta'minlash uchun, turli xil usulda soliqqa tortish kerak. Masalan iste'mol qilinadiga buyum soliqqa tortildi. Bir shisha spirit uchun masalan 2£ bo'lsa 10,000 £ oylik oladigan shaxs uchun yuqori foiz stafkasida soliqqa tortiladi.

Agar 3 ta kishi 5000£ daromad topadi, birinchisining o'rtacha ish haqi, ikkinchisi mahsulot sotishdan tushgan tushum, uchinchisiniki esa dividend ko'rinishidagi daromad. Ular uchalasi bir xil usulda soliqqa tortilsa, bu gorizontal tenglik deb yuritiladi. Lekin ularning daromadining manbalari turli xil. Birinchisi qilgan mehnati uchun, ikkinchisi sotgan mahsuloti uchun va uchinchisi qilgan invistitsiyasidan foiz ko'rinishidagi daromad. Ular uchalasi turli xil usulda soliqqa tortiladi, soliqqa tortilganidan keyin esa uchalasida turlicha summa qoladi. Birinikida ko'proq va boshqasinikida kamroq, bu esa vertikal tenglik deb nomlanadi.¹⁴

2. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati, ob'ektiv zarurligi va xususiyatlari.

Soliqqa oid boshqacha ta'riflarni turli xildagi adabiyotlarda yana ham chuqur ko'rib chiqish mumkin. Quyidagi xos so'zlar "majburiy", "undirish" va "yuk" degan umumiylar xarakterdagisi ta'riflar, hattoki soliq va soliqqa tortish tushunchasining o'zi ham ko'pchilik uchun unchalik kerak bo'limgan talqin

¹³ Taxation (UK), BPP Learning Media Ltd BPP House, Aldine Place 142–144 Uxbridge Road London W12 8AA, FA 2017

¹⁴ Jane Fracknall-Hughes. The Theory, Principles and Management of Taxation: An introduction, Routledge Taylor and Francis Group. 2017

sifatida qo'llaniladi. Bu esa bizni soliqni undirish sabablariga to'xtalishga olib keladi.

Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida sinfiy hukmron kuch sifatida yuzaga chiquvchi davlatning paydo bo'lishi va uni faoliyatining davomiyligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu o'rinda soliq kategoriysi davlatni iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqiylik sifatida yuzaga chiqishini ta'kidlash lozim. Soliq tushunchasi bu tor ma'noda davlat ixtiyoriga boshqalardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi. Ma'lumki, soliqlar bevosita davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir, ya'ni davlat o'zining vakolatiga kiruvchi vazifalarini bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi. Soliqlarning amal qilishi bu ob'ektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi individlarning hammasi ham real sektorda (ishlab chiqarish sohasida) faoliyat ko'rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki shug'ullanish iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni ob'ektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatni norentabel (mudofaa, meditsina, fan, maorif, madaniyat va boshq.) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishni tabiiy zarurligi soliqlarni ob'ektiv amal qilishini zarur qilib qo'yadi, vaholangki, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari, asosan davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo'ladi.

Soliqlarning ob'ektiv zarurligini jaxon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida ikki holat bilan ifodalash mumkin: birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari.

Davlatning bajaradigan funksiyalari va vazifalari ko'p va bozor iqtisodiyoti rivojiana borishi bilan ba'zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga mos kelmaydigan vazifalar yo'qola borsa, yangi vazifalar paydo bo'la boshlaydi. jaxon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida davlatning yangi vazifalari paydo bo'ladi. Bularga bizning respublikamizda kam ta'minlanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini (sanoatda, qishloq xo'jaligida, moliya tizimida) tashkil qilish kiradi. Shu yerda davlat kuchli sotsial siyosat tadbiralarini amalga oshirish uchun pensionerlar, nafaqaxo'rlar, talabalar, ko'p bolali onalar va boshqalarni ko'proq mablag' bilan ta'minlash zarurligini anglab cheklangan tovarlar bahosidagi farqni byudjet hisobidan qoplaydi va ularga boshqa xarajatlarni davlat hisobidan amalga oshiradi, mahallalarda kam ta'minlanganlarga moddiy yordamlar tashkil etadi. Shu bilan birga, O'zbekiston davlati jamiyat a'zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o'zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga, texnika va o'q-dorilarga ham mablag'lar sarflaydi, qolaversa, davlat fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib intizom o'rnatish, uni boshqarish funksiyalarini bajarish uchun ham ko'plab mablag' yo'naltirishga majbur. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba bo'lgan soliqlarni ham ob'ektiv zarur qilib qo'yadi.

Qayd etish lozimki, hozirga qadar davlatning funksiyalarini bajarish uchun lozim bo'lgan moliyaviy mablag'lar shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo'llanilgan emas. Demak, hukmron kuch sifatida davlat

mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar ham amal qiladi. Ma'lumki, jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat. Ana shu murakkablik bevosita soliqlarga ham tegishliki, bu holat soliqlarni iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqazo etadi.

Soliqlar majburiy to'lovlarini ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtaida bo'ladi. Korxona va tashkilotlar aholiga xizmat ko'rsatganda, ishlar bajargan yoki bozorlarda oldi-sotdi qilish jaraenida pul munosabatlarini hosil qiladi. Lekin ular soliq bo'la olmaydi, soliq munosabati bo'lishi uchun davlat mamlakatda yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash yo'li bilan davlat byudjetiga majburiy tartibda to'lanishi yoki undirilishi lozim.. Davlat uchun byudjetning asosiy manbai hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega.

Soliqlar to'g'risidagi qarashlar tarixan ob'ektiv va sub'ektiv omillarning ta'sirida shakllangan. Soliqlarga doir turli ta'riflarni tahlil qilish ularning konkret iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotlar jarayonidagi mohiyatini asoslash, soliqlarning iqtisodiy rolini va soliq qonunchiligiga asos bo'lgan soliq tamoyillarini belgilash hamda soliq tizimida, jamiyat taraqqiyotida mavjud bo'lgan soliqlarning tutgan o'rnini aniqlash zarurdir. Chunki, davlat paydo bo'lishi bilan soliqlar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning zaruriy talablaridan biri bo'lib hisoblanib kelingan. Davlat tuzilish shakllarini rivojlanishi bilan bir vaqtda soliq tizimi o'zgagan va takomillashtirilgan. Soliq tizimining o'zgarishi va takomillashtirilishi soliqlarning turlari, miqdorlari va yig'ib olish usullari xilma-xil bo'lganligi bilan asoslanib kelingan. Masalan, Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti tarixida soliqlar aholidan shaxsiy mol-mulk, yerdan olingan hosil, uy hayvonlari va boshqalar uchun «zakot» sifatida olingan.

Soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslari tashkil topadi. Davlat faoliyatining barcha yo'naliishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish samarali davlat iqtisodiy siyosatini olib borishga, xususan, moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat byudjetini shakllantirish, soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usuli hisoblanadi. Shunday qilib, davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog'liq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining bosh manbaidir.

Aholini soliq munosabatlariga kiritish borasida, insoniyat tarixida yirik davlat arboblardan biri, o'rta asrlarda buyuk sultanat barpo qilgan Amir Temur katta e'tibor qaratgan. U davlatni idora qilish tizimini yuzaga keltirishda asosan soliqlarga tayangan. O'sha davrning davlat moliyasi bu tizimning eng muhim unsurlaridan biri ekanligi, u davlatni boshqarishdagi barcha jihatlariga uzviy bog'langanligi bilan tubdan farq qilib turgani va ayni shu xususiyatga ko'ra boshqaruvning barcha tarkibiy qismlari orasida markaziy o'rinni egallaganligi bugungi kunga kelib hammaga ayon bo'lmoqda. Ammo soliq munosabatlari

haqida qancha rivoyatlar aytib o'tilmagan bo'lsin, uning mohiyati aholi soliq to'loviga nisbatan faqat o'z mohiyatini xazinada topgan. Xazina har qanday tizimda ham davlatni boshqarish vositasi bo'lib xizmat qilgan. Bunday vosita nafaqat davlatni boshqarishda, balki shuning bilan birgalikda aholi manfaatlarini qondirishda namoyon bo'lган. Natijada, xazina taqsimoti taraqqiyot tayanchi bo'lib xizmat qilgan.

Soliqlar qadimgi davrlardan e'tiboran olingan, ammo u vaqtarda soliqlar ozod va erkin bo'lмаган kishining belgisi bo'lib xizmat qilgan. Adam Smit (shotland faylasufi va iqtisodchisi, 1723-1790) o'zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor soliq tamoyillarini asoslab berdi, soliqlarning ahamiyatini yoritib, ularni davlatga to'lash qullik emas, balki erkinlik alomati ekanligini asoslab berdi.

N.Turgenev o'zining «Soliq nazariyasi tajribasi» nomli kitobida (1818yil) shuni ta'kidlaydiki, «Bilimli bo'lishning muvaffaqiyatlari ularning xalqlar urf odatlariga foydali ta'siri darajasiga qarab soliqlar tizimining takomillashuviga ham ta'sir etgan», «...soliqlar bilimga ega bo'lish bilan birga paydo bo'lib, uning belgisi bo'lib qoldi.Soliqlarning tayinlanishi, taqsimlanishi va yig'ilish usuliga qarab xalq orasida tarqalgan ma'lumotlar to'g'risida; yig'iladigan soliqlar miqdoriga qarab uning boyligi haqida fikr yuritish mumkin, bu bilimlilik va ma'rifatni anglatadigan ikkita eng asosiy xususiyatdir» bu so'zlardan yana bir bor amin bo'lish mumkinki, soliqlar qadimiylar moliyaviy institutlar hisoblanib, davlatning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Soliqlar davlat organlarini ta'minlash va ular oldida tutgan vazifalarni bajarilishini moddiy ta'minlashning manbasi sifatida xizmat qilgan. Davlatning rivojlanishi bilan uning vazifa va funktsiyalari yangicha xususiyatlarga ega bo'ldi. Lekin soliqlarning davlatni va uning organlarini moliyalashtirishda manba sifatidagi roli o'zgarmay qoldi.

Shu o'rinda soliqlarga turli iqtisodchilar tomonidan berilgan ta'riflarni keltirib o'tish o'rinnlidir. «Soliqlar, - deb yozadi D. Rikardo, - hokimiyat ixtiyoriga kelib tushadigan yer mahsuloti va mamlakat mehnatining bir qismini tashkil etadi va oxir-oqibatda ular kapital hisobidan yoki mamlakat daromadi hisobidan to'lanadi». ¹⁵ Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, D.Rikardo soliqlar mohiyatini yoritib, o'z navbatida A.Smit tomonidan yaratilgan soliqlar nazariyasini ma'lum darajada rivojlantirgan.

Yana bir maqbul ta'rif S.Pepelyaev tomonidan berilgan: «Soliq - ommaviy hokimiyat sub'ektlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar mulklarini begonalashtirishning majburiylik, yakka tarzda holisona, qaytarmaslik, davlatning majburlashi bilan ta'minlanganlik asoslarida va jazo yoki kontributsiya xarakteriga ega bo'lмаган qonunda belgilangan yagona shaklidir». ¹⁶

Hozirgi paytda iqtisodiy adabiyotlarda soliqlarni iqtisodiy mohiyatini o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy ishlар chop etilgan.

¹⁵ Rikardo D. Sochineniya t. I. «Nachalo politicheskoy ekonomiki i nalogovogo oblojeniya». Per. s angl. - M.: Gospolitizdat, s.360.

¹⁶ Osnovi nalogovogo prava S.G.Pepelyaev Moskva, 1995, 24-s

Masalan, professor D.Chernikning fikricha «Soliqlar — davlat tomonidan xo'jalik sub'ektlari va fuqarolardan qonuniy tartibda o'rnatilgan stavkalarda undirib olinadigan majburiy yig'imlarni o'zida aks ettiradi».¹⁷

Professor B.Boldirev boshchiligidagi yozilgan «Kapitalizm moliyasi» o'quv qo'llanmasida soliqlarga qo'yidagicha ta'rif berilgan: «Soliqlar — davlat tomonidan undirib olinadigan, jismoniy va huquqiy shaxslarning majburiy to'lovlari»¹⁸ haqiqatdan ham bunday olib qaraydigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan ta'riflar eng sodda va keng omma uchun qulay va tushunarli bo'lishi mumkin. Lekin bu ta'riflar o'zida soliqlarning tashkiliy-huquqiy tomonlarini to'laligicha aks ettira olmaydi. Bundan tashqari, ushbu to'lovlar nima maqsadda undirib olinishi hamda qachon undirib olinishi to'g'risida etarli ma'lumotlar bera olmaydi.

Sh.Gataulin «Soliqlar davlatning iqtisodiy tayanchi» maqolasida — «... soliqlar o'zi nima va ular nimaga kerak», degan savolga qo'yidagicha javob beradi: «Soliqlar — bu davlat sarf-xarajatlarining asosiy manbai bo'lib, iqtisodiyotni tartibga soluvchi va daromadlarni barqarorlashtiruvchi vositadir».¹⁹

Soliqlar davlat byudjeti daromadlarini tashkil etuvchi asosiy manba va iqtisodiyotni boshqaruvchi muhim qurol hisoblanadi. Biroq bu ta'rif soliqlarning mohiyatini to'laligicha yorita olmaydi hamda soliqlarning tashkiliy-huquqiy tomonlarini o'zida aks ettira olmaydi. Bundan tashqari iqtisodiy munosabat sifatida, bu munosabatlar ob'ekti bo'lib nima hisoblanadi? degan savollarga javob bera olmaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, prof. O.Olimjonovning fikriga ko'ra soliqlar quyidagicha ta'riflansa, soliqlarning mohiyati kengroq yoritiladi va maqsadga muvofiq bo'ladi «Soliqlar - davlat va jamiyatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajmda va o'rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlardir».²⁰

Bizningcha soliqlarga berilgan mana shu ta'rif eng maqbul ta'rif bo'lib, soliqlarning mohiyati, ularning iqtisodiyotdagi o'rni va rolini, soliqlarning harakat jarayonini nazariy jihatdan chuqurroq yoritib, soliqlar haqida aniqroq tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Tarixan soliqlar, davlatni saqlab turish uchun zarur bo'lgan majburiy to'lovlardan, davlat paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Soliqlar, davlat faoliyat ko'rsatishining moddiy asosini tashkil etadi, ularning iqtisodiy tabiatini xuddi shu yerdan kelib chiqadi.

Biz soliqlarni iqtisodiy mohiyatini to'liq tushunishimiz uchun, dastavval soliq so'zining tarixan mavjud bo'lgan iqtisodiy ma'nosini to'g'ri tushunib tahlil qilib olishimiz lozim.

Soliq tushunchasi - iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'rinni egallaydi. Uning xarakterli tomoni shundaki - u tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik

¹⁷ Chernik D. G. «Nalogi v rinochnoy ekonomike». - Finansi, 1992, №3 s. 19.

¹⁸ Boldirev «Finansi kapitalizma». «Finansi», M.: 1987 s. 21.

¹⁹ Gataulin Sh. K. «Soliqlar va soliqqa tortish». O'quv qo'llanmasi. Uz RFSQ. Tashkent 1996. 18 bet.

²⁰ Olimjonov. O. «Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliq siyosati». «hayot va iqtisod». 1992.

va jismoniy shaxslardan ularga mulkchilik, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruva huquqida tegishli bo'lgan pul mablag'larini davlat va munitsipal tuzilmalarni moliyaviy ta'minlash maqsadida begonalashtirish shaklida undiriladigan majburiy, yakka tartibdagi qaytarib berilmaydigan to'lovlarni aks ettiradi, ya'ni soliq - davlat tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fuqarolardan majburiy qonuniy tartibda belgilangan stavkalar bo'yicha, soliq to'lovchining bundan biron bir muayyan manfaat ko'rishi bilan bevosita bog'lanmagan tarzda undiriladigan pul yig'im.

Hozirgi vaqtida soliqlar vositasida davlat daromadlarining asosiy qismi shakllantiriladi. Bozor munosabatlarining shakllanishi davrida soliqlar korxonalarning iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning bilvosita quroli hisoblanadi.

Yuqoridagi ta'riflarni tahlil qilgan holda quyidagilarni ifodalash mumkin:

a) soliqlarni belgilash huquqi faqat davlatning qonun chiqaruvchi oliy organi - parlamentga beriladi;

b) soliqni fuqaro emas, mulkdor to'laydi;

v) soliq davlat byudjetiga daromad olish uchun belgilanadi;

g) soliq to'lash majburiy xususiyatga ega.

Demak, soliqlar - bu byudjetga tushadigan pul va qonunda belgilangan majburiy munosabatlardir. Soliqlarning majburiyligi Oliy majlis bilan tasdiqlangan huquqiy va me'yoriy qonunlar bilan ta'minlanadi. Shunday ekan, soliqlarni to'lamaslikka, soliq ob'ektini yashirishga, soliq summasini kamaytirib ko'rsatishga na huquqiy va na jismoniy shaxslarning haqqi yo'q.

Soliq to'lash xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fuqarolar bilan davlat o'rtasida yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biror bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki, soliqlar byudjet daromadlari (pul fondi)ni tashkil etishning asosiy vositasi bo'libgina qolmay:

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga;

Ishlab chiqarishni rag'batlantirishda investitsiyalarni ko'paytirishga;

Raqobatbardosh mahsulot hissasini ko'paytirishga;

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga;

Xususiy korxonalar ochish bilan bog'liq bo'lgan bozor infrastrukturasini barpo qilishga;

Umum davlat ehtiyojlarini qondirishga va boshqalarga xizmat qiladi.

Jamiyat rivojlanishi tarixida hali birorta davlat soliqlarsiz mavjud bo'lgan emas. Bozor iqtisodiyotida ham davlat o'zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larning asosiy qismini soliqlar orqali to'playdi. Jumladan, soliqlar respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliq to'lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishga bo'lgan intilishini rag'batlantiradi, narx belgilashga ta'sir ko'rsatadi, aholining turmush darajasini tartibga solib turadi. Imtiyozlar yordamida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi va hokazo. Shuning uchun soliqlar orqali shakllangan mablag'larning eng kam miqdori davlat

vazifasi bajarilishiga taaluqli eng kam xarajat hajmi bilan bog‘liq bo’ladi va shu hajm bilan chegaralanadi.

Soliqlar rivojlangan tovar ishlab chiqarishning muhim kategoriyasi bo’lib, albatta yanada kengroq kategoriya - davlat byudjeti bilan chambarchas bog‘langan. Chunki, soliqlar byudjetning shakllanishida ishtirok etadi.²¹

Soliqlar moliyaviy resurslarni davlat ixtiyorida to’planib borishini ta’minlaydi, bu resurslardan iqtisodiy rivojlanishning umum davlat, mintaqaviy vazifalarni hal qilish, ishning samaradorligi va sifatini rag‘batlantirish, ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib daromadlarni tartibga solish uchun foydalaniladi.

Davlat soliqlarni davlat byudjetini shakllantirish uchun amalga kiritadi, soliqlar birorta aniq xarajatlarni qoplash maqsadiga ega emas, bu ayrim turdag'i daromadlardan tushadigan tushumlardan amalga oshiriladigan xarajatlar ularga bog‘liq bo’lib qolishini oldini olish zarurati bilan asoslangan. Biroq bir qancha hollarda umumiyligi soliqlar bilan birga maqsadli soliqlar ham belgilanadi, ularni amalga kiritilishi iqtisodiy faoliyatda ijobjiy rol o’ynashi mumkin.²²

3. Soliqlarning umumiyligi belgilari va boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqi.

U yoki bu iqtisodiy kategoriyaning mohiyatini chuqurroq anglash uchun unga xos umumiyligi belgilarni aniqlash lozim bo’ladi. Masalan, kredit iqtisodiy kategoriya sifatida muddatilik, qaytarishlik, muayyan miqdorda ustama haq (foiz) to’lash kabi umumiyligi belgilarga egaki, ushbu belgilar kredit kategoriyasi mohiyatini kengroq yoritish uchun xizmat qiladi. Xuddi shu kabi soliq kategoriyasi ham bir qator o’ziga xos belgilarga egaki, ushbu belgilar soliqlarning boshqa to’lovlardan farqlash uchun xizmat qiladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, soliqlarning belgilari borasida ham iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil fikrlar mavjud. Masalan, prof. Q. Yahyoev soliqlarni umumiyligi belgilari sifatida quyidagilarni asoslaydi.

1. Soliqlar va yig‘imlar majburiy bo’lib, bunda davlat soliq to’lovchining bir qismi daromadlarini majburiy badal sifatida byudjetiga olib qo’yadi. Bu majburiylik Oliy Majlis tasdiqlab bergen Soliq Kodeksining qoidalari asosida amalga oshiriladi. Demak, majburiylik belgisi huquqiy jihatdan davlat tomonidan kafolatlanadi.

2. Soliqlar xazinaga davlat byudjetiga tushadi. Ammo boshqa turdag'i to’lovlar «Umid», «Ekosan» kabi jamg‘armalarga tushishi soliq munosabatlarini aks ettirmaydi.

3. Soliqlar qat’iy belgilangan va doimiy harakatda bo’ladi. Tarixan asrlab o’zgarmay harakatda bo’lgan soliqlar mavjud. Uning ilmiy asosi qancha chuqur bo’lsa, shuncha qat’iy va uzoq yillar o’zgarmasdan harakat qiladi.

²¹ Vohobov A., Srojiddinova Z. «O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti». TMI 2002, 115 b. 36 – bet.

²² Xvan L.B.: Solik huquqi. Toshkent Konsauditinform, 2001. 26-bet

4. Davlatga to’langan soliq summasi to’lovchining o’ziga to’liq qaytmaydi, ya’ni u ekvivalentsiz pul to’lovidir.²³

Rus iqtisodchisi A.Medvedev o’zining «Soliqlarni qanday rejalashtirmoq kerak» nomli kitobida soliqlarga xos bo’lgan ikki belgini, ya’ni majburiylik va ekvivalentsizlik kabi belgilarni qayd etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizningcha soliqlarning umumiy belgilarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Soliq to’lovchi pulning u yoki bu summasini davlatga to’lap ekan, buning evaziga bevosita biron-bir tovar yoxud xizmat olmaydi. Alovida olingan soliq to’lovchi tomonidan to’langan soliq miqdori bilan u iste’mol qiladigan ijtimoiy ne’matlar o’rtasida to’g‘ridan-to’g‘ri bog‘liqlik mavjud bo’lmaydi. Xuddi ana shu xususiyatiga ko’ra soliq narxdan, (tovar yoki xizmatlarni ixtiyoriy iste’mol qilganligi uchun to’lanadigan haq sifatida) ruxsatnomalar (litsenziya) lar va vositachilik yig‘imlaridan farq qiladi, chunki bular majburiy yoki ixtiyoriy to’lovlardan hisoblansada, biroq hamma vaqt hukumat tomonidan ko’rsatilgan xizmatdan muayyan foyda (naf) ko’rilishi bilan bog‘liqdir.

Davlatga to’lanadigan soliqlar bilan uning evaziga olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy ne’matlar o’rtasida bevosita, har bir kishining ko’zi ilg‘aydigan bog‘liqlikning yo’qligi soliq to’lovchilar soliqqa tortishni yuk sifatida baholashlari uchun sabab bo’ladi, vaholangki, ular soliqlar hisobidan qilinadigan davlat xarajatlarining yo’nalishini ma’qullashlari ham mumkin.

Alovida olingan soliq to’lovchi odatda jamiyat va o’zining ko’rgan foydasi yoki manfaatini to’lagan soliqlari bilan solishtirib o’tirmaydi. Bu shunga olib keladiki, oqibatda fuqarolarning bir qismi soliqlar to’lashdan buyin tovlashga, o’z daromadlarini yashirishga urinadi. Davlat o’z fuqarolaridan yig‘ib olgan soliqlarni samarali va oshkora tarzda ishlatsa hamda fuqarolarning aksariyat qismi davlatning iqtisodiy ijtimoiy va boshqa dasturlarini o’z mablag‘lari hisobidan pul bilan ta’minalashga rozi bo’lgandagina yuksak soliq axloqi tamoyillari yuzaga keladi.

2. Soliqlar majburiy to’lovlardan hisoblansadi. Soliqlarning to’liq miqdorda va o’z vaqtida to’lanishi uchun javobgarlik soliq to’lovchilar zimmasiga yuklangan bo’lsada, ular ixtiyoriy emas, majburiy ravishda to’laydilar, davlat soliq to’lashdan bo’yin tovlaganlarni qattiq jazolaydi.

3. Davlat foydasiga soliq to’lash orqali daromadning avvaldan belgilab qo’ylgan, eng muhimi, qonuniy tartibda ko’zda tutilgan qismi undirib olinadi. Ko’pgina davlatlarning, shu jumladan, O’zbekistonning ham qonunlarida soliqlarni belgilash va ularning hajmlarini aniqlashga faqat Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat yoki uning tomonidan vakolat berilgan organlar haqlidirlar, deb mustaxkamlab qo’ylgan. O’zining xohish-istagiga qarab yangi soliqlar belgilash yoki ularning hajmlarini aniqlashga hech kimning haqqi yo’q. To’lovlarining qonuniy, ochiq-oydin xususiyatga ega bo’lishi soliqlarning bosh tavsifi hisoblansadi.

²³ Yahyoev Q. «Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti». T-2003 y.

4. Soliqlarning yana bir belgisi ularning davlat yoki mahalliy byudjetga kelib tushishidir, ya’ni soliqlar byudjetdan tashqari fondlar yoki turli xil boshqa fondlarga kelib tushmaydi.

5. Soliqlarga xos bo’lgan umumiyligini belgilardan biri sifatida davlat hamda yuridik va jismoniy shaxslar o’rtasida mulkchilikni qayta taqsimlash jarayonini yuzaga kelishidir. Soddarot qilib aytganda korxonalar va aholidan olinadigan soliqlar, aslida ular mulkinining ma’lum bir qismini davlat hisobiga o’tkazilishini bildiradi. Bu bilan xo’jalik yurituvchi sub’ektlarga tegishli bo’lgan mulk daromad shaklida majburiy to’lov bo’lib, davlat mulkiga aylanadi.

Demak, yuqorida qayd etilgan soliqlarga xos bo’lgan umumiyligini belgilar ularni iqtisodiy mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Soliq kategoriyasi boshqa iqtisodiy kategoriyalar: moliya, kredit, sug’urta, investitsiya kabilalar bilan umumiyligini o’xshashlikka ega, ya’ni ularning barchasi pulli munosabatlarni ifodalaydi. Lekin soliqlarning o’ziga xos yuqorida qayd etilgan belgilari mavjudki, ushbu belgilar soliqlarni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqlash uchun xizmat qiladi.

4. Soliqlarning funktsiyalari va vazifalari.

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan huquqiy va jismoniy shaxslar o’rtasida vujudga keluvchi ob’ektiv majburiy to’lov larga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali xarakterlanadi. Bu moliyaviy munosabatlar maxsus ijtimoiy xarakterga ega bo’lib, milliy daromadning bir qismi bo’lgan pul mablag’larini davlat ixtiyoriga safarbar qilishga xizmat qiladi.

Soliqlarning mohiyati ularning bajaradigan funktsiyalaridan kelib chiqadi. Har bir iqtisodiy kategoriyaning o’z funktsiyasi mavjud. Soliq ham mustaqil kategoriya sifatida o’zi bajaradigan funktsiyalarga ega bo’lib, bu funktsiyalar soliq kategoriyasining amaldagi xarakatini ifodalaydi. Funktsiya deganda, odatda, kategoriyaning hayotda ko’p qaytariladigan, takrorlanadigan doimiy xarakatlarini tushunish lozim.

Soliqlarning funktsiyalari to’g’risida turli xil qarashlar mavjud. Sobiq sotsialistik mamlakatlar iqtisodchilari o’rtasida soliqlar ikki funktsiyani bajaradi, degan qarash keng tarqalgan edi. Bu ikki funktsiya sifatida fiskal va nazorat funktsiyalari tan olinardi. Ularning fikriga ko’ra eng asosiy funktsiya bu soliqlarning fiskal funktsiyasidir, chunki usiz nazorat funktsiyasining mavjud bo’lishi mumkin emas.

G’arb iqtisodchilari ko’pchiligining nazariyalari angliyalik iqtisodchi J.Keynsning kontseptsiyasiga asoslanadi. By kontseptsiyaga ko’ra soliqlar fiskal funktsiyasidan tashqari iqtisodiyotni tartibga solish, rag’batlantirish va daromadlarni boshqarish vositasi funktsiyalariga ega, soliqning bu funktsiyalari uni iqtisodiyotni tartibga solish va iqtisodiy barqaror o’sishni ta’minalash vositasi sifatida foydalanish zarurligidan kelib chiqadi.

Neokeynschilik yo’nalishi vakillari bo’lgan L.Xarrot, N.Kaldor, A.Xansen va P.Samuelsonlarning fikriga ko’ra soliqlar iqtisodiyotni tartibga solish funktsiyasiga

ega. Ular soliq stavkalarini o'zgartirish va turli imtiyozlar berish yo'li bilan bu funktsiyani bajarish mumkin deb hisoblaydilar.

Soliqlarning daromadlarni boshqarish funktsiyasini yuzaga kelishiga frantsuz iqtisodchisi E.De Jirardenning nazariyasi asos bo'lgan. Bu nazariyaga ko'ra, soliqlar yordamida soliqqa tortishning progressiv shkalasini qo'llash yo'li bilan jamiyat a'zolari o'rtasidagi mulkiy tengsizlikka barham berish mumkin. Hozirgi kunda bu nazariyaning davomchilari bo'lib, amerikalik iqtisodchilar A.Ilersik, G.Koul, frantsuz iqtisodchilari M.Klyudo, J.Furaste hisoblanishadi. Ularning fikriga ko'ra, davlat soliqlardan va transfert to'lovlaridan foydalanish yo'li bilan jamiyat milliy daromadini kambag'allar foydasiga qayta taqsimlaydi. Bu nazariyalar soliqlarning daromadlarni tartibga solish funktsiyasi mavjud degan xulosa kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Malmiginning fikriga ko'ra soliqlar uch funktsiyani bajaradi, ya'ni fiskal, taqsimlash va rag'batlantirish. Uning fikriga ko'ra birinchi funktsiya davlat daromadlari manbalarining tashkil topishi bilan bog'liq, ikkinchisi huquqiy va jismoniy shaxslarning daromadlarini taqsimlashni nazarda tutadi. Rag'batlantirish funktsiyasi turli imtiyozlar va engilliklar berish yuli bilan amalga oshiriladi.²⁴

O'z-o'zidan ko'rinish turibdiki, G'arb iqtisodiy adabiyotlaridagi daromadlarni boshqarish funktsiyasi I.Malmiginda taqsimlash funktsiyasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Soliqlarning funktsiyalari ularning mohiyatini amaliyotda harakat qilayotganligini ko'rsatadi. Shunday ekan, funktsiya doimo yashab, soliq mohiyatini ko'rsatib turishi zarur. Bugun paydo bo'lib ertaga yo'q bo'lib ketadigan holatlar soliq funktsiyasi bo'la olmaydi. Demak, funktsiya kategoriyasi doimiy, qat'iy takrorlanib turadigan voqe'likni ifodalarydi. Shunday uslubiy yondashishdan kelib chiqib soliqlar funktsiyasini aniqlash kerak.

Soliqlarning funktsiyalari masalasida katta bahslashuvlar mavjud, lekin yagona bir fikrga kelingan emas. Ko'pchilik iqtisodchilar soliqlarga fiskal, boshqaruvchi, rag'batlantiruvchi, nazorat funktsiyalari xos deb ta'rif berishadi.

Bizning fikrimizcha, soliqlarning quyidagi asosiy funktsiyalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

1. Soliqning fiskal funktsiyasi
2. Tartibga solish funktsiyasi.
3. Rag'batlantirish funktsiyaschi
4. Soliqning nazorat funktsiyasi.
5. Soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funktsiyasi.

1. Soliqlarning asosiy funktsiyasi - fiskal funktsiya hisoblanib (lotincha fiscus so'zidan olingan bo'lib, xazina degan ma'noni anglatadi), bu funktsiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi. Soliqlar orqali korxonalar va fuqarolar daromadining bir bo'lagini davlat apparatini, mamlakat mudofaasini, noishlab chiqarish sohasining umuman o'z daromadlari

²⁴ Malmigin I. Nalogi kak elementi finansa. M.: perevod s angl. 1997 g. str. 69

manbaiga ega bo'limgan qismini (ko'pgina madaniyat muassasalari, jumladan, kutubxonalar, arxivlar va boshqalar) yoki lozim darajada rivojlanishini ta'minlash uchun o'zining mablag'i etishmaydigan tarmoqlarni (fundamental opgan, teatrlar, muzeylar, ko'plab o'quv yurtlari va hokazo) saqlab turish maqsadida undirib olish yo'li bilan davlat byudjetining daromad qismini shakllantirish soliqlar fiskal funktsiyasining eng muhim elementi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan fiskal funktsiyaning ahamiyati oshib boradi. Ishlab chiqarish ijtimoiy tusdaligining chuqurlashishi fan-texnika taraqqiyotining rivojlanish munosabati bilan asosan soliqlar hisobiga shakllantiriladigan moliyaviy resurslar oqimini ko'paytirishning real zarurati yuzaga keladi. Davlat iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlarga ko'proq e'tibor bergen sari ko'p moliyaviy resurslarni sarflamoqda, lekin soliq tizimi o'zining fiskal funktsiyasi vazifalarini bajarishi jarayonida ishlab chiqarish o'sishiga, jamg'arish jarayoniga halal bermasligi, ijtimoiyadolatni buzmasligi hamda xalq xo'jaligining umumiy tuzilmasida buzilishlar va chetga chiqishlar sodir bo'lishiga yo'l qo'ymasligi, bozor jarayoniga putur etkazmasligi kerak.

Soliqlarning ushbu funktsiyasi orqali hosil bo'ladigan pul resurslari davlat fondi (davlat byudjeti) orqali qayta taksimlanadi, ular ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga, ustuvor tarmoqlarni investitsiyalashga yo'naltiriladi.

Jahon amaliyotida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar uchun soliq imtiyozlari va yuqori daromad oluvchi shaxslar uchun progressiv stavkalar belgilash ham qo'llanadi, ya'ni aholining kam daromad oladigan qismini ijtimoiy himoya qilish maqsadida daromadlarni bir qismi qayta taqsimlanadi. Bunday yondashuvlar soliqqa tortiladigan daromad aniqlanayotganida soliqqa tortilmaydigan minimum miqdoridagi daromad qo'shilmaydi, ayni paytda ortiqcha daromadlar soliqqa yuqori progressiv stavkalar bo'yicha tortiladi.

Soliqlarning ko'pchiligi ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarni yuzaga kelgan vaziyatni hisobga olgan holda joylarda korxonalar faoliyatining iqtisodiy shart-sharoitlarini o'zgartirishga majbur etib, moliyaviy resurslarni makrodarajada qayta taqsimlashga olib keladi.

2. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida soliqlarning ikkinchi muhim funktsiyasi ularning iqtisodiyotdagি tartibga soluvchilik roli hisoblanadi, ya'ni davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga soladi va bu bilan xalq xo'jaligi tarmoqlarining iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun muayin «soliq muhiti»ni yaratadi. Ushbu funktsiya orqali soliq tizimiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni muayyan tarmoqda ishlab chiqarish sur'atlarini rag'batlantiradi yoki jilovlab turadi, sarmoyaning bir tarmoqdan soliq muhiti eng ma'qul bo'lgan boshqa tarmoqqa qo'yilishini kuchaytiradi yoki pasaytiradi, shuningdek aholining to'lovga qobil talabini kengaytiradi yoki kamaytiradi.

Soliqlarning tartibga soluvchi sifatidagi funktsiyasining ahamiyati bozor sharoitida o'sib boradi, bu davrda tadbirkorlarni ma'muriy qaram qilish usullari yo'q bo'lib ketadi yoki juda oz holda qoladi, korxonalar faoliyatini farmoyishlar,

ko'rsatmalar va buyruqlar yordamida idora qilish huquqiga ega bo'lган «yuqori tashkilot» tushunchasining o'zi asta-sekin yo'qola boradi. Biroq iqtisodiy faollikni izga solib turish, uning rivojlanishini jamiyat uchun maqbul bo'lган yo'naliishda rag'batlantirish zarurati saqlanib qoladi.

3. Rag'batlantirish funksiyasi soliq tizimining eng muhim funksiyalaridan biri bo'lib, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom ashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg'arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, ya'ni soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moliyaviy ahvolni mustahkamlashga va investitsiya faoliyatini jonlantirishga rag'batlantiradi. Soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi orqali davlat xalq xo'jaligi taraqqiyotini rag'batlantiradi, bu bilan fiskal funksiyani bajarish uchun bazani kengaytiradi, ishlab chiqarishni soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi orqali rag'batlantirib, davlat oqilona soliq siyosatini olib borish bilan soliq yukini kuchaytirmasdan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning erkin faoliyat ko'rsatishi ta'minlanadi.

4. Soliqlarning nazorat funksiyasi soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan, soliqqa tortish ob'ekti, soliqqa tortiladigan baza, imtiyozlar singari va hokazo tegishli soliq ko'rsatkichlarining hisob-kitoblarini tekshirishdek ancha murakkab jarayondan iborat. Soliq hisobi soliq idoralariga belgilangan soliq hisobi shakllari orqali soliq to'lovchilar o'zlarining soliq majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi.

5. Soliqlarni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funksiyasi ham muhim ahamiyat kasb etib, bu funksiya orqali xarajatlar hajmi va konkret soliqlar davlatning qanday ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini bajarishga sarflanganligi to'g'risida axborot berib turilishi juda zarurdir. Shunday qilinsa, soliqlarning byudjetga tushishi to'liq, o'z vaqtida va oson kechadi.

Bizni soliq funksiyalarini qisqacha ko'rib chiqishimiz soliqlar moliya resurslarini tiklash, xo'jalik faoliyatini tartibga solish va daromadlarni ijtimoiy jihatdan ahamiyatli maqsadlar uchun qayta taqsimlash bo'yicha muhim vazifalarni bajaradi deb xulosa chiqarishimiz uchun imkon beradi.

Soliqlarning iqtisodiyotdagi yuqorida ta'kidlangan muhim o'rnini belgilovchi bir qancha funksiyalar mavjud. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida soliqlarning o'rnini belgilovchi quyidagi asosiy omillarni ko'rsatib o'tish mumkin.

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilishning zarurligi.

Bizga ma'lumki, respublikamizda iqtisodiyotni isloh qilish va davlat qurilishini amalga oshirish Respublika prezidenti I A. Karimov tomonidan ilgari surilgan besh asosiy tamoyiliga asoslanadi. Bu qoidalardan biri kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdir. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholi, ayniqsa uning kam ta'minlangan qatlamlari etarli darajada ijtimoiy himoyalangan bo'lishi kerak.

2. Agrar sektordagi islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish zarurligi omili.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida eng asosiy tarmoq agrar sektor hisoblanadi. Masalan, ikkinchi jahon urushidan keyin tiklanayotgan Yaponiya iqtisodiyoti uchun mashinasozlik etakchi tarmoq sifatida rivojlantirilgan edi. Bu tarmoq Yaponiya iqtisodiyotini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi. Bu eng avvalo, uning mamlakatga chet el valyuta tushumlarini olib kelishda namoyon bo'lidi. O'zbekistan Respublikasida qishloq xo'jaligi ana shunday asosiy tarmoq vazifasini o'tamoqda.

Yuqoridagilardan ko'rindaniki, qishloq xo'jaligida soliq, kredit vositalari yordamida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktyabrdagi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 dekabrdagi 539-sonli qaroriga muvofiq qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun umumiyl belgilangan tartibdagi soliq va yig'imlar o'rniga byudjetga 1999 yilning 1 yanvaridan boshlab yagona yer solig'i to'lash tartibi joriy qilindi.

3. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida soliqlarning o'rnini belgilovchi asosiy omillardan yana biri - hozirgi kunda ko'payib borayotgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy va huquqiy shaxslarning daromadlarini jalb qiluvchi mukammal soliq to'lovini yuzaga keltirish.

Bozor munosabatlarining rivojlanib borishi xususiy tadbirkorlik faoliyatini keng quloch yoyishi va xususiylashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi, tadbirkorlar daromadini hisobga olishni qiyinlashtiradi. Xususiylashtirilgan bitta korxona o'rnida o'nlab kichik, xususiy va jamoa mulkiga asoslangan korxonalar paydo bo'ladi. Mukammal soliq mexanizmi yaratilmaganligi uchun daromadlar summasini aniqlashda jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin.

O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-sonli qaroriga muvofiq kichik korxonalar uchun umumiyl belgilangan tartibdagi soliqlar o'rniga byudjetga ixchamlashtirilgan soliq to'lash imkoniyati vujudga keldi. O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishda ixchamlashtirilgan soliq tizimining joriy qilinishi bu tadbirkorlar uchun davlat tomonidan ko'rsatilgan katta yordam bo'lidi.

Yuqorida tilga olingan omillar soliqlarning respublika iqtisodiyotida o'ziga xos o'rni borligidan dalolat beradi.

Soliqlar iqtisodiyotning tarixiy rivojlanishi bosqichlarida ushbu rivojlanish jarayonlarini ta'minlash maqsadiga bo'yinuvchi vazifalarni bajaradi. Soliqlarning funktsiyalari esa ana shu vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Soliqlar bajaradigan vazifalar ko'pchilik mamlakatlarning soliq qonunchiligidagi umumiyl o'xshashliklarga ega. Ana shunday an'anaviy soliq vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Umumdavlat vazifalarini hal qilish uchun davlatga zaruriy moliyaviy resurslar ta'minlab berish. Soliqlarning fiskallik funktsiyasi ushbu vazifani hal qilish maqsadlariga xizmat qiladi. Bu vazifani hal qilish davlatning iqtisodiyotga qay darajada aralashuviga ko'p jihatdan bog'liq. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori

bo'lsa, soliqlarning fiskallik funktsiyasi shunchalik faol buladi. Ammo soliqlarning ushbu vazifasi faqat iqtisodiy jarayonlarni qamrab olmaydi, balki davlatning noishlab chiqarish xarajatlarining ko'payishi ham davlatning ortiqcha moliyaviy resurslarga muhtojligini keltirib chiqaradi.

- Mamlakat iqtisodiyotida qulay investitsiya muhitini yaratishga ko'maklashish. O'zbekiston Respublikasida soliqlarning ushbu vazifasini bajarishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, hozirgi kunda sarmoyalarning asosiy qismi savdo va xizmatlar sohasiga yo'naltirilayotganligi tashvishli holdir. Buning asosiy sababi foyda normasining bu sohalarda kattaligidir. Soliqlar sarmoyalarni bevosita mahsulot ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirishning qudratli vositasi bo'lishi kerak.

- Aholining mehnat faolligini rag'batlantirish. Soliqlar deyarli barcha mamlakatlarda ushbu vazifani bajaradi. Chunki, ular aholi daromadlarini tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi. Daromadlardan olinadigan soliq stavkalarining eng yuqori chegarasini sezilarli darajada pasaytirish ishchi kuchining taklifi bilan bog'liq salbiy oqibatlarning oldini olishi mumkin. 70-80 yillarda Shvetsiyada soliq stavkalarining aholi daromadlariga progressiv ravishda qo'llash malakali ishchilarning boshqa mamlakatlar tomon migratsiyasiga olib kelgan.

- Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida daromadlarni taqsimlashning samaradorlik va adolat printsiplari o'rtasidagi muvofiqlikka erishish. Amaldagi soliqlarga barqarorlik va moslanuvchan soliq stavkalarining xosligi soliqlarning uzoq muddatli vazifalarini amalga oshirishga zamin yaratadi. Milliy va xorijiy investorlar kapital qo'yilmalarini amalga oshirar ekan, ular o'zlarining soliq majburiyatlarini aniq bilishi kerak. Soliq turlari va stavkalarini barqaror va tez-tez o'zgarmaydigan bo'lishi kerak. Soliq tizimiga mustahkam ishonch bo'limgan taqdirda uzoq muddatli investitsiyalarning xarakati susayadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, soliqlarning byudjetga ijobiy ta'siridan tashqari, muhim iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish sohasida ham ulardan faol foydalanish mumkin. Narx-navoning isloh qilinishi, tashqi savdoning erkinlashtirilishi, mehnat bozorining isloh qilinishi va hokazolar yangi paydo bo'lgan tijorat strukturalarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bu vazifani soliq stavkalarining tabaqalashtirish yo'li orqali hal etish mumkin.

Shunday qilib, soliqlarning vazifalari ularni amalga oshirish muddatiga qarab, qisqa muddatli, o'rta va uzoq muddatli vazifalarga bo'linadi. Bu vazifalar mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Soliqlar nafaqat davlat byudjetining tushumlariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga, balki davlat daromadlarini byudjetning o'rta muddatli rejada hayotiyligini yaxshilash maqsadida moslashuvchanligini amalga oshirishga ham xizmat qilishi mumkin.

5. Soliqlarning tamoyillari.

Soliqlarning funktsiyasini o'rganish ularning iqtisodiyotdagi rolini ko'rsatib bersa, soliqqa tortish tamoyillari soliq munosabatlarini amaliyotda tashkil etish, soliqqa tortish, uni undirish amaliyotining mazmunini ochib beradi. Ko'plab

iqtisodchilar soliqqa tortish iqtisodiyotning ravnaqiga olib kelishi mumkin bo'lgan tamoyillarni qayd etishgan.

Soliqqa tortish tamoyillarini A.Smit o'zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor soliq tamoyillarini asoslab bergan:

1. Davlat fuqarolari davlat xarajatlarini qoplashda o'zлari hukumat muhofazasida foydalananayotgan daromadlariga muvofiq tarzda qatnashishlari lozim.

2. Har bir odam to'laydigan soliq aniq belgilab qo'yilgan bo'lshi kerak, bunda o'zboshimchalik ketmaydi. Soliq miqdori, to'lanadigan vaqt va tartibi uni to'lovchiga ham, boshqa har qanday odamga ham birday aniq va ma'lum bo'lshi zarur.

3. Har bir soliq to'lovchiga har jihatdan qulay bo'lgan vaqtida va tartibda undirilishi kerak.

4. Har bir soliq shunday tarzda tuzilishi kerakki, bunda soliq to'lovchining hamyonidan ketadigan pul davlat byudjetiga kelib tushadigan mablag'ga nisbatan ortiq bo'lshiga mumkin qadar yo'l qo'yilmasin.

Hozirgi sharoitga tatbiqan olganda, soliqqa tortish samarali tizimining quyidagi tamoyillarini ta'riflab o'tish mumkin:

1. Etarilik tamoyili. Mazkur tamoyilga muvofiq soliqqa tortish darjasini shunday bo'lshi lozimki, u davlat intilayotgan xalq xo'jaligi samaradorligiga erishishni kafolatlay olsin. Soliqqa tortish tizimi iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, mudofaa qobiliyati va boshqa sohalardagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliya resurslari to'planishini ta'minlasin. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, soliq stavkalari o'zicha olganda soliq yuki ko'rsatkichi hisoblanmaydi, chunki soliq to'lovchi soliq to'lar ekan, davlat tomonidan bepul xizmatlardan bahramand bo'lgani holda, ayni choqda o'zining ba'zi xarajatlarini qisqartiradi. Masalan, davlat umumiyligi foydalinish yo'llarining holati yaxshi saqlanishini ta'minlash bilan soliq to'lovchining transport xarajatlarini kamaytiradi, bepul maorif, sog'liqni saqlashni ta'minlash bilan yollanma xodimlarning xarajatlarini qisqartiradi, demak, ish haqi xarajatlarini ham kamaytirgan bo'ladi. Shunday qilib, to'langan soliqlarning faqat xizmatlar ko'rinishidagi talab etilmagan bir qismigina soliq yuki ko'rsatkichi hisoblanadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, etarilik tamoyili soliq siyosatini belgilayotganda uni davlatning qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan qat'iy ravishda uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

2. Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish. Soliq tizimi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni, jumladan, chet el sub'ektlarini, ishlab chiqarishni rivojlantirish, uskunalar va zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag' yo'naltirishni, ya'ni kapital jamg'arish va shu yo'l bilan texnologiyalarni takomillashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishi lozim.

Soliq tizimi resurslarning samarali taqsimlanishiga to'sqinlik qilmasligi hamda xo'jalikni mustaqil yuritish omillarini cheklab qo'ymasligi lozim. Agar soliqlar katta bo'lgani uchun tadbirkorlarning ishlab chiqarishni kengaytirishdan, boshqa turdag'i iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdan manfaatdorligiga putur etkazsa,

mamlakat iqtisodiyoti pastga qarab ketishi xavfi tug‘iladi. Soliqlar miqdori haddan tashqari katta qilib belgilansa, ishlab chiqarish hajmlari kamayib ketadi, bu jarayon zahiralar, banklardagi pul mablag‘larining barakasi uchishiga, ilgari to’plangan mablag‘larning eyilib ketishiga olib keladi.

Soliqqa tortish, agar u, birinchidan, ishchi kuchini ishlab chiqarish uchun talab qilinadigan darajada saqlab turishga zarur bo’lgan iste’molning minimal hajmlariga salbiy ta’sir etsa, ikkinchidan, mehnatga nisbatan iqtisodiy va moddiy rag‘batlarning harakat doirasini toraytirib qo’ysa, uchinchidan, jamg‘arma miqdorini kamaytirsa va mablag‘ning to’planish jarayonini sekinlashtirsa, ishlab chiqarish imkoniyatlarini yomonlashtirib yuborishi mumkin.

Soliqqa tortishning keyingi ikki salbiy omilini bat afsil ko’rib chiqaylik. Moddiy rag‘batlantirishlarga nisbatan soliqqa tortishning noxush ta’sir etishi ish haqi tizimida salbiy alomatlar paydo bo’lishida ko’zga tashlanadi.

Yuqori darajada tabaqalashtirilgan soliq stavkalarining qo’llanilishi natijasida xodim tomonidan ana shu moddiy rag‘batni qabul qilishdagi oddiylik va maqbullik ko’lami torayib qoladi.

Soliqqa tortish bazasi va uning hajmlarini noto’g‘ri belgilash xodimlarning malaka oshirishga, ratsionalizatorlik va ixtirochilik faoliyati bilan shug‘ullanishga va boshqa sohalarga bo’lgan intilishiga salbiy ta’sir etadi, boisi - mehnatga to’lanadigan haq miqdori, haqiqiy mehnat xarajatlarining murakkabligi va xususiyati o’zgarishi befarq bo’lib qoladi.

Soliqqa tortishning iqtisodiy omillarga ta’siri ikki xil ko’rinishda bo’ladi hamda qiyosiy oqibat va daromad oqibati shaklida ifodalanadi. Qiyosiy oqibat mehnat natijalari, jamg‘arish, investitsiyalash, yangi g‘oyalarni joriy etish va ishlab chiqarish faoliyatining boshqa xil ko’rinishlari bilan shug‘ullanish uchun nisbatan kamroq darajada rag‘batlantirishda namoyon bo’ladi. Ayniqsa, progressiv (oshib boruvchi) soliqqa tortishda bunday oqibatning rag‘batlantirishga zid ta’siri yaqqol ifodalanadi.

Dunyodagi bir qator mamlakatlarda kapitaldan kelgan daromad va iste’molga qarab soliqqa tortishni ko’zda tutgan soliq islohoti o’tkazilmoqda. Soliqqa tortishning salbiy ta’sirini silliqlash maqsadida ishchi kuchini taklif etish sohasida ish haqi ko’rinishidagi daromadlardan olinadigan soliqlarning eng yuqori qilib belgilangan stavkalari pasaytirilmoqda. Jamg‘arish va investitsiyalashga soliqlarning ta’sir etishi borasida ham muayyan yutuqlarga erishildi.

Soliqlarning ta’siri investitsiyalar tarkibida ham yaqqol seziladi. Turli ko’rinishdagi aktivlar uchun joriy etilgan har xil soliq tartiblari investitsiya imkoniyatlari va sarmoyadorlarning portfeli tarkibida sezilib qoladi. Soliq tizimidagi kamchilik va nuqsonlar iqtisodiy o’sish sur’atlarining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin, bu hol pirovard natijada davlat byudjeti daromadlarining o’zgarishiga ham ta’sir etmay qolmaydi.

Soliqqa tortishdagi og‘irlikni kapitaldan shaxsiy jamg‘arishga o’tkazishning umumiy ta’sirini bir xil ma’noda baholash qiyin, jamg‘armaning umumiy hajmi uchun kelib chiqadigan oqibatlar soliq tushumlarining hukumat tomonidan ishlatilish xususiyatiga bog‘liq bo’ladi.

Agar yopiq iqtisodiyot sharoitida soliq tizimi uy xo'jaliklaridagi jamg'armalar darajasining pasayib ketishiga olib kelgan bo'lsa, u holda bir tekis foiz stavkasi oshgan, bu esa investitsiya kapitaliga talabning kamayishi ta'sir ko'rsatgan bo'ladi. Ochiq iqtisodiyotda esa, jamg'armalardan olinadigan daromad soliqlari investitsiyalarga cheklangan darajada ta'sir qiladi, chunki bunda chet eldan kapitalning ko'proq oqib kelish imkoniyati bor, binobarin, xorijlik sarmoyador jahon bozorida ustun hisoblangan stavkani mo'ljallaydi. Biroq bunday holatda kapitalga bo'lgan mulkchilik harakatga keladi. Bunga misol tariqasida Yaponiyadan kapitalning AQShga oqib o'tganligini ko'rsatish mumkin, AQShda kapitaldan foydalanganlik uchun foiz stavkasi past bo'lgan. Ayni paytda AQShda rezidentlar jamg'armalarini soliqqa tortish stavkasi Yaponiyadagiga qaraganda yuqori edi.

Binobarin, soliq siyosati o'z-o'zidan, agar u davlatning moliya-pul siyosati boshqa unsurlaridan ayri holda amalga oshirilsa, takror ishlab chiqarish jarayonlariga rag'batlantiruvchi ta'sir o'tkazmasligi ham mumkin.

3. Soliqqa tortishningadolatlilik tamoyili. Adolat tamoyillariga muvofiq, soliqlar jamiyat tomonidan oqilona va adolatli deb tan olingan umumiy ob'ektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim. Adolatlilik tamoyilining bir qancha asosiy guruhdagi soliqqa tortish tamoyillariga bo'linadi. Bularni ikki guruhga bo'lgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda gorizontal va vertikal adolatni bir-biridan farqlash lozish. Gorizontal adolat tamoyili daromad olishning turli sharoitlarida soliq to'lovchilarga nisbatan soliqqa tortishning taxminan teng shartlarini qo'llanishni ko'zda tutadi.

Vertikal adolat deganda, xo'jalik yuritishning bir muncha og'ir sharoitlarida ishlayotgan sub'ektlar uchun soliqqa tortishning bir qadar yumshoqroq shartlarini, engil daromad olish imkoniyatiga ega bo'lgan sub'ektlar uchun esa og'irroq shartlarni qo'llanish tushuniladi. Soliqlarning rag'yuatlantirish funktsiyasini bajarish doirasida ikkinchi tamoyil buzilishi mumkin. Masalan, xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida ularni ishlab chiqarish bo'yicha soliqqa tortishda bir qadar imtiyozli shartlar yoki buning aksicha vino-aroq va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishni cheklash uchun ulardan olinadigan egri soliqlarning yuqori stavkalari belgilangan hollar ham bo'ladi.

Ijtimoiy adolat tamoyilini amalga oshirishga turlicha yondashuvlar bo'lishi mumkin. Agar soliqlarni to'plangan soliqlar hisobidan ro'yobga chiqariladigan davlat dasturlaridan keyinchalik foya ko'radian shaxslar to'lasa, u holda adolatlil deb hisoblanadi. Aytaylik, transport vositalariga soliqlardan tushadigan mablag'ni davlat katta yo'llarni ta'mirlashga yoki qurishga sarflasa, bundan soliq to'lovchilarining o'zları - avtomobil egalari naf ko'radi. Biroq bunday yondashuvni keng miqyosda amalga oshirishning iloji bo'lmaydi. Huquq-tartibotni mustahkamlash, maorifni rivojlantirish, atrof-muhitni qo'riqlashdan aniq ravishda kim ko'proq foya ko'rishini qanday qilib hisoblab chiqish mumkin? Hatto bepul sog'lijni saqlash dasturlaridan asosan ko'p bolali oilalar, keksa va nochor fuqarolar foydalanimishlari aniqlab chiqilgan taqdirda ham ana shu maqsadlar uchun

maxsus soliqlarni aynan ularning o'zidan undirishni talab qilish adolatdan bo'ladi?

Amaliyotda boshqacha yondashuv birmuncha kengroq qo'llaniladi, unga ko'ra to'lov qobiliyati tamoyili asos qilib olinadi: soliq to'lovchining daromadi qanchalik yuqori bo'lsa, undan shuncha ko'p miqdorda soliq undiriladi. Bu gapning ma'nosi shuki, badavlat odamlar bepul maktab maorifi, milliy mudofaa, sog'liqni saqlash va boshqa sohalar uchun bir qadar yuksak iqtisodiy mas'uliyatni his etishlari lozim, chunki ular kambag'allarga nisbatan ko'proq to'lashga qodirdirlar. Boy odamlar bepul davlat dasturlaridan foydalananadilarmi, agar foydalansalar, qay darajada - buning ahamiyati yo'q. Aslini olganda, o'ziga to'q kishilar ta'lim berish va xizmat ko'rsatish yaxshiroq yo'lga qo'yilgan maktab va shifoxonalarni tanlaydilar. Bunday to'lov qobiliyati kontseptsiyasi AQSh soliq siyosatida keng tarqalgan.

Biroq amaliyotda soliqqa tortishning mazkur kontseptsiyasi tez-tez jiddiy qiyinchiliklarga duch kelib turadi. Yiliga 100 ming dollar daromad oladigan kishi yiliga 10 ming dollar daromad oladigan kishiga nisbatan ko'proq soliq to'lashga qodir, degan fikrga qo'shilish mumkin. Biroq bunda birinchi kishi ikkinchisiga qaraganda aynan necha baravar ko'p soliq to'lash imkoniyatiga ega, degan masala noaniqdir. Badavlat odam o'zining daromadidan o'sha hissani va mutlaq katta summani to'laydimi yoki soliq sifatida umuman ko'proq hissani to'laydimi? Afsuski, aniq bir odamning soliq to'lash imkoniyatlarini o'lchash uchun ilmiy asoslangan qandaydir usullar yo'q. Amaliyotda bunga javob, takliflar va taxminlar empirik yo'l bilan yoki hukumatning daromadlarga bo'lgan joriy ehtiyojlari, siyosiy qarashi asosida paydo bo'ladi.

Soliqqa tortishdagi adolat tamoyili ba'zi hollarda taqsimotdagi ijtimoiy adolat tamoyili ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlab o'tish o'rinniki, bu tamoyilni daromadlarni teng ravishda taqsimlash, baravarlashtirish deb tushunmaslik kerak. Qonun oldida tenglikka rioya etilishi, ijtimoiy mumtozlikka, irq va dinga munosiblikka asoslangan imtiyozlarning bekor qilinishi, inson asosiy huquqlarga birday ega bo'lishi kabi tenglik tamoyillari bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan va bu tamoyillarga qadriyatlarning ijtimoiy tizimida qat'iy amal qilmoq lozim. Moddiy tenglik, ya'ni daromadlar, mulk, iste'mol sohasidagi tenglik haqida gap ketadigan bo'lsa, aytish kerakki, bunday tenglikka erishib bo'lmaydi. Davlat va jamiyat barcha fuqarolar yaxshi hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berishlari kerak, albatta, soliqqa tortish tizimi esa istiqbolga mo'ljallangan rejada aholining farovonligini umumiylar tarzda amalga oshirish orqali jamiyat quyi qatlamlarining ahvoli izchil ravishda yaxshilanib borishiga ko'maklashmog'i zarur.

4. Oddiylik va xolislik. Bu tamoyil soliqqa tortish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiylik bo'lismeni, taqdim etiladigan hisobotlarning mazmunini soddalashtirishni, shuningdek soliqlarning eng muhim turlari bo'yicha yagona stavkalar belgilashni, beriladigan imtiyozlarni iloji boricha kamaytirishni ko'zda tutadi. Bu o'rinda nazarda utilayotgan narsa shuki, soliqlarning rag'batlantirish funktsiyasi doirasida beriladigan imtiyozlar yakka tartibdagi

xususiyatga ega bo'lmasligi, balki muayyan faoliyat turlarini rag'batlantirishga, soliq to'lovchilarning mulkchilik shakli va qaysi idoraga mansubligidan qat'i nazar, ma'lum turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirishga qaratilmog'i lozim. Ba'zi sohalarda paydo bo'ladigan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga ehtiyojni qondirishni byudjet-kredit siyosati orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Buning sababi shuki, soliq imtiyozlarining haddan tashqari ko'pligi qonunlarni murakkablashtirib yuboradi, tushunishni qiyinlashtiradi hamda turlicha talqin qilinishiga olib keladi, bu hol pirovard natijada soliq to'lovchilarning soliqlarga nisbatan munosabatlariga salbiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga aniq qilib belgilangan imtiyozlar soliq yukini boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga o'tkazib, ijtimoiy adolatsizlik ro'y berishiga olib keladi.

5. Boshqarishga qulaylik. Samarali soliq tizimiga qo'yiladigan muhim talablardan biri boshqaruvga qulay bo'lishidir. Soliqlarni undirib olishda samaradorlikka erishish ko'p hollarda soliqlarning soliq to'lovchilarga yaxshi tushunarli bo'lishiga bog'liq.

Ayrim mamlakatlarda soliqqa tortishning nihoyatda murakkab tartibi amal qiladi, aytaylik, shkala va stavkalar turi, soliqlar tarkibi, ularni to'lash qoidalari va tartiblari haddan tashqari ko'p. Buning ustiga ular soliq tushumlarining ko'payishiga hech qanday yordam bermaydi hamda soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi bajarilishida rol o'ynamaydi.

6. Soliqlarni yig'ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish. Mazkur tamoyil davlat va soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni yig'ish uchun ketadigan xarajatlarni mumkin qadar kamaytirishni ko'zda tutadi. Buning uchun respublikamizda soliqqa tortish tartibini takomillashtirish bilan bir qatorda soliqlarni maqbullashtirish, kompyuter texnologiyalari, soliq axborotlarining to'g'riligini bevosita nazorat qilish usullarini qo'llanish orqali soliq to'lovchilarning xarajatlarini kamaytirish maqsadida davlat hisobidan saqlanadigan servis-markazlar, soliqqa tortish masalalari xususida soliq organlari tomonidan bepul maslahatxonalar tashkil etilgan.

7. Soliq stavkalarini qiyoslash. Soliq stavkalarini boshqa davlatlardi xuddi shunday soliqlarning stavkalarini bilan qiyoslanishi, ya'ni mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda boshqa mamlakatlar bilan teng bo'lgan xo'jalik faoliyati shart-sharoitlari vujudga keltirilishi lozim. Soliqqa tortish tamoyillari va soliq qonunchiligi tamoyillari muayyan o'xshashlikka ega va ularni to'liq hayotga tadbiq etish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir.²⁵

²⁵ Yahyoev Q. «Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti». T. «G'afur G'ulom» 2003 y.

4-mavzu: Soliq elementlari va ularning tavsifi.

Reja:

- 1. Soliq elementlarining mohiyati va ahamiyati.**
- 2. Soliq elementlarining tarkibi.**
- 3. Soliq imtiyozlari, ularning mohiyati va turlari.**
- 4. Soliqni undirish (soliqqa tortish) usullari.**
- 5. Soliq mexanizmi.**

Tayanch so'z va iboralar: soliq elementlari, soliq sub'ekti, soliq agenti, soliq ob'ekti, soliqqa tortish predmeti, soliq manbai, soliq bazasi, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq yuki.

1. Soliq elementlarining mohiyati va ahamiyati.

Istiqlolning ilk yillaridan mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga mos soliq tizimining shakllanishi va yangi Soliq kodeksining qabul qilinishining ahamiyati, bu borada amalga oshirilayotgan izchil islohotlar haqida

Ma'lumki har bir davlatning nufuzi va qudratini soliqlar asosida shakllantirilgan davlat byudjeti, xususan uning moliya tizimi tashkil etadi. Mamlakatimiz mustaqilligi qo'lga kiritilgandan so'ng barcha sohalarda bo'lgani kabi soliq sohasida hamizchil islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Mazkur islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad, davlatning moliyaviy tizimini mustahkamlash orqali, davlatning byudjet tizimi mexanizmini shakllantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi uchun munosib turmush sharoitlarini, erkin xususiy tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlarini va bozor munosabatlariga javob beradigan mustahkam va barqaror iqtisodiy ishlab chiqarish tizimini yaratishdan iboratdir.

Mamlakat soliq tizimi aniq maqsadga qaratilgan moliyaviy siyosat bo'lishi bilan birgalikda yalpi milliy mahsulotning bir qismini qayta taqsimlaydi hamda shu tarzda iqtisodiyotning va ijtimoiy hayotning tarkibiy tuzilishini o'zgartirishda, aholini ijtimoiy himoyalash kafolatini ta'minlashda bevosita ishtirok etadi.

Soliq munosabatlarida soliq elementlari haqida gap borganda ko'pincha adabiyotlarda soliqqa tortish tizimi haqida so'z yuritiladi. Shu o'rinda soliqqa tortish tizimi haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, soliqqa tortish tizimi soliq tizimiga nisbatan tor tushuncha bo'lib, aslida soliq tizimiga kiradi. Soliq tizimi soliqqa oid barcha munosabatlarni qamrab olsa, soliqqa tortish tizimi esa, ushbu munosabatlarni soliqlarni undirish bo'yicha iqtisodiy-huquqiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Shu jihatdan soliqqa tortish tizimi qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan qonun yo'li bilan belgilangan hamda ijro hokimiyati tomonidan soliqlarni tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari majmuasidan iborat. Soliqqa tortish tizimining mohiyati garchan o'zgarmas bo'lib ko'rinsada, uning shakl-shamoyili va yo'nalishi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga, qolaversa soliq siyosatining mazmuniga bog'liq bo'ladi. Chunki, soliqqa tortish tizimi o'z

ichiga tarkiban soliq elementlari, soliqlarni tashkil etish tamoyillari va usullarini oladi, bu elementlarning qay darajada talqin etilishi esa, bevosita davlat siyosatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, soliq elementlariga kiruvchi soliq stavkasining qaysi turlarining ko'proq amal qilishi, soliq imtiyozlarining qay darajada belgilanishi, soliqlarni undirishni qaysi usullaridan ustuvorlik bilan foydalanish asosan ijro hokimiyat faoliyatining mazmuniga bog'liq. Binobarin, shu ma'noda xuddi soliqlarni vazifalari kabi soliqqa tortish tizimi ham har bir davlatda o'ziga xos tarzda amal qilishi va tashkil etilishi mumkin.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, davlat qonunchiligi bilan belgilangan va uning maxsus idoralari tomonidan undiriladigan soliqlarni tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari majmuiga soliqqa tortish tizimi deb ataladi.

Soliqqa tortish tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan soliq elementlari soliqqa tortishda ifodalanadigan tushunchalar bo'lib, ular soliq to'lovchilar va soliqni undiruvchi o'rtasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Soliq nazariyasida soliqqa oid munosabatlarni to'liq va teranroq anglash uchun iqtisodiy voqe'liklarni har bir kichik guruhlarini muayyan nomdag'i iboralar bilan izohlanadi. Soliq elementlari ham xuddi shunday soliqqa oid iqtisodiy hodisalarni izohlashga xizmat qiluvchi yaxlit tushunchadir. Soliq elementlari tushunchasi soliqqa tortish tizimini muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning o'zi ham kichik tizimni tashkil etadi, ya'ni xulosa qilib aytganda soliq elementlari ham bir necha iqtisodiy kategoriyalarni yaxlit holdagi harakatini bildiradi.

2. Soliq elementlarining tarkibi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda avvalambor soliq siyosatini yanada takomillashtirish, soliqlarning turlari va amal qilish mexanizmini soddallashtirish, ularni undirish va hisoblash tartiblarini maqbullashtirish muhim masalalardan hisoblanadi. Soliq elementlari bir nechta tushunchalardan iborat bo'lib, ularning aniq chegarasi belgilanmagan. Soliq elementlari: soliq sub'ekti, soliq ob'ekti, soliq predmeti, soliq manbai, soliqqa tortish birligi, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq normasi, soliqni to'lash muddatlari, soliq yuki, soliq bazasini hisoblash usullari, soliqqa tortish usullari va shu kabi tushunchalarni qamrab oladi. Quyida soliq elementlarining har biriga qisqacha izoh beramiz.

Soliq sub'ekti - soliq to'lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar yoki boshqacha qilib aytganda soliq sub'ekti - bu soliqqa oid munosabatlarning tashkil etuvchi tomonlarning o'zaro majmuasi bo'lib, unda bir tomonidan soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) boshqa tomonidan soliqni undirish vakolati yuklangan soliq xizmati organlari - Davlat soliq qo'mitasi, soliq boshqarmalari, tuman va shahar davlat soliq inspeksiyalari qatnashadi. O'z faoliyatida barcha yuridik va jismoniy shaxslar soliq sub'ekti sifatida namoyon bo'lmaydi. Chunki, bu yerda soliqlardan batamom ozod etiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar mavjudki, ular soliq sub'ekti sifatida soliq

munosabatlarida ishtirok eta olmaydi. Ammo, barcha soliq xizmati organlari soliq sub'ekti sifatida maydonga chiqadi.

Soliq agenti - yuridik va jismoniy shaxslardan soliqni ushlab qolish va davlat byudjetiga o'tkazib beruvchi yuridik shaxslar. Bunda yuridik shaxslar, ular o'z faoliyatida bevosita yoki bilvosita ishga yollaganligi natijasida to'lanadigan ish haqidan, dividendlardan, doimiy muassasa orqali faoliyat ko'rsatmaydigan norezident yuridik va jismoniy shaxslardan ushlanishi lozim bo'lgan soliq summalarini ushlab qoladi va byudjetga o'tkazib beradi, ushlab qolinmagan, kam ushlab qolining va o'z vaqtida o'tkazib berilmagan soliq summasi uchun javobgar bo'lib qolaveradi, ya'ni ushbu keltirilgan dalillardan aytishimiz mumkinki, har bir yuridik shaxs soliq munosabatlarida soliq sub'ekti bo'lisi bilan birgalikda soliq agenti sifatida ham ishtirok etadi. Soliq agenti adabiyotlarda asosan fiskal agent sifatida e'tirof etiladi.

Soliq ob'ekti - soliq to'lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki tushuniladi. Soliq ob'ekti sifatida foyda yoki daromad, muayyan tovarlarni qiymati, yer maydoni, jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari, tabiiy resurslardan foydalanish miqdori va boshqalar kiradi. Soliq ob'ekti aslida jamiyatdagi mavjud moddiy va ma'naviy boyliklarning ayrimlariga qonun yo'li bilan ulardan foydalanuvchi, egalik qiluvchi va tasarruf qiluvchi soliq sub'ektlarining huquqlarini soliqqa tortishni xarakterlaydi. Binobarin, moddiy yoki ma'naviy boyliklar soliq ob'ekti qilib albatta unga mulkiy huquqga ega bo'lgandagina yuzaga chiqadi. Masalan, egasiz imoratga soliq solinmaydi, chunki egasiz imoratga nisbatan soliq sub'ekti to'liq emas, vaholanki, bo'lgan taqdirda ham soliq ob'ekti sifatida imorat emas, balki ushbu imoratga bo'lgan mulkiy huquqga soliq solinadi. Shu jihatdan aytish mumkinki, soliq ob'ekti aslida yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy huquqi va daromadiga qaratiladi.

Soliqqa tortish predmeti - soliq solinadigan daromad, oborot, mol-mulk va boshqalarga bo'lgan huquq emas, balki ularning o'zidir, ya'ni soliq solish ob'ekti bo'lib biror-bir soliq predmetiga bo'lgan huquq tushunilsa, predmet bo'lib ana shu egalik qilinadigan daromad, yer uchastkasi, imorat va boshqalarning o'zi tushuniladi. Soliq ob'ekti yoki soliqqa tortish predmeti, unga kim egalik qilish huquqiga ega bo'lsa, unda soliqni to'lash majburiyati, ya'ni soliq sub'ektini namoyon qiladi. Demak, aytishimiz mumkinki, soliqqa tortish predmetiga egalik qilish huquqi soliq ob'ektini vujudga keltirsa, o'z navbatida ushbu predmetga kimning egalik qilishi soliq sub'ektini yoki soliq to'lovchisini namoyon etadi.

Soliq manbai - bu soliq to'lovchining to'laydigan soliqlari manbai, ya'ni daromadi. Soliq ob'ekti va soliq manbaini bir-biridan farqlash lozim. Ayrim soliq turlari bo'yicha, masalan, daromad (foyda)ga, yalpi daromadga, jismoniy shaxslarning daromadiga soliqlar bo'yicha soliq ob'ekti ham soliq manbai ham bir xil bo'ladi, ya'ni nima ob'ekt bo'lsa, uning o'zi manba hisoblanadi.

Shu o'rinda soliqqa tortish predmeti, soliq ob'ekti va soliq manbaini farqlash va ularning mohiyatini ochib berish uchun aniq soliq turi bo'yicha ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Yer solig'i bo'yicha ko'radigan bo'lsak, uning soliqqa tortish

predmeti bo'lib yer uchastkasi maydoni, unga kimning egalik qilish huquqi mavjud bo'lsa soliq ob'ekti paydo bo'ladi va ushbu yersolig'i qaysi manba hisobidan davlat byudjetiga to'lansa, masalan, yerdan turli xil ko'rinishda foydalanish natijasida olinadigan daromad uning manbai hisoblanadi. Demak, ushbu fikrlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, soliqqa tortish predmeti o'z-o'zidan kimdadir soliq to'lash majburiyatini vujudga keltirmaydi. Misolimizga qaytadigan bo'lsak, yerga bo'lgan huquqni joylardagi mahalliy hokimiyat organlari beradi va shu bilan birgalikda yerdan foydalanuvchida soliq to'lash majburiyati vujudga keladi, chunki unda ushbu yer uchastkasidan foydalanish huquqi mavjud. Demak, soliq predmetiga kimning egalik qilish huquqi mavjud bo'ladigan bo'lsa, u soliq munosabatlarida soliq sub'ekti sifatida ishtirok etadi.

Soliq bazasi - soliq ob'ektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori. Hisoblanadigan soliq miqdori nafaqat soliq stavkalarining miqdoriga, shu bilan birgalikda soliq stavkasi qo'llaniladigan ob'ektning miqdoriga ham bog'liq bo'ladi. Soliq bazasining miqdori qonunchilikda soliqqa tortilishi lozim bo'lgan soliq ob'ektidan ruxsat etiladigan chegirmalarga bog'liq ravishda o'zgarib turishi mumkin. Soliq bazasini soliq to'lovchilarning mazkur toifasiga taqdim etiladigan soliq imtiyozlariga muvofiq ravishda kamaytirishga ruxsat etiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, soliq bazasi soliq ob'ektidan katta yoki kichik bo'lishi mumkin. Masalan, yuqorida qayd etganimizdek, soliq to'lovchiga soliqdan imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lsa, bunday sharoitda soliq bazasi soliq ob'ektidan kichik, soliq ob'ekti qonunchilik bilan kengaytiriladigan bo'lsa undan katta bo'lishi mumkin.

Soliqqa tortish birligi - bu ob'ektning o'lchov birligi. Masalan, daromad yoki mol-mulk solig'ida ob'ektning o'lchov birligi bo'lib uning so'mdagi bahosi ifodalansa, yer solig'ida o'lchov birligi bo'lib kv.m. yoki gektar hisoblanadi.

Soliq stavkasi - ob'ektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir. Soliq stavkasi soliq elementlari ichida eng ko'p amaliy ahamiyatga ega bo'lgan unsurdir. Chunki, soliq stavkalarini o'zgartirish orqali davlat xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga sezilarli ta'sir etadi, ayrim faoliyat, sohaga ustuvorlik berilishi, kapital zarur sohalarga yo'naltirilishi, rag'batlantirilishi mumkin.

Soliq stavkalari ikki xil ko'rinishda: qat'iy stavkalarda va nisbiy (foiz) stavkalarda ifodalaniadi. Soliq stavkasi qat'iy stavkada belgilangan holda soliq ob'ektga nisbatan qat'iy so'mda belgilanadi. Masalan, yer solig'inining har bir gektari uchun qat'iy so'mda soliq miqdori o'rnatilgan. Yuridik va jismoniy shaxslarning daromadlariga, mol-mulklariga esa nisbiy stavkada yoki foizda soliq miqdori belgilangan.

Soliq stavkasi bilan soliqqa tortish ob'ekti o'rtasidagi bog'liqlik darajasiga qarab soliq stavkalarini proportsional, progressiv va regressiv turlarga ajratish mumkin. Proportsional soliq stavkasining mohiyati shundan iboratki, bunda soliqqa tortish ob'ekti qanday bo'lishidan qat'iy nazar soliq stavkasi o'zgarmaydi. Masalan, respublikamiz soliq tizimida amal qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq uning ob'ekti 1000 so'm bo'lganida ham 100 000

so'm bo'lganida ham soliq stavkasi o'zgarmay qolaveradi, ya'ni soliq ob'ektining o'zgarishi soliq stavkasining o'zgarishiga ta'sir qilmaydi.

Progressiv soliq stavkasida soliq ob'ektining o'zgarishi o'z navbatida soliq stavkasining o'zgarishiga, ya'ni oshib borishiga olib keladi. Masalan, jismoniy shaxslarning daromadiga soliq stavkalari progressiv tarzda belgilangan bo'lib, jismoniy shaxslarning daromadlari oshib borgan sari soliq stavkalari ham oshib boradi. O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga muvofiq 2005 yil uchun jismoniy shaxslarning daromadiga soliq stavkalari: eng kam ish haqining 5 baravari miqdoriga 13% da, 5 baravaridan 10 baravarigacha miqdoriga 20% da, 10 baravaridan ortgan qismiga esa 29% da belgilangan.

Progressiv soliq stavkasining ikki turi mavjud: oddiy progressiya va murakkab progressiya. Oddiy progressiyada soliqning orttirilgan stavkasi soliqqa tortiladigan barcha ob'ektga nisbatan qo'llaniladi, murakkab progressiyada esa, soliqqa tortish ob'ekti qismlarga bo'linadi, ularning har biri o'z stavkasi bo'yicha soliqqa tortiladi, ya'ni orttirilgan stavkalar butun ob'ektga nisbatan emas, balki bundan oldingi bosqichdan ortgan qismiga nisbatan qo'llaniladi. Yuqorida keltirgan misolimiz, jismoniy shaxslarning daromadiga soliq stavkalari murakkab progressiyadir.

Regressiv soliq stavkasida soliq ob'ektining oshib borishi bilan soliq stavkasi kamayib borib, daromad yoki mahsulot ko'plab ishlab chiqarishni talab qiladi. Respublikamiz soliq qonunchiliga muvofiq chetga eksport tovarlar ishlab chiqarib, erkin almashtiriladigan valyutalarda tushumga erishganlar iqtisodiy qiziqtiriladi, ya'ni daromad (foyda) solig'i kamaytirilgan stavkada to'lanadi. 2002 yildan boshlab kiritilgan bu siyosatni kengaytirish iqtisodiy rivojlanishga katta naf keltiradi.

Soliq imtiyozlari - soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha turli xil engilliklar bo'lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to'liq yoki qisman va boshqa ko'rinishlarda berilishi mumkin. Soliq stavkalarining mohiyati, ularning turlari, amal qilish mexanizmlari, belgilash mezonlarini keyingi savollarimizda yoritamiz.

Soliq bazasini hisoblash usullari. Soliq bazasini hisoblashning ikki xil usuli mavjud bo'lib, ular kassa usuli va hisobga olish usullaridir. Kassa usulida soliq to'lovchida soliqlarni to'lash majburiyatları daromad olganidan keyin vujudga kelsa, hisobga olish usulida esa daromad olingan yoki sotishdan tushum qachon kelib tushushidan qat'iy nazar tovarlarni jo'natilishi o'z navbatida soliqlarni to'lash majburiyatlarini vujudga keltiradi.

Soliqqa tortish usullari uch xil ko'rinishda amalga oshirilib. Ular quyidagilarga: soliqqa tortishning kadastrli, deklaratsiya va manba oldidan soliqqa tortish usullariga ajratiladi. Ularning keng bayoni keyingi savollarda ochib beriladi.

Soliqlarni to'lash muddatlari va tartiblari. Soliq qonunchiligidagi har bir soliq turining byudjetga to'lash muddatlari belgilangan. Soliqni to'lash muddatlari deganda soliq to'lovchilarining davlat byudjeti oldida soliq majburiyatlarining bajarish muddati ifodalanadi. Soliqni to'lash muddatlari o'z mohiyatiga ko'ra ikki

xil ko'inishga ega: avans (bo'nak) to'lovlari va haqiqiy daromad olinganidan keyingi to'lovlari.

Soliqni to'lash tartibida esa, soliqni yo'naltirilganligi (byudjetga yoki byudjetdan tashqari fondlarga), soliqni to'lash vositasi (milliy valyuta, so'mda yoki boshqa mamlakatlar milliy valyutasida. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq soliqlar faqat milliy valyuta, so'mda to'lanishi mumkin) hamda soliqni to'lash shakllari (naqd pul yoki naqd pulsiz) ifodalanadi.

Soliq yuki - soliq to'lovchining muayyan vaqt oralig'ida to'lagan soliqlari yig'indisini ifodalaydi. Bunda soliq to'lovchilarning to'laydigan barcha soliqlar va soliqsiz majburiy to'lovlaringin yig'indisini ifodalanadi. Soliq yukining aniq soliq to'lovchilar zimmasiga qancha to'g'ri kelganligini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Biroq to'g'ri soliqlarda soliq og'irligi aynan soliqni byudjetga hisoblab o'tkazuvchi soliq to'lovchilar zimmasiga tushsa, egri soliqlarda soliq yuki soliqni to'lovchilar emas, balki tovar (ish, xizmat) larni iste'mol qiluvchilar zimmasiga tushadi. Muayyan turdag'i yuridik va jismoniy shaxslar bo'yicha soliq yukining bir yilda byudjetga to'langan barcha majburiy to'lovlari yig'indisi bilan aniqlash mumkin. Soliq yukining darajasi o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy qudratiga, inflyatsiya darajasiga, davlatning vakolatli funktsiyalarini qo'llashiga, qolaversa bozor munosabatlarining rivojlanishini va ijtimoiy harakat doirasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Soliq yukini ifodalashning bir qancha ko'rinishlari mavjud: makrodarajadagi soliq yuki, mezodarajadagi soliq yuki va mikrodarajadagi soliq yuki. Soliq yuki makrodarajada ifodalanganda butun mamlakat miqyosida ifodalanib, asosiy ko'rsatkich sifatida muayyan vaqt oralig'ida davlat byudjetiga kelib tushgan soliqlar yig'indisini ana shu vaqt oralig'ida yaratilgan YaIM yoki MD ga nisbati olinadi. Mezodarajada ifodalanganda alohida olingan soha, tarmoq yoki sektorga to'g'ri keladigan soliq yuki ifodalansa. Mikrodarajada esa, aniq bir olingan sub'ektga to'g'ri keladigan soliq yuki ifodalanadi.

3. Soliq imtiyozlari, ularning mohiyati va turlari.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida keng ko'lamli soliq islohotlari amalga oshirilib, jumladan soliq imtiyozlariga ham katta e'tibor berilmoqda. Natijasida aholining real daromadlari o'sishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishda ijobiy ko'rsatkichlar yuzaga kelmoqda.

Qolaversa mamlakatimizda soliq siyosatini yanada takomillashtirish, soliqlarning fiskal funktsiyasini kuchaytirish, kichik biznes subektlarini rivojlantirish muhim masalalardan hisoblanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligidagi soliq imtiyozlarini belgilashda muayyan mezonlarga asoslaniladi. Soliq imtiyozlarining mezonlarini to'g'ri va ob'ektiv aniqlash, soliqlar adolatlilik tamoyilining ifodasi sifatida yuzaga chiqadi. Jahan soliq tizimining asosiy va ajralmas qismlaridan biri bu soliq imtiyozlaridir. Har qanday davlat uning xo'jalik yuritish tizimi qanday bo'lishdan qat'iy nazar davlat byudjetini daromadlar bilan ta'minlashda asosiy vositalardan

biri bu soliqlar va soliqsiz to'lovlardir. Ammo joriy etilgan soliqlar sof fiskal shaklda o'rnatilishi mumkin emas. Chunki faqat byudjet manfaati nuqtai nazaridan o'rnatilgan soliqlarni amal qilishi uzoq vaqt ni o'z ichiga olmaydi. Shuning uchun muayyan darajada soliq imtiyozlaridan foydalanish taqozo etiladi.

Soliq tizimida soliq imtiyozlaridan foydalanishning bir qator ob'ektiv ijtimoiy-iqtisodiy sabablari mavjud bo'lib, bizningcha ular quyidagilardir:

Birinchidan, soliq imtiyozlarini mavjudligini asosiy sabablaridan biri bu soliq to'lovchi (yuridik va jismoniy shaxs) larning jamiyatda tutgan mavqeい, ijtimoiy holati turlicha ekanligidan. Shu jihatdan barchaga bir xil tartibda (miqdorda) soliq solish ma'noga ega bo'lmaydi;

Ikkinchidan, davlat iqtisodiyotga ta'sir etib uni tartiblash vazifasini amalga oshiradiki, bunda turli xil dastaklardan foydalanadi. Bu dastaklarning asosiylaridan biri bu jamiyatdagi ba'zi muhim sohalarni yoki soliq to'lovchilarning faoliyatini rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari belgilanadi. Ya'ni, davlat soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotni samarali va qulay boshqarish yoki tartiblash imkoniyatiga ega bo'ladi, bundan ko'rindaniki, soliq imtiyozlari davlatni o'z funksiya va vazifalarini yuzaga chiqaruvchi muhim dastak sifatida yuzaga chiqadi;

Uchinchidan, soliq imtiyozlari qo'llanilishining asosiy sabablaridan yana biri bu milliy daromadni qulay, samarali va oqilona taqsimlashga erishishdan iboratdir. Ya'ni, bundan soliqlar sifatida byudjetga jalg etilishi lozim bo'lgan moliyaviy resurslar imtiyoz berish tufayli byudjetga jalg etilmasdan soliq to'lovchilarning o'zlariga maqsadli ravishda qoldiriladi. Buning afzallik tomoni shundaki, soliq to'lovlari byudjetga olish va uni yana qayta taqsimlash ishlarini osonlashtiradi va ish faoliyat turlarini rag'batlantirishga erishiladi.

Qayd etish joizki, soliq imtiyozlari xususida turli xil fikrlar mavjud. Soliq imtiyozlarining mohiyatini to'laroq anglab etish uchun avvalo ana shu turli xil fikrlarni keltirish maqsadga muvofiq.

Prof. Q. Yahyoev fikriga ko'ra «Soliq to'lovchilarni soliqdan ozod etish, ular to'laydigan soliq miqdorini (soliq bazasini) kamaytirish yoki soliq to'lash shartini engillashtirish soliq imtiyozidir». ²⁶ Shuningdek, ushbu iqtisodchining ta'kidlashicha soliq imtiyozi degan termin o'miga soliq engilligi termini bu jarayonning mohiyatini ochib beradi.²⁷ Amaliyotchi, iqtisodchi olim Sh. Gataullin soliq imtiyozlariga quyidagicha ta'rif beradi: «Soliq imtiyozlari amaldagi qonunlarga muvofiq ravishda soliqlardan to'liq yoki qisman ozod qilishdir (skidkalar, chegirib tashlashlar va hokazo)».²⁸

Prof. T.S. Malikovning ta'kidlashicha soliq imtiyozlari deganda soliq to'lovchining soliq majburiyatlari hajmining to'liq yoki qisman qisqarishi, to'lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi tushuniladi. Soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiysi soliq imtiyozlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozi soliqqa tortish ob'ektining o'zgarishida, soliqqa tortish bazasining kamayishida (qisqarishida), soliq stavkalarining pasaytirilishida va boshqalarda o'z

²⁶ Yahyoev Q. Soliq. T. «Mehnat». 1997 yil. 20-bet

²⁷ O'sha erda.

²⁸ Gataullin Sh. Soliqlar va soliqqa tortish. Toshkent. 1996 yil. 74-bet

ifodasini topadi. Soliqqa tortilmaydigan ob'ekt minimumi, alohida shaxslar va soliq to'lovchilarning ayrim toifalarini soliq to'lashdan ozod qilish, soliqqa tortish ob'ektidan ayrim elementlarni chiqarish, soliq stavkalarini pasaytirish, maqsadli soliq imtiyozlari, soliq kreditlari (soliqlarning undirilishini kechiktirish) va boshqalar soliq imtiyozlarining ko'rinishlaridir (turlaridir). Masalan, korxonalar foydasidan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar ishlab chiqarishni kengaytirish va uy-joy qurilishini rivojlantirish xarajatlarini moliyalashtirishni, tadbirkorlikning kichik shakllarini, nogironlar va pensionerlarning bandligini ta'minlashni, ijtimoiy, madaniy va tabiatni muhofaza qilish sohalarini rag'batlantirishga qaratilgandir. Individual xarakterga ega bo'lган imtiyozlarni berish, odatda, ta'qilanganadi.²⁹

Soliqlarning va ular bo'yicha beriladigan imtiyozlarning mavjudligi doimo davlat vujudga kelishi bilan bog'lanib kelingan. Buyuk Sohibqiron Amir Temur tuzuklarida ta'kidlanishicha «Soliqlar davlatning iqtisodiy tayanchi va namoyon bo'lishidir».³⁰

Agar, Temur tuzuklarida berilgan soliqqa tortish tamoyillariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning asosini ham soliqqa tortishda beriladigan imtiyozlar egallaydi. Unga muvofiq soliq to'lovchilardan soliqlarni aralashli undirish soliq siyosatini diqqat markazida turadi. «Temur tuzuklarida» keltirilishicha «Kimki biron sahroni obod qilsa yoki poliz qilsa, yoki biron bog' ko'kartirsa yoxud biron harob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan bergenini olsinlar, uchinchi yili (esa olib-soliq) qonun - qoidasiga muvofiq hiroj yig'ilsin». ³¹ Bundan ko'rindaniki, soliqlardan beriladigan imtiyozlar bevosita davlatni (xazinani) iqtisodiy qudratiga bog'liq bo'lib, unda soliq imtiyozlari bilan byudjet (xazina) daromadlarini shakllantirishning o'zaro bog'liqligi aks ettirilgan.

Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyotida soliq imtiyozlarining tutgan o'rni ingliz iqtisodchisi Keyns nazariyasida alohida o'rinni egallaydi. Keynschilar tomonidan soliq tizimi, aniqrog'i soliq imtiyozlar makroiqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotni tartibga solishning tarkibiy elementi sifatida hamda davlatning tadbirkorlar manfaatiga ta'sir etish va byudjetning daromad qismini to'ldirish borasidagi muhim iqtisodiy qurol sifatida qaraladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin g'arb davlatlarida neoklassik yo'naliish, institutsional - ijtimoiy yo'naliish talablariga mos tarzda soliqqa tortish tizimida imtiyozlar nazariyasiga ancha e'tibor berildi. Mazkur iqtisodiy maktablar nazariy yondoshuvlaridagi tub farqlar bo'lishiga qaramay ularning vaqillari umumiy tarzda soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirish va uni tartibga solish vositasi sifatida qaraganlar. Iqtisodiyotni boshqarishda soliq imtiyozlar rolini ular quyidagicha ifodalar edi: agar u yoki bu davlatning iqtisodiyoti ortiqcha ishlab chiqarish bilan xususiyatlanuvchi o'sish davrini o'tayotgan bo'lsa, u holda davlat soliq imtiyozlarini kamaytirish, ya'ni soliqlarni ko'paytirish, soliqqa tortishni kuchaytirish orqali korporatsiyalar bo'sh mablag'larini ko'proq byudjetga jalb

²⁹ Malikov T. Soliqqa tortishning dolzarb masalalari. Toshkentyu 2000 yil. 276-bet.

³⁰ Temur tuzuklari. Toshkent. 1993 yil. 98-bet

³¹ Temur tuzuklari. Toshkent. 1993 yil. 98-bet

qilish lozim deb hisoblaganlar. Agar mamlakat iqtisodiyoti turg‘unlik holatini kechirayotgan bo’lsa, iqtisodiyotni jonlantirish uchun qo’shimcha sarmoya jalg qilish lozim. Bunda soliq imtiyozlaridan ham keng foydalanish zarurati tug‘iladi degan xulosaga kelishgan. Bu holatda iqtisodchilar davlatga, soliq miqdorini kamaytirish, soliq imtiyozlarini ko’paytirishni maslahat beradilarki, bu narsa byudjetga qo’shimcha mablag‘lar va kapital qo’yilmalar uchun mablag‘lar tug‘ilishiga imkoniyat tug‘diradi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning boshqa dastaklari qatori soliq siyosati talab va taklif o’rtasidagi mutanosiblikka erishish orqali iqtisodiyotda barqaror taraqqiyotni ta’minalashga qaratilgan. G‘arb iqtisodchilari soliq tizimining ahamiyatini davlat faoliyatini amalga oshirish uchun uni zarur moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minalash sifatida ifodalanuvchi sof fiskal vazifa bilan cheklab qo’ymaydilar. Ularning soliq imtiyozlari nazariyasida soliqlarni tartibga solish vazifasiga katta e’tibor beradilar. Soliqlar davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning muhim quroli sifatida xo’jalik yurituvchi sub’ektlar iqtisodiy hulq-atvoriga davlat ta’sirini ifodalaydilar. Ammo, bunda soliq imtiyozlari asosiy vosita sifatida qaralishi keng nazarda tutilgan.


Bozor munosabatlari sharoitida mustaqil respublikamiz iqtisodiy erkinlashtirishni amalga oshirar ekan, iqtisodiyotni tartiblash va boshqarish jarayonida bir qator vositalardan foydalaniladiki, bunda soliq tizimining soliq stavkalari va imtiyozlaridan foydalanish eng samarali va oson usullardan biri bo’lib yuzaga chiqadi.

Soliq imtiyozlari bilan iqtisodiyotni boshqarish, davlatni shunday faoliyati bilan bog‘liqki, u takror ishlab chiqarish jarayonida vujudga kelgan nomutanosiblikni yo’qotish uchun sharoit yaratadi. Boshqacha qilib aytganda, agar soliqlarning ba’zi tizimi ishlab chiqarishni tartibga solishning davlat strategiyasini aniqlasa, taktikasi soliq imtiyozlari orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozlarini soliq sub’ekti, soliq ob’ekti, soliqlarni undirish vositalari, muddatlari nuqtai nazaridan bir necha guruhlarga (turlarga) bo’lish mumkin. Soliq imtiyozlarini turli xil asoslar bo’yicha guruhashlash mumkin. Biz buni quyidagi tartibda asoslashga harakat qilamiz.

Bizga ma’lumki, O’zbekiston Respublikasi soliq tizimini huquqiy bazasi takomillashib bormoqda. Hozirga qadar qabul qilingan barcha soliqqa oid qonun hujjatlariga e’tibor beradigan bo’lsak, ularning barchasiga soliq imtiyozlarini belgilash bo’yicha umumiyoq o’xshashliklar mavjudligiga guvoh bo’lishimiz mumkin. Ya’ni, barcha qonun hujjatlarida soliq turlari bo’yicha imtiyozlar asosan quyidagi shakllarda:

- soliqdan batamom ozod etish;
- soliqdan vaqtincha yoki qisman ozod etish;
- soliq bazasini kamaytirish tarzida berilgan.

2008 yil 1- yanvardan kuchga kirgan O’zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi va unga asoslanib ishlab chiqilgan maxsus yo’riqnomalar hujjatlarida belgilangan soliq imtiyozlarini guruhlaydigan yoki turlarga ajratadigan bo’lsak bizningcha u to’rt turda amal qilayotganligining guvohi bo’lamiz. (4.1 - shaklga qarang).



4.1-rasm. Soliq imtiyozlarining turlari

Soliq tizimini takomillashtirib borishda, xorijiy mamlakatlarda soliq stavkalarining qo'llanish mexanizmidan foydalanish, soliqlarni to'liq va o'z vaqtida kelib tushushini nazorat qilish tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda, investitsiyalar, ilmiy tekshiruv va tajriba konstrukturlik ishlarini rag'batlantirish va tartibga solishda davlat tomonidan soliq imtiyozlaridan keng foydalaniadi. Soliq imtiyozlarini rag'batlantirish va maqsadga muvofiq yo'llanilishiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

- ayrim korxona va tashkilotlarni butunlay soliq to'lashdan ozod etish;
- yangi tuzilgan korxonalar uchun soliq to'lash bo'yicha imtiyozlar berish. Bu imtiyozlar ishbilarmonlik va tadbirdorlik (agar maxsulot ishlab chiqarishga asoslangan bo'lsa) rivojlanishga ijobiyligi ta'sir etadi.

Soliq imtiyozlarini qo'llash mexanizmidagi eng murakkab jarayon bu soliq imtiyozlarini belgilash mezonlarini adolatli tarzda belgilash hisoblanadi. Ammo, qayd etish joizki, soliq imtiyozlarini belgilash jahon amaliyotida har bir mamlakatning iqtisodiy siyosatining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib belgilanadi va shu jihatidan u turli davlatlarda turlicha bo'ladi.



4.2-rasm. Soliq imtiyozlarini belgilash mezonlari

4.2-shakldan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligidagi soliq imtiyozlarini belgilash muayyan mezonlar asosida amalga oshirilgan. Soliq imtiyozlarini soliq to'lovchilarning investitsion mavqeiga, ularning sotsial-ijtimoiy holatiga, respublikamizda qaysi sohani rivojlantirish ustuvorligiga, soliq to'lovchilarning importni o'rnnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish darajasiga hamda davlatlar o'rtasidagi halqaro iqtisodiy

munosabatlarga asoslanib belgilangandir. Soliq imtiyozlarini mezonlarini to'g'ri ob'ektiv aniqlash soliqlarning adolatilik tamoyilini ifodasi sifatida yuzaga chiqadi.

Hozirgi murakkab sharoitda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq siyosatining natijalari, ko'p jihatdan, mavjud soliq imtiyozlarining ta'sirchanlik darajasiga bevosita bog'liq. Soliq imtiyozlarining ta'sirchanlik daroji yuqori bo'lsa, ularni taqdim etish orqali ko'zlangan maqsadlarga to'liq erishiladi. Biroq, amaliyotning ko'rsatishicha, hozirgi paytda ko'plab soliq imtiyozlari berilayotgan bo'lishga qaramasdan, ularning etarlicha samara bermayotganligi, soliq to'lovchilar o'rtasida tengsizlikni yuzaga keltirayotanligi natijasida soliq imtiyozlarini taqdim etishdan ko'zlangan maqsadlarga erishilmayapti. Ana shunday sharoitda soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash alohida dolzarblik kasb etadi. Soliq imtiyozlarining oldiga qo'yilgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi ana shuni taqoza etadi.

Ta'kidlash joizki, soliq imtiyozlarining samaradorligi va uni baholashning uslubiy asoslari borasida iqtisodiy adabiyotlarda yagona to'xtamga kelinmagan. Bizningcha, soliq imtiyozlarining samaradorligi deganda, imtiyoz hisobiga qoldirilgan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish natijasida byudjetga olingan qo'shimcha daromadlarning soliq imtiyozlari (hajmi)ga nisbati tushuniladi.

Soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash, fikrimizcha, quyidagi masalalarni optimal hal qilishga xizmat qiladi:

- taqdim qilingan soliq imtiyozlari tarkibini optimallashtirish;
 - tomonlar manfaatlari mushtarakligini ta'minlash;
 - soliq imtiyozlarini berishdan ko'tiladigan natijalar prognozini aniqligini oshirish;
 - moliyaviy qo'llab quvvatlash maqsadida soliq imtiyozlari orqali rag'batlantiriladigan optimal ob'ektlarni tanlash;
 - byudjet yo'qotmalarini qisqartirish.
- Soliq imtiyozlari samaradorligini baholashdan maqsad soliq imtiyozlarini berish bilan bog'liq byudjet yo'qotmalarini qisqartirish hamda quyidagi printsiplarga rioya qilish orqali soliq imtiyozlari tizimini optimallashtirish hisoblanadi:
- xo'jalik sub'ektlarining iqtisodiy manfaatdorligini oshirish va eng muhim xo'jalik faoliyati turlarini kengaytirish;
 - iqtisodiy dasturlarni amalga oshirishga, aholi uchun zarur mahsulotlarni (tovarlar, xizmatlar) ishlab chiqarishni tashkil etish va kengaytirishga, texnika va texnologiyalarni yangilashga moliyaviy resurslarni yo'naltirishni va ulardan foydalanishni rag'batlantirish;
 - investitsion va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy sharoitlar yaratish;
 - faoliyati jarayonida eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishga ko'maklashayotgan samarali ishlovchi va xo'jalik yuritishning ilg'or shakllaridan foydalanayotgan korxonalarini rag'batlantirish.

Yuqoridaqilardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, soliq imtiyozlarining samaradorligini ilmiy asoslangan holda baholash yuqori iqtisodiy

natijalarga erishishning muhim asosi hisoblanadi. Shuningdek, soliq imtiyozlari samaradorligini baholash natijalaridan quyidagi maqsadlarda:

- byudjet loyihasini ishlab chiqishda;
- samarasiz soliq imtiyozlarini bekor qilishga doir choralarini o'z vaqtida qabul qilishda;
- ayrim toifadagi soliq to'lovchilarini qo'llab-quvvatlash choralarini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqishda foydalanilsa, bizning fikrimizcha, soliq imtiyozlarini taqdim etishdan ko'zlangan maqsadlarga to'liq erishiladi.

4. Soliqni undirish (soliqqa tortish) usullari.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi ustuvor yo'naliшlarining tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani natijasida makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari ta'minlanmoqda, aholi daromadlari va farovonligi tobora yuksalmoqda.

Soliq amaliyotida soliqlarni undirishning uchta usuli mavjud:

- kadastrli;
- daromad manbaidan;
- daromad egasi daromadni olganidan so'ng (deklaratsiya buyicha).

Birinchi usul bevosita real soliqlarni hisoblash uchun foydalaniladigan ob'ektlar (yer, imoratlar va shu kabilar) ning bahosi va o'rtacha daromadliligi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan kadastr yoki reestr dan foydalanilishini taqozo etadi.

Oliy belgilariga ko'ra tasniflanadigan ob'ektning tavsifnomasi kadastrning tuzilishiga asos bo'ladi. Masalan, yer kadastrini tuzishda turli tumanlardagi ayni bir xildagi yer uchastkalari sifati, joylashgan joyi, foydalanishi va boshqa belgilariga ko'ra guruhlanadi. Har bir guruh uchun maydon birligining qator yillar uchun o'rtacha daromadliligi belgilangan. Boshqa hamma yer uchastkalari maydon birligidan soliq stavkasi belgilangan u yoki boshqa toifaga tenglashtiriladi.

Soliqni to'lashning kadastrli usulining uziga xos xususiyati sifatida shuni ajratib ko'rsatish kerakki, soliqning to'lanish payti daromadning olinishi payti bilan aslo bog'lik bo'lmaydi, chunki bunday usulda mol-mulk uning taxmin qilinadigan daromadliligining tashqi belgilari asosida baholanadi. Kadastrli usulda shaharlar va shahar qurg'onlarida yer solig'i stavkalarini ishlab chiqishga ular hududini shahar ayrim tumanlari yerlari hamda infratuzilmasini iqtisodiy baholash qiymati bo'yicha kompleks tarzda baholash asos qilib olingan.

Ob'ektning ana shunday belgilarga asoslanadigan o'rtacha daromadliligi uning haqiqiy daromadliligidan jiddiy farqlanishi mumkin, shuning uchun bunday usul ko'p jihatdan tarixiylik tusiga ega bo'lishi mumkinki, undan soliq apparati uncha rivojlanmagan holatda qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasida yer solig'i kadastli usulda undiriladi. Bunda yerlarning unumdarligi (boniteti) hisobga olingan holdagi jadval shaklidagi yer

solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan har yili yangidan tasdiqlanadi.

Ikkinchi usulda soliqni soliq sub'ektiga daromadni to'laydigan yuridik shaxs hisoblaydi va ushlab qoladi. Ishchining ish xaqidan, xizmatchining maoshidan daromad solig'i shu tariqa undiriladi. Soliq korxonada xodimning daromadni olguniga qadar ushlab qolinadi, bu soliqni to'lashdan bo'yin tovlashni istisno qiladi, chunki buxgalteriya soliq solinadigan daromadni va soliq summasini aniq hisob-kitob kilib chiqadi. Bunday munosabatlarda ishtirok etuvchi yuridik shaxslar ko'pincha fiskal agent yoki soliq agenti sifatida qaraladi.

Soliqning daromad manbaida to'lanishi shuni anglatadiki, soliq uni deklaratasiyalar bo'yicha to'lashdagi singari soliq idorasi tomonidan hisoblanib ushlab qolinmaydi, balki uni yuridik va jismoniy shaxs foydasiga to'lovni amalga oshiradigan fiskal agentlar to'lov manbalari (korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, boshqa ish beruvchilar) da hisoblaydilar va ushlab qoladilar.

Uchinchi usul soliq to'lovchilarning soliq idoralari deklaratasiyalarni, ya'ni ularning olgan daromadlari va o'zlariga tegishli bo'lган soliq imtiyozlari xaqidagi rasmiy bayonotni berishni nazarda tutadi. Soliq idoralari soliq deklaratasiyasi va amaldagi soliqqa tortish stavkalari asosida to'lanishi lozim bo'lган soliq miqdorini nazorat qiladilar. Soliq deklaratasiyasi asosida, odatda, tadbirkorlik faoliyatidan, dehqon (fermer) xo'jaligini yuritishdan olinadigan daromadlar, shuningdek intellektual faoliyat bilan shug'ullanadigan shaxslar (fan, adabiyot, san'at asarlarining mualliflari, kashfiyotlar, ixtiolar mualliflari, sanoat namunalarini yaratuvchilari va hokazo) daromadlari soliqqa tortiladi.

5. Soliq mexanizmi.

Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida soliqlar mohiyati va mazmuniga ko`ra ko`plab milliy xususiyatlarga ega bo`lib ko`p qirrali shakllarda namoyon bo`ladi va natijada har bir davlatning o`z soliq tizimi shakllanib boradi. Soliqlar har qanday davlatning qaror topishi va amal qilishining obyektiv zaruriyati bo`lib hisoblanadi. ushbu obyektiv zaruriyat uning mohiyatini belgilab beradi. Soliqlarni ta`riflashdagi fikrlarda dunyo, jumladan, mamlakatimiz olimlarida ham umumiylilik va xususiyilik mavjuddir. Xo'jalik faoliyatini tashkil qilish hamda boshqarishning ma'muriy rejalashtirish shakli va uslublari tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish, soliqlar va soliq mexanizmiga bo'lган munosabatni tubdan o'zgartirishni taqozo etadi. Ular bozor iqtisodiyoti sharoitida ikkinchi darajali iqtisodiy kategoriyadan davlatning jamiyat iqtisodiy hayoti, korxona, tashkilot va fuqarolarning xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiladigan quvvatli vositasiga aylanadi. Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda yangi soliq tizimi va uning amal qilish mexanizmining umumiyligi asoslari ishlab chiqilganiga qaramasdan, bu sohada hal qilinishi zarur bo'lган muammolar ko'p. Soliqlar hamda soliq muammolarini etarli darajada nazariy jihatdan o'rganilmaganligi, amaliyotda ulardan samarali foydalanish jarayoniga muayyan darajada to'sqinlik qilmoqda. Shu jihatdan olib qaraganda, iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlari, soliqlar va soliq tizimini nazariy jihatdan o'rganish va tahlil qilish bilan birgalikda, soliqlarni amaliyotda qo'llanilishi, soliq mexanizmining

ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqqan holda uning vazifalari hamda amaliyotdagi soliq mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqishga ham qaratilgan bo'lishi lozim.

Soliq mexanizmi, moliya mexanizmining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, soliq mexanizmi to'g'risidagi quyidagi mulohazalarini bildirish maqsadga muvofiqdir.

Izohli lug'atlarda «mexanizm» atamasi quyidagicha talqin etiladi:

1. Mashina va uskunalarning ichki tuzilishi bo'lib, ularni harakatga keltiradi.
2. Sun'iy va harakatchan qo'shimcha bo'g'inlar yig'indisi.
3. U yoki bu harakat tartibini aniqlovchi tizim, qurilma.

Yuqorida keltirilgan ta'riflarga ko'ra, «mexanizm» atamasi iqtisod fanida u yoki bu ob'ektga ta'sir o'tkazish uchun ishlatilishi mumkin bqlgan vositalar, usullar, dastaklar va shakllarning ichki o'zaro bog'liqlik va aloqadorliklarining yig'indisi deb qarash mumkin.

Soliq mexanizmini jamiyat tomonidan soliq munosabatlarini tashkil etish uchun qo'llanadigan usullar yig'indisi deb atash mumkin. Lekin bu ta'rif soliq mexanizmining tashkiliy-huquqiy mazmuni hamda mohiyatini o'zida aks ettira olmaydi.

Soliq mexanizmining tub mazmuni davlat, jamiyat va alohida sub'ektlarning ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag'lariga bo'lган ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag'ları fondlarini tashkil etish bilan bog'liq ob'ektiv pul munosabatlari jarayonini aks ettiradi.

Soliq mexanizmi, iqtisodiy kategoriya bqlgan soliqlardan farqli o'laroq, kishilar ongli faoliyatining natijasi sifatida ustqurmaga tegishli bo'lib, uni amalga oshirish shakli sub'ektiv xarakterga egadir. Soliq mexanizmi haqida kengroq tushuncha hosil qilish uchun, soliq va soliqqa tortish jarayonining tarkibiy elementlarini eslab etish o'rnlidir.

Soliq ob'ekti, soliq sub'ekti, soliq bazasi, soliq stavkasi, soliqni to'lash muddatlari, soliq buyicha imtiyozlar va jarimalar, soliqlarni hisob-kitob qilish va byudjetga o'tkazish tartibi, soliq to'lovchilarning mas'uliyatlari, soliq idoralari tomonidan nazorat olib borish tartibi va boshqalar soliq mexanizmining muhim tarkibiy elementlari hisoblanadi. Shunga ko'ra, soliq mexanizmi davlat tomonidan soliq munosabatlarini tashkil etish uchun qo'llaniladigan qonunlar, yo'riqnomalar hamda soliqqa tortish jarayonining tashkiliy-huquqiy elementlari va uni boshqarishning yig'indisini aks ettiradi.

Bu yerda alohida olingan soliq yoki majburiy to'lovlar mexanizmini emas, balki umumiy holda barcha soliqlar va majburiy to'lovlar mexanizmini yoritishda keltirish uchun ishlatiladigan qonunlar, yo'riqnomalar va yuqorida ta'kidlab o'tilgan soliqqa tortish jarayonining tarkibiy qismlari yig'indisini umumiy nazarda tutgan holda aks ettirilgan.

Soliq mexanizmining tarkibiy qismlari birgalikda soliq munosabatlarini tashkil etishning shakllari, turlari, usullari «soliq mexanizmi konstruktsiyasini» tashkil etadi. Ushbu «konstruktsiya» tarkibiy qismlarining har biriga miqdor

jihatdan o'lchov birliklari o'rnatish yo'li bilan harakatga keltiriladi. Boshqacha qilib aytganda, soliq mexanizmi konstruktsiyasi, soliq ob'ekti va sub'ekti, soliq stavkasi va undirib olish muddati, soliq bo'yicha imtiyozlar berish hamda jarimalar solish va boshqalarni aniqlash yuli bilan harakatga keltiriladi.

Soliqlarning ichki mohiyati harakat qilish qonuniyatları va qaramaqarshiliklarni e'tiborga olish, mustaqil davlatimiz uchun soliq mexanizmidan samarali foydalanishda katta ahamiyatga ega. Soliqlar va ularning funktsiyalarini bir tomonidan, soliq siyosati va soliq mexanizmini, ikkinchi tomonidan ajratib o'rganish soliqlarni ob'ektivligini hamda soliqlar buyicha davlat faoliyatining sub'ektivligini tushunish imkoniyatini beradi.

Soliq mexanizmi o'z mohiyatiga ko'ra davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan markazlashgan va markazlashmagan pul mablag'lari fondlarini tashkil etish bilan bog'liq ob'ektiv pul munosabatlari jarayonini aks ettiradi.

Soliq mexanizmining ichki mohiyati, uning tarkibi va tuzilishi bevosita soliqlarning mazmuni, tarkibi va tuzilishi (elementlari) dan kelib chiqadi.

Soliq mexanizmi - davlat tomonidan soliq munosabatlarini tashkil etish uchun qo'llaniladigan (huquqiy baza asosida) soliqqa tortish jarayonining elementlari va ularni boshqarishning yig'indisini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda soliq mexanizmi - bu soliq munosabatlarini tashkil qilish usullari yig'indisi bo'lib, u iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishda qulay shart-sharoitlar ta'minlash uchun davlat tomonidan qo'llaniladi.

Davlat soliq munosabatlarini tashkil etishning usullarini o'rnatish ekan, ularga mos qonunlar yaratadi va kuchga kiritadi. Davlat soliq qo'mitasi amaldagi soliq qonunchiligi asosida hamda o'zining vakolat doirasida har bir soliq turlari bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqadi. Shunday ekan davlat soliq mexanizmiga soliq qonunchiligi yordamida huquqiy shakl beradi va uni boshqarib turadi.

Soliq mexanizmining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi qonuni, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va boshqa soliqqa oid me'yoriy hujjatlardan iborat bo'lib, u umummilliy va davlat manfaatlarini aks ettiradi.

Soliq mexanizmining tarkibiy qismlari birgalikda soliq munosabatlarini tashkil etishning shakllari, turlari, usullarini tashkil etadi. Soliq mexanizmi soliq tizimining amaliyotga tatbiq etilishini ifodalaydi. Undan foydalanish soliq elementlari yig'indisidan foydalanish uchun ishlab chiqilgan.

Soliq mexanizmining tarkibiy qismlari uzoq yillar harakat qilsa (masalan, soliqlarning turlari), uning elementlari (masalan, stavka, imtiyoz) tez-tez o'zgartiriladi.

Soliq mexanizmi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda foydalaniladigan asosiy qurol sifatida byudjet taqchilligini mumkin qadar bartaraf qilishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bundan tashqari davlat soliq mexanizmidan bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatishda, tadbirkorlikni rivojlanishiga imkon yaratib berishda va ayni vaqtida aholini kam

daromadli qatlamini ijtimoiy qashshoqlashishiga qarshi muhim vosita sifatida foydalanishi lozim.

Soliq mexanizmining vazifalari bevosita soliqlarning funktsiyalaridan kelib chiqadi. Shundan kelib chiqib, soliq mexanizmi o'z mohiyatiga ko'ra fiskal, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega.

Soliq mexanizmining fiskal ahamiyatini e'tiborga olgan holda asosiy vazifasi davlat ixtiyoriga zarur bo'lgan moliyaviy mablag'larni shakllantirish hisoblanadi. Bu borada quydagilar asos qilib olinishi lozim:

- davlat va jamiyatning iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish;

- davlatning ijtimoiy yo'nalishdagi xarajatlari uchun moliyaviy asos yaratish;

- davlat byudjeti taqchilligini imkon qadar kamaytirish. Ma'lumki, byudjet taqchilligini kamaytirishga nafaqat byudjet xarajatlarini qisqartirish, balki oqilona tashkil etilgan soliq mexanizmidan foydalangan holda byudjet daromadlarini oshirish hisobiga ham erishish mumkin. Ushbu maqsadlarga asosan soliq mexanizmining fiskal vazifasidan foydalangan holda erishiladi.

Soliq mexanizmi bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zining yana bir ahamiyatini, ya'ni iqtisodiy ahamiyatini hisobga olgan holda o'ziga xos vazifalarini bajaradi. Bu vazifalar davlat tomonidan iqtisodiyotni boshqarib turishda foydalanadagan dastaklardan biri sifatida quydagilarga bo'linishi mumkin:

- bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatish. Bu vazifa respublikamizda ko'p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirish, xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash uchun asoslanadi.

- mulkchilik va xo'jalik faoliyatining tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar barcha soliq to'lovchilar uchun bir xil imkoniyat yaratib berish. Bu borada soliq mexanizmi universallashtirilishi lozim. Bundan tashqari mavjud soliq mexanizmi soliq to'lovchi sub'ektlarga xo'jalik faoliyatining sohasi va iqtisodiyot tarmog'idan qat'iy nazar normal rivojlanishni ta'minlovchi darajaga egalik qilishga imkoniyat yaratib berishi lozim.

- yuridik va jismoniy shaxslarning tadbirdorlik faoliyatini tartibga solish. Soliq mexanizmining ushbu vazifasi soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish va jarimalar solish hisobiga ular xo'jalik faoliyatiga ma'lum darajada iqtisodiy jihatdan ta'sir etishdan iborat.

- tashqi iqtisodiy faoliyatni hamda eksportni rag'batlantirish. Soliq mexanizmining bu vazifasi tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada rivojlanish, respublika iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni kengroq jalg qilish va jahon bozoriga chiqish maqsadida mahsulot eksportini etarli darajada rag'batlantirishga doir imtiyozlar berish.

- soliq to'lovchilarga ma'lum davrda ba'zi imtiyozlar berish va zarur paytda jarimalar solish orqali ular faoliyatiga ta'sir ko'rsatish. Soliq mexanizmining ushbu vazifasi orqali ishlab chiqarishgan soliq mexanizmi vositasida ijobjiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatish orqali umumiqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin.

Yuqoridagi vazifalardan tashqari soliq mexanizmining iqtisodiy ahamiyati bilan bog'liq bo'lgan: tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitni muhofaza etishni rag'batlantirish; aholi pul daromadlarini oshirish yoki qisqartirish orqali ularning to'lov qobiliyatiga ta'sir etish kabi muhim vazifalarni bajarishi lozim.

Soliq mexanizmining iqtisodiy ahamiyatini e'tiborga olgan holdagi vazifalari:

- aholining har xil ijtimoiy guruhlari daromadlarini tartibga solish. O'rnatilgan soliq stavkasi miqdori shunday optimal darajada bo'lishi kerakki, barcha aholi ijtimoiy guruhlari uchun soliq stavkasi miqdori ularni yana ham ko'proq daromad olishdagi tashabbuslari va manfaatlariga zid bo'lmasligi kerak;

- aholining kam daromadli qismini keskin qashshoqlashishiga to'siq bo'lib xizmat qilish;

- demografik siyosat talablarini hisobga olgan holda har xil imtiyozlar berish.

Soliqlar davlat byudjetini daromadlar bilan to'liq ta'minlashning asosiy manbasi hamda iqtisodiyotni boshqarib turuvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham soliq mexanizmi keng qamrovli ayni paytda har bir soha, tarmoq, korxonaga alohida moslashuvchan bo'lishi lozim.

Iqtisodiyotni boshqarish ikki xil shaklda amalga oshiriladi:

A) Ma'muriy boshqarish;

B) Iqtisodiy boshqarish.

Boshqarishning bozor munosabatlari sharoitiga mos keluvchi asosiy usuli, korxonalar faoliyatini uning oxirgi moliyaviy natijalariga bog'liq qilib qo'yishdan iborat.

Soliq mexanizmini qo'llash, ssuda kapitali va foiz stavkalaridan foydalanish (investitsiya siyosati), byudjetdan kapital qo'yilmalarni hamda dotatsiyalar ajratish, davlat xarid baholarini o'rnatish, davlat buyurtmasi va boshqa davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi ta'sir etuvchi omillari hisoblanadi.

Soliq stavkalariga o'zgartirishlar kiritish, soliqlar bo'yicha imtiyozlar hamda jarimalardan foydalanish, ba'zi bir soliqlarni joriy qilish bilan birga ayrimlarini bekor qilish va boshqalar yordamida davlat alohida olingan tarmoq yoki ishlab chiqarish sohasini tezroq rivojlanishi uchun sharoit yaratib beradi.

Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarishni yoqlovchi ko'plab nazariyalar mavjud. Jumladan, A.Smit tomonidan ilgari surilgan soliqqa tortish tamoyillari soliqlarning fiskal ahamiyati bilan birgalikda iqtisodiyotni boshqarishda foydalaniladigan vosita sifatida o'rganish lozimligini tasdiqlaydi.

«Soliqlar - iqtisodiyotni tartibga soluvchi vosita» kontseptsiyasi iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirishni ta'minlash va iqtisodiyotni boshqarishda soliqlardan foydalanishni anglatadi. Keyns o'zining ilmiy izlanishlarida iqtisodiyotni soliqlar vositasida boshqarib turish zaruratiniz nazariy jihatdan asoslab bergan va soliqlarga avtomatik tarzda barqarorlashtiruvchi vosita sifatida qaragan. Shu bilan birgalikda soliq mexanizmini o'zgartirib, soliq siyosatini iqtisodiyotning tsiklli rivojlanishiga muvofiqlashtirishni tavsiya etgan.

«Soliqlar - daromadlarni barqarorlashtiruvchi vosita» nazariyasining asoschisi E.Jerarden (Frantsuz iqtisodchisi) soliqlar yordamida iqtisodiyotni boshqarish

mexanizmiga ta'sir etib, jumladan soliqqa tortishning progressiv shkalasini qo'llash orqali jamiyat a'zolarining mulkiy tengsizligini tugatish mumkinligini ta'kidlaydi.

Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarishning asosiy maqsadi xo'jalik yuritishda qulay sharoitlarni yaratib berish va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, shu maqsadlarga erishish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

- soliq tushumlari hajmini o'zgartirish;
- soliqqa tortishning shakl va usullarini o'zgartirish;
- soliq stavkalarini o'zgartirish, ularni tabaqlashtirish;
- soliq imtiyozlaridan foydalanish;
- soliqqa tortilishi lozim bo'lgan ob'ektlarni o'zgartirish;
- jarimalar qo'llash va boshqalar.

Davlat iqtisodiyotni soliqlar orqali tartibga solishda makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajada ta'sir etadi. Makroiqtisodiy darajada, soliq stavkasi miqdoriga o'zgartirish kiritish orqali inflyatsiyani chegaralash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish kuchlarining hududlararo mukammal joylashishini tartibga solish, mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash, iqtisodiy o'sishga erishish kabi keng ko'lamli maqsadlarga erishish mumkin. Mikroiqtisodiy darajada esa, xo'jalik yurituvchi suyub'ektlarning moliyaviy holatiga ta'sir etishi, ularning investitsiya faoliyatini rag'batlantirishi kabilarga erishishi mumkin.

Soliq imtiyozlaridan ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda, investitsiyalarni rag'batlantirishda va boshqalarda keng foydalaniladi.

Soliq imtiyozlari rag'batlantirish va samarali qo'llanilishiga qarab quyidagi ko'rinishlarda ifodalanishi mumkin:

- soliqlardan butunlay ozod qilish;
- yangi tashkil etilgan korxonalarga imtiyozlar berish;
- soliq to'lashdan vaqtinchcha ozod etish;
- soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish;
- soliqdan qisman ozod qilish;
- xorijiy investitsiyalarga imtiyozlar berish;
- eksportga imtiyozlar berish va boshqalar.

Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarishda soliq mexanizmi elementlaridan keng ko'lama foydalaniladi. Ulardan keng qo'llaniladigan va samarali choralar sifatida soliq stavkalarini, soliq imtiyozlarini o'zgartirish kabilarni alohida qayd etib o'tish lozim.

5-mavzu: O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning shakllanishining nazariy asoslari

Reja:

- 1. Soliq tizimining mohiyati va ahamiyati.**
- 2. Soliq tizimini guruhlash tartibi.**
- 3. To'g'ri va egri soliqlar.**
- 4. Umumdavlat soliqlari hamda mahalliy soliqlar va yig'imlar.**
- 5. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va yig'imlar.**
- 6. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlari.**

Tayanch so'z va iboralar: soliq tizimi, guruhlash, to'g'ri soliqlar, egri soliqlar, umumdavlat soliqlari, mahalliy soliqlar, yig'im, real va shaxsiy soliqlar, rivojlanish bosqichlari, davlat budgeti, daromad..

1. Soliq tizimining mohiyati va ahamiyati.

Soliq tushunchaci uni qanday undirilishi bo'yicha va kimlar tomonidan to'lanishini tushunish bo'yicha turlanishi mumkin. Soliqlar bir qator belgilariga ko'ra guruhlanadi. Ularning bir turi Jamec va Nobec tomonidan tasvirlangan usul hisoblanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlari hamda ularning tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig'indisi soliq tizimini tashkil etadi. Bu ta'rif soliq tizimini keng ma'noda tushunishdir. Soliq qonunchiligidagi soliq tizimi tor ma'noda talqin qilinib, bir xil mohiyatga ega bo'lgan va markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq, yig'im, boj va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi soliq tizimi deb ataladi. Soliq tizimiga nisbatan bunday yondashuvni ayrim adabiyotlarda ham keltirilganligini ta'kidlash o'rinni. Qayd etilgan ta'rifda soliq va yig'imlar yagona mohiyat, ya'ni «majburiy xarakterga ega bo'lgan munosabat» va ularning bir-biri bilan bog'liqligi va nihoyat byudjetga tushishligini ko'rsatadi. Bu O'zbekiston Respublikasi soliq Kodeksi mazmuniga mos keladi. Shu yerda bahsli masala ham mavjud, ya'ni davlatning byudjetdan tashqari fondlariga (pensiya, ijtimoiy sug'urta, bandlik, yo'l fondlari va boshqalar) to'lovlarni ham majburiylik nuqtai nazardan soliq tizimiga kiritish muammosi mavjud.³²

Soliqlar bo'yicha izlanishlar olib borgan ayrim mualliflarning soliq tizimiga yondashuvi boshqacha. Soliq tizimiga xususan soliqlar yoki ularga tenglashtirilgan to'lovlari tizimi (majmui) sifatida qarash mumkin emas. Soliq solishning muhim shart-sharoitlariga quyidagilar kiradi: soliqlarni belgilash va amalga kiritish tartibi, soliqlarning turlari, ularni byudjet darajalari o'rtasida taqsimlash tartibi, soliq nazoratini amalga oshirish shakllari va uslublari, soliq to'lovchilarning huquqlari, majburiyatlar, ular manfaatlarini himoya qilish usullari, soliq munosabatlari

³² Yahyoev Q. «Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti». T. «G'afur G'ulom» 2000. y. 31 bet.

ishtirokchilarining javobgarligi³³ va shu birga ushbu elementlar soliq tizimining tarkibiy unsurlari ekanligini ta'kidlaydi va soliq tizimi deganda ana shu elementlarning majmuasidan iborat bo'lgan va ular o'rtaсидagi munosabatlar majmuasidan kelib chiqib ifodalash mumkin.

Umuman olganda soliq tizimini tarkiban soliqqa tortish tamoyillari, soliq siyosati, soliqqa tortish tizimi, soliq mexanizmi kabilarga ajratish mumkin. Ushbu elementlar bevosita mamlakatda amal qilayotgan soliqlarning tarkibini belgilab beradi.

Mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti asoslarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar har bir sohada tub islohotlar amalga oshirishni taqozo etmoqda. O'z-o'zidan ayonki, rivojlangan mamlakatlarning turli sohalaridagi, jumladan, iqtisodiy ravnaqining asosi ularda bozor munosabatlarining amal qilishidir. Shundan kelib chiqqan holda respublikamizda ham mustaqillikka erishilgan paytdan e'tiboran bozor munosabatlarini shakllantirishga, rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratildi va bu boradagi islohotlar davom etmoqda. Ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga o'tish davlat oldidagi vazifalarni ham o'zgarishiga olib keladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish natijasida davlatning vazifalari o'zgarishi o'z navbatida unga zarur bo'lган moliyaviy resurslar shakli, miqdori va o'zlashtirish tartibida bir qator o'zgarishlar qilishni talab etadi. Shuning bilan bиргаликда bozor iqtisodiyotining zamonaviy holatiga ko'ra unda davlatning o'rni ham katta bo'lib, davlat turli ko'rinishlardagi inqirozlarni oldini olish, bozor munosabatlarining erkin qaror topishi, tadbirkorlikning rivojlanishini rag'batlantirish kabi bir qator vazifalarni o'z zimmasiga oladi. Ma'lumki, davlat tomonidan amalga oshiriladigan har qanday vazifalar muayyan xarajatlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bu esa davlat budgetini shakllantirish hamda mavjud resurslardan samarali va oqilona foydalanish zaruratining har tomonlama maqbul tizimini yaratish lozimligini taqozo etadi.

2. Soliq tizimini guruhash tartibi.

Soliqlarning bevosita va bilvosita turlarga bo'linishi odatiy taqsimlanish bolib hisoblanadi, ammo ularning bittasi ba'zan kamroq foydali deb hisoblanadi. Odatda bevosita soliq tor ma'noda soliq to'lovchi tomonidan to'lanadi va boshqa bir insonga tegishli bo'lmaydi. Buni bir qator misollarda osongina tushinish mumkin. Masalan, Birlashgan Qirollikda kompaniya soliq solinadign foyda/daromadiga asosan korporatsiya solig'ini to'laydi, HMRC: bu bevosita soliq, kompaniya bu soliq qancha to'lanishini biladi va to'g'ridan-to'g'ri to'laydi. Biroq ushbu soliq kompaniya aksiyadorlariga, ya'ni taqsimlangan foydadan dividend oluvchilarga o'tkazilishi mumkin. Shunday qilib, narsalar birinchi marta ko'ringanidek bo'lmaydi. Daromad solig'i, kapital solig'i, meros/mol-mulk solig'i kabilar bevosita soliqlarga misol bo'ladi.

³³ Xvan L.B. "Soliq huquqi", T.: "Konsaudit inform" 2001 y. 47 bet.

Bilvosita soliq odatda tovar va xizmatlarga qo'yiladi. Ularning 2 xil turi mavjud: alohida tovarlar va xizmatlarga qo'llaniladigan aktsiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'i. QQC barcha turdag'i tovarlar va xizmatlarga qo'llanilib, nomidan ko'rinish turganidek sotuv qiymatining oshgan qismidir. Ma'lum bir belgilangan tovar va xizmatlar bu soliqdan ozod qilinishi belgilanmagan. Boshqa tomondan aktsiz solig'i turli xil tovar va xizmatlar ushun turli xil stavkalarda bo'lishi yoki alohida tovarlar va xizmatlar bu soliqdan ozozd qilingan bo'lishi mumkin.

Ko'pchilik mamlakatlarda alkogol, tamaki va uglevodorod yoqilg'isiga qo'yiladigan aktsiz soliqlari mavjud bo'lsada, ular turli xil stavkalarda va turli xil yollar bilan undirib olinadi³⁴.

Ba'zan egri soliqlar tayyorlik soliqlari deb ham yuritiladi, ya'ni oxirgi sotib oluvchi to'lagan narxida soliq elementi mavjudligini har doim ham aniqlashga ega bo'lmasligi mumkin. Masalan, Birlashgan Qirollik supermarketida sotib olingan bir butilka viskiyga qo'yiladigan aktsiz solig'i ishlab chiqaruvchiga qaratiladi, lekin bu soliq supermarket sotuvida oxirgi haridorga ko'rsatib qo'yilmaydi yoki schyotda berilishi ta'minlanmaydi. Ushbu soliq tushunchasining egri deb atalishi uning iste'mol zanjiridagi narxning baland bo'lishiga sabab bo'lishidir. Viskiy ishlab chiqaruvchisi uning har bir butilkasiga aktsizdan kelib chiqib narx o'rnatadi. Agar soliq oshsa viskiy narxi ham ko'tarilib boradi. Bundan kelib chiqib sotuvchi iste'molchiga nisbatan uni narxini oshiradi. Ba'zi sotuvchilar haridorlariga nisbatan narxlarni to'liq oshirishmaydi, biroq qo'shimcha qiymatning pasayishi evaziga soliq yuki ham kamayishi mumkin.

Soliq bazasining o'zi muammolar keltirishi mumkin. Masalan, qaysi daromaddan soliq solinishini aniqlash muammoli masala. BIRLASHGAN QIROLLIK soliq qonunchiligi daromadni aniqlamaydi, lekin turli xil daromad manbalarini e'tiborga oladi. Keltirilgan ko'pgina izohlar daromad tushunchasini ochib berishi mumkin. Masalan, Oksford iqtisodiy atamalar lug'atida quyidagicha izohlar keltirilgan.

1. "Daromad bu kaptial o'zgarishsiz qolgan paytda bitta jismoniy shaxsning sarflash miqdori. Har bir jismoniy shaxs urchun aktiv ham qarz xam bo'limgan shaxsiy daromad: bular oylik yoki shaxsiy daromad, plus transfert daromadlar ya'ni pensiya va boshkalarga o'xshagan kirimlar bo'lishi mumkin. Sof yoki bir martalik kirim bu aktsiz solig'i to'lab bo'linganidan keyingi daromad bo'lib hisoblanadi. Real daromad bu o'zgarmas narxlarda uning harid kuchini aniqlash urchun iste'mol narxlari indeksi orqali kelib chiqqan pullik daromad. Jismoniy shaxslar urchun real yoki moliyaviy aktivlar ya'ni tushumlar va oshgan kapital o'rtasidagi fark yuqori texnik va kutilmagan masaladir. Lug'atda yana keltrilishicha rentadan, dividentlardan va foizli daromad yoki ishlab topilmagan daromad ham kirim sifatida qaralishi kerak".

2. "Daromad kelajakda sarflanishi mumkin bo'lgan sarf miqdori izchil sarflash mumkin bo'lgan summani qanoatlantirishi kerak. Bu doimiy daromad

³⁴ Jane Fracknall-Hughes. The Theory, Principles and Management of Taxation: An introduction, Routledge Taylor and Francis Group. 2017

sifatida qaraladi: uni obektiv o'lchash juda qiyin, bu uzoqni ko'zlagan kontsepsiadir”.

3. “Daromad bu firmalar yoki davlat korporatsiyalari savdosidan keladigan foizli yoki divident ko'rinishidagi tushumlar bo'lib hisoblanadi. Bu kirim va chikim o'tasidagi tafovut sifatida yuzaga keladi. Faqat qandaydir sof foyda individual daromad bilan solishtirganda ushbu tafovut sifatida qaralishi mumkin”.

Yuqorida keltirilgan izohlar 1920 va 1930 yillardagi BIRLAShGAN QIROLLIK iqtisodchilari Robert M. Xaig va Genri S. Simons va keyinroq ingliz iqtisodchisi J.R. Xikslar tomonidan keltirib o'tilgan. Bundan tashqari boshqa iqtisodiy asosli Schanz-Xaig-Simon ta'riflar xam mavjud, ya'ni Iste'mol (S) plus insonning sof aktivlarining o'zgarishi(dNW) daromad (I)ga teng. Ushbu ta'rif dastlab nemis yuristi Jorj Schanz (1896) tomonidan ilgari surilgan bo'lib, Xaij va Simonslar tomonidan rivojlantirilgan³⁵.

Buxgalterlar iqtisodchilardan farqli o'laroq daromad tushunchasini boshqacha ta'riflashadi. Shunday qilib, buxgalteryaning xalqaro standartlari kengashi kontsepsiyasiga asosan daromadga shunday ta'rif berilgan: daromad bu hisobot davrida kapital o'sishiga olib keluvchi tushumlar yoki aktivlar o'sishi shaklidagi iqtisodiy foydaning ko'payishi yoki majburiyatlarning kamayishi.

Biroq buxgalterlar uchun bu qiyin tuyulishi mumkin. Nimaga soliq solinadigan bo'lsa o'sha narsa pulda o'lchanishi kerak. Yuqorida keltirilgan izohlar soliq tizimi uchun ba'zi hollarda etarlicha asosli yoki oddiy bo'lishi mumkin. Masalan, ishlovchi shaxs uchun daromad ish beruvchi tomonidan beriladigan haqdir. Ushbu haq nafaqat pul ko'rinishida, balki mashina, ijtimoiy himoya(bolnichniy) ko'rinishida bo'lib soliq solishga asosli bo'lishi mumkin.

Boshqa bir kontsepsiya ko'ra kapital bu odamlar boyligi tushunchasida xam qaralishi mumkin. Iqtisodiyotda kapital bu ishlab chiqarishda ko'llaniladigan tushunchadir, masalan mashinasozlikda. Bundan tashqari boylik sifatida olinuvchi moliyaviy kapital aktsiyalar xam daromad sifatida qaralishi mumkin. Boylik turli xil ko'riishlarda, masalan pul, uy-joy, yer, xususiy mulk (qimmatbaho narsalar, mashinalar, rasmlar), aktsiyalar, obligatsiyalar, intelektual mulk kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Shu sababli soliq uchun kapital va boylik bir biridan farq qiladi.

Bu boradagi eng katta qiyinchilik bu kapital/boylikka kanday soliqqa tortilishidir. Bunda 3 ta bazaviy yo'l mavjud:

1. Aktsiyalar hisobiga olingan divident ko'rinishidagi daromaddan;
2. Quyidagi aktivlar qiymatidan olingan daromaddan:
 - qaytalanuvchi(vozvratniy) baza, masalan yillik; yoki
 - kapital transferidan, masalan o'lim holatlarida;
3. Kapital qiymatining o'sishidan, misol uchun aktivni tasarruf qilishda.

Soliqlar iste'mol jixatidan guruhlanganda soliq bazasi qilib tovar va xizmatlarga sarflar inobatga olinadi. Iste'mol yoki xarajat turli xil yo'llar bilan o'lchanishi mumkin, boshqa usullarga nisbatan realizatsiya yo'li osonroq hisoblanadi. Masalan, u quyidagi formula orqali topiladi:

³⁵ Jane Fracknall-Hughes. The Theory, Principles and Management of Taxation: An introduction, Routledge Taylor and Francis Group. 2017

Xarajat = Daromad – (Jamgarma + kapitalga xarjatlar)

Bunda daromadning yillik qaytishidan soliq solinadi. Maxsulot/ xizmatlarga davlat monopol bo’lgan joylarda garchi soliq sifatida namoyon bo’lmasada yuqori narxlar evaziga daromad o’sishi mumkin. Litsenziya turlariham iste’mol solig’iga kiritiladi. Yuqorida qayd etilganidek, litsenziyalar aktsiz solig’i bo’lganligi uchun iste’mol soliqlari egri soliqlar hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan viski misolida xam viskiga qo’yiladigan aktsiz solig’i maxsulot narxi tarkibiga kiritilganligi uchun oxirgi iste’molchi undan bexabar bo’ladi. QQS(VAT) hamda tovar va xizmatlar solig’i (GST) xam iste’mol soliqlari tarkibiga kiritiladi.

Nimadan soliq undirilayotganiga qarab yagona yoki o’rnatilgan soliq qaraladi. Aktsis soliqlar bu o’rnatilgan soliqlardir. Masalan tamaki maxsulotlariga soliq ularning og’irligi yoki xar bir sigareta pochkasiga aktsiz qo’yiladi, ular pul qiymatiga emas. Jon solig’i xam o’rnatilgan soliqlar sirasiga kiritiladi.

Advolar termini lotin tilidan olingan bo’lib “qiymatiga ko’ra” degan ma’noni anglatadi va bunda soliq soliq bazasiga asosan undiriladi, ya’ni bu savdo(QQS/TXS), daromad yoki aktiv kapital tasarrufidan foyda bo’lishi mumkin. Shuningdek advolar soliq istalgan bir yillik yoki tranzaktsiyada belgilanishi mumkin.

Yuqoridagi soliqlarning ba’zilarini boshqalariga nisbatan tushunish osonroq, misol uchun mol mulk uchun soliqlar. Boshkalar tushunarsiz bo’lishi mumkin. Masalan, ijtimoiy sug’urta badallari uchun soliqlar bu odamlar ishsiz qolganda, kasallangan paytda, boquvchisini yo’qotganda va boshqa hollarda undiriladigan soliq turidir. Agar fond faqat ushbu xizmatlar uchun hosil qilinsa ushbu soliqlar garovdagi deb ataladi, ya’ni oshgan fond belgilangan foydalanishlar uchun “o’rab olingan” (ograjdeni) deyiladi.

Soliqlarning xammasi xam OECD mamlakatlarida amalda emas. Masalan, ishchi kuchi uchun soliq asosan ish bilan ta’minlangan aholi uchun qo’llaniladi. Birlashgan Qirollikda bir paytlar “tanlangan ish bilan bandlik solig’i” mavjud bo’lgan, u juda qimmat to’lov talab qilganligi uchun nom qozonmagan.

OECD klassifikatsiyasi eng samarali guruxlashlardan biri bo’lib xozirgacha amalda bo’lib kelmoqda. Ushbu izchil klassifikatsiyaning maqsadi, albatta, a’zo mamlakatlar soliq tizimini to’g’ri taqqoslash bo’lib, lekin bu mavjud bo’lgan boshqa klassifikatsiyalashni xisobga olmaslik degani emas.

Soliq tizimining asosi bo’lgan soliqlar o’ziga xos xususiyatlariga, bir qator belgilariga ko’ra guruhanladi. Soliqlarning guruhanishi ularning ob’ektiga, xo’jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy faoliyatiga ta’sir etishiga, undirilish usullari, paydo bo’lishiga (sub’ektiga), byudjetga yo’naltirilishiga va boshqa belgilariga ko’ra ularning tasniflanishidir.

Soliqlarni bunday tartibda guruhlarga ajratishdan maqsad ularni taqsimlash tamoyillarini belgilashda, ularning soliq funksiya va vazifalarini qay darajada bajarayotganligini baholashda, umuman olganda davlat byudjetini doimiy ravishda va muntazam daromadlar bilan ta’minlashda, shuningdek xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning tadbirkorlik faoliyatini cheklab qo’ymasdan faoliyat ko’rsatishi

uchun soliqlarning har tomonlama ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, tahlil qilishdan iborat.

Tarixan soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga qarab yoki boshqacha qilib aytganda undirib olish manbasiga qarab ikki guruhga to'g'ri va egri soliqlar guruhlariga bo'linadi. Soliqlarni belgilaydigan va ulardan tushgan mablag'ni tasarruf etishiga, ya'ni byudjetga o'tkazish nuqtai-nazaridan soliqlar umum davlat va mahalliy soliqlarga bo'linadi. Shuningdek, soliqlar paydo bo'lish manbaiga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga bo'linadi. Soliqlarning qayd etilgan guruhlarga ajartib o'rganishni alohida savol sifatida kengroq yoritishga harakat qilamiz.

Shu o'rinda soliqlarni guruhashning ayrim turlarini ko'rib chiqamiz. Soliqlarni ob'ekti va iqtisodiy mohiyati bo'yicha guruhash iqtisodiyotga ijobjiy va salbiy ta'sir ko'rsatishni o'rganishning ilmiy va amaliy uslubidir.

Soliqlar soliqqa tortish ob'ektiga qarab uch guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar. Bunda soliqlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bevosita oborotidan undiriladi, ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari, yig'imlari va boshqalar kiradi.

2. Mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlar. Bunday soliqlar soliq to'lovchi sub'ektlar tasarrufida mavjud bo'lgan mol-mulkdan, yerdan va boshqalarga nisbatan belgilanadigan soliqlardan iborat.

3. Daromaddan olinadigan soliqlar. Bunga yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i, infratuzilmani rivojlantirish solig'i, jismoniy shaxslarning daromad solig'i va boshqalar kiradi.

Mamlakatimizda amal qilayotgan soliqlarning ayrimlari koxonalar ho'jalik faoliyatining oxirgi moliyaviy natijasidan byudjetga to'lanadigan aksariyat soliqlar va majburiy to'lovlar kelgusi davr xarajatlari orqali ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga qo'shiladi (yer solig'i, mol-mulk solig'i va boshqalar). Shu o'rinda soliqlarni guruhashning asosi hisoblangan, ularni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy faoliyatiga ta'sir etishiga qarab quyidagilarga ajratishimiz mukin:

1. Tovar (ish, xizmat) lar oborotidan to'lanadigan soliqlar. Bunday soliqlarga asosan egri soliqlar kiradi, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari.

2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan soliqlar: pensiya fondiga ajratmalar, kasaba uyushmalari federatsiyasiga ajratmalar, bandlik fondiga ajratmalar va boshqalar.

3. Davr xarajatlari kiritiladigan soliqlar: mol-mulk solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qaridan foydalanganlik uchun soliq va boshqalar.

4. Korxonalar foydasidan to'lanadigan soliqlar: foyda solig'i, infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq va boshqalar.

3. To'g'ri va egri soliqlar.

Soliqlarni to'g'ri va egri soliqlarga guruhlanishi soliqqa tortish ob'ektiga, to'lovchi bilan davlatning o'zaro munosabatlariga bog'liq bo'ladi. To'g'ri soliqlar to'g'ridan-to'g'ri daromadga va mol-mulkka qaratiladi (soliqqa tortishning bevosita shakli). Tovarning bahosida to'lanadigan yoki tarifga kiritiladigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlar egri soliqlarga kiradi. Tovar va xizmatlarning egasi ularni sotishda soliq summalarini olib, ularni davlatga o'tkazadi.

Daromadlar oladigan (mol-mulkka va shu kabilarga egalik qiladigan) xo'jalik yurituvchi sub'ektlar to'g'ri soliqlarning pirovard to'lovchisi hisoblanadi, narxlarga ustamalar orqali soliq yuki yuklab qo'yiladigan tovarning iste'molchisi esa, egri soliqlarning pirovard to'lovchisi hisoblanadi.

Amaliyotda nafaqat egri soliqlar, shu bilan birga to'g'ri soliqlarni ham iste'molchilar zimmasiga o'tkazish imkoniyati mavjuddir. Masalan, korxonalar to'laydigan soliqlar yuki inflyatsiya davrida ko'pincha narx-navoni oshirib yuborish orqali iste'molchilar zimmasiga yuklab boriladi.

To'g'ri soliqlarga tortishda mablag'larning safarbar qilinishi yangi qiymatni taqsimlash paytida boshlanadi. Davlat daromad olingan paytdayoq uning bir qismiga o'z huquqlarini da'vo qiladi.

Soliq to'lovchining daromadi (ish haqi, foyda, foizlar va hokazo) va uning mol-mulkining (yer, uylar, qimmatli qog'ozlar va hokazo) qiymati to'g'ri soliqlar ob'ekti bo'ladi. Soliqqa tortishning bu shakli egri soliqlarga nisbatan birmuncha progressivdir, chunki u soliq to'lovchining daromadlilagini, oilaviy ahvolini hisobga oladi, soliq daromadni olish bosqichida undiriladi. Bundan tashqari, to'g'ri soliqlarga tortishda soliq to'lovchi o'z solig'inining summasini aniq biladi.

Tarixiy jihatdan olganda to'g'ri soliqlar XVIII asrda va XIX asrning birinchi yarmida shakllandi, ular faqat XX asrda keng ommalashdi.

To'g'ri soliqlar real va shaxsiy soliqlarga bo'linadi.

Real soliqlar soliq to'lovchi mol-mulkining ayrim turlaridan (yer, uylardan) kadastr asosida undiriladi, to'lovchining haqiqiy daromadlilagini emas, balki o'rtacha daromadlilagini hisobga oladi. Soliqqa tortish ob'ektiga qarab quyidagilar real soliqlarga kiradi: yerga oid, uy-joylarga doir, kasb-hunarga tegishli, qimmatli qog'ozlardan olinadigan soliqlar. Real soliqlar tashqi belgilarga asoslanadi, soliqqa tortish mol-mulkning kadastr bo'yicha aniqlanadigan o'rtacha daromadlili bo'yicha amalga oshiriladi. O'z mohiyatiga ko'ra bunday soliqlar regressiv tusga egadir.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, davlat faoliyatining kengayishi shaxsiy soliqlarga o'tilishini taqozo etdi, chunki real soliqlar fiskal jihatdan ham, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham foydali bo'lmay qoldi. Real soliqqa tortishning ayrim unsurlari, odatda, mahalliy soliqlar tizimida asosan sanoat jihatdan taraqqiyot etgan mamlakatlarda saqlanib qolgan. Shaxsiy soliqlar ravnaq topmoqda, bular daromadlar manbaida yoki deklaratsiya bo'yicha undiriladigan jismoniy va yuridik shaxslarning daromadlari va mol-mulkidan olinadigan soliqlardir. Real soliqdan farqli ravishda shaxsiy soliqqa tortishda ob'ekt

(daromad, mol-mulk) har bir to'lovchi uchun yakka tartibda hisoblab chiqiladi, uning moliyaviy ahvoli (oila soni, qarzdorlik va hokazo) e'tiborga olinadi. Rivojlangan mamlakatlarda soliqqa tortish ob'ektiga qarab shaxsiy soliqlarning quyidagi turlari farqlanadi: daromad solig'i, pullik sarmoyalardan tushadigan daromadlardan olinadigan soliq, sarmoyaning o'sishidan olinadigan soliq, korporatsiyaning foydasidan olinadigan soliq, merosdan va sovg'a qilishdan olinadigan soliq, mol-muldan olinadigan soliq, jon boshiga olinadigan soliq va hokazo.

Egri soliqlar bahoga yoki tarifga ustama sifatida belgilanadigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlardir. Egri soliqlarga tortishda davlat tovar yoki xizmatlarning sotilishi paytida ushbu qiymatning bir qismiga o'z huquqlarini da'vo qilish bilan aslida yangi qiymatning taqsimlanishining ishtirokchisi bo'lib qoladi. Egri soliqlar to'g'ri soliqlardan farqli ravishda to'lovchining daromadi yoki mol-mulki bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi. Tovarlar, odatda, shaxsiy iste'mol tovarlari, shuningdek xizmat ko'rsatish sohasining (sartaroshxonalar, hammomlar, kimyoviy tozalash xizmatlari) pullik aylanmasi, tomosha ko'rsatadigan va transport korxonalarining pattalari va shu kabilar soliqqa tortish ob'ekti bo'ladi. Egri soliqlarga tortiladigan tovarlar va xizmatlar soni muntazam kengayib bormoqda.

Xaridor-iste'molchi egri soliqlarning to'lovchisi bo'ladi. Tovarning sohibi yoki xizmatlar ko'rsatadigan shaxs aslida soliqni yig'uvchi hisoblanadi. Egri soliqlarning anchagina qismi mulkdor tomonidan tovarning yoki xizmatlarning narxiga qo'shiladi. Davlat korxonalari va monopoliyalar soliqning butun summasiga narxlarni oshirish bo'yicha juda katta imkoniyatlarga egadir. Tarmoq ichidagi raqobat yuksak bo'lganida va talab barqaror bo'lman holda soliqning muayyan hissasi tovarning ishlab chiqaruvchisi va sotuvchi tomonidan to'lanadi. Egri soliqlarning asosiy to'lovchisi pirovard oqibatda iste'molchilar bo'ladi.

Egri soliqlar daromadlilikni, oilaviy ahvolni hisobga olmaydi. Hamma fuqarolar o'z daromadlarining miqdoridan qat'iy nazar, bunday soliqlarni to'laydilar, chunki egri soliqlarga tortiladigan turmush uchun zarur bo'lgan tovarlarni iste'mol qilishadi va xizmatlardan foydalananishadi.

Egri soliqlarning stavkalari qat'iy (tovar o'lchamining birligiga) va foizli (tovarning narxiga muayyan hissada) bo'ladi. Foizli stavkalar davlat uchun ko'proq foydalidir, chunki narxlar oshganida soliq tushumlari ham ko'payadi. Soliq stavkalarining oshirilishi ularning tovarlarning narxidagi hissasining ortishiga olib keladi.

Egri soliqlar aktsizlarni, davlatning fiskal monopoliyalarini va bojxona bojlarini o'z ichiga oladi. Aktsizlar undirilish usuliga qarab yakka tartibdag'i (pivoga, shakarga, benzinga va hokazo) va universal (qo'shilgan qiymat solig'i va boshqalar) turlarga bo'linadi.

Ular asosan xo'jalik aktlaridan va aylanmalardan, moliyaviy operatsiyalardan kelib chiqadi.

Soliqlarning ayrim turlarining nisbati jamiyatning rivojlanishiga qarab o'zgardi. XIX asrda va XX asr boshida undirilishining soddaligi bilan ajralib

turadigan egri soliqlar asosiy ahamiyat kasb etgan edi. 20-yillardan boshlab ko'pgina mamlakatlarda to'g'ri soliqlar ko'proq ahamiyat kasb eta boshladi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimida to'g'ri soliqlar alohida ahamiyatga ega bo'lib qoldi, daromad solig'i va korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliq ular ichida asosiy o'rinn tutardi.

Yuqoridagilardan kelib chikib, xulosa kilganimizda, to'g'ri soliqlarni to'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqning huquqiy va haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs hisoblanadi.

Egri soliqlarning huquqiy to'lovchisi mahsulotni ortuvchilar, ish, xizmatni bajaruvchilar hamda xizmat ko'rsatuvchilar, haqiqiy to'lovchisi esa iste'molchilar hisoblanadi.

Respublikamizda amal qilayotgan soliqlar hozirgi kunda yalpi ichki maxsulotning qariyb uchdan bir qismini taqsimlab, byudjetga jalb etadi va u orqali davlatning ijtimoiy zaruriy xarajatlari moliyalashtirishga yunaltiriladi. So'nggi yillarda to'g'ri soliqlarning salmog'i yalpi ichki mahsulot qiymatida bir oz kamayib, egri soliqlar salmog'i oshgan. Bu yerda hozirgi sharoitda to'g'ri tendendiya mavjuddir, chunki egri soliqlar to'g'ridan-to'g'ri korxonanining investitsion faoliyatining susayishiga olib kelmaydi. To'g'ri soliqlar salmog'i YaIM qiymatida pasayishi korxonalarning moddiy-texnikaviy bazasini kengayishiga, qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishiga imkon yaratadi.

Keyingi yillarda resurs soliqlarining salmog'i ham ancha oshmoqda. Ular yer, suv va boshqa resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Soliqlarning roli yuqoridagi jadvalda o'z ifodasini topgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amal qilayotgan to'g'ri va egri soliqlar tarkibiga quyidagi soliqlar kiradi:

6.1- jadval.

Soliqlarning guruhanishi

To'g'ri soliqlar	Egri soliqlar
<ol style="list-style-type: none">Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'iSavdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalarYagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalarJismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iTadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq	<ol style="list-style-type: none">Qo'shilgan qiymat solig'iAktsiz solig'iBenzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun soliqBojaxona to'vlari va boshqalar.

Agar bir davlatda ayrim soliqlar harakati jarayonida: ma'lum bir respublika va mahalliy byudjetga biriktirilgan bo'ladi, ayrimlari esa, byudjetlarni tartibga solib turadigan soliqlarga bo'linadi.

Umuman olganda iqtisodiyot tarmoqlaridan va aholining mehnatga layoqatli qismidan undiriladigan soliqlarning aksariyat qismi umumiylik xususiyatiga egadir. Lekin ayrim soliqlar va to'lovlar ham mavjudki, ular maqsadli xarakterga egadir. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda soliqlar, ulardan foydalanish xususiyatiga ko'ra ham ikki guruhga bo'linadi:

1. Umumiy soliqlar-respublika hamda mahalliy byudjetlarga tushadi va qayta taqsimlanadi;

2. Maqsadli soliqlar-bevosita biror bir soha, tarmoq yoki ob'ektni rivojlantirish uchun sarflanadi va taqsimlanadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari tarkibida soliqlarning o'rni va ahamiyatini quyidagi jadval ma'lumotlari orqali ifodalash mumkin.

Yagona davlat byudjeti daromadlari tarkibida ularning salmog'i yuqoridagi ma'lumotlar bilan ifodalananadi.

Yuqoridagi ma'lumotlar tahlil qilinganda yuridik shaxslar soliqlari va boshqa to'lovlar byudjet daromadlarining asosiy qismini tashkil etishi ko'rinadi. Bu soliqlar davlat byudjeti xarajatlarini moliyalashtirishda mustahkamlikni, uzviylikni ta'minlaydi. Bu soliqlarsiz byudjetni rejali moliyalashtirishning iloji yo'qdir. Shuning uchun ularning ahamiyati byudjet daromadlarini shakllantirishda beqiyosdir.

6.2-jadval

Soliqlarning O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlaridagi o'rni³⁶

Ko'rsatkichlar	2014 yil		2015 yil		2016 yil		2017 yil	
	mlrd.so'm	jamii nis- n, %da	mlrd.so'm	jamii nis- n, %da	mlrd.so'm	jamii nis- n, %da	mlrd.so'm	jamii nis- n, %da
Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz jami	31 730,5	100	36 493,3	100	41 030,7	100	49 681,0	100
Shu jumladan:								
To'g'ri soliqlar	7 433,0	23,4	8 798,4	24,1	9 853,6	24,0	11 539,4	23,2
Egri soliqlar	16 852,3	53,1	19 193,8	52,6	21 131,0	51,5	26 133,2	52,6
Mol-mulk solig'i va resurs to'lovleri	4 311,5	13,6	4 816,1	13,2	5 306,2	12,9	6 867,4	13,8
Boshqa daromadlar	3 133,7	9,9	3 685,0	10,1	4 739,9	11,6	5 141,0	10,4

³⁶ www.mf.uz-ma'lumotlari asosida hisoblandi.

Keltirilgan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, 2014 yil va 2017 yillar oralig'ida soliqlarning respublika byudjetida daromadlar qismida ortib borganligini ko'rshimiz mumkin.

4. Umumdavlat soliqlari hamda mahalliy soliqlar va yig'imlar.

Davlat budgeti umumdavlat pul mablag'lari fondining iqtisodiy ko'rinishida tashkil topishining asosi bo'lib, u jamiyatning umumiyligi pul mablag'lari fondlari tizimida asosiy o'rinni egallaydi. Bundan tashqari u ishlab chiqarishning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, uning mazmuni va tarkibini aniqlaydi hamda ishlab chiqarish rivojlanishidagi ijtimoiy ehtiyojlarni ta'minlashga zamin yaratadi. Demak, davlat budgetining mohiyati - bozor iqtisodiyotidagi iqtisodiy qonunlar, davlatning tabiatini bilan belgilanadi. Budget iqtisodiy kaegoriya sifatida ishlab chiqarish munosabatlarining ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoniga faol ta'sir kqrSATADIGAN tomonlarini o'zida aks ettiradi.

Respublikamizda asosan soliqlar byudjet tizimi daromadlarini shakllantiradi. Davlat byudjeti tizimi mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotini moliyaviy mablag' bilan ta'minlaydi va bu O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimida umumrespublika byudjeti etakchi bo'g'indir. U umumdavlat resurslarining bir qismi bevosa davlat hokimiyatining ijro etuvchi va farmoyish beruvchi oliy organi - O'zbekiston Respublikasi hukumatida markazlashuvini ta'minlaydi. Markazlashgan resurslar umumdavlat ahamiyatiga molik bo'lgan, umuman olganda jamiyat manfaatlarini ifodalaydigan tadbirlarni (xalq xo'jaligi ahamiyatidagi qurilishlarni, eng muhim ijtimoiy tadbirlarni, mudofaa, boshqaruv, davlatning tashqi iqtisodiy aloqalari, davlatning moddiy va moliyaviy zaxiralarini) mablag' bilan ta'minlashga ishlataladi. Umumrespublika byudjeti orqali milliy daromadni Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahriga taqsimlash va qayta taqsimlash jarayoni izga solib turiladi. Davlat umumrespublika byudjetidan davlat byudjetining bu bo'g'ini ijrosi yuzasidan respublikadagi hamma ishlarni muvofiqlashtirish uchun foydalanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining byudjeti pul mablag'larini respublikaning tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlari amalga oshiradigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tadbirlarini moliyalashtirish uchun markazlashtiradi.

Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular davlat hokimiyatining har bir mahalliy organi o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ixtiyorida aniq moliyaviy baza yaratadi. Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to'laroq hisobga olish hamda davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan tadbirlar bilan to'g'ri olib borish imkonini beradi, mahalliy hokimiyat organlari mahalliy byudjet daromadlarining ko'payishi va resurslarning tejamkorlik bilan sarflanishi to'g'risida tinmay g'amxo'rlik qiladi, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning yuksalish sur'atlari to'g'ridan-to'g'ri mahalliy xo'jalik zahiralarini safarbar qilish, mablag'larni tejab ishlatish borasidagi ishlarni tashkil etish bilan

bog‘liq bo’ladi, bu esa o’z navbatida umuman O’zbekiston Respublikasi davlat byudjetining muvaffaqiyatli bajarilishiga yordam beradi. Mahalliy byudjetlardan uy-joy-kommunal xo’jaligi va obodonlashtirish, maorif va sog‘lijni saqlash muassasalari (maktablar, kasalxonalar, maktabgacha tarbiya muassasalari va boshqalar), ijtimoiy ta’minot sohasidagi tadbirlar mablag‘ bilan ta’minlanadi.

Respublikamizda soliqlar byudjet tizimi daromadlarini shakllantirishiga qarab asosan ikki guruhga bo’linadi:

O’zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 23 moddasiga muvofiq umumdavlat soliqlariga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- 3) qo’shilgan qiymat solig‘i;
- 4) aktsiz solig‘i;
- 5) yer qaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Umumdavlat soliqlari har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar buyicha tegishli byudjetlar o’rtasida taqsimланади.

O’zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 23 moddasiga muvofiq mahalliy soliqlar va yig‘imlarga quyidagilar kiradi:

- 1) mol-mulk solig‘i;
- 2) yer solig‘i;
- 3) benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
- 4) ayrim turlardagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig‘imlari;
- 5) yuridik shaxslarni, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro’yxatga olganlik uchun yig‘im.

Umumdavlat soliqlari asosan respublika byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan bo’lsa, mahalliy soliqlar va yig‘imlar mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantiradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida mahalliy soliqlar va yig‘imlar soliq Kodeksi, O’zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Ta’kidlab o’tish lozimki, umumdavlat soliq tushumlari har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar bo'yicha tegishli byudjetlar o’rtasida taqsimланади.

5. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va yig‘imlar.

Soliq munosabatlari mavjud bo’lishining asosiy shartlaridan biri - bu davlatning mavjudligi bo’lsa, ikkinchi sharti bo’lib soliqlarni to’lashga qobil bo’lgan soliq to’lovchilarning mavjudligidir. O’zbekiston soliqlar tizimi manbaiga qarab soliqlar yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga ajratiladi.

Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda mulkida, xo’jalik yuritishi yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo’lgan va o’z majburiyatları bo'yicha ushbu

mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balansga va hisob-kitob varag‘iga ega bo’lgan alohida bo’linmalar ham tushuniladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarga hamma egri soliqlar, korxona daromadiga soliq, yer qaridan foydalanganlik uchun, suv resurslaridan foydalanganlik uchun, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to’lovidan davlat byudjetiga ajratmalar, mol-mulk solig‘i, kichik biznes uchun yagona soliq va boshqalar kiradi. Ba’zi soliqlarni (QQS, aktsiz) yuridik shaxslar ham jismoniy shaxslar ham to’laydilar. Jismoniy shaxslar to’laydigan soliqlarga daromadga soliq, yer, mol-mulk soliqlari kiradi. Huquqiy shaxslardan olinadigan soliqlar davlat byudjeti daromadlarining hal qiluvchi qismini tashkil etadi. Bu soliqlarning muhim xususiyati naqd pulsiz shaklda korxonalar hisob (joriy) schyotlaridan byudjet schyotlariga ko’chirib qo’yiladi. Uni undirish oson va arzonga tushadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan ba’zi soliqlar naqd pulga undirilganligi uchun uni to’lash qiyin kechadi. Bunday soliqlarga yer, mol-mulk soliqlari, va qator yig‘imlar kiradi. Soliq yig‘ish xarajati ko’payib ketadi. Chunki, bu ish bilan maxsus tajribaga ega bo’lgan inspektorlar shug‘ullanadi, hujjatlar (deklaratsiya, xabarnomalar, chaqiriqlar va boshqalar) ko’p yoziladi.

Jismoniy shaxslar soliqlari ichida eng yirigi fuqarolar jami daromadiga soliqdir. Bu soliq orqali fuqarolarning guruhlari daromadlarini boshqarib borish imkoniyati yaratiladi.

Yuqorida aytganimizdek, yuridik shaxslarning byudjetlarga to’laydigan soliqlari to’g‘ri va egri soliqlarga bo’linadi.

To’g‘ri soliqlar foyda soliqlari va resurslar soliqlaridan tashkil topadi. Egri soliqlar esa qo’shilgan qiymat solig‘i, aktsiz solig‘i, bojxona bojidan iboratdir. Yuridik shaxslarning bu soliqlari byudjet daromadlarini asosiy qismini tashkil etadi.

Yuqoridagi ma’lumotlar ko’rsatadiki, yuridik shaxslar soliqlari ichida egri soliqlar salmog‘i ortib borishi tendentsiyasiga ega, to’g‘ri soliqlar salmog‘i esa pasayib borish yo’nalishidadir. Bunday holat mahsulot ishlab chiqaruvchilarining hissasiga tushadigan soliq yukini kamaytirib, ularning ishlab chiqarish faoliyatini kuchaytiradi. Shu bilan birga to’g‘ri va egri soliqlar byudjetning mustahkam manbasiga aylanib uning o’ta ijtimoiy zarur bo’lgan xarajatlarini o’z vaqtida va uzlusiz moliyalashtirish imkonini yaratadi. Bularning ahamiyati beqiyos kattadir. Bu soliqlarsiz byudjetlarni rejali moliyalashtirish iloji yo’q.

Yuridik shaxslar soliqlari pul muomalasini mustahkamlashda ham katta ahamiyatga ega. To’g‘ri soliqlar yuridik shaxslarning xarajatlarga mo’ljallangan mablag‘larini qisqartirib muomalaga oz pullarni chiqarishga olib keladi. Egri soliqlar esa, tovarlar (ishlar, xizmatlar) tarkibida bo’lib, baho hisobiga muomaladagi ortiqcha pullarni muomaladan oladi. Shunday qilib soliqlar pul muomalasini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo’ladi.

Soliqlarning oshishi tovar (xizmat, ish) taklifini oshiradi, talabni kamaytiradi. Bu esa, pul emissiyasini kamaytiradi. Ammo taklifda real qiymati past bo’lganligidan inflyatsiyani paydo qilishi mumkin.

Yuridik shaxslar o'zlariga yuklatilgan soliqlarni hisoblash va byudjetga o'z vaqtida, to'liq to'lash javobgarligini olganlar. Ularning to'laydigan soliqlari asosan naqd pulsiz, ya'ni korxona, tashkilot, birlashmaning bankdagi hisob schyotlaridan mablag'ni ko'chirib, respublika yoki mahalliy byudjet schyotlariga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi. Qoida bo'yicha har qanday yuridik shaxs o'z soliq va boshqa majburiy to'lovlarni belgilangan vaqtida byudjetga to'liq o'tkazishga majburdirlar. Buning uchun ular soliq va boshqa to'lovlarning muddati kelgan kungacha pullarni o'tkazish hujjatlari bo'lmish to'lov topshirig'i, cheklarni yozib banklarga topshirgan bo'lishlari kerak.

Agar to'lov topshiriqlari o'z muddatida yozilib banklarga topshirilmagan bo'lsa soliq idoralari o'zlarining inkasso-to'lov talabnomalari orqali undirib oladilar. Har bir o'z vaqtida byudjetga o'tkazilmagan kun uchun o'tkazilishi kerak bo'lган soliq summasi hisobidan 0,033 foiz penya hisoblanib soliqqa qo'shimcha ravishda byudjetga majburiy undiriladi. Albatta penya summasining ko'payishi korxonananing moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Penya korxona uchun qo'shimcha soliqdir.

Shuning uchun har qanday xo'jalik sub'ektlari hisobchilari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ularda belgilangan to'lov muddatigacha o'z vaqtida to'lab borishlari shart. Bunda ayniqsa bo'nak (avans) to'lovlarga ko'proq e'tibor qaratilishi lozim, chunki QQS, daromadga (foydaga) soliq va boshqalarda bo'nak to'lovlar soni ko'p bo'lганligidan boqimandaning ko'payishiga olib keladi. Hozirgi kunda bu boqimanda bilan kurash iqtisodiyotni barqarorlashtirishda muhim davlat tadbirlariga aylanmoqda.

Yuridik shaxslarning hamma soliqlari naqd pulsiz to'lanadi. Biroq, ayrim yig'imlar (davlat va bojxona bojlari) naqd pulli bo'lishi mumkin. Yuridik shaxslar soliqlarini naqd pulsiz to'lanishi juda katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Pul o'tkazishlar tezlashadi, ijtimoiy xarajatlar tejaladi.

Jismoniy shaxslar deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lмаган shaxslar tushuniladi. Moliya yilda soliq solinadigan daromad, mol-mulk, yer, maydoni, transport vositalari va shu kabi boshqa predmetlarga ega bo'lган jismoniy shaxslar ularga belgilangan soliqlarni to'laydilar.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilda boshlanadigan yoxud tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lган istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb qaraladi. O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lган jismoniy shaxslarga ularning O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha soliq solinsa, O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lмаган jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyatdan olingan daromadlar bo'yicha soliq solinadi.

Yuqorida qayd etilganlardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchilar ikki katta guruhga, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslar guruhiga bo'linadi va ularning faoliyat ko'rsati xususiyatidan

kelib chiqib yana tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Respublikamiz davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar katta ahamiyatga egaligini yuqoridagi ma'lumotlardan bevosita ko'rshimiz mumkin.

6. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlari.

Mustaqillik yillarida soliq tizimi islohoti rivojlanishini yaqqol ko'rsatish uchun shu davrni uch bosqichga bo'lib ko'rsatish mumkin.

Birinchi bosqich 1991-1994 yillar - O'zbekistonning o'z soliq tizimini tashkil etish va soliqlarning xazinaviy ahamiyatini oshirish bosqichidir.

Respublikamizning o'z soliq tizimini yaratishda 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan "Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi qonun birinchi qonun bo'ldi. U o'zida birinchi marta soliq tizimining tuzilishi va ishlashining umumiylashtirishini oshirish bosqichidir.

1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi fuqorolari, chet el fuqorolari va fuqoroligi bo'limganlardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida"gi qonunga bir qancha o'zgarishlar bilan qabul qilindi. Bu qonunga binoan, soliq ob'ekti kengaytirildi, ya'ni ilgari daromad solig'ini jamoa xo'jaligi orqali to'lab yurgan jamoa a'zolari to'g'ridan to'g'ri o'zlari to'laydigan bo'ldilar.

1993 yil 7 mayda O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida" gi qonuni qabul qilindi. Bunday soliqlarga jismoniy shaxslarning mulk solig'i, yer solig'i, kurort zonalarida ishlab chiqarish ob'ektlari qurilish solig'i, reklama solig'i, avtomobil vositalarini qayta sotish solig'i, transport vositalarini egalaridan soliqlar va 13-ta har xil yig'imlar kiritildi.

Korxonalar soliqlari to'g'risidagi qonunga 1993 yil 7 mayda o'zgarishlar kiritilib chet el valyutasida olinadigan tushumdan soliq joriy etildi. Bu soliqdan Respublika valyuta fondiga ajratma avval 25%, keyinchalik 10% qilib belgilandi. Demak, soliq islohotining birinchi bosqichida soliqlarning xazinaviy samaradorligiga erishish chora tadbirlari keng amalga oshirildi, O'zbekistonning o'z soliq tizimi joriy etildi.

Korxonalardan undiriladigan o'rmondan olinadigan daromad solig'i va bir qator boshqa soliqlar bekor qilindi. Daromad (foyda) solig'i; qo'shilgan qiymat solig'i; aktsiz solig'i; mol-mulk solig'i; respublikadan tashqariga olib chiqiladigan mahsulotlar va xom ashyo resurslariga soliq joriy etildi.

1993 yilda ishlab chiqilgan tartibga ko'ra asosiy vositalar hisoblangan amortizatsiyaning 30 foizi byudjetga o'tkazildi.

Xazinani to'ldirish, shuningdek resurslardan oqilona foydalanishini ta'minlash maqsadida 6 foizli resurslar solig'i joriy etildi. Shuningdek, 1991 yil 15 fevraldagagi «O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'limgan shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida»gi qonunga bir qator o'zgartishlar kiritildi.

1993 yil 7 may kuni «Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida»gi qonun

qabul qilindi va ushbu qonunda ularga ta’rif berildi. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq, yer solig‘i, kurort zonalaridagi ishlab chiqarish maqsadlaridagi ob’ektlar qurilishiga solinadigan soliq, reklama solig‘i, avtotransport vositalarni olib sotganlik uchun soliq, ularning egalariga solinadigan soliq-jami 19 turdag‘i har xil soliqlar va yig‘imlar mahalliy soliqlar guruhiga kiritildi. 1993 yilning 7 mayida «Korxonalar, birlashmalar va takshkilotlardan olinadigan soliqlar to’g‘risida»gi qonunga qo’shimchalar kiritildi.

Soliq islohotlarining ikkinchi bosqichi soliqlarni bozor iqtisodi talablariga moslashtirish va korxonalarning ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga qaratish davridir. Bu davrga 1995 —1997 yillar to’g‘ri keladi.

Bu davrda soliqlar ishlab-chiqarish samarodorligini oshirishga ta’sirini kuchaytirishga bag‘ishlandi. Ularga soliqlardan xilma-xil imtiyozlar berildi. Ayniqsa, yuridik shaxslarning foydaga (daromad) solig‘idan imtiyozlar ko‘p edi, 1995 yildan boshlab korxonalar har bir foiz maxsulot ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirgani uchun 0,3 %dan foydaga soliq stavkasi kamaytirildi.

Xalq xo’jaligini iqtisodiy jihatdan barqarorlashtirish va tuzilmaviy jihatdan qayta qurish soliq tizimini isloh qilishni talab etdi va ko‘plab korxonalar va tashkilotlarning foyda solig‘ini daromad solig‘i to’lashga o’tishi amalga oshirildi. Uning o’rtacha stavkasi 37 foiz etib belgilandi. Soliq to’lovchilar uchun imtiyozlar ko‘zda tutildi. 1995 yildan boshlab soliq tizimini bixillashtirish boshlandi. Bir qator kam samarali soliqlar: respublika tashqarisiga olib chiqiladigan xom ashyo resurslari uchun soliq, hisoblab yozilgan amortizatsiyadan byudjetga 30 foiz unidirish va boshqalar bekor qilindi. Jamoa xo’jaligi a’zolari va xalq xo’jaligining boshqa sohalarida ishlayotganlar uchun soliqqa tortishning yagona tartibi o’rnatildi. Ya’ni, jamoa xo’jaligi a’zolari mehnatiga haq to’lash jamg‘armasini soliqqa tortish bekor qilindi va ularga nisbatan fuqarolar daromad solig‘i to’g‘risidagi qonunchilik tatbiq etildi. Fuqarolar daromadiga solinadigan soliq shkalasi o’zgartirildi.

Sarmoyadorlar uchun rag‘batlantirishlar soliq tizimining barqarorlashuviga ko‘mak beradi. 1996 yilning 1 yanvarigacha ro’yxatdan o’tkazilgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarga soliqqa tortish tizimida daromad yoki foydani soliqqa tortishni tanlash huquqi taqdim etildi, boshqa barcha xo’jalik yurituvchi sub’ektlar esa, daromad solig‘iga o’tkazilgan.

Soliqlarni bozor munosabatlarida qatnashishini kuchaytirish uchun ularning hammasi uchun yagona huquqiy asos O’zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 1997 yil 24 aprelda qabul qilindi.

Soliq kodeksini qabul qilinishi soliq qonunchiligin mustahkamlabgina kolmay, soliqlarni mahsulotlarni eksportini, import tovarlar o’rniga mahsulotlar ishlab chiqarishni, nogironlarni ishlab chiqarishga qatnashishini, mehr-muruvvat ishlarni rag‘batlantirish vazifasini kuchaytirdi.

Soliq islohotining uchinchi bosqichi 1998 yildan hozirgi vaqtgacha davom etmoqda. Bu bosqichni soliq tizimida soliqlarni ixchamlashtirish kontseptsiyasining boshlanish davri deb atash mumkin.

Bu bosqichda soliq to’lovchi yuridik shaxslarga imkonli boricha soddalashgan,

ixchamlashgan soliq tizimi joriy etilib, ularning soliq hisoblari, hisobotlarini, soliq tulash muddatlarini ixchamlashtirildi.

Ixchamlashtirilgan soliq to'lashga o'tishning huquqiy asoslari qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'i O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'g'risida"gi 1998 yil 10 oktyabrdagi PF-2086-son Farmoni bilan 1999 yildan boshlab, kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida"gi qarorga asosan (1998 yil 15 aprel 159-sun) 1998 yildan boshlab va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Savdo va ijtimoiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni (1153-sun 10 aprel 1998 yil) bilan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari 1998 yildan boshlab yalpi daromaddan soliq va mulk solig'ini to'laydigan bo'ldi.

Soliq tizimini ixchamlashtirish soliq hisoblovchi xodimlar, davlat soliq idoralari va bank xodimlarining ko'p minglab soat vaqtlarini iqtisod qilishga, ularni korxonalar foaliyati tahliliga bag'ishlashga imkoniyat yaratmoqda.

Mustaqillik yillarda soliq tizimini rivojlantirish o'zining natijasini asta-sekin berib bormoqda. Kichik korxonalarning mamlakat ichki mahsuloti ishlab chiqarishdagi salmog'i ortib bormoqda.

Mustaqillik yillarda O'zbekiston o'zining mustaqil soliq tizimiga ega bo'ldi va uni takomillashtirish borasida yangi izlanishlar davom etmoqda.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Respublika iqtisodiyotida soliqlarning tutgan muhim o'rni borligini nazarga olgan xolda Respublikada olib borilayotgan soliq islohotlariga katta e'tibor berish lozim. Toki bu islohotlar Respublikamiz iqtisodini ravnaq topishiga, aholi turmush darajasini ko'tarishga doimo xizmat qilsin.

2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining tasdiqlanishi soliq tizimini isloh qilishning hozirga qadar amalga oshirilayotgan uchinchi bosqichining boshlanishi ifodasi ekanligi tamoman qonuniy holdir.

Soliq kodeksi amalga kiritilishi bilan soliqqa tortishning barcha asos bo'lувчи me'yorlarini yagona hujjatga jamlash; soliq imtiyozlarini tizimlashtirish; foyda, mol-mulk, qo'shilgan qiymatni hisobga olish va soliqqa tortishning xalqaro tizimini joriy etishga imkon yaratildi.

Uchinchi bosqichda yuridik shaxslarga, birinchi navbatda kichik va o'rtalik korxonalar uchun soliqqa tortish, hisobga olish va hisobotning soddallashtirilgan tizimi barpo etildi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari ixtiyoriy asosda umum davlat va mahalliy soliqlar hamda yig'imlar jamlanmasi o'rniga yagona soliq to'lay boshladilar. Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-sun qarori bilan Kichik korxonalar uchun soliqqa tortishning soddallashtirilgan tizimini qo'llash tartibi tasdiqlandi. 2005 yil 15 iyundan kichik korhonalar yagona soliq to'lovini to'lashga o'tkazildi.

PQ-2455ga asosan 2016 yil uchun yagona soliqning soliqqa tortiladigan oborotlarga nisbatan foizlarda quyidagi stavkalari belgilandi:

Yagona soliq to'lovining umumiy stavkasi- 5 foiz;

Agar ilgari aktsizlanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi kirmagan bo'lsa, 1999 yilning 1 oktyabridan boshlab ular aktsiz solig'ini to'lash sharti bilan mazkur tizimni qo'llashlari mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 10 apreldagi 153-sun qarori bilan tasdiqlangan Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish tartibiga muvofiq yalpi daromad savdo korxonalari uchun yagona soliqqa tortish ob'ekti bo'ldi.

1999 yildan boshlab qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkatlari), fermer xo'jaliklari, agrofirmalar, qishloq xo'jalik mahsulotlarining boshqa ishlab chiqaruvchilari Prezidentning «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ini amalga kiritish to'g'risida»gi Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 dekabrdagi 539-sun qarori asosida ishlab chiqilgan byudjet bilan hisob-kitoblar mexanizmiga ko'ra yagona yer solig'i to'lovchilari bo'ldilar. U amaldagi barcha umum davlat (alkogolli mahsulotlarga aktsiz solig'idan tashqari) hamda mahalliy soliqlar va yig'imlar jamini to'lash o'rniga amalga kiritildi. Shuningdek, ushbu soliq turiga doir imtiyozlar ham belgilandi. Bu qishloq mehnatkashlariga hisobot hujjatlarini qisqartirish imkonini beruvchi soliqqa tortishning soddalashtirishiga yana bir yorqin misoldir.

2002 yildan boshlab davlat soliq siyosatida mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalardan soliq og'irligini yanada kamaytira borish, chetga qat'iy almashtiriladigan valyutada mahsulotlarni eksport qilganlarga ham daromadga (foydaga) soliqdan, ham mol-mulk solig'idan pasaytirilgan regressiv soliq stavkasi qo'llash siyosatini yurgizish joriy etila boshlandi. Soliqlar tizimida to'g'ri soliqlar salmog'ini kamaytira borish va egri soliqlar salmog'ini oshirishga mo'ljallangan siyosat yuritish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga soliq qonunchiligi takomillashtirila borildi, hamma soliqlar bo'yicha yo'riq nomalar qaytadan ishlab chiqildi.

2003 yildan boshlab samarasiz, byudjetga tushushini qiyinlashtiradigan quyidagi soliqlar va to'lovlar bekor qilindi. Bular: reklama solig'i, avtotransport vositalarini olib sotish solig'i, me'yordan ortiq sotilmagan tayyor maxsulot qoldig'i uchun 2 foizli haq hamda tabiatni ifloslantiruvchi chiqindilarni joylashtirish uchun haqlardir. 2003 yildan boshlab 2002 yilda joriy etilgan chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatuvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun belgilangan daromaddan yagona soliq, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yalpi tushumdan yagona soliq solish davom ettirildi. Soliq bazalari va stavkalariga ham o'zgartishlar kiritilgan.

2004 yilda ham qator soliq islohotlari amalga oshirilib, bunda, yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i va jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalari bir necha darajaga kamaytirilgan bo'lsa, resurs soliqlari stavkalari oshirildi. Yagona soliq tizimiga o'tgan mikrofirma va kichik korxonalar foydali qazilmalar qazib olganida yagona soliq bilan birgalikda yer qaridan foydalanganlik uchun soliqni ham to'laydigan bo'ldilar. Shuningdek, ayrim soliq imtiyozlari bekor qilindi. Soliq tizimidagi islohotlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsion

faolligini oshirishga, ularning import o'rnini bosuvchi va eksport faoliyatini rag'batlantirishga, shuningdek, ularning resurslardan samarali va oqilona foydalanishini rag'batlantirishga qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2455-sonli qarori bilan 2016 yilgi parametrlari tasdiqlandi va Respublikamiz soliq qonunchiligiga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Ushbu o'zgarishlar Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan eng muhim asosiy ustuvor vazifalar:

Soliq yukini kamaytirish;

Soliq ma'murchilagini takomillashtirish;

Soliqlarning rag'batlantiruvchilik rolini oshirish;

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan hisobiga tadbirkorlik sub'ektlarining real daromadlarini oshirish, ularning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va rag'batlantirishga qaratilgan.

Jumladan, Yuridik shaxslarning foyda solig'i bo'yicha, soliq solishning amaldagi tartibida asosiy soliq stavkasi 7,5 foiz, lekin tijorat banklarining moliyaviy ahvolini mustahkamlash va ularning investitsiya jarayonida ishtirokining kengaytirish maqsadida, ular foydasidan olinadigan foyda solig'inining amaldagi stavkasi 15 foizli stavka saqlab qolindi;

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo'yicha, amaldagi soliq stavkalari minimal stavkasi 7,5 foiz, maksimal stavka 23 foiz qilib belgilangan holda, minimal stavka bo'yicha soliqqa tortiladigan baza 0 foiz stavkada soliqqa tortilishi belgilangan;

Yagona soliq to'lovi bo'yicha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish asosida aholini ish bilan bandligini ta'minlash va faravonligini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan amaldagi soliq stavkasi 6 foizdan 5 foizga tushirildi.

Ulgurji savdo korxonalari uchun yagona soliq to'lovining tabaqalashtirilgan stavkalari bekor qilinib (ulgurji dorixonalardan tashqari), ularning ulgurji bazasining joylashgan joyidan qat'iy nazar 5 foiz stavkada soliq to'lash tartibi belgilandi;

Chakana savdo korxonalari zimmasiga soliq yukini kamaytirish hisobiga moliyaviy faolligini oshirish maqsadida, ularni joylashgan joyiga qarab:

- aholini soni 100 ming kishi va undan ortiq bo'lgan shaharlarda 3 foiz;

- boshqa aholi punktlarida 2 foiz qilib belgilandi.

- borishi qiyin bo'lgan tog'li tumanlar uchun belgilangan amaldagi 1 foizlik soliq stavkasi o'zgarishsiz qoldi.

Aktsiz solig'i bo'yicha respublikamizda ishlab chiqarilgan mebellar, billurdan tayyorlanadigan buyumlar, video va audio uskunalariga aktsiz solig'i bekor qilingan edi bu yil aksizosti tovarlar ro'yhatida deyarli o'zgarish bo'limgan holda tovarlarga belgilangan stavkalar mos ravishda oshirilgan ;

Alkogol va tamaki mahsulotlari bo'yicha aktsiz solig'i stavkalari

birxillashtirildi.

Yer-suv resurslaridan tejamli va samarali foydalanish maqsadida yer solig'ini, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yagona yer solig'inining amaldagi stavkalari 1,2 baravarga indeksatsiya qilindi.

2008 yil 1 yanvardan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Namangan, Sirdaryo va Toshkent shahar qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari yagona yer solig'ini qishloq xo'jaligi yerlarining me'yoriy qiymatidan hisoblash va to'lash tartibi belgilandi.

Prezidentimiz mazkur qarori bilan soliq to'lovchilar xo'jalik sub'ektlari va xususiy tadbirkorlarga soliq va bojxona bojlarini to'lash bo'yicha bir qator imtiyozlar va qulayliklar berildi.

Jumladan, barcha xo'jalik sub'ektlari – tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun bojxona to'lovlarini to'lashni soddalashtirish va uning yagona tartibini joriy etish maqsadida, tashqi iqtisodiy faoliyatning qatnashchilari bilan jismoniy shaxslar uchun belgilangan yagona bojxona to'lovini to'lash tartibi bekor qilinib, 2008 yil 1 yanvardan boshlab ularga yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan bojxona to'lovlarini to'lash tartibi joriy qilindi.

Respublikamiz ichki bozorlarini yog'och-taxta materiallari bilan to'ldirish ular narxini arzonlashtirish hisobiga aholini qurilish materiallariga bo'lган ehtiyojini qondirish maqsadida, 2008 yil 1yanvardan boshlab yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan chetdan olib kelinayotgan yog'och-taxta materiallari uchun bojxona boji va qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilindi.

2008 yil 1 yanvardan boshlab nodavlat bolalar maktabgacha muassasalari asosiy faoliyatdan turi bo'yicha bo'shaydigan mablag'larni ularning moddiy texnik bazasini mustahkamlashga, asbob-uskunalar, inventar, bolalar o'yinchoqlari va adabiyotlar sotib olish maqsadli yo'naltirilgan holda uch yil muddatga barcha turdag'i soliqlar va majburiy to'lovlarini to'lashdan ozod qilindi (yagona ijtimoiy to'lov bundan mustasno).

Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi "Byudjet tashkilotlarini mablag'" bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" gi 414-sonli qarori bilan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan byudjet tashkilotlarining faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan, byudjet tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan shuningdek yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotlariga homiylik (beg'araz) yordami berilishidan oldin qo'shimcha daromadlari 2000 yil 1 yanvardan boshlab 2010 yil 1 yanvargacha davlat byudjetiga undiriladigan soliqlar va yig'imlarining barcha turlaridan ozod qilingan edi.

Mazkur qaror bilan byudjet tashkilotlari uchun belgilangan imtiyoz 2008 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya, Respublika yo'l va Maktab ta'limi jamg'armalariga o'tkaziladigan majburiy to'lovlarini to'lashga ham tatbiq etildi.

Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, oliy ta'lim muassasalarini xodimlarini moddiy rag'batlantirish maqsadida Vazirlar

Mahkamasining 2001 yil 12 iyundagi "2001/2002 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliv ta'lif muassasalariga qabul to'g'risida"gi 250-sonli qarori bilan oliv ta'lif muassasalarining to'lov-kontrakt asosida kadrlar tayyorlash tushgan mablag'lari, ulardan moddiy- texnika bazani mustahkamlash, o'quv jarayonini o'qitishning yangi vositalari bilan ta'minlash, oliv ta'lif muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish uchun maqsadli foydalilanigan taqdirda, soliqlar va byudjetdan tashqari majburiy to'lovlardan berilgan imtiyoz muddati 2021 yil 1 yanvargacha uzaytirildi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida soliq tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan Farmon va Qarorlar soliq siyosatini erkinlashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy sohani rag'batlantirish, soliq yukini kamaytirish hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirishga qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 16 iyuldagagi "Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan respublikada qulay ishbilarmonlik muhitini vujudga keltirish maqsadida moliyaviy va soliq hisobotlari shakllarini qisqartirish, ularni taqdim etish mexanizmini takomillashtirish tadbirlari belgilanib, unga ko'ra soliq organlariga taqdim etiladigan 2 ta moliyaviy hisobot shakllari bekor qilindi, 11 turdag'i soliq hisobotlari va boshqa ma'lumotlarni birlashtirib 5 taga tushirildi, 12 turdag'i soliq hisobotlarini taqdim etish davriyligi qisqartirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagagi "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4725-sonli Farmoniga binoan, xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi roli va o'rnini tubdan oshirish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish yo'lidagi mavjud to'siq va cheklovlarni tugatish, xususiy mulkning yalpi ichki mahsulotda, jumladan, xorij sarmoyasi ishtirokidagi ulushini izchil oshirish uchun yanada qulay iqtisodiy, huquqiy sharoit va rag'batlar yaratishga qaratildi.

Xususan, 2015 yilning 1 iyulidan boshlab:

- mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklari faoliyatiga oid barcha tekshiruvlar rejali tartibda nazorat organlari tomonidan to'rt yilda bir martadan, boshqa xo'jalik sub'ektlarida esa faqat O'zbekiston Respublikasi Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi respublika kengashi qaroriga asosan uch yilda bir martadan ko'p bo'limgan tartibda amalga oshiriladi;
- moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'limgan rejali tekshiruvlar o'tkazish muddati 10 kalendar kunidan oshmaydi;
- tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini rejali tekshirishlar faqat so'nggi tekshiruvdan keyingi davrni qamrab oladi;
- qo'zg'atilgan jinoiy ishlar munosabati bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ekt jalb etgan advokatlar ishtirokida amalga oshiriladi;

- O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 184-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni (soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovplash) birinchi marta sodir etgan, jinoyat aniqlangandan keyin 30 kun ichida davlatga etkazilgan zararni to'liq qoplagan, penya va boshqa turdag'i moliyaviy sanktsiyalarni to'lagan shaxsga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilmaydi va u javobgarlikdan ozod qilinadi;
- 2015 yilning 1 iyulidan yakka tartibdagi tadbirkorlarga, faoliyatidan kelib chiqqan holda, har bir yollangan ishchi uchun byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida sug'urta badali va yakka tartibdagi ish beruvchi tadbirkor uchun belgilangan soliq stavkasining 30 foizi miqdorida soliq to'lash sharti bilan bir nafardan uch nafargacha ishchini yollash huquqi berildi hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar kasb-hunar kolleji bitiruvchilarini ishga yollagan holatda kollejni bitirgandan boshlab o'n ikki oy mobaynida yollanma ishchilar uchun belgilangan soliqdan ozod etildi.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda olib borilayotgan oqilona soliq siyosati natijasida ilgari faqat fiskal vazifalarni bajargan davlat soliq xizmati organlari bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan ko'p funktsiyali davlat boshqaruvi organiga aylantirildi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yaratilgan "Elektron hukumat" tizimi tarkibiga kiruvchi Davlat soliq qo'mitasining "My.soliq.uz" rasmiy sayti soliq ma'murchilagini takomillashtirishda aholining yanada faol qatnashishini va davlat soliq xizmati organlari faoliyatining shaffofligini ta'minlashda qulay sharoitlar yaratishga xizmat qilmoqda.

2018 yilda soliq tizimidagi o'zgarishlar

Qisqacha aytiladigan bo'lsa, o'zgarishlar mohiyati quyidagicha. Beshta asosiy masala hal etilmoqda:

1) mehnatga nisbatan soliq kamaytirilmoqda — ular ayni paytda juda katta va iqtisodiyotning «xufyona» olib borish uchun asosiy sabab bo'lib turibdi;

2) soliqqa tortishning umum o'rnatilgan va soddallashtirilgan rejimlari o'rtasidagi soliq yuklamasiga oid keskin farq yo'qqa chiqarilmoqda — ushbu farq korxonalarini yiriklashmaslikka majburlaydi, ishlab chiqarish miqyoslarini kengaytirishni qiyinlashtiradi hamda biznesni noraqobatbardosh bo'lishi va «xufyona» ishslashga mahkum qiladi;

3) mehnatning jamoaviy taqsimotini o'ldiruvchi va qo'shilgan qiymatning uzun zanjiri hosil bo'lishiga monelik qiluvchi, shu yo'l bilan iqtisodiyotimizning jahon xo'jaligida xomashyo quyrug'i bo'lib kelishida muhim ahamiyat kasb etgan tushumdan soliqlarni qo'llash sohalarini qisqartirish(bu esa umumiyligi rejimdagi korxonalar uchun davlat maqsadli fondlariga 3,2 foiz ajratma va soddallashtirilgan rejimdagi korxonalar uchun yagona soliq to'lovi degani) yoki bekor qilish;

4) ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini noraqobatbardosh, iqtisodiyotimizni esa investitsiyalar uchun jozibasiz qilib kelgan iqtisodiyotga umumiyligi soliq yuklamasining qisqartirilishi (bu so'nggi yillarda turli yashirin

soliqqa tortish shakllari hisobga olinmasa, YaIMning 30–35 foizini tashkil etib kelgan);

5) ayni paytda o'ta samarasiz bo'lib turgan va biznes yuritish xarajatlarini keskin oshirishga xizmat qilayotgan soliq ma'muriyatichiligining takomillashtirilishi.

Buning uchun quyidagilar nazarda tutilmoqda:

- Fuqarolarning oylik maoshlaridan ushlanadigan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga 8 foizlik sug'urta badallarining bekor qilinishi;

- Maksimal stavkasi 22,5 foiz bo'lgan progressiv shkala o'rniga daromad solig'ining 12 foizlik tekis shkalasini joriy etish;

- Yagona ijtimoiy to'lov stavkasini soddalashtirilgan rejim uchun 15 foiz, umumiy rejim uchun 25 foizdan — 12 foizgacha kamaytirish (byudjet tashkilotlari va davlat korxonalaridan tashqari — ular uchun stavka 25 foiz miqdorida belgilangan);

- Umumiy rejimdagi korxonalar uchun davlat maqsadli fondlariga majburiy o'tkazmalarini bekor qilish (tushumdan 3,2 foiz);

- Yuridik shaxslar uchun foyda solig'i stavkasini 14 foizdan 12 foizga kamaytirish (tijorat banklari uchun — 22 foizdan 20 foizga, boz ustiga, ular uchun ma'lum bir rentabellik darajasidan o'tilgach to'lanadigan haddan ziyod foyda uchun soliq bekor qilinadi);

- Dividentlar uchun soliq stavkasi 10 foizdan 5 foizgacha pasaytiriladi;

- Yuridik shaxslarning mulk solig'i stavkasi 5 foizdan 2 foizgacha pasaytiriladi va uni to'lash majburiyati joriy etiladi, shuningdek, beistisno tarzda barcha yuridik shaxslar tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etiladi;

- Xarid qilingan asosiy vositalar, qurilishi tugallanmagan ob'ektlar va nomoddiy aktivlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) summasi hisobga o'tkazish huquqining taqdim etilishi (ular ayni paytda unga qo'shiladi va QQSga bo'lgan soliq yuklamasining kamayishiga sabab bo'lmoqda);

- Yiliga 1 milliard so'mdan ortiq aylanma (tushum)ga ega bo'lgan va belgilangan chegaraga bir yil mobaynida erishgan korxonalarni umumo'rnatilgan soliq to'lashga o'tkazish (2017 yil yakunlariga ko'ra bunday korxonalar kichik biznes sub'ektlarining 10 foizini tashkil etadi);

- Yiliga 1 milliard so'mgacha aylanma (tushum)ga ega bo'lgan soliq to'lovchilar uchun QQS va foydadan soliq to'lash o'rniga aylanmadan 4 foiz stavkalik (hozirgi 5 foizlik yagona soliq to'lovi o'rniga) soliq to'lash imkoniyatining o'rnatilishi;

Bu holda:

- QQSning hozir amal qilayotgan 20 foizlik stavkasi saqlanib qoladi va 2019 yil yakunlariga ko'ra stavka miqdori kamaytiriladi;

- Yagona er solig'i to'lovchilar uchun soliqqa tortish tartibi saqlanib qoladi;

- Xususiy tadbirkorlar tomonidan amalga oshirishga ruxsat berilgan faoliyat turlarini qisqartirish rejalashtirilmoqda;

- Soliq ma'muriyatçiliginin tubdan takomillashtirish bo'yicha choralar dasturi ishlab chiqilishi kerak;
- Soliq hisobotdorligini soddalashtirish va uni dasturiy mahsulotlar bilan integratsiyasini ta'minlash bo'yicha; avtomatik buxgalterlik hisobi yuritish bo'yicha; soliq to'lovchilar va davlat soliq xizmati xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha; hisoblangan oylik ish haqini personallashtirilgan hisobini yuritish tartibini joriy etish bo'yicha choralar ishlab chiqilishi kerak;
- 2018 yilning 1 noyabrigacha bo'lган muddatda samarasiz soliq va bojxona imtiyozlarini bekor qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishi kerak;
- 2018 yilning 1 dekabrigacha bo'lган muddatda yangi tahrirdagi Soliq kodeksi loyihasi ishlab chiqilishi kerak.

Nimalarni amalgalashuviga oshirishning iloji bo'lmadi?

Nazarimda, rejorashtirilayotgan o'zgarishlar — mamlakatimizda qulay biznes iqlimini yaratish uchun ulkan qadamdir. Soliqqa tortishning yangi moduli sobiq ittifoqning aksariyat sobiq respublikalaridagi soliq tizimlaridan ko'ra jozibaliroq.

Yanada ko'prog'ini istaganimiz esa boshqa masala. Garchi tasdiqlangan kontseptsiyada uning dastlabki loyihasidagi ko'plab printsipial qoidalar saqlanib qolning bo'lsa-da, dastlabki versiyadan ikkita muhim punktni muhokamalar va ma'mulovlar asnosida saqlab qolishning iloji bo'lmadi.

1. QQSni 20 foizdan 12 foizga tushirish nazarda tutilayotgan edi. Baribir 20 foiz darajasida qoldirishga qaror qilishibdi (2019 yildan keyin qisqartirish sharti bilan). Tushunishimcha, ba'zi soliq turlarining bekor qilinishi va soliq stavkalarining qisqartirilishi ortidan byudjetga tushumlarning qisqarishidan byudjetni himoyalash istagi yuqori bo'lган ko'rindi.

Qo'rquamanki, QQSning bu qadar yuqori stavkasi (qo'shnilarimiz Qozog'iston va Qirg'izistonda — 12 foiz) soddalashtirilgan rejimdan umumiyligi o'tuvchi korxonalar uchun og'ir yuk bo'ladi. Aynan QQSning 20 foizlik stavkasi tufayli ular uchun soliq yuklamasi oshib ketishi mumkin. Bu, ayniqsa, aholiga xizmat ko'rsatish sohalaridagi korxonalarga taalluqli, chunki u erlarda tushumda qo'shilgan qiymat ulushi juda katta. Lekin soliqqa tortiluvchi bazani hisobga olish hisobiga yoki yuklamaning bir qismining keyingi bo'g'in — xizmatlar xaridoriga taqsimlash bilan kamaytirishning imkonini yo'q (aholi QQS to'lamaydi). Bu kichik korxonalarini o'z ixtiyori bilan umumiyligi rejimga o'tishiga va yiriklashishiga rag'batni qisqartiradi, yillik aylanmasi 1 milliarddan ortiq bo'lган korxonalarda tushumni yashirishga olib keladi. Natijada:

- Biznesning legallahuvini va soliqqa tortishning umumiyligi rejimga o'tishi yoki QQSni o'z ixtiyori bilan to'lash kutilganidek keng miqyosli bo'lmaydi;
- Bizning ayrim mahsulotlarimiz va xizmatlarimiz qo'shni davlatlar bilan solishtirilganida raqobatbardosh bo'lmaydi;
- Soliqqa tortiluvchi bazaning kamayishi oqibatida byudjet daromadlari qisqarishi mumkin.

2. Dastlabki loyihada foyda va dividentlar solig'i o'rniga taqsimlanuvchi foyda uchun soliq joriy etish nazarda tutilayotgan edi. Bunday o'zgarishlar qilishdan maqsad:

- Umumiylar soliqqa tortish rejimidagi korxonalar, binobarin, kelgusida umumiylar soliqqa tortilmaydi va soliqqa tortish bazasi qisqarardi;
- Investitsiyalarni rag'batlantirish (investitsion xarajatlar taqsimlanuvchi foydalar uchun soliqqa tortilmasdi, binobarin, tadbirkorlarga o'z foydasini «eb yuborish» emas, uni investitsiya qilish ma'qulroq bo'lardi);
- Soliq ma'muriyatichilagini keskin soddalashtirish. Gap shundaki, foydadan to'lanadigan soliq — soliqlar ichra eng bir-birini inkor etadigan va hisob-kitob uchun murakkabi hisoblanadi. Aynan u bo'yicha biznes va soliqchilar o'rtasida eng ko'p tushunmovchiliklar paydo bo'ladi. Soliqchilar tushunarli sababga ko'ra biznesning «o'zini oqlamagan» xarajatlarini inobatga olishni istamaydi va ularni soliqqa tortiluvchi bazaga kiritishga harakat qilishadi, biznesning vazifalari esa mutlaqo teskari — xarajatlarni oshirish evaziga soliqqa tortiluvchi foydadan imkon qadar ko'proq pul olib qolish. Natijada:a) soliqchilar biznes ishiga ma'muriy aralashuv uchun qudratli richagga ega bo'lishadi; b) korxonalar soliqqa tortiluvchi bazani kamaytirish uchun ataylab xarajatlarini oshirib ko'rsatishadi. Taqsimlanuvchi foydadan soliqqa o'tilganida esa biznesning xarajatlari soliqchilarni qiziqtirmasdi (ishbilarmalarning shaxsiy ehtiyojlari uchun sarflanadigan xarajatlarning kichik guruhidan tashqari, ular dividentlardan tashqari taqsimlanuvchi foydaga qo'shiladi), ishbilarmonlarning o'zida esa ushbu xarajatlarni oshirishga bo'lgan rag'bat qisqarardi. Soliq ma'muriyatichiligi har ikki tomon uchun so'nggi chegarasigacha soddalashar edi.

Albatta, soliq tizimimizni soddalashtirish va soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish uchun hali juda ko'p ishlarni amalga oshirish kerak. Bu ishlar Soliq kodeksining yangi tahririni va Soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish dasturini tayyorlash doirasida olib boriladi.

2- MODUL. SOLIQ SIYOSATI VA SOLIQ ISHINI TASHKIL ETISH ASOSLARI

6-mavzu: Soliq munosabatlari sub'ektlarining huquqlari va soliq majburiyatlarining bajarilishi

Reja:

- 1. Soliq to'lovchilarning huquqlari.**
- 2. Soliq to'lovchilarning majburiyatlari.**
- 3. Soliq to'lovchilar tomonidan majburiyatini bajarish tartibi.**
- 4. Soliq solish ob'ektlarini va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni aniqlash xususiyatlari.**
- 5. Soliq hisoboti tushunchasi. Soliq hisobotini tuzish va taqdim etish tartibi.**

Tayanch so'z va iboralar: soliq to'lovchi, huquq, majburiyat, soliq solish ob'ektlari, soliq hisoboti, tadbirdorlik sub'ekti, soliq davri, elektron hujjat, penya, jarima.

1.Soliq to'lovchilarning huquqlari.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi soliq kodeksining 4-bobida soliq munosabatlari sub'ektlarining huquq va majburiyatlari keltirilgan bo'lib, unda soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari hamda ularning amal qilish holati batafsil yoritilgan.

Jumladan, amaldagi soliq kodeksining 31-moddasiga muvofiq soliq to'lovchilar quyidagi huquqlarga ega:

- davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida axborot olish;
- o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan davlat soliq xizmati organlari hamda boshqa vakolatli organlardagi mavjud ma'lumotlarni olish;
- soliq munosabatlari masalalari yuzasidan o'z manfaatlarini shaxsan yoki o'z vakili orqali ifoda etish;
- O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida, boshqa qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida belgilab qo'yilgan asoslar mavjud bo'lган taqdirda hamda tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan foydalanish;
- soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, penya va jarimalarning ortiqcha to'langan yoki undirilgan summalarini hisobga olish yoki qaytarib olish;
- O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan shartlarda va tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash;

- soliq solish ob'ektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish hamda to'lashda o'zları yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;
- soliq tekshiruvlari materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish;
- soliq tekshiruvlarini amalga oshirayotgan davlat soliq xizmati organlariga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini bajarishga doir masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish;
- davlat soliq xizmati organlarining, boshqa vakolatli organlar va ular mansabdor shaxslarining ushbu Kodeksga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'limgan hujjatlari hamda talablarini bajarmaslik;
- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;
- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari tufayli etkazilgan zararning o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish.

Soliq to'lovchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Soliq to'lovchining soliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi uni vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek vakilning ishtirok etishi soliq to'lovchini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum etmaydi.

Soliq to'lovchi vakillarining mazkur soliq to'lovchining soliq munosabatlaridagi ishtiroki munosabati bilan sodir etilgan harakati (harakatsizligi) soliq to'lovchining harakati (harakatsizligi) deb e'tirof etiladi.

2. Soliq to'lovchilarning majburiyatları

Soliq to'lovchilar:

- o'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi;
- qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi;
- davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi;
- soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtida davlat soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishi;
- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek mazkur organlarning, ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi shart.

Soliq agentlari soliq kodeksining 31-moddasining birinchi qismida nazarda utilgan majburiyatlardan tashqari:

✓ soliq to'lovchilarga to'lanadigan mablag'lardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazishi;

✓ soliq to'lovchilarga to'langan daromadlarning, ushlab qolingga hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisobini yuritishi, shu jumladan har bir soliq to'lovchi bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

Qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchilar zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Vakolatli organlarning huquq va majburiyatları soliq Kodeksi hamda boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

3. Soliq to'lovchilar tomonidan majburiyatini bajarish tartibi.

Soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e'tirof etiladi.

Soliq majburiyatini bajarish uchun soliq to'lovchi:

➤ Soliq Kodeksida belgilangan hollarda davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishi;

➤ soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni aniqlashi hamda ularning hisobini yuritishi;

➤ moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi hamda uni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishi;

➤ soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida hamda to'liq miqdorda to'lashi shart.

Soliq majburiyatini bajarish bevosita soliq to'lovchi tomonidan amalga oshiriladi, amaldagi soliq Kodeksiga va boshqa qonunlarga muvofiq soliq majburiyatini bajarish boshqa shaxsga yuklatiladigan hollar bundan mustasno.

Yuridik shaxsning alohida bo'linmalari bo'yicha soliq majburiyati mazkur alohida bo'linmalar tomonidan, agar ularga alohida mol-mulk ajratilgan bo'lsa va ular mustaqil balansga ega bo'lsa, mustaqil ravishda bajariladi.

Mol-mulk ishonchli boshqaruvga topshirilganda boshqaruv muassisi bo'lган soliq to'lovchining soliq majburiyati, agar bu majburiyat unga boshqaruv muassisi tomonidan yuklatilgan bo'lsa, ishonchli boshqaruvchi tomonidan bajarilishi mumkin.

Soliq majburiyati bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, soliq to'lovchiga nisbatan soliq Kodeksida nazarda tutilgan tartibda uning bajarilishini ta'minlash chorralari qo'llaniladi.

Soliq majburiyati soliq Kodeksida belgilangan muddatlarda soliq to'lovchi tomonidan bajarilishi kerak.

Soliq to'lovchi soliq majburiyatini muddatidan ilgari bajarishga haqli.

Soliq majburiyatini bajarish muddatlari kalendar sana yoki vaqt davri (yil, yil choragi, oy, o'n kunlik va kun) o'tishi bilan belgilanadi.

Muddatning o'tishi kalendar sanadan yoki muddatning boshlanishi belgilab qo'yilgan voqea yuz bergenidan keyingi kundan boshlanadi. Soliq majburiyati bu majburiyatni bajarish muddatining so'nggi kuni soat yigirma to'rtga qadar bajarilishi kerak.

Agar soliq majburiyatini bajarish muddatining so'nggi kuni dam olish (ishlanmaydigan) kuniga to'g'ri kelib qolsa, shundan keyingi birinchi ish kuni muddatning tugash kuni hisoblanadi.

Jismoniy shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:

- ✓ uning vafot etishi bilan;
- ✓ uni vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi sud qarori qonuniy kuchga kirishi bilan.

Yuridik shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:

- u tugatilganidan keyin;
- u qo'shib olish (qo'shib olingan yuridik shaxsga nisbatan), qo'shib yuborish, bo'lish va o'zgartirish orqali qayta tashkil etilganidan keyin.

Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko'rib chiqishi mumkin.

Soliq to'lovchi soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ortiqcha to'langan summalarini hisobga olishni yoki qaytarishni talab qilishga haqli.

Soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddatining o'tishi fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq to'xtatib turiladi, uziladi va tiklanadi.

4.Soliq solish ob'ektlarini va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni aniqlash xususiyatlari.

Soliq va boshqa majburiy to'loving har bir turi bo'yicha soliq solish ob'ekti hamda soliq solish bilan bog'liq ob'ektlar soliq Kodeksining Maxsus qismiga muvofiq belgilanadi.

Soliq to'lovchilarining daromadlari hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish uchun ular bo'yicha tegishli chegirmalar to'lov to'langan vaqt va pul kelib tushgan sanadan qat'i nazar, ular taalluqli bo'lган hisobot davrida aks ettiriladi (hisoblab yozish usuli).

Mol-mulkni hisobga olish buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchi tomonidan hisob hujjatlari yo'qotilgan yoki yo'q qilingan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanishi kerak bo'lган soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblangan qayta tashkil etilganidan keyin ular taalluqli bo'lган hisobot davrida aks ettiriladi (hisoblab yozish usuli).

Agar o'zaro aloqador yuridik shaxslar o'z tijorat va moliyaviy munosabatlarida o'zaro aloqador bo'lмаган yuridik shaxslar o'rtasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan narxlardan farq qiladigan narxlarni qo'llasa, soliq solinadigan baza tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish narxlari asosida hisoblab chiqariladigan soliq solish ob'ektini aniqlashda davlat soliq xizmati organlari o'zaro aloqador bo'lмаган yuridik shaxslar o'rtasida qo'llaniladigan narxlardan foydalanadi.

O'zaro aloqador yuridik shaxslar quyidagilardir:

✓ O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar va ularning chet davlatlar yuridik shaxslari bo'lgan muassislari (ishtirokchilari, a'zolari);

✓ chet davatlarning yuridik shaxslari va ularning O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar bo'lgan muassislari (ishtirokchilari, a'zolari);

✓ muassislari (ishtirokchilari, a'zolari) ayni bir yuridik yoki jismoniy shaxslar bo'lgan O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar va chet davatlarning yuridik shaxslari.

Hisob hujjatlari soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni aniqlash, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini hisoblab chiqarish uchun asos bo'lgan birlamchi hujjatlar, buxgalteriya hisobi registrlari hamda boshqa hujjatlardan iboratdir.

Hisob hujjatlari qog'ozda va (yoki) elektron shaklda tuziladi hamda soliq Kodeksining 38-moddasida belgilangan soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati tugaguniga qadar saqlanadi.

Yuridik shaxs qayta tashkil etilganda qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning hisob hujjatlarini saqlash majburiyatları uning huquqiy vorisi zimmasiga yuklatiladi.

Yuridik shaxs tugatilganda hisob hujjatlari tegishli davlat arxiviga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda topshiriladi.

Soliq Kodeksida soliq solishning turli tartibi nazarda tutilgan faoliyat turlarini amalga oshirayotgan soliq to'lovchilar soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarning alohida-alohida hisobini yuritishlari shart.

Soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarning alohida-alohida hisobi soliq to'lovchilar tomonidan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida yuritiladi.

Faoliyatning muayyan turiga taalluqli barcha daromadlar va xarajatlar tegishli hisob hujjatlari bilan tasdiqlanishi kerak.

Soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarning alohida-alohida hisobi mutanosib usul yoki to'g'ridan-to'g'ri hisobga olish usuli orqali yuritilishi mumkin.

Soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarning alohida-alohida hisobini yuritish usuli yuridik shaxsning butun kalendar yilga mo'ljallangan hisob siyosati bilan belgilanadi hamda yil mobaynida o'zgartirilishi mumkin emas.

Hisobga olishning mutanosib usulida daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa ob'ektlari yoki soliq solish bilan bog'liq ob'ektlar realizatsiya qilishdan olingan sof tushumning umumiyligi summasidagi faoliyatning muayyan turlari bo'yicha realizatsiya qilishdan olingan sof tushum ulushiga mutanosib tarzda shu muayyan faoliyat turiga kiritiladi.

To'g'ridan-to'g'ri hisobga olish usuli qo'llanilganda daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa ob'ektlari yoki soliq solish bilan bog'liq ob'ektlar faoliyatning qaysi turi amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lsa, shu turga kiritiladi. Bunda faoliyatning biron turiga kiritish mumkin bo'lman daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa ob'ektlari yoki soliq solish bilan bog'liq ob'ektlar hisobga olishning mutanosib usuli orqali faoliyatning muayyan turiga kiritiladi.

5. Soliq hisoboti tushunchasi. Soliq hisobotini tuzish va taqdim etish tartibi.

Soliq hisoboti soliq to'lovchining soliq va boshqa majburiy to'loving har bir turi bo'yicha yoki to'langan daromadlar bo'yicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan hujjati bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda tuziladi.

Soliq hisoboti qog'ozda va (yoki) elektron hujjatga doir talablarga rioxaya etilgan holda elektron hujjat tarzida tuziladi.

Soliq hisoboti soliq to'lovchi tomonidan imzolanishi kerak, shuningdek agar u kichik tadbirkorlik sub'ekti bo'lman yuridik shaxs bo'lsa, uning muhri bilan tasdiqlanadi. Elektron hujjat tarzida taqdim etilgan soliq hisoboti soliq to'lovchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Yuridik shaxs — soliq to'lovchi qayta tashkil etilayotganda yoki tugatilayotganda, har bir qayta tashkil etilayotgan yoki tugatilayotgan soliq to'lovchiga soliq davri boshlanganidan e'tiboran qayta tashkil etish yoki tugatish tugallangan kunga qadar bo'lgan davr yuzasidan tegishinchalash topshirish dalolatnomasi, taqsimlash balansi yoxud tugatish balansi asosida alohida-alohida soliq hisoboti tuziladi. Mazkur hisobot topshirish dalolatnomasi, taqsimlash balansi yoki tugatish balansi tasdiqlangan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida taqdim etiladi. Ushbu qismning qoidalari o'zgartirish, shuningdek boshqa yuridik shaxsni qo'shib olish orqali qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Tadbirkorlik sub'ekti — yuridik shaxs ixtiyoriy tugatilgan taqdirda, unga soliq davri boshlanganidan to yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tugatish tartib-taomili boshlanganligi haqida xabardor qilingan sanagacha bo'lgan muddat uchun alohida soliq hisoboti tuziladi.

Soliq hisobotida ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riliги учун javobgarlik soliq to'lovchining zimmasiga yuklatiladi.

Soliq hisoboti soliq to'lovchi tomonidan ushbu Kodeksda belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

Soliq hisoboti soliq to'lovchi hisobga qo'yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etiladi. Ayrim turdag'i soliqlar bo'yicha soliq hisoboti ham ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda ob'ektlar bo'yicha hisobga qo'yilgan joy bo'yicha soliq to'lovchi tomonidan taqdim etiladi.

Jismoniy shaxslar soliq deklaratsiyasini yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etadilar.

Soliq to'lovchilar, agar ushbu moddaning beshinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq hisobotini o'z xohishlariga ko'ra quyidagicha taqdim etishga haqli:

- shaxsan olib borib berish tartibida;
- pochta orqali buyurtma xat bilan;
- telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat tarzida.

Tadbirkorlik sub'ektlari soliq hisobotini telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat tarzida taqdim etadi.

Soliq hisobotini davlat soliq xizmati organiga taqdim etish sanasi quyidagilardir:

soliq hisoboti shaxsan olib borib berish tartibida taqdim etilganda — soliq hisoboti davlat soliq xizmati organi tomonidan qabul qilib olingan sana;

soliq hisoboti pochta orqali buyurtma xat bilan taqdim etilganda — aloqa tashkilotining tamg'asida ko'rsatilgan, pochta jo'natmasi jo'natilgan sana;

soliq hisoboti elektron hujjat tarzida taqdim etilganda — elektron hujjat davlat soliq xizmati organi tomonidan olingan sana.

Davlat soliq xizmati organi shaxsan olib borib berish tartibida taqdim etiladigan soliq hisobotini qabul qilib olishni rad etishga haqli emas hamda soliq to'lovchining talabiga binoan soliq hisobotining nusxasiga hisobot qabul qilib olingan sana to'g'risida belgi qo'yishi shart.

Soliq hisoboti telekommunikatsiya aloqa kanallari orqali elektron hujjat tarzida qabul qilib olinganda davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchiga elektron tarzidagi hisobot qabul qilib olinganligi to'g'risida tasdiqnomalar yuborishi shart.

Soliq hisoboti dastlabki tarzda kameral nazorat qilinmasdan va uning mazmuni muhokama etilmasdan qabul qilinadi.

Soliq hisoboti quyidagi hollarda davlat soliq xizmati organiga taqdim etilmagan deb hisoblanadi, agar unda:

soliq to'lovchining identifikatsiya raqami ko'rsatilmagan yoki noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa;

soliq davri va (yoki) soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi ko'rsatilmagan bo'lsa;

soliq Kodeksining 43 va 44-moddalarida soliq hisobotini tuzishga doir belgilangan talablar buzilgan bo'lsa.

Belgilanmagan shakldagi soliq hisoboti taqdim etilganda davlat soliq xizmati organi hisobot olingan kundan e'tiboran uch kun ichida bu haqda soliq to'lovchiga

yozma bildirish yuboradi va aniq fikr-mulohazalarni ko'rsatgan holda uni maromiga etkazish uchun qaytaradi.

Kamchiliklari tuzatilgan soliq hisoboti uni taqdim etishning belgilangan muddati tugaguniga qadar taqdim etilgan taqdirda, soliq to'lovchiga nisbatan javobgarlik choralarini qo'llanilmaydi.

Davlat soliq xizmati organlariga soliq hisoboti taqdim etilgan davrga taalluqli xatolarni o'zi mustaqil ravishda aniqlagan soliq to'lovchi ushbu Kodeksning 38-moddasida belgilangan soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati ichida o'sha davr yuzasidan aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish huquqiga ega. Mazkur norma davlat soliq xizmati organlari tomonidan moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) doirasida tekshirish o'tkazilgan davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasining kamayishini nazarda tutuvchi aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etiladigan hollarda qo'llanilmaydi.

Agar aniqlashtirilgan soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi ilgari taqdim etilgan soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan va to'langan soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasidan ortiq bo'lsa, tegishli soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash bo'yicha soliq majburiyatlariga penya hisoblangan holda mazkur tafovut qo'shiladi.

Agar aniqlashtirilgan soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi ilgari taqdim etilgan soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan va to'langan soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasidan kam bo'lsa, aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilgan kundan e'tiboran shaxsiy varaqada soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi tafovut miqdoriga kamaytirilganligi aks ettiriladi. Soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, penyalarning ortiqcha to'langan summasi soliq Kodeksida belgilangan tartibda hisobga olinadi yoki qaytariladi.

Soliq to'lovchining muayyan soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash, shuningdek soliq Kodeksida nazarda tutilgan holatlar bo'lган taqdirda, mavjud soliq qarzini uzish majburiyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash majburiyati deb hisoblanadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash majburiyati soliq to'lovchining hisobvarag'ida etarlicha pul mablag'lari bo'lган taqdirda, tegishli soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash uchun bankka to'lov topshiriqnomasi taqdim etilgan paytdan e'tiboran, soliq yoki boshqa majburiy to'lov naqd pul mablag'lari bilan to'langanda esa pul summasi bankka yoki vakolatli organ kassasiga topshirilgan paytdan e'tiboran bajarilgan deb hisoblanadi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash majburiyati qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasi tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarning depozit hisobvaraqlariga o'tkazilganligi to'g'risidagi to'lov hujjatlarining ko'chirma nusxalari soliq to'lovchi tomonidan davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilgan taqdirda ham bajarilgan deb hisoblanadi.

Soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasini o'tkazish uchun to'lov topshiriqnomasi soliq to'lovchi tomonidan chaqirib olingan yoki bank tomonidan soliq to'lovchiga qaytarilgan taqdirda, shuningdek agar soliq to'lovchi bankka

to'lov topshiriqnomasini taqdim etgan paytda bu soliq to'lovchining hisobvarag'iga qo'yilgan, qonun hujjatlariga muvofiq birinchi navbatda bajarilishi lozim bo'lган, bajarilmagan talablar mavjud bo'lsa hamda soliq to'lovchi barcha talablarni qanoatlantirish uchun hisobvaraqda etarlicha pul mablag'lariga ega bo'lmasa, soliq yoki boshqa majburiy to'lov to'langan deb hisoblanmaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash majburiyati soliq Kodeksining 10-bobida belgilangan tartibda hisobga olish orqali ham bajarilishi mumkin.

Soliq agentining ushlab qolingan summalarini byudjetga yoki davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazishga doir majburiyati ushbu moddaning ikkinchi va to'rtinchi qismlariga muvofiq bajarilgan deb hisoblanadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash milliy valyutada, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa chet el valyutasida amalga oshiriladi.

Soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi soliq to'lovchi tomonidan ushbu Kodeksda belgilangan muddatlarda to'lanadi. Kodeksning 9-bobida nazarda tutilgan hollarda soliq to'lovchiga soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lovni, shuningdek penyani to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilishi mumkin.

Soliq majburiyatining soliq to'lovchi tomonidan bajarilmaganligi yoki ushbu Kodeksda belgilangan tartib buzilgan holda bajarilganligi unga nisbatan soliq majburiyatining bajarilishini ta'minlash choralarini qo'llash uchun asos bo'ladi.

Soliq solinadigan bazani hisoblab chiqarish davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq Kodeksida belgilangan tartibga muvofiq amalga oshirilgan hollarda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash majburiyati davlat soliq organining yozma talabnomasi olingan sanadan e'tiboran yuzaga keladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek moliyaviy sanktsiyalar byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- asosiy summa;
- hisoblangan penya;
- jarimalar.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash hisobi soliq to'lovchilar tomonidan buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuritiladi.

Soliq to'lovchi davlat soliq xizmati organi bilan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash bo'yicha soliq majburiyatları bajarilishiga doir solishtirma dalolatnoma tuzishni talab qilishga haqli. Davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchiga solishtirma dalolatnoma tuzishni rad etishga haqli emas.

Yuridik shaxsni tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, ixtiyoriy tugatish hollari bundan mustasno, tugatuvchi besh kunlik muddat ichida bu haqda davlat soliq xizmati organiga yozma shaklda ma'lum qiladi. Yuridik shaxsni ixtiyoriy tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ bu haqda davlat soliq xizmati organini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xabardor etadi.

Yuridik shaxs davlat soliq xizmati organiga tugatish balansini taqdim etish bilan bir vaqtda hisobtlarni hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisob-kitoblarni taqdim etishi shart.

Yuridik shaxs tugatilgan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyati ushbu yuridik shaxsnинг pul mablag'lari, shu jumladan uning mol-mulkini realizatsiya qilishdan olingan pul mablag'lari hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan navbat tartibida tugatuvchi tomonidan bajariladi.

Yuridik shaxsni tugatish davrida yuzaga keladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek penya va jarimalarni to'lash bo'yicha soliq majburiyati yuzaga kelishiga qarab, soliq Kodeksida belgilangan muddatlarda hamda tartibda bajariladi.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning ushbu moddaning to'rtinchi qismiga muvofiq uzilmagan soliq qarzi umidsiz deb e'tirof etiladi.

Agar tugatilayotgan yuridik shaxsda ortiqcha to'langan soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlar summasi bo'lsa, mazkur summalar soliq Kodeksining 10-bobida belgilangan tartibda hisobga olinishi yoki qaytarilishi lozim.

Yuridik shaxs xo'jalik sudi tomonidan bankrot deb topilgan taqdirda, tugatishga doir ish yuritishning butun davrida mol-mulk solig'i, er solig'i, shuningdek avval hisoblangan va undirilmagan soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni bo'yicha penya va jarimalar hisoblash to'xtatib turiladi.

Xo'jalik sudining yuridik shaxsni bankrot deb topish to'g'risidagi qarori mol-mulk solig'i, yer solig'i, shuningdek avval hisoblangan va undirilmagan soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni bo'yicha penya va jarimalar hisoblashni to'xtatish uchun asos bo'ladi.

Yuridik shaxs bankrotligi to'g'risidagi ishni yuritish tugatilgan va uning to'lov qobiliyati tiklangan taqdirda, xo'jalik sudining bankrotlik to'g'risidagi ishni yuritishni tugatish haqidagi qarori qabul qilingan sanadan e'tiboran, ushbu moddaning ettinchi qismida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash amalga oshiriladi.

Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyati ushbu moddada belgilangan tartibda uning huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) tomonidan bajariladi.

Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyatini bajarish, qayta tashkil etish tugallanguniga qadar huquqiy vorisga (huquqiy vorislarga) qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxs soliq majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi faktlari va (yoki) holatlari ma'lum bo'lganligi yoxud ma'lum bo'limganligidan qat'i nazar, uning huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) zimmasiga yuklatiladi.

Yuridik shaxsning qayta tashkil etilishi uning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyatlarining bajarilishi muddatlarini shu yuridik shaxsning huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) uchun o'zgartirmaydi.

Huquqiy vorisni (huquqiy vorislarni), shuningdek huquqiy vorislarning yuridik shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarni to’lash bo'yicha soliq majburiyatlarini bajarishdagi ishtiroki ulushini belgilash qonun hujjaligiga muvofiq amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs qayta tashkil etilguniga qadar u ortiqcha to’lagan soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning summalarini shu yuridik shaxs huquqiy vorisining (huquqiy vorislarning) shaxsiy kartochkasiga yuridik shaxsni qayta tashkil etish tugallangan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay o’tkazilishi kerak.

Yuridik shaxsning soliq qarzi yoki u qayta tashkil etilguniga qadar ortiqcha to’langan soliq yoki majburiy to’lov summalarini qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorislari o’rtasida taqsimlash har bir huquqiy vorisning ulushiga muvofiq amalga oshiriladi.

Vafot etgan jismoniy shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarni to’lash majburiyati uning meros qilingan mol-mulkini qabul qilgan merosxo’ri (merosxo’rlari) tomonidan, meros qilingan mol-mulkning qiymati doirasida va merosdagi ulushga mutanosib ravishda, meros qabul qilib olingan kundan e’tiboran bir yildan kechiktirmasdan bajariladi. Vafot etgan jismoniy shaxs to’lashi lozim bo’lgan penya va (yoki) jarimalarni to’lash majburiyati merosxo’rga (merosxo’rlarga) nisbatan tatbiq etilmaydi.

Vafot etgan jismoniy shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarni to’lash bo'yicha soliq majburiyati summasi meros qilingan mol-mulk qiymatidan ortiq bo’lgan taqdirda, vafot etgan jismoniy shaxsning soliq yoki boshqa majburiy to’lovni to’lash bo'yicha qarzining qolgan summasi umidsiz qarz deb e’tirof etiladi.

Merosxo’r bo’limgan taqdirda, vafot etgan jismoniy shaxsning soliq qarzi umidsiz qarz hisoblanadi.

Soliq qarziga ega bo’lgan jismoniy shaxs vafot etgan taqdirda, jismoniy shaxs hisobga qo'yilgan va (yoki) uning mol-mulki turgan joydagi davlat soliq xizmati organi vafot etgan shaxsning merosxo’ri (merosxo’rlari) to’g’risida axborot olingan paytdan e’tiboran o’ttiz kun ichida unga (ularga) soliq qarzi borligini ma'lum qilishi shart.

Sud tomonidan bedarak yo’qolgan deb topilgan jismoniy shaxsning soliq qarzi qonun hujjaligiga muvofiq bedarak yo’qolgan shaxsning mol-mulkini boshqarish huquqiga ega bo’lgan shaxs tomonidan bedarak yo’qolgan shaxsning mol-mulki hisobidan bajariladi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarni to’lash majburiyati uning vasiysi tomonidan muomalaga layoqatsiz shaxsning mol-mulki hisobidan bajariladi.

Belgilangan tartibda bedarak yo’qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning mol-mulki etarli bo’limgan (yo’q bo’lgan) taqdirda, uning soliq qarzining ko’rsatilgan mol-mulk qiymatidan ortiq qismi umidsiz qarz deb e’tirof etiladi.

Jismoniy shaxsning bedarak yo’qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligini bekor qilish to’g’risida belgilangan tartibda qaror qabul qilingan

yoki jismoniy shaxsni muomalaga layoqatli deb topish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, ilgari hisobdan chiqarilgan soliq qarzining amal qilishi, da'vo qilish muddatidan qat'i nazar, qayta tiklanadi.

Vafot etgan jismoniy shaxsning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini, qat'iy belgilangan soliqni va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lash bo'yicha qarzi umidsiz qarz deb e'tirof etiladi.

Banklar soliq to'lovchining soliqni va (yoki) boshqa majburiy to'lovnii o'tkazishga doir to'lov topshiriqnomalarini, shuningdek tegishli vakolatlari organning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini qonun hujjatlarida belgilangan navbat tartibida undirish to'g'risidagi inkasso topshiriqnomalarini soliq Kodeksida belgilangan tartibda bajarishi shart.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summalarini tegishli byudjet yoki davlat maqsadli jamg'armasining hisobvarag'iga kiritish soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summalarini o'tkazish deb e'tirof etiladi.

7-mavzu: Soliq siyosati va uning asosiy yo'nalishlari

Reja:

- 1.Soliq siyosati, boshqaruvi va muvofiqligi.**
- 2.O'zbekiston Respublikasi soliq siyosati va uning huquqiy asoslari.**
- 3.Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda davlatning roli.**
- 4.O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining xususiyatlari va yo'nalishlari.**

Tayanch so'z va iboralar: davlat, soliq siyosati, soliq boshqaruvi, muvofiqlik, huquqiy asos, soliq siyosatining xususiyatlari, soliq siyosatining yo'nalishlari.

1.Soliq siyosati, boshqaruvi va muvofiqligi.

Bu mavzuda hukumat nuqtai nazaridan soliq siyosati, uni boshqaruvi, muvofiqligi va soliq solishning ichki o'zaro bog'langan xususiyatlarini ko'rib chiqiladi. Har qanday hukumat o'z fuqarolarini o'rnatilgan qonun-qoidalar va normalar bo'yicha soliq to'lashlarini hohlaydi, lekin bir qator qiyinchiliklar bu ishni yuqori darajada amalga oshirga yo'l qo'ymaydi.

Simon James o'zining "Dictionary of Taxation" kitobida soliq siyosatini "hukumatning soliq tizimiga yondashuvi" sifatida ta'riflaydi. Rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimidagi muammolardan biri bu ularning ko'p yillardan beri hali hanuz mavjud ekanligi va o'tmishda qabul qilingan bir qator dasturlardan qolgan meros shu bilan birga bu muammolarning ichki kanallar bilan o'zaro bog'langanligi ularning qo'rqinchli darajada murakkablashtirgan³⁷.

AQSh g'aznachiligi sobiq sekretari (William E. Simon) xulosa qilishicha:

"Millat xuddi biron kishi tomonidan aynan biror bir maqsad uchun yaratilgan soliq tizimiga ega bo'lishi kerak". Kam miqdordagi davlatlar aynan bir maqsad uchun yaratilgan soliq tizimiga egalik qiladi. Buyuk Britaniya soliq tizimini eng oxirgi ko'zdan kechirgan "the Mirrless Review" tahlilida, alg'ov-dalg'ov soliq stavkalari va soliq bazasini o'rnatishdagi mantiqiy bog'liqlikning kamchiliklari va turli xildagi iqtisodiy faoliyatlar bo'ylab arbitrajlik diskriminatsiyalari Buyuk Britaniya soliq tizimini dunyodagi eng murakkab soliq tizimi deb aytishiga sabab bo'ldi. The Mirrless review Adam Smitning to'rt qonunini ko'rib chiqishi bo'yicha Near universal qo'llab quvvatlashga yaqin lekin ular bir maqsad bilan ikkinchi maqsadni muvozanatda saqlash jarayonida yuzaga keladigan haqiqiy savollarni yechishga yordam bermaydi. Ikkita qarama qarshi tomonlarni muvozanatga keltirish bo'yicha vaziyatlar sodir bo'lib turadi chunki soliq siyosati bir vaqtning o'zida ikki va undan ortiq ortiq maqsadlar talablariga to'g'ri kelishi

³⁷ Advanced Taxation (UK), BPP Learning Media Ltd BPP House, Aldine Place 142–144 Uxbridge Road London W12 8AA, 2017

kerak. Bu esa soliq siyosatini shakllantirishning juda murakkablashtiradi va tez tez huquqiy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muhitni va noiqtisodiy omillar hisobga olgan holda davlat xarajatlarini bir vaqtda o'zgarishiga olib keladi.

Kengroq va ko'p o'lchovli raqobatlshuvchi omillar hamisha ham yetarli darajada qadrlanmagan natijasida soliq siyosatiga juda sayoz ravishda e'tibor berilishi bilan tugaydi.

Soliq siyosati (va reformi) yaratish bo'yicha katta miqdordagi tadqiqotlar amalga oshirilishi natijasida ikkita asosiy savol (predmet) ayon bo'ldi. Birinchisi rejalahshtirilmagan noqulay natijalar va ikkinchisi ikkita biri-biriga qarama-qarshi bo'lган tomonlarni muvozanatda saqlash.

James va Edward shunda deb izohlaydi:

Iqtisodiyot tizimidagi noqatiyliklar (o'zgaruvchanliklar) biri biriga shunchalik ta'sir qilishi natijasida to'g'ridan-to'g'ri dastlabki o'zgarishlarga bog'liq bo'lмаган boshqa o'zgarishlarga ham ta'sir qiladi. Cheklangan tahlillar ilgaridan rejalahshtirilgan yaxshilanishlarga erishish bilan bog'liq bo'lган o'zgarishlarni oldindan aytib berishga qodir bo'lmasligi mumkin.

Bu esa iqtisodiy ijobiy o'zgarishga erishish uchun ishlab chiqilgan islohot amalda ahvolni bundanda yomonlashtirishga olib keladi.

Masalan: tasavvur qilamiz shtat ichimlik ishlab chiqarishda ishlab chiqarish jarayoni uchun soliq soladi, ya'ni hamma sotib olishi shart (aytaylik, chunki ichimlik suvini ichish xavfli), lekin bu ishlab chiqarish jarayoni ko'plab zaharli moddalar yaratadi. Bu soliq suvning umumiylar narxining oshishiga, qimmatlashishi sababli odamlarga ta'sir qilib ularning aslida iflos suv ichishiga olib kelishi mumkin.

Bu esa shtatning sog'lijni saqlash va tibbiy xizmat ko'rsatish sohasi zimmasiga ortiqcha og'irlilik yuklaydi va odamlaga ishlaridan voz kechib o'zlarining sog'liqlarini tiklab olishiga vaqt kerak bo'lishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish oqibatida yuzaga kelgan zarar, ishlab chiqarish faoliyatidan undirilgan soliqdan kelgan foydaga nisbatan iqtisodiyotga ko'proq ta'sir qilib va unga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

To'g'ri soliq undirish ya'ni optimal soliq undirish g'oyasi, iqtisodiy samaradorlik va mol-mulkka nisbatan haqqoniylig ildizlari bilan o'zaro boglangan. Lekin muvozanat shu yerda zarbaga uchraydi ya'ni iqtisodiy samarodor bo'lisch soliq to'lovchiga nisbatan nohaqlik bo'lishi mumkin(yoki teskarisi) va shunday qilib, bu ikki g'oya o'rtasida qarama-qarshilik mavjud.

Soliq tizimi maqsadlarini shakllantirish yo'llari:

- Soliq tizimi ijtimoiy soha va iqtisodiy sohalaridagi samaradorligiga salbiy ta'sirlarini minimallashtirish;

- Boshqaruva muvofiq kelish xarajatlari- hamma narsa teng bo'lishi , tizim boshqaruvi esa kamroq xarajat talab qilishi maqsadg muvofiq;

- Taqsimlashdagi naf foydadan ko'ra haqqoniyligi bo'lishi ustun bo'lishi masalan: jarayonning haqqoniyligi, diskriminatsiyadan chetda bo'lishi, va amaldagi qonunga nisbatan haqqoniylig ;

- Shaffoflik- odamlar tushuna olishi mumkin bo'lган soliq tizimi.

Oddiy, betaraf and barqaror soliq tizimi yuqorida keltirib o'tilgan natijalarga erishishi ehtimoli murakkab , betaraf va tez-tez o'zgarib turadigan soliq tizimiga nisbatan ko'proqdir. Lekin oddiylik, beteraflilik va barqarorliklarga talab juda kattadir chunki yuqorida keltirilgan yakuniy natijalarga erishishni osonlashtiradi³⁸.

Shu bilan birga The Mirrless Review "yaxshi soliq siyosati" ning talab qilingan xarakteristikasini o'rnatdi.

Daromadlar uchun soliqlar: daromad solig'i shaffof va bog'langan stavka tuzulishi bilan;

kam daromadli va/yoki yuqori ehtiyojga ega bo'lganlar uchun yagona kompleks manfaatli bo'lishi bilan;

samarali soliq stavkalari qo'llanilishi soliq to'lovchilarning o'z vaqtida soliqlar to'lab boorish jarayonida namoyon bo'ladi;

egri soliqlar uchun: katta ko'lAMDAGI standartlashgan qo'shilgan qiymat solig'i (kichik miqdordagi yo'naltirilgan istisnolar iqtisodiy)

oborotdan soliq va qo'shimcha alkogol ichimlik va tamaki mahsulotlaridan emas.

Atrof muhitni ifloslantirganlik solig'i uchun: uglerod emissiyasi uchun o'zgarmas narxda va yo'ldagi tirbandlik uchun soliq

- *Boylik va jamg'arma uchun soliq;* oddiy qaytarib olinadigan jamg'armalarga nisbatan soliq emas va biroz qo'shimcha stimul nafaqa jamg'armasi uchun;

Standartlashgan daromad solig'i, rejada ruxsat etilgan daromad miqdoridan keyin hamma turdag'i daromadlarga nisbatan qo'llaniladi va shu bilan birgakompaniya aksiyalaridan kelgan daromadga nisbatan ko'char mulkka pastroq soliq stavkasi allaqachon to'langan korporatsiya solig'i da aks etishi.

- Tadbirkorlik yoki biznes uchun soliq; normal investitisiya qaytishiga nisbatan soliqning yo'qligili bilan korporatsiya solig'i uchun yagona soliq stavka bo'lishi ; ishga bandlik bo'yicha, o'zini biznesi va kichkina kompaniya boshqarishga nisbtan teng munosabatda bo'lish; o'rta darajdagi qo'shilgan hissaga nisbatan soliqqa tortmaslik, lekin kamida biznes va qishloq xo'jalik yeridan foydalanganlik uchun soliq to'lash;

- Yuqorida aytib o'tilgan fikrlarning ayrimlari 4 bo'limdagilarga bilan o'xshash va keyinchalik 7 va 8 bo'limlarda kengroq muhokama qilinadi.

James va Edward soliq siyosatiga nisbatan strategiya bo'yicha 10 punktli rejani taklif qiladi.:

1. *Soliqqa tortishning maqsadini aniqlash-talab qilingan hamma darajadagi hukumatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatlarini amalga oshirish uchun, shu bilan birga turli darajadagi har xil maqsadlarning muhimligi bilan va masadlarning hal qilinishi (qaramam qarshi tomonlarni muvozanati) xususiyatlari soliq siyosatida aks etishi lozim.*

2. *Maqsadga erishish uchun har xil metodlarni aniqlash-* masalan, soliq xarajtalari, soliq subsidiyalari bo'yicha (yoki soliq oid bo'limgan metodlar orqali, agar ular yaxshiroq bo'lsa)

³⁸ Advanced Taxation (UK), BPP Learning Media Ltd BPP House, Aldine Place 142–144 Uxbridge Road London W12 8AA, 2017

3. *Iqtisodiy mezonlar bo'yicha tahlil qilish-* samaradorlik, rag'batlantirish, shaxsiy kapital, faoliyat turi va makroiqtisodiy muhokama qilish.

4. *Boshqaruv chegaralarini aniqlash aniqlash-* qonuniy va amaliy jihatdan nimalar qilina olinishi mumkin.

5. *Turli xildagi risklarni aniqlash-* ko'p darajali bahlashning iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik risklar mahalliy va xalqaro soliq muhitini baholashda talab etilishi va shu risklar o'zgarishlarga nisbatan reaksiyasini o'rganish.

6. *Xulq atvorni tahlil qilish-* odamlar qay darajada reaksiya qilishi va o'zini tutishi mumkinligini baholash kerak. Chunki ba'zi soliqlar odamlar tomonidan qolganlarga nisbatan tezroq qabul qilinishi mumkinva shuning uchun nisbatan qarshilik kam bo'lishi va ularni boshqarish osonroq bo'lishi mumkin.

7. *Turli xil siyosatlarning o'zaro aloqadorligi-* boshqacha aytadigan bo'lsak, ijtimoiy va iqtisodiy siyosatlar bilan bog'langanligi. Soliqlarni ko'tarish orqali daromadni oshirishga bo'lgan harakat soliq stavkalarni past qilib belgilab iqtisodiy o'sishni qo'llab quvvatlashga bo'lgan harakt o'rtasida qarama qarshilikni keltrib chiqarishi mumkin. Soliq siyosati kamdan kam hollarda boshqa hukumat siyaosatlariga ta'sir qilmagan holda o'zgartiriladi ya'ni bir o'zgarish boshqa o'zgarishga sabab bo'ladi.

8. *Strategiyani ishlab chiqish-* ya'nni boshqa kech qamrovli muammolarga yo'naltirilgan bo'lib boshqa bir ayni sohalardagi muammolarni hal qilishga yetarli darajada egiluchan bo'lishi kerak.

9. *Rejalahtirish va oldindan qilingan maqsadlarni hisobga olgan holda strategiyalarini amalga oshirish-* shu oqibatida resurslardan samarali va oqilona foydalanishiga olib kelish. Strategiyalar to'g'ri ishlayotgani ustidan doimiy kuzatuv va baholash mehanizmi mavjud bo'lishi.

10. *Rejaga qarshi bo'lgan strategiyalarning ijrosini kuzatish va baholash-*

Ya'ni shubhasiz har qanday soliq boshqaruvi jarayoniga murakkablik tug'diradi agar strategiyalar ish bermay qolsa, unda ular modifikatsiya qilinishi yoki vaziyat/holat o'zgarsa ularga (9) bo'limdagi mehanizmdan foydalangan holda o'zgartirishlar kiritilishi lozim. Bir qancha kalit ijro ko'rsatkichlari bo'lishi bilan birga soliq to'lovchilarning xulq atvori va shu butun boshli soliq muhiti tahlil qilinishi kerak³⁹.

Ko'plab davlatlarda soliq bilan bog'liq muammolarni hal qilishi bo'yicha organ mavjud. Buyuk Britaniyada bu HM daromad va bojaxona (HMRC) deb nomlanadi. HMRC 2005 yil 18 martda mamlakatning ichki daromadlari va qirollikning bojaxona va aksizlari birikishidan shakllantirilgan. HMRC, rasmiy tarzda daromad offitserlari sifatida tanish bo'lgan fuqaro xodimlarni kunlik soliq ishini amalga oshiradigan bojaxona xizmatini o'z ichiga olgan. HMRC daromad va bojaxona uchun komissiorlarini g'aznachilik tavsiyasiga binoan qirolicha tayinlaydi. g'aznachilik esa davlat moliyasi uchun ma'sul bo'lgan moliya vazirligi tomonidan boshqariladi. HMRC mutaxassis va mahalliy idorlari

³⁹ Advanced Taxation (UK), BPP Learning Media Ltd BPP House, Aldine Place 142–144 Uxbridge Road London W12 8AA, 2017

va bo'limlari maxsus soliqlar bilan shug'ullanadigan (kapiatl solig'i) maxsus idoralar yoki obyektlar (masalan ppensiya fondi, soliq undirilish) va odatiy ishlar bilan shug'ullanadigan idoralarani o'z ichiga oladi. Komissarlar mana shu idoralarni boshqarish, soliq qonuni ijro etish ma'sul hisoblanib soliq bilan bog'liq muammolarni moliya vazirligi bilan maslahatlashadi. Buyuk Britaniya nisbatan kichikiroq davlat, shunig uchun yagona soliq boshqaruvi organi soliqqa tortishning hamma tomonlari bilan shug'ullanadi⁴⁰. Mahalliy vakillik organlari hududlar bo'yicha ayrim soliqlarni masalan konsullik solig'i va biznes darajasi bo'yicha undirishga biroz ma'sulayati bor. Kattaroq davlatlar uchun bunday boshqarish usuli qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuning uchun ular shtatlar bo'yicha ham shunday tashkilotlarni tuzganlar. Amerika qo'shma shtatlari soliq organi bu Ichki Daromad Xizmati (Internal Revenue Service, IRS) lekin har bir shtatning o'z soliq organi va soliq bo'yicha qonunchiligi bor. Avstraliya va Germaniyada o'xshash tarzda boshqaruv bor. Ular Australian Tax Office va Bundesministerium der Finianzen deb nomlanadi. Germaniyada nafaqat soliq shtat soliqlari mavjud undan tashqari bu soliqlarni mahalliy darajada undiradi. Bu turdag'i tizim (davlat va shtat darajasidagi soliqlar) moliyaviy federalism deb nomlanadi va shtatlarning soliqlarni boshqaruv va soliq undirilishi davlatlar o'rtasida o'zgaradi. Hamma turdag'i soliq tizimi boshqaruvchilarga xarajatga tushadi. Xarajatlarning oshishi soliq qonunchiliginign qanchalik murakkabligi va tushunarli ekanligiga bog'liq. Shu bilan birga har bir shaxs va Boshqa xo'jalik yurituvchi tashkilotlaning soliqqa nisbatan majburiyatini baholash jarayoni tabiatiga ham bog'liqdir. 1990 yildan beri o'zini baholash bo'yicha umumiylar harakatlar bo'ldi. Soliq to'lovchiga (soliq boshqaruv organiga emas) soliq soliq tizimi ostida har bir yil uchun soliq majburiyatini to'g'ri taqsimlanayotganini o'zi to'g'ri baholab borish ma'suliyati yuklandi, odatda bu ish soliq deklaratsiyasini to'Idirish orqali amalga oshirilgan. Bundan oldin, soliqqa tortish jarayon soliq organi tomonidan baholash bilan boshlangan va soliq to'lovchi o'tgan yilgi soliq deklaratsiyai asosida bo'lganligi va noto'g'ri ekanligi tufayli haqida appilyatsiya qilganlar.

O'zini o'zi baholash tizimi soliq to'lash bog'liq majburiyatlarni bir qismini soliq to'lovchi zimmasiga yuklaydi va shu tufayli soliq organlari uchun soliq bilan bog'liq xarajatlarni qisqarishiga olib keladi.

Ochiq oydin ko'rinishi turibdiki soliq organlari soliq to'lovchi o'z soliq deklaratsiyasida ko'rsatgan raqamlarga tog'ri deb mumkin va odatda shu raqamlar yuzasidan tortishishga huquqlari bo'ladi. Buyuk britaniyada agar soliq to'lovchi norozi bo'lsa rasmiy apeliyatsiya jarayoni boshlanadi. Agar bu babs o'zaro kelishuv asosida hal qilinmassa, u Soliq Tribunallaridan biri yordamida hal qilinadi. Ikkala tomonlardan biri sud jarayonida chiqarilgan qarorga norozi bo'lsa, ish sudgacha oshirilishi mumkin. Har bir davlat mana shunday tortishuvlarni hal qilish bo'yicha o'z tizimi mavjud.

Yuqoridagi iborani Simon James o'zining "Soliqqa tortish bo'yicha Lug'at" kitobida quyidagicha tariflaydi: soliq to'lovchilarning qonunda belgilangan

⁴⁰ Jane Fracknall-Hughes. The Theory, Principles and Management of Taxation: An introduction, Routledge Taylor and Francis Group. 2017

talablar va maqsadga ko'ra soliqlarni to'lash bo'yicha xoxishi-istagidir. Xuddi shunday xoxish boshqa soliq soliq organi tomonidan ham kutilishi kerak.

Katta miqdordagi soliq talablarini bajarish bo'yicha ilmiy izlanishlar "soliq to'lovchilarning xulq –atvoriga ta'sir etuvchi omillar" ni o'rganishga qaratildi. Bu omillar ko'plab turli xildagi tadqiqotlarda yoshi, jinsi, oily ma'lumoti, daromaad darajasi, daromad turi va tabiat, egallab turgan lavozimi, qobiliyati, irqi, halolligi, murakkabligi, daromad orgalari bilan aloqalari, fosh etilishning ehtimolligi, sanksiyalar va soliq stavkasi, va soli majburiyatini bajarilishi bo'yicha xarajatlariga bog'liqligi aniqlandi. Ko'plab ilmiy adabiyotlar soliq majburiyatini bajarishni ushlab turuvchi/qo'rqtib turuvchi nazariy strukturadan foydalangan holda ko'rib chiqadi. Umumiylashtirishning yuqoriligi va jazolarning shafqatsizligi tufayli soliq majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlashdan qaytarib qolishni ta'minlaydi⁴¹.

Soliqni majburiyatini bajarmaslik qaytarib turuvchi metod iqtisodiyotning farazlaridan biriga tayanadi. Ya'ni soliq to'lovchilar har doim o'zlarining ko'zlagan daromadlarini ko'paytirishga va xarajatlarini kamaytirish bo'yicha harakat qiladilar. Shunig uchun soliq majburiyatlarini va jarimalarni bajarmagan hollarda ularni aniqlash va tegishlichcha chora ko'rish audit xizmatining zarur ekanligi isbotlaydi. Har doim jazolash tuzumining zarurligi ekanligi ma'lum bo'lsada, juda ham shafqatsiz chora ko'rish, majburlash tizimning mavjudligi fuqarolarning begonalashtirib, o'zidan uzoqlashtirishga va muammoni yomonlashishiga olib keladi.

Soliq majburiyatlarini bajarmaslik qarama-qarshi tomonlarni muvozanatga keltirish va boshqa xil omillar qadrlanmaydigan yana bir sohadir. Soliq to'lovchi o'z shaxsiy daromadlarini ko'paytirish harakat qiladilar bu esa soliq organi uchun yuqordagi maqsadga shunga erishish uchun ketadigan xarajatlarni yechishga ya'ni minimallashtirishga harakat qiladilar. Shunday bo'lsada bu soliq turning maqsadiga bog'liqdir. Masalan, agar soliq maqsadi aynan bir turdag'i xulq atvorni yoki faoliyatni oldini olish bo'lsa, unda soliq organi maqsadga erishish uchun yuqoriq soliq stavkalarini belgilaydilar.

2. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosati va uning huquqiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli Farmoniga muvofiq 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha harakatlar strategiyasining 3.1-bandida Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish belgilangan bo'lib, uning asosiy yo'naliislari sifatida quyidagilar keltirilgan:

➤ makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

⁴¹ Jane Fracknall-Hughes. The Theory, Principles and Management of Taxation: An introduction, Routledge Taylor and Francis Group. 2017

➤ xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

➤ soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish.

O'zbekistonda olib borilayotgan soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlar zimmasidagi soliq yukini yanada optimallashtirishga, kichik va xususiy biznesni rivojlantirishga, fuqarolarning real daromadlarini oshirishga va ularning xarid qilish qobiliyatini ko'tarishga hamda soliq ma'murchilagini yanada takomillashtirishga qaratilgan.

Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomonidan uning ichki mexanizmiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomonidan boshqaruvning xarakteriga, ijtimoiy-siyosiy holatga, muvozanatga bog'liq bo'ladi. Oddiy qilib aytganda ustqurmaga ham bevosita bog'liqdir. Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosat alohida rol o'yaydi. Ijtimoiy siyosat o'z navbatida ichki va tashqi madaniy-ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy siyosat kabilarga bo'llinadi. Iqtisodiy siyosat ham o'z navbatida moliya, pul-kredit, byudjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib, ularni yaxlitligi makroiqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining asosiy ajralmas qismiga aylanadi. Shu o'rinda soliq siyosatining mazmuniga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, yuqorida qayd etilganidek, soliq siyosati - bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to'lovlarni amaliyotda ishslash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir. Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo'nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o'rtasidagi nisbatni ta'minlash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi.

Soliq siyosatining huquqiy asoslari sifatida mustaqillikning dastlabki yillarda O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 31 avgustdagisi «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida» gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar, tashkilotlar, birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida» gi (1991 yil 15 fevral), «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'limganlarning daromad solig'i to'g'risida» gi (1991 yil 15 fevral), «Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida» gi (1993 yil 7 may) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Vazirlar Mahkamasining Qarorlari kabi me'yoriy hujjatlardan iborat bo'lgan bo'lsa, 1997 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi Qonuni yuqoridagi hujjatlarning ayrimlarini o'z kuchini yo'qotishiga olib kelgan

bo'lsa, ayrimlarining huquqiy bazasini kengayishiga, kuchayishiga xizmat qilib kelmoqda. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida» gi Qonunga muvofiq, shu kundan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil soliq siyosatini olib boradi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning burchlariga soliqlarni to'lash majburiyati ham kiritilgan: «Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lashga majburdirlar»⁴². Shuningdek, respublikamiz hududida yagona soliq tizimi amal qilishi va uni belgilash vakolati haqidagi jumlalar keltirilgan: «O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat Oliy Majlis haqlidir».⁴³

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi Qonuni, hukumatning boshqa soliqqa oid qonun, qarorlari, Prezident Farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan izohlanadi.

Soliq kontseptsiyasi - bu soliqlarni yo'nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g'oyalarining yaxlitligidir. Agar soliq kontseptsiyasi qanchalik chuqur ilmiy asosga ega bo'lsa, soliq siyosatining barqarorligi shunchalik mustahkam ta'minlanadi. O'z navbatida soliq kontseptsiyasi esa, soliqlar sohasidagi chuqur ilmiy tadqiqot ishlari hamda soliq amaliyotida orttirilgan boy tajribalarni o'zaro uyg'unligiga asoslangan g'oyalarning samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, soliq siyosati barqarorligini ta'minlashda uning strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishi lozim. Amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar xususiyati va muddatini e'tiborga olib soliq siyosati: soliq siyosati strategiyasi va soliq siyosati taktikasiga bo'linadi.

Soliq siyosati strategiyasida muayyan uzoqroq muddatga mo'ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlari ifodalanadi. Bu esa o'z navbatida ilmiy asoslangan soliq kontseptsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, respublikamizda jamiyat taraqqiyotining asosiy strategiyasi qilib erkin, ochiq bozor iqtisodiyotiga, erkin fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy, demokratik jamiyat qurish belgilangan. Soliq borasidagi ustuvor strategik vazifa esa davlat byudjeti va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarida muayyan uyg'unlikni ta'minlovchi soliq tizimini shakllantirish va shunga mos ravishda takomillashtirib borishdan iboratdir yoki boshqacha qilib aytganda, soliq siyosati strategiyasi - soliq siyosatining uzoq muddatli yo'nalishi bo'lib, ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergen ulkan masshtabli vazifalarni kelajakda bajarilishini ta'minlash ko'zda tutilgan moliyaviy tadbirlar yig'indisidir.

Soliq siyosati taktikasi esa, belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta'minlovchi, tez-tez o'zgarib turuvchi sayi-harakatlarni bildiradi, ya'ni qisqa

⁴² O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T.: «O'zbekiston» 1992 yil 51-modda.

⁴³ O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T.: «O'zbekiston» 1992 yil 132-modda.

muddatli va kichik masshtabli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yo'nalishlar majmuasi - soliq siyosati taktikasi sifatida qaraladi.

Soliq siyosati kontseptsiyasi soliq siyosati strategiyasiga nisbatan, soliq siyosati strategiyasi esa soliq siyosati taktikasiga nisbatan barqaror, ya'ni kam o'zgaruvchan bo'lib, ularning barchasi bir-biriga bog'liq holda, bir-birini to'ldirib turadi hamda yaxlit holda soliq siyosatinining mohiyatini tashkil qiladi.

Soliq siyosati tarkibiy jihatdan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- mamlakat miqyosida amal qiluvchi soliqlar va soliqsiz to'lovlar qonuniy joriy etish;

- amal qilayotgan soliqlarni samarali ishlashini ta'minlovchi mexanizm shakllantirish va takomillashtirish, soliqqa oid qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish;

- soliq siyosatini amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlarni tashkil etish va ularni ushbu sohadagi vazifalarini belgilash;

- soliqqa tortish tizimini shakllantirishga qaratilgan chuqr ilmiy tadqiqotni amalga oshirish va ularni joriy etishni tashkil etish.

3. Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda davlatning roli.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiy islohotlarni samarali ravishda amalga oshishida soliq siyosatining o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirish, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini tubdan rivojlantirish va bunga mas'ul idoralar faoliyatini tarkibiy o'zgartirishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatimiz tomonidan olib borilgan islohotlar ijrosi o'tgan 2017 yilda iqtisodiyotni barqaror, muvozanatlashtirilgan holda rivojlantirishni va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minladi.

2017 yilda iqtisodiyot sohasida zamon talablariga javob beradigan, yangicha ma'no-mazmundagi va samarali islohotlarni amalga oshirish yo'lida ulkan ishlar amalga oshirildi.

Iqtisodiyotni mutlaqo yangi asosda tashkil etish va yanada erkinlashtirish, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo'yicha qator qonunlar, farmon va qarorlar, davlat dasturlari qabul qilindi hamda ularning ijrosi amalga oshirilmoqda.

Natijada, 2017 yilda mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 2016 yilga nisbatan 5,3 foizga, sanoat hajmi – 7,0 foizga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi xajmi – 2,0 foizga, xizmatlar hajmi – 8,9 foizga, qurilish xajmi – 5,6 foizga o'sishi ta'minlandi.

Yuqorida qayd qilinganidek, soliq siyosati davlat, ya'ni uning vakolatli organlari tomonidan olib boriladi. Agar ushbu vakolatli organlar hokimiyat turi nuqtai-nazaridan olib qaraladigan bo'lsa, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud

hokimiyatlariga bo'linadi. Ayrim hollarda davlatning soliq siyosati Davlat soliq qo'mitasi tomonidan olib boriladi, degan fikrlar uchraydi. Amalda esa soliq siyosati davlat hokimiyatining barcha bo'g'lnlari: Qonun chiqaruvchi, Ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining ajralmas qismi sifatida kompleks tarzda amalga oshiriladi.

Bu hokimiyatlar tomonidan soliq siyosati quyidagi tartibda ishlab chiqiladi va uning ijrosi ta'minlanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat hisoblangan Oliy Majlis tomonidan soliqqa oid va unga bevosita tegishli bo'lgan qonunlar qabul qilinadi, o'zgartirish va va qo'shimchalar kiritiladi yoki ayrimlari bekor qilinadi. Demak, soliq siyosatining huquqiy negizlari mazkur hokimiyat faoliyati bilan bog'liqdir. Ijro hokimiyati bo'lgan Vazirlar Mahkamasi va uning bo'linmalari, Davlat Soliq Qo'mitasi, Moliya Vazirligi, Adliya Vazirligi, Iqtisodiyot Vazirligi, mahalliy hokimiyatlar va boshqa tegishli organlar tomonidan Oliy Majlis tomonidan qonun yo'li bilan joriy etilgan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarning ishlash mexanizmini ta'minlashga xizmat qiluvchi huquqiy me'yoriy hujjatlar orqali ularning ijrosi ta'minlanadi. Bunda albatta ijro hokimiyatining bir bo'g'ini hisoblangan Davlat soliq qo'mitasining soliq siyosati ijrosini ta'minlashdagi alohida o'ringa ega ekanligini qayd etish lozim. Bundan tashqari, har yilning oxirida kelgusi yil uchun amal qiladigan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlар bo'yicha soliq stavkalarini tasdiqlash, o'zgartirishlar kiritish vakolati Vazirlar Mahkamasiga berilgan. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar bo'g'lnlari bilan birga sud hokimiyatining bo'g'lnlari ham alohida ahamiyatga ega. Sud hokimiyati tomonidan qonuniy amal qilayotgan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarning o'z vaqtida byudjetga kelib tushishi ustidan nazorat o'rnatilib, soliq qonunchiligi buzilishlarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar qo'llanadi.

Soliq siyosatini ishlab chiqishda nafaqat alohida olingan muassasalar bevosita qatnashadi, shuningdek, uni ishlab chiqishda soliq xizmati bilan shug'ullanmaydigan sub'ektlar, aniqrog'i soliq to'lovchilar qatnashishi mumkin, ya'ni bunda soliq to'lovchilarni o'zlarida soliqlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar, soliqlarni hisoblashni oson va samarali ishlash kabilar taklif sifatida berilishi mumkin.

Soliq solish sohasidagi davlat boshqaruvining samaradorligi ko'p jihatdan davlat apparatining turli bo'g'lnlari faoliyatidagi moslashuvchanlikka bog'liq. Vakolat har bir organning spetsifik rolini belgilaydi va bir vaqtning o'zida uning boshqa organlar faoliyati bilan moslashuvini ta'minlaydi. Davlatning asosiy vazifalaridan birini hal etilishi - byudjetni to'ldirish, soliq to'lovchilarning iqtisodiy va yuridik hatti-harakatlariga ta'sir etishning u yoki bu dastagiga ega bo'lgan barcha davlat hokimiyati organlar faoliyatining muvofiqlashtiruviszumumkin emas. Ko'pgina adabiyotlarda ta'kidlanganidek, kontseptual soliq tamoyillaridan biri davlat organlarining soliq siyosatini ishlab chiqishda va amalga oshirishda birgalikdagi ishtiroki hisoblanadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, asosiy iqtisodiy huquqlar va soliq to'lovchilarning erkinligini ta'minlash qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning doimiy nazorati ostida turadi. Prezident tomonidan ularning faoliyatiga nisbatan bildiriladigan asosiy talablar bevosita soliq sohasidagi ishlarning umumiy ahvoli, uni boshqarish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshqalar bilan belgilanadi. Davlat soliq qo'mitasi va boshqa soliqlar bo'yicha bevosita va bilvosita vakolatga ega bo'lган organlar ishini muvofiqlashtirgan holda hokimiyatning ushbu sohalari soliq solish bilan bog'liq shaxs huquqlarini ta'minlash uchun yuqori darajali javobgarlikni o'z zimmasiga oladi hamda ularning manfaatlari yo'lida muammoli vaziyatlarni oldini olish maqsadida o'zaro hamkorlikning barcha jihatlarini mukammal tartibga soladi.

Qonun chiqaruvchi organ (Oliy Majlis) Konstitutsiyaning 78-moddasi 8-bandи va «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida» gi qonunning 4-moddasiga muvofiq hukumatning taqdimiga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilaydi. Davlat soliq qo'mitasining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyotini umumlashtirish asosida soliq qonunchilagini takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqish va ularni hukumatga kiritish huquqi uning Oliy Majlis bilan o'zaro munosabatlari hukumatning ishtiroti bilan qurilishiga yaqqol misol bo'la oladi. Ma'lumki, Vazirlar Mahkamasi Davlat Soliq Qo'mitasiga nisbatan vakolatlari bo'yicha rahbar organ hisoblanadi. Soliq qonunchilagini qo'llash amaliyotini doimiy ravishda umumlashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruvining yuqori organlarini mazkur sohaning xususiyatli jarayonlari haqida muntazam xabardor qilib borishi lozim.

Davlat soliq qo'mitasini boshqa hokimiyat organlari, tashkilotlar bilan turli yo'nalishlarda amalga oshiriladigan o'zaro hamkorligini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu o'zaro hamkorlik o'zining yuridik tabiatiga ko'ra huquqiy bo'lgani holda, munosabatlar predmetining o'ziga xosligi bilan tavsiflanadi. Mahalliy hokimiyat organlari va davlat soliq organlarining o'zaro hamkorligini tartibga soluvchi me'yorlar turli yuridik kuchga ega bo'lган qator me'yoriy hujjatlarga tayanadi. Umumiyl xususiyatlarga ko'ra o'zaro hamkorlik Konstitutsiya me'yorlarida, boshqa qonunchilik hujjatlarida aks ettirilgan, o'zaro hamkorlikning yanada aniq yuzaga kelishi ko'pincha soliq sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan. Mazkur davlat tuzilmalarining o'zaro munosabatlari xususiyatiga ta'sir etuvchi ob'ektiv omil mahalliy vakillik va ijro hokimiyati organlarining hududning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishi, mahalliy byudjetlarni shakllantirish va ijro etish, mahalliy soliqlarni belgilash, byudjetdan tashqari fondlarni shakllantirish masalalarini hal etish uchun konstitutsiyaviy belgilanishi hisoblanadi. Bu bilan davlat hokimiyatini tashkil etishning tegishli darajalarida hal etiladigan boshqaruvning barcha masalalarida, shu jumladan, moliyaviy sohada ham yuridik vakolatlilik mustahkamlanadi.

Soliq organlari va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan o'zaro hamkorlik respublikada olib boriladigan yagona soliq siyosatini olib borishda, soliqlar va boshqa soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarning hudud byudjetiga kelib tushishini ta'minlash bo'yicha vazifalarning bajarilishi natijalarini tahlil qilishda ishtirok etish orqali namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda mahalliy hokimiyat organlarining soliqlar bo'yicha vakolatlariga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, mahalliy hokimiyat organlari mamlakatimiz soliq qonunchiligiga muvofiq bir qancha vakolatlarga ega bo'lib, ular o'zlarining hududida joylashgan soliq to'lovchilarga mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha qo'shimcha soliq imtiyozlarini belgilash, soliq stavkalarining miqdorini Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yilgan eng yuqori stavkalar doirasida belgilash kabi vakolatlarini sanab o'tishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, respublikamizda soliq siyosati davlatning maxsus vakolatli organlari tomonidan ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Soliqlar bo'yicha har bir hokimiyat organi maxsus vakolatlarga ega bo'lib, ularning har biri o'z faoliyatlarini samarali olib borishda ushbu vakolatlardan foydalanadi. Bunda vakolatli organlar sifatida barcha hokimiyat organlari, jumladan, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari bирgalikda faoliyat ko'rsatadi va unda Davlat soliq qo'mitasi soliq siyosatini amaliyatga joriy etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni bajaradi.

4. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining xususiyatlari va yo'nalishlari.

Soliq siyosatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi eng avvalo iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohatlarni chuqurlashtirishni huquqiy qonunlar nafaqat iqtisodiy balki ham ijtimoiy hamda siyosiy vazifalarni hal qilish asosiy rol o'ynaydi. Respublikamizni soliq siyosatining huquqiy asoslari mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab kuchga kirganligi bevosita mustaqil soliq siyosatini shakllantirish va davlat vazifalarini bajarishga xizmat qilishi fikrimiz dalilidir. Mustaqil soliq siyosatini yuritish davlatning soliq munosabatlari doirasidagi farmon, qonun va qarorlari ijrosini ta'minlash hamda uni tashkil qilish uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlarga asoslangan, har tomonlama mustaqil munosabatlarni va barqarorlashtirish yo'lida shakllanadi va rivojlanadi.

Soliq siyosati moliya siyosatining tarkibi sifatida bozor iqtisodiyotining zaruriy qismi bo'lib hisoblanadi. Soliq siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun u ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi shartdir. Soliq munosabatlarini chuqur o'rganish, undan ilmiy xulosalar chiqarish orqaligina soliq siyosatida katta muvaffaqiyatga erishish mumkin bo'ladi.

Soliq siyosatini soliq va soliq tizimini rivojlantirish maqsadida soliq to'lovlari davlat oldida turgan vazifa va chora-tadbirlarni to'liq moliyaviy resurslar bilan ta'minlash imkoniyati yaratilmas ekan, byudjet taqchilligiga duch kelishga to'g'ri keladi. Bunday nuqsonlarni kelib chiqishning oldini olish va mutaxassislardan

tashkil topgan koordinatsion kengashni tashkil etish va ularga soliq munosabatlarini dinamik o'zgarishini kuzatish orqali fikrlar va tavsiyalar ishlab chiqish mas'uliyatini yuklash maqsadga muvofiqdir. Bu esa quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish borasidagi faolligini oshirishni taqozo etadi, ya'ni:

- soliqlarni zamonaviy ijtimoiy muhitni yaratishga qaratilishi;
- soliqlarni iste'molchilarga tushadigan og'irligini tinimsiz oqilona soliq munosabatlarini qo'llash orqali engillashtirib borishni;
- zamonaviy soliq munosabatlarini yuzaga keltirish orqali faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik sub'ektlarining sonini oshira borishi;
- soliq munosabatlari har tomonlama boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar va ularni o'sishiga monand olib borishiga zaruriy shart-sharoitlar yaratishni;
- xo'jalik sub'ektlari va aholini keng qatlamini soliq qonuniyatlariga amal qilishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishni. Shunday qilib soliqlarni oqilona tartibga solishda, xalq manfaatlari yo'lidagi ta'sirchanligini oshirishda byudjet taqchilligini oldini olishda soliq siyosati muhim o'r'in egalomogi lozim. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni, ya'ni kichik biznes korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, korxonalarini modernizatsiyalash orqali ularni turli faoliyat yurg'izishga qaratish, moliyaviy bozorni barqarorlashtirish, aholining keng qatlamini moddiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy muhofazani kuchaytirish va xizmatlarni soliqdan kompleks foydalanish orqali amalga oshirish soliq siyosatini barqarorlashtirishga qaratilishi bilan hal etilishi mumkin.

Soliqlar davlat byudjetining asosiy qismini tashkil etishda manba vazifasini bajarishi bois davlat soliq siyosati orqali soliq munosabatlarini tartibga keltirib turadi shu tariqa davlat soliq siyosatini ishlab chiqishning asosiy tashkilotchisi sifatida maydonga chiqadi. Davlat o'z moliyaviy idoralar faoliyatini soliq siyosatini ishlab chiqishga va amaliyotda qo'llanishiga jalg etadi. Soliq siyosatini ishlab chiqayotganda soliq munosabatlari doirasidagi yutuqlar va kamchiliklarni e'tiborga olish, ularni o'rganib chiqish orqali soliq hisobi, to'lovi va amal qiluvchi soliq elementlarini o'zgarishini e'tiborga olishi zarur.

Chunki, davlatning soliq siyosatini faol yuritishdagi roli bozor iqtisodiyoti munosabatlarini har tomonlama rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Buning uchun davlat o'z soliq siyosatida soliq stavkalarini kamaytirish orqali byudjet barqarorligini ta'minlash, "yuqori soliq stavkalari va soliqlarni to'lashdan ommaviy qochish", "past soliq stavkalari va soliqlarni ixtiyoriy to'lash" g'oyasini bosh vazifa qilib olishi kerak. Bu esa soliqlar orqali boshqarish usularini takomillashtirish bo'yicha qo'yidagilarni amalga oshirishni taqozo etadi, ya'ni:

- soliq bo'yicha imtiyozlarning samaradorlik darajasini oshirish uchun qo'yidagi tadbirlarni amalga oshirishni;
- moliyaviy sanktsiya hamda ma'muriy jarimalar tekshirish natijasida aniqlangan, byudjetga etkazilishi mumkin bo'lgan zarar miqdoriga nisbatan qat'iy belgilangan foizlarda undirib olinishi.

Shularni inobatga olgan holda soliq siyosatini iqtisodiytni rivojlantirishdagi ta'sirchanligini yanada oshirishga erishish mumkin bo'ladi. Respublikamizning mustaqillikka erishishi, o'zining mustaqil soliq tizimini shakllantirishni ham

taqazo etardi. Shundan kelib chiqib, mustaqillikning dastlabki yillaridan e'tiboran mustaqil soliq tizimini shakllantirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirila boshlandi va ushbu islohotlarning samarasi o'laroq hozirgi paytga kelib respublikamizda bir qadar o'ziga xos bo'lган soliq tizimi shakllantirildi. O'ziga xos bo'lган soliq tizimining shaklantirilishini soliq siyosatining samarasi sifatida e'tirof etish mumkin. Respublikamiz davlatchilik shaklidan kelib chiqib respublikamizda respublika byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan umum davlat soliqlari va mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishga qaratilgan mahalliy soliqlar va yig'imlar amal qiladi. Soliqlarning byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi bilan mustahkamlangan bo'lib, unga muvofiq respublikamiz soliq tizimida amal qiladigan har bir soliq turi u yoki bu byudjetga tushishi qat'iy belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq ayrim umum davlat soliqlari mahalliy byudjetlarga to'liqligicha biriktirilishi yoki ulardan tushumlar respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi mumkin. Ushbu tizim bir necha yillardan buyon mahalliy byudjetlar kamomadini bartaraf etish maqsadida amaliyotda samarali qo'llanilib kelinmoqda.

Shu o'rinda yuridik shaxslarni soliqqa tortishning muhim tartiblariga alohida to'xtalib o'tish zarur. Respublikamiz soliq qonunchiligidagi hozirgi vaqtida soliqqa tortishning umumbelgilangan tizimi bilan bir qatorda, amaldagi barcha soliqlar o'rniga birgina soliqni to'lashni ko'zda tutuvchi soliqqa tortishning alohida tartiblari ham mavjud. Bu tartib quyidagilar uchun ko'zda tutilgan:

- savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalar;
- soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimidan foydalanayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari;
- qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar;
- lotereyalar, totalizatorlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni o'tkazishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar;
- tadbirkorlik faoliyatining alohida turlari bilangina shug'ullanuvchi yuridik shaxslar (bilyardxonalar, qisqa muddatli avtomobil saqlash joylari, bolalar o'yin avtomatlari).

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibidagi o'ziga xoslikni mamlakatimiz soliq tizimining muhim xususiyati sifatida e'tirof etish lozim. Chunki respublikamiz soliq qonunchiligidagi muvofiq bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim bo'lган sohalar alohida tartib bo'yicha soliqqa tortilib kelinmoqda.

Shuningdek, mamlakatimiz soliq tizimining muhim xususiyatlari sifatida soliq to'lovchilarga nisbatan ko'zda tutilgan imtiyozlarni ham qayd etish mumkin. Jumladan eksport faoliyatini rag'batlantirishga, xorijiy investitsiyalar kirib kelishini rag'batlantirishga qaratilgan, aholining ijtimoiy shart-sharoitini hisobga olgan holdagi imtiyozlarni ularning ifodasi sifatida keltirib o'tish mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida ikki yo'nalish: korxona va tashkilotlarga nisbatan soliq siyosati va aholining turli ijtimoiy guruhlari uchun soliq siyosati kabi yo'nalishlarga bo'lib o'rganiladi.⁴⁴

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarda davlat soliq siyosatining asosiy yo'nalishi bozor munosabatlarini qaror toptirishga qaratilgan qator ilmiy asoslangan soliqlarni joriy etish va shu orqali mavjud soliq tizimini tubdan qaytdan tashkil etishdan iborat bo'ldi. Soliq siyosatining keyingi yo'nalishi esa joriy etilgan soliqlarni samarali amal qilishini ta'minlash maqsadida soliq munosabatlarini amalga oshiruvchi tegishli muassasalarning tashkil etishga qaratildi. Xususan, dastlab Vazirlar Mahkamasi qoshida Soliq bosh boshqarmasi tashkil etilgan bo'lsa, 1994 yilga kelib bu boshqarma Davlat Soliq Qo'mitasiga aylantirildi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Bundan ko'rindaniki, bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida soliq siyosatida asosan tashkiliy jihatlarga e'tibor qaratildi, ya'ni soliqlarni joriy etish va soliq siyosatini bevosita amalga oshiruvchi tegishli muassasalar shakllantirildi.

Bu davrdagi soliq siyosatining asosiy xususiyatlaridan biri soliqlarning ko'proq fiskal ahamiyat kasb etishida, ya'ni ko'proq e'tibor davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratildi.

Jahon soliq siyosati tajribasida soliqqa tortishning quyidagi yo'nalishlariga katta e'tibor beriladi:

1) har xil mulk shakllariga moslangan korxona va tashkilotlarning xo'jalik yuritishiga mumkin qadar iqtisodiy sharoit yaratish, ularni bozor munosabatlariga kirib borishiga har tomonlama yordamlashish;

2) ijtimoiy-zaruriy umumdavlat vazifalarini bajarish uchun davlatni kerak bo'lган moliyaviy manbalar bilan ta'minlash;

3) bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tashkil qilishda qatnashish, ishsizlarni ish bilan ta'minlash, iqtisodiy nochorlarga yordam berish;

4) aholi turmush darajasini zaruriy me'yorda saqlab turish imkonini izlash va ta'minlash, soliqqa tortilmaydigan daromad minimumini vaqtி-vaqtி bilan oshirib borish. Bunda «iste'mol savatchasi» ma'lumotlarini e'tiborga olish.⁴⁵

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining muhim yo'nalishlari sifatida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish, bilvosita soliqqa tortish samaradorligini ta'minlash, resurs soliqlariga ko'proq e'tibor qaratish, soliq tizimining soddaligiga erishish, davlat xarajatlarini optimallashtirish kabilarni qayd etish mumkin.

Respublikamizda soliq tizimini takomillashtirish jarayonida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan soliq yukini izchil kamaytirishga alohida e'tibor qaratish lozimligi ko'p bora ta'kidlanmoqda. Bunda birinchi navbatda ularning daromadlaridan undiriladigan bevosita soliqlarning salmog'ini kamaytirish lozimligi alohida ahamiyatga ega. Buning natijasida, korxonalar ixtiyorida qoladigan mablag'lar ulushining ko'payishi evaziga uning aylanma mablag'lari

⁴⁴ Yahyoev Q. «Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti». T. «G'afur G'ulom» 2000. y. 26 bet.

⁴⁵ Yahyoev Q. «Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti». T. «G'afur G'ulom» 2000. y. 25 bet.

miqdorini ko'paytirib borish va optimal darajasini saqlash, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadida ko'proq investitsiya kiritish, xodimlar mehnatini yanada rag'batlantirish imkonini beradi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortilishini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan soliq stavkalarini kamaytirish va aholi daromadlarini soliqqa tortishning uch bosqichli tizimidan ikki bosqichli tizimiga asta sekin o'tish kontseptsiyasini davom ettirish vazifasi turibdi.

Bevosita soliqlar bo'yicha soliq yukini izchil kamaytirish soliq siyosatining samaradorligini YaIM ga nisbatan ular tushumining barqaror kamayishi tendentsiyasi ham isbotlaydi. Soliq tizimini takomillashtirishda ustuvor ahamiyat bilvosita soliqqa tortishga qaratilgan. Bilvosita soliqlar tovarlarga nisbatan qo'shimcha bo'lgani holda, pirovard natijada ishlab chiqaruvchining moliyaviy holatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmaydi hamda ishlab chiqarishni rivojlantirishga to'sqinlik qilmaydi.

Resurs soliqlari yer, suv va boshqa tabiiy boyliklardan samarali foydalanishni ta'minlovchi amaliy vosita bo'lgani holda bozor iqtisodiyotida tabiiy resurslardan foydalanish va kelajak avlodlar uchun saqlash borasida muhim rol o'ynaydi.

Soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri soliq tizimini tartibga solish, soliq turlarini kamaytirish, hisob-kitob mexanizmini soddalashtirish va ular bo'yicha to'lov davriyilagini kamaytirish hisoblanadi.

Soliq siyosati choralarini ishlab chiqishda eng muhim vazifalardan biri davlat xarajatlarini o'z vaqtida va mo'ljallangan hajmda moliyanishi uchun soliq tushumlarining etarligi hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, soliq yukini kamaytirish borasidagi siyosatni byudjetning xarajatlar qismini optimallashtirish choralar bilan qo'shib olib borilishini taqozo etadi.⁴⁶

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda olib borilayotgan oqilona soliq siyosati natijasida ilgari faqat fiskal vazifalarni bajargan davlat soliq xizmati organlari bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan ko'p funktsiyali davlat boshqaruvi organiga aylantirildi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yaratilgan "Elektron hukumat" tizimi tarkibiga kiruvchi Davlat soliq qo'mitasining "My.soliq.uz" rasmiy sayti soliq ma'murchilagini takomillashtirishda aholining yanada faol qatnashishini va davlat soliq xizmati organlari faoliyatining shaffofligini ta'minlashda qulay sharoitlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Soliq va moliyaviy hisobotlarning to'liq elektron shaklda taqdim etilishiga o'tilganligi tadbirkorlarni 2-3 soat vaqt sarflab navbatda turishlarini oldini olish bilan bir qatorda ularning o'rtacha 9 mlrd.so'mdan ortiq mablag'lari iqtisod qilinmoqda va bu usul davlat byudjetiga to'lanadigan mablag'lar bo'yicha ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish imkonini berdi. Shuningdek, soliq to'lovchi yuridik shaxslar internetdagи "Shaxsiy kabinet"lari orqali soliq va boshqa majburiy to'lovlarni onlayn shaklda to'lash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi to'g'risida"gi PF-

⁴⁶ Jo'raev T. «Soliq siyosatini takomillashtirish yo'lida». «Toshkent haqiqati». 2003 yil 24 sentyabr.

5468-son Farmoniga asosan soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatçiliginin takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi.

Mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatçiliginin takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalaridan kelib chiqib, quyidagilar O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasining asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

■ iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

■ soliqlarni unifikatsiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdek, o'xhash soliq solish bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operatsion xarajatlarni minimallashtirish;

■ makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta'minlash;

■ soliq qonunchiliginin soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish;

■ soliq solish masalalarini tartibga soladigan havolaki normalar va qonun osti hujjatlarini maksimal darajada cheklagan holda, soliq qonunchiliginin barqarorligini hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishini ta'minlash, shu jumladan kodeksda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarining miqdorlarini belgilash;

■ xorijiy investorlar va investitsiyalar uchun qulay rejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash;

■ soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan soliq solish ob'ektlari hamda soliq to'lovchilarni yanada to'liq qamrab olish va hisobini ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarga soliq solish tartibini joriy etish.

O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi doirasida 2019 yil 1 yanvardan boshlab:

a) birinchidan, mehnatga haq to'lash fondiga soliq yuki quyidagilar orqali kamaytiriladi:

barcha fuqarolar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inинг yagona stavkasini 12 foiz miqdorida joriy etish, shundan 0,1 foizini shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga yo'naltirish. Bunda, ayrim toifadagi fuqarolarning eng kam oylik ish haqining 4 baravari miqdoridagi daromadlarini soliq solishdan ozod qilishning amaldagi tartibi saqlab qolinadi;

fuqarolarning mehnatga haq to'lash turidagi daromadlaridan Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga ushlab qolinadigan sug'urta badallarini bekor qilish;

pensiya tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida byudjet tashkilotlari va davlat korxonalari, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq miqdorda bo'lgan yuridik shaxslar, ustav jamg'armasi (kapitali)ning 50 foizi va undan ko'proq miqdori davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq bo'lgan yuridik shaxsga tegishli yuridik shaxslar hamda ularning tarkibiy tuzilmalari uchun yagona ijtimoiy to'lovni 25 foiz miqdorida belgilash, shuningdek, boshqa yuridik shaxslar uchun ushbu to'lov stavkasini 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirish;

b) ikkinchidan, oborot (tushum)dan soliqlarni optimallashtirgan holda umumbelgilangan va soddalashtirilgan soliqlar to'lovchilarni soliqqa tortish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga o'tish mezonlari quyidagilar orqali takomillashtiriladi:

davlat maqsadli jamg'armalariga yuridik shaxslarning oboroti (tushumi)dan undiriladigan majburiy ajratmalarni bekor qilish;

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasini 14 foizdan 12 foizgacha, tijorat banklari uchun — 22 foizdan 20 foizgacha pasaytirish, shuningdek, mobil aloqa xizmati ko'rsatayotgan yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) uchun rentabellik darajasidan kelib chiqib ular uchun qo'shimcha foyda solig'i hisoblash tartibini bekor qilgan holda 14 foizdan 20 foizgacha oshirish;

dividendlar va foizlar ko'rinishidagi daromadlar bo'yicha to'lov manbaidan ushlab qolinadigan foyda solig'i stavkasini 10 foizdan 5 foizgacha pasaytirish;

o'tgan yil yakunlari bo'yicha yillik oboroti (tushumi) 1 milliard so'mdan oshgan yoki yil davomida belgilangan chegaraviy miqdorga etgan korxonalarini umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tkazish. Bunda, yillik oborot (tushum)ning 1 milliard so'm etib belgilangan chegaraviy miqdori 3 yilda kamida bir marta qayta ko'rib chiqiladi;

barcha tadbirkorlik sub'ektlari, shu jumladan oboroti (tushumi) 1 milliard so'mgacha bo'lgan yuridik shaxslar uchun yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i, er solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etish;

qo'shimcha foyda solig'ini hisoblash va to'lash tartibini, shu jumladan roylati to'lashni joriy etish orqali takomillashtirish;

v) uchinchidan, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo'yicha soliq to'lovchilarga soliq siyosatini takomillashtirishning salbiy ta'sirini kamaytirish choralarini quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasini, bino va inshootlardan, shu jumladan ilgari xususiyashtirilgan ob'ektlardan samarasiz foydalanayotgan yuridik shaxslar uchun oshirilgan stavkada soliq hisoblash tartibini saqlab qolgan holda, 5 foizdan 2 foizga pasaytirish;

yillik oboroti (tushumi) 1 milliard so'mgacha bo'lgan soliq to'lovchilar uchun oborotdan (tushumdan) soliqni 4 foiz miqdordagi bazaviy stavkadan kelib chiqib hisoblash va to'lash tartibini hamda qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lash imkoniyatini belgilash;

yagona er solig'i to'lovchilar uchun soliq solish tartibini saqlab qolish.

g) to'rtinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'ini hisoblash va to'lash tartibi quyidagilar orqali takomillashtiriladi:

qo'shilgan qiymat solig'ini to'liq hisobga olish tizimini joriy etish, soliq solish bazasini aniqlashtirish va imtiyozlar sonini kamaytirish, shuningdek, 2019 yil yakuni bo'yicha mazkur soliq stavkasi miqdorini pasaytirish orqali qo'shilgan qiymat solig'ining 20 foiz miqdordagi amaldagi stavkasini saqlab qolish;

hozirgi vaqtida sotib olinadigan asosiy vositalar, qurilishi tugallanmagan ob'ektlar va nomoddiy aktivlar narxiga kiritiladigan qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish summalariga kiritish huquqini berish;

tegishli tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablag'larni respublika byudjetiga o'tkazgan holda, alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar uchun har bir ishlab chiqariladigan mahsulot birligiga o'rnatilgan aktsiz va yig'imlarni birlashtirish kabi ustuvor vazifalar belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi Davlat soliq qo'mitasi bilan bиргаликда 2019 yil 1 yanvarga qadar muddatda vazirlik va idoralarning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini hisoblash uchun foydalaniladigan ma'lumotlar bazalarining ishonchlilikini o'rgansin hamda ularning ishonchlilikini ta'minlash bo'yicha «Yo'l xaritasi»ni ishlab chiqsin.

O'zbekiston Respublikasi byudjetining balanslashgan ijrosini ta'minlash maqsadida:

- vazirliklar va idoralar, ishonchli boshqaruvchilar, shuningdek, davlatning ishonchli vakillari 2019 yildan boshlab ustav kapitalidagi davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik birlashmali tomonidan dividendlar so'zsiz hisoblanishini, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq davlat unitar korxonalari tomonidan ularning sof foydasidan 30 foiz miqdorida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga ajratilishini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasi Xususiyashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi 2018 yil 1 sentyabrga qadar muddatda davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlarining minimal stavkalarini har bir hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqish;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining to'liq yig'ilishini, ish bilan band fuqarolarning maksimal qonuniylashtirilishini va ish haqi fondini ko'paytirishni ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rish;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi bilan kelishilgan holda ikki oy muddatda mahalliy davlat hokimiyati, davlat soliq xizmati, moliya va boshqa organlarning, shuningdek, ular mansabdor shaxslarining aniq bosqichma-bosqich harakatlarini va qat'iy javobgarligini nazarda tutgan holda, soliq solish bazasini kengaytirish, byudjetga qo'shimcha tushum manbalarini aniqlash, shuningdek, uning mutanosibligini hamda defitsit yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlash bo'yicha tumanlar va shaharlar kesimida «Yo'l xaritalari»ni tasdiqlash kabi bir qator vazifalar belgilandi.

8-mavzu: Soliqqa oid huquqbazarlik tushunchasi, turlari va javobgarlik to'g'risidagi umumiylar qoidalar

Reja;

- 1. Soliqqa oid huquqbazarlik tushunchasi.**
- 2. Soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlikka tortishning umumiylar shartlari.**
- 3. Moliyaviy sanktsiyalar va ularni qo'llash tartibi.**
- 4. Soliqqa oid huquqbazarliklarning turlari hamda ularni sodir etganlik uchun javobgarlik.**

Tayanch so'z va iboralar: huquqbazarlik tushunchasi, huquqbazarlik turlari, javobgarlik, moliyaviy sanktsiya, jazo choralari, ma'muriy choralar, soliq majburiyatlar, iqtisodiy omillar, moliyaviy jarimalar.

1.Soliqqa oid huquqbazarlik tushunchasi.

Mamlakat iqtisodiy jihatdan rivojlangan sari, soliqqa tortish uslublari ham o'zgarib boradi, soliq ob'ektlarini aniqlash, soliq to'lovchilarni hisobga olish ishlari doimo nazorat sifatini rivojlanishi talab qilib keladi.

Soliq kodeksi bugungi kunda davlatimizda olib borilayotgan soliq islohotlarini asosi desak adashmagan bo'lamiz. Soliq kodeksini 106-moddasida soliqqa oid qonunbuzarlik tushunchasi yoritilgan bo'lib unga ko'ra, "Soliq to'lovchining ushbu Kodeksda javobgarlik belgilangan g'ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbazarlik deb e'tirof etiladi".

Biz yuqorida aytib o'tganimizdek soliq qonunlari buzilganligi uchun qonun asosida tegishli jarima va boshqa jazo choralari belgilangan.

Jarima va jazo choralari, soliq idoralari tomonidan qonunda belgilangan moddalarga binoan amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchilarning qilgan xato va kamchiliklarini nafaqat jazolash, balki soliq qonunlarini ular tomonidan buzilish sabablarini, qonunlarni ularga bo'lgan ta'sirlarini o'rghanish hamda shu orqali kelib chiqishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni ham tahlil qilish lozimdir.

Hech kim faqat soliq to'lash uchun ishlamaydi, bu haqiqat. Korxona va tashkilotlar avvalo ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchidir, so'ngra esa soliq to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar.

Davlat o'zining fiskal siyosatni amalga oshirishda asosiy bir qiyinchilik soliq to'lovchilar tomonidan turli xil yo'llar bilan soliq to'lashdan bo'yin tov lash holatlariga ro'baro bo'ladi.

Soliq to'lashdan bo'yin tov lash deyilganda keng ma'noda quyidagilar tushuniladi:

- ✓ olingan daromad va foydani yashirish,

- ✓ hisoblangan soliqlarni o'z vaqtida to'lamaslik yoki umuman to'lamaslik,
- ✓ imtiyozlardan noto'g'ri foydalanish,
- ✓ tegishli hisobotlarni o'z vaqtida to'ldirmaslik va umuman topshirmslik,
- ✓ boshqa qoidalardan va taqiqlangan metodlardan bevosita va bilvosita foydalanish kabilardir.

Soliq to'lashdan bo'yin tovplashning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka ta'siri juda ham salbiyki, uning natijasida quyidagilarni kelib chiqaradi.

- davlat byudjeti defitsiti paydo bo'ladi,
- davlat soliq stavkalarini ko'tara boshlaydi, davlat byudjetini to'ldirish maqsadida yangi soliq va to'lovlar o'ylab chiqiladi,
- inflyatsiya darajasi ko'tarila boshlaydi,
- davlatning ichki va tashqi qarzları orta boshlaydi,
- bozor iqtisodiyotining richaglari izdan chiqqa boshlaydi.

Yuqorida qayd qilingan sabablarni inobatga olib, soliq to'lovchilarning soliq to'lashdan bo'yin tovplash va uni keltirib chiqaradigan sabablarni soliq xizmati xodimlari doimiy ravishda o'rganishlari va bunday holatlarga olib kelmaslik uchun tegishli tashkiliy ishlar, chora va tadbirlarni ko'rib borishlari lozim.

Soliq to'lashdan bo'yin tovplash kabi munosabatlarning kelib chiqish sabablarini quyidagi faktorlar ta'sirida deyish mumkin.

Ma'naviy omillar – bu faktorlar soliq qonunlarining ijtimoiylik, doimiylik va dahlsizlik printsiplariga to'g'ri kelmasligi bo'lib, qonunlarning obro'sini va ta'sirini pasaytiradi.

Bundan tashqari soliq stavkalarining yuqori bo'lishi o'z navbatida soliq to'lovchilar tomonidan unga nisbatan ichki qarshilik hissini uyg'otadi va soliq to'lashdan bo'yin tovplash to'g'risidagi turli xil fikrlarga olib keladi. Masalan; foya solig'ining stavkasini yuqoriligi, korxonani foya olishga bo'lgan ishtiyoqini pasaytirib yuboradi yoki qandaydir yo'llar bilan soliqqa tortiladigan foya hajmini kamaytirishga harakat qiladi, yoki bo'lmasa, bizning qonunlarimizga asosan, soliqlarni realizatsiya qilingan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun emas, balki yuklab jo'natilgan va hali puli to'lanmagan paytdan boshlab hisobga olinishi.

Iqtisodiy omillar - bunda soliq to'lovchilar soliq to'lashdan bo'yin tovplash natijasida unga bo'ladigan ta'sirlarni o'rganadilar. Agarda, soliq stavkasi qanchalik yuqori va qo'llaniladigan jarima summalar qanchalik past bo'lsa, soliq to'lovchi uchun shunchalik soliq to'lashdan bo'yin tovplash natijasi samarali bo'ladi.

Albatta, bunday holatlarda soliq to'lovchilar soliq to'lamaslikka har qanday yo'llar bilan harakat qilishadi, chunki birinchi tomonidan joriy etilgan barcha turdag'i soliq va to'lovlarni to'lanishi soliq to'lovchining iqtisodiy holatiga katta ta'sir qilib, uni ahvolini og'irlashtirishiga olib kelishiga ta'sir qilsa, soliq to'lamaslik esa unga o'z iqtisodiy potentsialini saqlab qolish uchun yagona iqtisodiy yo'l bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ikkinci tomonidan moliyaviy jarimalarni iqtisodiy jihatdan kuchsiz bo'lgan sub'ektlarga qo'llanishi, nafaqat uni rivojlanishdan undan keyin umuman faoliyat ko'rsata- olmaslikka olib kelishi mumkin. Chunki barcha foydasini

qarzlarni to'lashga sarflamasa, unga hisoblanayotgan ustama foiz summalar ham tobora oshib boraveradi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, soliq to'lashdan bo'yin tovplashning barcha formalari, iqtisodiy o'sish sur'ati pasayayotgan, hamda tanazzulga uchrayotgan mamlakatlarda yuqori darajada bo'ladi. Chunki bunday sharoitlarda soliq to'lovchilarning moddiy sharoitining yomonlashuviga mamlakat miqiyosida mahsulot, tovar va xizmatlarga bo'lgan talablarning pasayishi ham katta ta'sir qiladi.

Albatta, to'lov qobiliyatining pasayishi natijasida tovar oborot hajmi qisqaradi hamda korxona o'ziga tegishli foydasini, davlat esa byudjetga tegishli soliqlarini ololmay qoladi. Natijada korxona o'z qobiliyatini saqlab qolish maqsadida soliq qonunchiligidagi ta'kidlangan turli yo'llarni izlashga tushadi. Masalan: soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarni to'la hisobga ololmaslik, xo'jalik operatsiyalariga taalluqli hujjatlarni barchasini tekshirishdan to'la o'tkaza olmaslik, tekshirishlarni sifatli o'tkazish darajasi, tekshiruvchilarning bilim darajasi, kooruptsiya va shunga o'xhash holatlarning mavjudligidir.

Ko'pgina mamlakatlarda, ayniqsa g'arbda, soliq to'lashdan bo'yin tovplash holatlarini xalq xo'jaligining tarmoqlari va faoliyat turlaridan kelib chiqib tadqiq etadilar. Afsuski, biz mamlakatimiz bo'yicha ana shunday ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatiga hozircha ega emasmiz. Bizda ham xech bo'limganda, kompleks tekshiruvlar yakunlari bo'yicha soliqlarni to'lashdan bo'yin tovplashga doir ma'lumotlarni o'rghanish va tahlil qilishning oshkora tizimi tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Qaysi tarmoqlarda va qanday soliq turlari bo'yicha bo'yin tovplashlar mavjudligini, ularning sabablari, soliq qonunlari yoki yo'riqnomaviy hujjatlarning zaif tomonlarini aniqlab borish, iqtisodiy rivojlanishni tahlil qilib borish nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi.

Jahon amaliyotida soliq to'lashdan bo'yin tovplash hamda soliqdan qochish degan tushuncha mavjud bo'lib, ularning amaliyotda qo'llanilishi turlichadir. Ularning bir-biridan farqi shundaki, soliq to'lashdan bo'yin tovplash deganda mamlakatning mavjud bo'lgan qonun-qoidalalariga amal qilmagan holda yoki unga zid ravishda ayrim paytlarda ochiqdan-ochiq bo'ysinmasdan faoliyat ko'rsatish natijasida olgan daromadlarni yashirish tushuniladi.

Soliqdan qochish yoki soliqlarni aylanib o'tish deganda esa, mavjud barcha qonun-qoidalarni to'la o'zlashtirgan holda, soliq to'lovchi uchun tegishli bo'lgan imtiyoz va vaqtinchalik engilliklardan foydalanib, o'zining davlat oldidagi majburiyatlarni eng minimum holatga keltirish tushuniladi.

Soliq to'lashdan bo'yin tovplashning turli formalarini yuqorida sanab o'tgan bo'lsak, soliqdan qochishning quyidagi formalari mavjud:

- soliq qonunlarining takomillashmaganidan yoki qonun, qaror, yo'riqnomalar ko'rsatmalarning ayrim tomonlarini bir-biriga zid kelishidan foydalanish;
- ma'lum muddatga soliq to'lashdan imtiyoz berilgan mamlakatlar bilan qo'shma korxonalar tuzish;
- soliq stavkalari past bo'lgan mamlakatlar bilan turli xil shartnoma va sxemalar orqali yoki mablag'larni aylantirish yoki jalb qilish;

- mamlakatlar o'rtasida ikki yoqlama soliq solish to'g'risidagi shartnomalarning yo'qligidan foydalanish;

- filiallar tashkil qilish va soliq solinmaydigan tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish kabilardir.

Umuman olganda soliq to'lashdan qonuniy yo'l bilan qochish yoki soliqlarni aylanib o'tish, bu soliq to'lovchilarning bilimdonligi, ijodkorligi va soliq maslahatgo'ylarining yuqori darajadagi prfessionalligidan dalolat beradi.

Bu to'g'rida 1935 yil Amerikalik suda J. Sanderland shunday degan edi "soliq to'lovchilarning huquqi qonun bilan ruxsat etilgan barcha yo'llar bilan soliqlarni kamaytirishdir, bunday faoliyatni hech kim taqiqlay olmaydi"⁴⁷.

Jazo, javobgarlikka tortish, jinoyat sodir etgan shaxsning qonunlarga rioya etmagan holatlarida qo'llaniladigan ma'muriy chorallardir.

U fuqarolarni qonnunni hurmat qilish ruhida tarbiya qilish, shuningdek, ana shu huquqbuzarning o'zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbazarlik sodir etilishini oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Ularning bir turi ma'muriy va moliyaviy jarimalardir.

Shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmaguniga qadar u soliqqa oid huquqbazarlikni sodir etishda aybdor hisoblanmaydi. Javobgarlikka tortilayotgan shaxs o'zining soliqqa oid huquqbazarlik sodir etganlikda aybsiz ekanligini isbotlashi shart emas.

2.Soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlikka tortishning umumiy shartlari.

Soliqqa oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikni turlariga to'xtaladigan bulsak, bugungi kunda amaldagi qonunchiligidan asosan uch xil javobgarlik belgilangan. Bunda, moliyaviy, ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilangan. Ushbu huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikni turlarini xar birinii tahlil qilib chiqsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Dastlab, moliyaviy javobgarlik haqida to'xtalib o'tamiz. Bunda biz bevosita Soliq kodeksiga e'tibor qaratamiz. Unga binoan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 17-bobi "Soliqqa oid huquqbazarliklarning turlari hamda ularni sodir etganlik uchun javobgarlik" deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda qisqa bo'lsada aniq qilib soliqqa oid qonunbazarliklarni turlari va ular uchun javobgarlik masalalari ko'rsatilgan. Bugungi kunda davlat soliq inspeksiysi xodimlari ushbu bob asosida va boshqa qonun osti hujjatlari asosida jarimalarni qo'llab kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 17-bobida quyidagi soliqqa oid huquqbazarlik turlari ko'rsatilgan:

1. Davlat soliq xizmati organida hisobga turishdan bo'yin tovlassh;
2. Kirim qilinmagan tovarlarni saqlash yoxud tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish);
3. Soliq hisobotini taqdim etish tartibini buzish;
4. Buxgalteriya hisobini yuritish tartibini buzish;

⁴⁷A.S. Jo'raev, A.N. Artiqov. "Soliq huquqi asaslari" O'quv qo'llanma, T.: Toshkent moliya instituti, 2012. 34 b.

5. Faoliyat turlari bilan litsenziyasiz vaboshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanish;

6. Hisobvaraq-fakturalarni rasmiylashtirishtartibini buzish;

7. Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalaridanva to'lovlarni plastik kartochkalar asosida qabul qilishbo'yicha hisob-kitob terminallaridan foydalanish tartibini buzish;

8. Soliqlar va boshqa majburiyto'lovlarni to'lash muddatlarini buzish;

9. Yer uchastkalaridan ularga bo'lganhuquqni tasdiqlovchi hujjatlarsiz foydalanish.

Yuqorida ko'rsatilgan ayrim huquqbazarlik holatlari bo'yicha maxsus yo'riqnomalar ham ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur huquqbazarliklar agarda sodir etilsa, ushbu moddalar va kerakli yo'riqnomalar bilan tartibga solinadi.

Bugungi kunda amaliyotda eng ko'p uchrayotgan soliqqa oid huquqbazarliklar bu kirim qilinmagan tovarlarni saqlash yoxud tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish) va Soliq kodeksining 119-moddasida ko'rsatilgan fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalaridan va to'lovlarni plastik kartochkalar asosida qabul qilish bo'yicha hisob-kitob terminallaridan foydalanish tartibini buzishdir.

"Kirim qilinmagan tovarlarni saqlash deganda buxgalteriya hujjatlarida aks ettirilmasdan saqlanayotgan, realizatsiya qilishga chiqarilgan va realizatsiya qilingan tovarlar tushuniladi"⁴⁸.

Shunigdek, Soliq kodeksining 22-moddasiga ko'ra, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum bu realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan (olinishi lozim bo'lган) mablag'lar summasi, shu jumladan realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to'lash yoki qarzni uzish hisobiga tushadigan mol-mulk qiymati. Mazkur tushumlarni yashirish esa realizatsiyadan tushgan tushumni kamaytirib ko'rsatish yoki uni qayd etmaslik tushuniladi.

Kirim qilinmagan tovarlarni saqlash, bundan ularning qonuniy kelib chiqishi tasdiqlangan hollar mustasno, kirim qilinmagan tovar qiymati miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumning yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) summasiga qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash amalga oshiriladi.

Ushbu moddani qo'llash maqsadida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish) deb quyidagilar e'tirof etiladi:

➤ tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligi fakti hujjat bilan tasdiqlanganda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum summasining hisobga olish registrlarida aks ettirilmaganligi;

➤ tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligi fakti to'g'risida dalolat beruvchi hujjatlar almashtirilganligi, soxtalashtirilganligi yoki yo'q qilinganligi;

⁴⁸Oliy Xo'jalik Sudi Plenumining 2010 yil 18 iyundagi "Xo'jalik sndlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi Umumiy qismini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 210-sodn Qarori 38.1 bandi 1 qismi

➤ hisobda realizatsiya qilinmagan deb ko'rsatilgan tovarlarning omborda yoki realizatsiya qilish joyida mavjud emasligi⁴⁹.

Shuningdek, e'tirof etish lozimki, Soliq kodeksining 114, 119-moddalarida nazarda tutilgan soliqqa oid qonunbuzilish moliyaviy jarima sanaladi va moliyaviy jarimalar xo'jalik sudlari tomonidangina qo'llaniladi. Ushbu vaziyatni huquqiy tartibga solish maqsadida Oliy Xo'jalik Sudi Plenumining 2010 yil 18 iyundagi "Xo'jalik sudlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining Umumiy qismini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 210-son Qarori qabul qilingan bo'lib, Plenum Qarorining 38-bandiga ko'ra, Soliq kodeksi 114-moddasining birinchi qismiga muvofiq, kirim qilinmagan tovarlarni saqlash, bundan ularning qonuniy kelib chiqishi tasdiqlangan hollar mustasno, kirim qilinmagan tovar qiymati miqdorida, ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish) - tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) summasining 20 foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Shuningdek, Plenum qarorini 38.1 bandiga ko'ra, chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun daromadlar va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan yakka tartibdagi tadbirkorning daromadlar va tovar operatsiyalarini hisobga olish daftari va tovar cheklari daftarchasi hisoblanadi. Daromadlar va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkor ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

Kirim qilinmagan tovarlarning qiymati yuzasidan nizo vujudga kelgan holda, u manfaatdor tarafning iltimosnomasi bo'yicha xo'jalik sudi tomonidan tayinlangan mutaxassis (ekspert)ning xulosasiga asosan belgilanadi.

Soliq kodeksi 114-moddasining to'rtinchi qismiga muvofiq, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish) deb quyidagilar e'tirof etiladi:

- ✓ tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligi fakti hujjat bilan tasdiqlanganda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum summasining hisobga olish registrlarida aks ettirilmaganligi;
- ✓ tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligi fakti to'g'risida dalolat beruvchi hujjatlarning almashtirilganligi, soxtalashtirilganligi yoki yo'q qilinganligi;
- ✓ hisobda realizatsiya qilinmagan deb ko'rsatilgan tovarlarning omborda yoki realizatsiya qilish joyida mavjud emasligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 9 avgustdag'i "Byudjet bilan hisob-kitoblar uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-1504-sonli Prezident Farmoni 3-bandining beshinchи xatboshisiga muvofiq barcha chakana savdo korxonalari, shuningdek

⁴⁹O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y.,

aholiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining tushgan naqd pul mablag'larini har kuni bank muassasalariga topshirmasligi ham tushumni yashirish deb baholanadi.

Oliy Xo'jalik Sudini 210-sonli Plenum Qarorini 38.2-bandiga ko'ra ushbu ro'yxat tugal hisoblanadi va kengaytirilgan tarzda talqin qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Soliq kodeksi 114-moddasining uchinchi qismiga muvofiq tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumning yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) summasiga qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash amalga oshiriladi.

Mazkur holatda moliyaviy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari tahliliga tayangan holda soliqqa oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlik haqida qisqacha to'xtalamiz.

Ma'muriy javobgarlik – yuridik javobgarlik turi bo'lib, vakil qilingan organ yoki mansabdar shaxsning qonunbuzarlik qilgan shaxsga nisbatan ma'muriy jazo chorasi qo'llashda ifodalanadi.

Soliq munosabatlari sohasida qo'llaniladigan davlat majburlovchi quyidagi o'ziga xos hususiyatlarga ega bo'ladi:

- Ular huquqiy shaxslarga ham, jismoniy shaxslarga ham birdek qo'llaniladi;
- Soliq sohasida qonunchilikni ta'minlash, soliqlarni to'lash qoidalariga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi;
- Moliyaviy choralari jazo choralari, ma'muriy majburlov va jinoiy jazo choralarini soliqqa majburlash chorasi sifatida qo'llaniladigan mexanizmlarni tegishlicha moliya huquqi, ma'muriy huquqi va jinoiy qonunchilik huquqiy qonunchilik sohalarida nazarda tutiladi;
- Qoida tariqasida soliqqa oid majburlov choralarining maxsus organlar va ularning mansabdar shaxslari tomonidan sudsiz tartibda qo'llaniladi;
- Soliq sohasidagi majburlov choralar tizimi ahamiyati, ta'sir kuchi va miqiyoslari bo'yicha turli-tuman jazolarni nazarda tutadi;
- Soliq sohasidagi davlat majburloving asosiy maqsadi soliq qonunlariga qat'iy amal qilganlikni, soliqlarni o'z vaqtida va to'liq davlat byudjetiga kelib tushishini ta'minlashdan iborat bo'ladi;
- Soliq sohasidagi majburlov choralari qo'llash tartibi moliyaviy qonun hujjatlarda ma'muriy protsessual normalarda belgilab qo'yiladi, ya'ni ma'muriy huquq ramkasida qo'llaniladi;
- Soliq sohasidagi majburlov choralari soddalashtirilan tartibda (huquqbazarlik aniqlanadi – qayd etiladi, bayonoma yoki dalolatnoma vositasida – jazo qo'llaniladi) tadbiq etiladi;
- Soliqlar bilan bog'liq davlat zo'rligi ishlatalishi chog'ida ta'sirchan prokuror nazoratini amalga oshirishi, soliq organlari va ularning mansabdar shaxslari xatti-harakatlar ustidan sudga shikoyat qilish huquqini ta'minlash orqali

va boshqa vositalar bilan qonunchilik rejimi ta'minlanishi, soliq to'lovchilarning huquq va qonuniy manfatlarini himoya etilishi lozim⁵⁰.

Ma'muriy huquqiy javobgarlik soliq qonunlarini buzganlik uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda belgilangan miqdorda moliyaviy-huquqiy jazo choralarini ko'rish yo'lli bilan qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining "Savdo, tadbirkorlik va moliya sohalaridagi huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlik" deb nomlangan 13-bobida soliq huquqbazarliklarini sodir etganlik uchun javobgarlik turlari belgilangan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish;
2. Faoliyat bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanish;
3. Sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalarini yoxud tibbiy buyumlarni o'tkazish maqsadida ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki o'tkazish;
4. Mollarni ularning sifatini va ishlab chiqarish markasini tasdiqlaydigan hujjatlarsiz sotish;
5. Bozorlarda savdo qilish qoidalarini buzish;
6. Tarkibida kimyoviy moddalarning qoldig'i yo'l qo'yiladigan darajadan ortiq bo'lган qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish;
7. Valyuta boyliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish;
8. Valyuta va eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish tartibini buzish;
9. Yonilg'i-moylash materiallarini qabul qilish, hisobga olish, saqlash, berish, olish qoidalarini buzish;
10. Standart talablariga yoki texnik shartlarga javob bermaydigan yonilg'i-moylash materiallarini realizatsiya qilish;
11. Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tov lash;
12. Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish;
13. Soliq solinadigan ob'ektlarning hisobini olib bormaslik yoki kassa operatsiyalarini yuritish tartibini, shuningdek to'lov intizomini buzish;
14. Buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish tartibini buzish;
15. Byudjet intizomini buzish;
16. Soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlarini qo'llanish tartibini buzish;
17. Soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlarini qo'llanish tartibini buzish;
18. Soliq to'lovchilarning majburiyatları yuzaga kelganligi to'g'risida axborot taqdim etish tartibini buzish;
19. Tadbirkorlik sub'ektlaridan qonun hujjatlarini buzgan holda hujjatlar talab qilib olish va boshqalar.

⁵⁰ A.S. Jo'raev, A.N. Artiqov. "Soliq qonunchiligi asoslari". Ma'ruza matni. Toshkent moliya instituti, T.: 2015 y. 87 b.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 175-moddasida "Soliqlar va boshqa to'lovlar to'lashdan bo'yin tovplash" deb ataladigan ikki qismdan iborat. 1-qismda soliq solinadigan foydani (daromadni) yoki boshqa ob'ektlarni qasddan yashirganlik (kamaytirib ko'rsatganlik) yohud soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lashdan qasddan bo'yin tovlaganlik uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan.

Ko'rib chiqilayotgan huquqbuzarlikning yuridik tarkibini tahlil qilishga o'tishdan oldin shuni aytish kerakki, soliq to'g'risidagi qonunlar muttasil rivojlanib bormoqda. Vaqt-i vaqt bilan Soliq solinadigan ob'ektlarning ro'yxati o'zgartirilmoqda va tuldirlilmoqda, soliq stavkalari o'zgartirilmoqda. soliqlar tizimining o'zi ham o'zgarmoqda - ba'zilari joriy etilmoqda, boshqalari bekor qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 1994 yil 30 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmoni bunga misoldir. Shu munosabat bilan davlat soliq organlarining mansabdon shaxslari mazkur o'zgartish va qo'shimchalarni doimo diqqat markazlarida tutishlari, soliq to'g'risidagi qonunlarni buzish hollarini baholashga doir aniq masalalarni hal qilishda ularni hisobga olishlari kerak. Soliq solishdan ozod qilishniig amaldaga tartibini, soliqlar sohasidagi imtiyozlar ro'yxatini bilish ham muhimdir.

Xolis qaralganida 174-moddaning 1-qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik soliq va boshqa majburiy to'lovlar tarzida belgilangan summalarini byudjetga o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan rasmiy hujjalarda soliq solinadigan ob'ektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirmaslik yoki to'la aks ettirmaslikda namoyon bo'ladi.

Ko'rib chiqilayotgan holatda daromadlar deganda, masalan, xususiy mulk asosida faoliyat olib boradigan tadbirkorlarning daromadi, mol-mulkni ijaraga berishdan keladigan tushumlar, ko'rilgan ziyonni to'lash tarzida olingan summalar, korxonaga qarashli aktsiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha dividendlar va h.k- tushuniladi. Boshqa to'lovlar deganda turli yig'imlar, shu jumladan, ro'yxatga olish haqi, bojlar, pul-buyum lotereyalari o'tkazishdan kelgan daromadlar va shu kabi soliqqa tortilmaydigan daromadlar tushuniladi.

Soliq solishdan yashiriladigan summaning miqdori (bu tushunchaga yig'imlar, bojlar to'lash, boshqa to'lovlarni to'lash ham kiritiladi) alohida ahamiyatga ega, chunki agar bu summa eng kam ish haqining o'n baravaridan oshmasa, ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

MJK 174-moddasining 1-qismi bo'yicha huquqbuzarlik sub'ektlari fuqarolar ham, korxona, muassasa va tashkilotlarning mansabdon shaxslari ham bo'lishi mumkin. Mansabdon shaxslar deganda soliq solish sohasida belgilangan qoidalarga rioya etish vazifasi zimmasiga yuklatilgan rahbarlar, bosh (katga) buxgalterlarni anglamoq kerak. Bunda mulkning shakli, xo'jalik yurituvchi sub'ektning kimga buysunishi huquqbuzarlikni baholash uchun ahamiyatga ega emas. Shuni ham nazarda tutish kerakki, buxgalteriya xizmatiga ega bo'lмаган korxona, muassasa, tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va hisobot ishlarini ixtisoslashgan tashkilot yoki tegishli mutaxassis shartnomasi asosida olib borishi mumkin.

Ushbu moddani qo'llash paytida ma'muriy javobgarlikka ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtida o'n olti "yoshga to'lgan aqli raso shaxslar tortilishi haqidagi umumiy qoidani hisobga olish kerak (MJK. 14, 20-moddalar), O'zbekiston Respublikasi hududidagi ajnabiy fuqarolar (immunitetga ega bo'lганларидан ташқари) va fuqaroligi bo'lмаган shaxslar umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortilishlari lozim (MJK 17-moddasi). Shunday qilib, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bulmagan shaxslar MJK 174-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik sub'ekti bo'lishlari mumkin. Uni sodir etish fuqarolarga eng kam ish xaqining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - besh baravaridan etti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi⁵¹.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 175-moddasida soliq solinadigan ob'ektlarning hisobini olib bormaslik yoki kassa operatsiyalarini yuritish tartibini, shuningdek to'lov intizomini buzish, soliq hisobotini o'z vaqtida taqdim etmaganlik yoki kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar asoslarini yoxud aniqlashtirilgan soliq hisobotini belgilangan muddatda taqdim etmaganlik uchun javobgarlik masalasi ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra, foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa ob'ektlarning hisobini olib bormaslik yoxud bunday hisobni belgilangan tartibni buzgan holda olib borish, basharti bu harakatlar to'lanishi lozim bo'lgan soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarning summasini kamaytirishga olib kelsa, shuningdek byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga soliqlarni, boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash uchun zarur bo'lgan soliq hisobotlarini, hisob-kitoblarini hamda boshqa hujjatlarni taqdim etmaslik, o'z vaqtida taqdim etmaslik yoki belgilanmagan shaklda taqdim etish, huddi shuningdek kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar asoslarini yoxud aniqlashtirilgan soliq hisobotini belgilangan muddatda taqdim etmaslik, eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi(yangi tahrir) 2016 yil 13 aprel, O'RQ-404-son qonunning 1-moddasida buxgalteriya hisobining maqsadi belgilangan bo'lib, mazkur moddada qayd etilishicha "Buxgalteriya hisobining maqsadi buxgalteriya hisobini tashkil etish va hisobotni tuzish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir deb belgilangan.

"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi (yangi tahrirda)gi Qonunning 4-moddasiga binoan, buxgalteriya hisobi barch xo'jalik operatsiyalarini yaxlit, uzliksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo'li bilan bugalteriya axborotini yig'ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iboratdir.

Buxgalteriya hisobi xo'jalik operatsiyasini buxgalteriya hisobining kamida ikkita schyotida bir vaqtida va o'zaro bog'liq holda pulda baholab aks ettirish yo'li bilan ikkiyoqlama yozuv usulida yuritiladi.

Buxgalteriya hisobining vazifalari:

⁵¹ A.S. Jo'raev, A.N. Artiqov. "Soliq huquqi asaslari" O'quv qo'llanma, T.: Toshkent moliya instituti, 2012. 109-110 b.

➤ buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlar va majburiyatlarning holati to'g'risidagi to'liq hamda aniq ma'lumotlarni shakllantirish;

➤ samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish;

➤ moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni tuzishdan iboratdir”.

Demak buxgalteriya xisobi qoidalariga amal qilmaslik natijasida soliqqa oid huquqbuzilishlari vujudga kelishi mumkin va mazkur turdag'i huquqbuzilishlar tasnifi Soliq kodeksida ham ko'rsatilgan.

Buxgalteriya hisobining mavjud emasligi yoki uni belgilangan tartibni buzgan holda yuritganlik hisoblanishi lozim bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini aniqlab bo'lmasligiga olib kelsa, soliq to'lovchi - yuridik shaxsning mansabdor shaxsi ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganligi soliq to'lovchi - yuridik shaxsni buxgalteriya hisobini tiklash majburiyatidan ozod qilmaydi⁵².

Mazkur soliqqa oid huqubzavarlikka nisbatan ma'muriy javobgarlik to'g'risida kodeksi 175¹-moddada ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra, buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish tartibini buzish, -

mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Huddi shunday huqubzavarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, -

mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima sabab bo'ladi.

Jinoiy huquqiy javobgarlik soliq qonunlarini buzganlik uchun jinoyat kodeksda belgilangan miqdorda jazo choralarini ko'rish yo'li bilan qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida soliq qonunchilagini buzish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar quyidagilardan iborat:

- Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarini to'lashdan bo'yin tov lash;
- Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish jinoyatlaridan iboratdir.

Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarini to'lashdan bo'yin tov lash deganda - foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa ob'ektlarni qasddan yashirishni, kamaytirib ko'rsatishni, shuningdek davlat tomonidan belgilangan soliqlarni yoki boshqa majburiy to'lovlarini to'lashdan qasddan bo'yin tov lashni ancha miqdorda sodir etish, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin ro'y bergen bo'lsa, — eng kam oylik ish haqining bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Ammo, so'ngi yillarda amaldagi qonunchiligmiza kiritilgan o'zgartirishlar sababli soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarini to'lashdan bo'yin tov lash jinoyatni birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u soliq tekshirushi materiallarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha davlat soliq xizmati organining qarorini olgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida soliqlar va boshqa majburiy

⁵²O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y.,

to'lovlar, shu jumladan penyalar va boshqa moliyaviy sanktsiyalar tarzida davlatga etkazilgan zararning o'rnnini to'liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinishi haqidagi norma joriy qilindi.

Hech kim soliqqa oid huquqbazarlik uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilganidan boshqa asoslar bo'yicha va tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Hech kim soliqqa oid sodir etilgan aynan bitta huquqbazarlik uchun takroran javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Agar jismoniy shaxs sodir etgan soliqqa oid huquqbazarlikda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat alomatlari bo'lmasa, bu huquqbazarlik uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan javobgarlik kelib chiqadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan sodir etilgan soliqqa oid huquqbazarlik uchun moliyaviy sanktsiyalar yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan tartibda qo'llaniladi.

Yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlikka tortilishi tegishli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, uning mansabdor shaxslarini ma'muriy, jinoiy va boshqa javobgarlikdan ozod etmaydi.

Soliq to'lovchining soliqqa oid huquqbazarliklar uchun javobgarlikka tortilishi uni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatidan ozod etmaydi.

Shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmaguniga qadar u soliqqa oid huquqbazarlikni sodir etishda aybdor hisoblanmaydi. Javobgarlikka tortilayotgan shaxs o'zining soliqqa oid huquqbazarlik sodir etganlikda aybsiz ekanligini isbotlashi shart emas.

Soliq to'lovchi tomonidan soliqqa oid bir necha huquqbazarlik sodir etilgan taqdirda, jarima tarzidagi moliyaviy sanktsiyalar uncha og'ir bo'lmanган moliyaviy sanktsiyani og'irroq jarima bilan qamrab olish yoxud tayinlangan jarimalarni to'liq yoki qisman qo'shish orqali soliqqa oid huquqbazarliklar majmui bo'yicha qo'llaniladi. Bunda jarimaning uzil-kesil miqdori jarimaning yuqori miqdori nazarda tutilgan huquqbazarlik uchun belgilangan eng ko'p miqdordan oshishi mumkin emas.

Agar soliq to'lovchi birinchi ish bo'yicha qaror chiqarilguniga qadar soliqqa oid yana boshqa huquqbazarliklar sodir etganligi ish bo'yicha qaror chiqarilganidan so'ng aniqlansa, jarima qo'llaniladi. Bu holda, sud tomonidan soliqqa oid huquqbazarliklar majmui bo'yicha tayinlangan jarima miqdorida birinchi qaror bo'yicha to'langan jarimaning summasi hisobga olinadi.

Agar soliqqa oid huquqbazarlik uchun moliyaviy sanktsiyalar qo'llanilgan shaxs moliyaviy sanktsiyalar qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil ichida xuddi shunday huquqbazarlikni takroran sodir etmagan bo'lsa, u moliyaviy sanktsiyalarga tortilmagan hisoblanadi.

Shaxs soliqqa oid huquqbazarlik uchun quyidagi holatlardan loaqlal bittasi mavjud bo'lgan taqdirda javobgarlikka tortilishi mumkin emas:

soliqqa oid huquqbazarlik sodir etganligi faktining yo'qligi;

soliqqa oid huquqbazarlik sodir etilishida shaxsning aybi yo'qligi.

Soliq Kodeksida nazarda tutilgan boshqa holatlar ham mavjud bo'lgan taqdirda, shaxs soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Soliq to'lovchi soliq tekshiruvi o'tkazilguniga qadar xatoni o'zi tuzatgan taqdirda javobgarlikdan ozod etiladi, penya to'lash bundan mustasno.

Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish chog'ida birinchi marta huquqbazarlik sodir etgan tadbirkorlik sub'ekti qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklarni ixtiyoriy ravishda bartaraf etgan va etkazilgan moddiy zararning o'rnini qoplagan, shu jumladan soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni to'lagan taqdirda, unga nisbatan jarimalar hamda moliyaviy sanktsiyalar (penyadan tashqari) qo'llanilishi mumkin emas.

Shaxsning soliqqa oid huquqbazarlik sodir etganlikdagi aybini istisno qiladigan holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

soliqqa oid huquqbazarlik belgilari bo'lgan qilmishning tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo'lmaydigan holatlar oqibatida sodir etilganligi (mazkur holatlar hammaga ma'lum faktlarning mavjudligi, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan ma'lumotlar va isbotlash uchun maxsus vositalar talab etilmaydigan boshqa usullar bilan belgilanadi);

soliqqa oid huquqbazarlik alomatlari bo'lgan qilmish bunday qilmish sodir etilgan paytda kasallik oqibatida o'z harakatlarini o'zi idora etolmaydigan yoki boshqara olmaydigan holatda bo'lgan (mazkur holatlar mazmuni, mohiyati va sanasi bo'yicha soliqqa oid huquqbazarlik sodir etilgan o'sha soliq davriga taalluqli bo'lgan hujjatlarni taqdim etish orqali isbotlanadi) jismoniy shaxs — soliq to'lovchi tomonidan sodir etilganda;

vakolatli organlar yoki ular mansabdor shaxslarining soliqqa oid qonun hujjatlarining qo'llanilishi masalalari bo'yicha o'z vakolatlari doirasida bergen yozma tushuntirishlari soliq to'lovchi tomonidan bajarilganda (mazkur holatlar ushbu organlarning tegishli hujjatlari mavjud bo'lgan taqdirda belgilanadi, ushbu hujjatlar ma'nosi va mazmuniga ko'ra, hujjatlar qabul qilingan sanadan qat'i nazar, soliqqa oid huquqbazarlik yuz bergen soliq davriga taalluqli bo'lishi lozim).

Shaxsni soliqqa oid huquqbazarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishni istisno qiladigan holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

huquqbazarlik sodir etish vaqtida o'n olti yoshga to'lmagan jismoniy shaxs tomonidan soliqqa oid huquqbazarlik sodir etilganda;

soliq majburiyatlari bo'yicha da'vo muddatlari tugaganda.

Soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlikni engillashtiruvchi holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

og'ir shaxsiy yoki oilaviy sharoitlar kechishi oqibatida huquqbazarlik sodir etish;

tahdid yoki majburlash ta'sirida yoxud moddiy, xizmat yoki boshqa jihatdan qaramlik sababli huquqbazarlik sodir etish;

sud tomonidan javobgarlikni engillashtiruvchi deb topilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar.

Soliqqa oid huquqbazarlikning ilgari xuddi shunday huquqbazarlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilganligi javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat deb e'tirof etiladi.

3.Moliyaviy sanktsiyalar va ularni qo'llash tartibi.

Soliq to'lovchi soliqqa oid bir necha huquqbazarliklar sodir etgan taqdirda, moliyaviy sanktsiyalar har bir huquqbazarlikka nisbatan alohida-alohida qo'llaniladi.

Agar soliqqa oid huquqbazarlik uchun moliyaviy sanktsiyalar qo'llanilgan shaxs moliyaviy sanktsiyalar qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil ichida huddi shunday huquqbazarlikni takroran sodir etmagan bo'lsa, u moliyaviy sanktsiyalarga tortilmagan hisoblanadi⁵³.

Soliq solish tizimini liberallashtirish maqsadida Soliq kodeksining 109-modda soliqqa oid huquqbazarlikuchun javobgarlikdan ozod qilish holatlari ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra "Shaxs soliqqa oid huquqbazarlik uchun quyidagi holatlardan loaqlal bittasi mavjud bo'lgan taqdirda javobgarlikka tortilishi mumkin emas:

- 1) soliqqa oid huquqbazarlik sodir etganligi faktining yo'qligi;
- 2) soliqqa oid huquqbazarlik sodir etilishida shaxsning aybi yo'qligi.

3) Soliq Kodeksida nazarda tutilgan boshqa holatlar ham mavjud bo'lgan taqdirda, shaxs soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Soliq to'lovchi soliq tekshiruvi o'tkazilguniga qadar xatoni o'zi tuzatgan taqdirda javobgarlikdan ozod etiladi, penya to'lash bundan mustasno.

Shuningdek, Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash tariqasidagi jinoyat tegishli soliq davri uchun soliq qonunchiligidagi belgilangan muddatlarda soliq to'lanmasligi holati kelib chiqqan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi (agar bunda soliqlarning ortiqcha to'langan summalarini hisobga olish imkoniyati (Soliq Kodeksining 56-moddasi) yoki soliqqa oid huquqbazarlik uchun shaxsning javobgarligini istisno etuvchi holatlar (Soliq Kodeksining 109, 110-moddalari) mavjud bo'lmasa.

Soliq kodeksi 162-moddasiga ko'ra soliq davri kalendar yiliga mos keladi⁵⁴.

Ushbu gaplarimizni mantiqiy davomi sifatida ta'kidlash mumkinki, Soliq kodeksining 110-moddasida shaxsning soliqqa oid huquqbazarlik sodir etganlikdagi aybini va uni javobgarlikka tortishni istisno qiladigan holatlar mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra shaxsning soliqqa oid huquqbazarlik sodir etganlikdagi aybini istisno qiladigan holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

soliqqa oid huquqbazarlik belgilari bo'lgan qilmishning tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo'lmaydigan holatlar oqibatida sodir etilganligi (mazkur holatlar hammaga ma'lum faktlarning mavjudligi, ommaviy

⁵³O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2017 y.,

⁵⁴Oliy Sudi Plenumining 2013 yil 31 maydagi "Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi 8-son Qarori 9-bandi

axborot vositalarida e'lon qilingan ma'lumotlar va isbotlash uchun maxsus vositalar talab etilmaydigan boshqa usullar bilan belgilanadi);

soliqqa oid huquqbazarlik alomatlari bo'lgan qilmish bunday qilmish sodir etilgan paytda kasallik oqibatida o'z harakatlarini o'zi idora etolmaydigan yoki boshqara olmaydigan holatda bo'lgan (mazkur holatlar mazmuni, mohiyati va sanasi bo'yicha soliqqa oid huquqbazarlik sodir etilgan o'sha soliq davriga taalluqli bo'lgan hujjatlarni taqdim etish orqali isbotlanadi) jismoniy shaxs - soliq to'lovchi tomonidan sodir etilganda;

vakolatlari organlar yoki ular mansabdor shaxslarining soliqqa oid qonun hujjatlarining qo'llanilishi masalalari bo'yicha o'z vakolatlari doirasida bergan yozma tushuntirishlari soliq to'lovchi tomonidan bajarilganda (mazkur holatlar ushbu organlarning tegishli hujjatlari mavjud bo'lgan taqdirda belgilanadi, ushbu hujjatlar ma'nosi va mazmuniga ko'ra, hujjatlar qabul qilingan sanadan qat'iy nazar, soliqqa oid huquqbazarlik yuz bergan soliq davriga taalluqli bo'lishi lozim). Shuningdek, Soliq kodeksining 110-moddasi ikkinchi qismida javobgarlikni istisno etadigan holatlar ko'rsatilgan bo'lib, shaxsni soliqqa oid huquqbazarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishni istisno qiladigan holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

huquqbazarlik sodir etish vaqtida o'n olti yoshga to'limgan jismoniy shaxs tomonidan soliqqa oid huquqbazarlik sodir etilganda;

soliq majburiyatlari bo'yicha da'vo muddatlarini tugaganda.

Mazkur moddada ko'rsatilgan "o'n olti yosh" so'zini "muomala layoqatiga ega bo'limgan" degan so'zlar bilan o'zgartirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlik masalalari O'zbekiston qonunchiligidagi yaxshi tartibga solinganligi barchamizga ma'lum albatta, lekin javobgarlikni og'irlashtirish va engillashtirish masalasi etarli darajada mustaxkamlanganmi? degan savol bo'lishi tabiy xol albatta.

Soliq kodeksining 111-moddasiga nazar soladigan bo'lsak, ushbu moddada Soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi va engillashtiruvchi holatlar yoritilgan bo'lib, unga ko'ra, soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlikni engillashtiruvchi holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

og'ir shaxsiy yoki oilaviy sharoitlar kechishi oqibatida huquqbazarlik sodir etish;

tahdid yoki majburlash ta'sirida yoxud moddiy, xizmat yoki boshqa jihatdan qaramlik sababli huquqbazarlik sodir etish;

sud tomonidan javobgarlikni engillashtiruvchi deb topilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar.

Soliqqa oid huquqbazarlikning ilgari huddi shunday huquqbazarlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilganligi javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat deb e'tirof etiladi.

Shuningdek, Oliy Xo'jalik Sudi Plenumining 2010 yil 18 iyundagi "Xo'jalik sardorlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi Umumiy qismini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 210-soni Qarorining 43-bandida ta'kidlanishicha, "Moliyaviy sanktsiyani qo'llashda xo'jalik sardorlari Soliq

kodeksining 111-moddasida belgilangan soliqqa oid huquqbazarliklar uchun javobgarlikni engillashtiruvchi holatlarning tugal emasligini, og'irlashtiruvchi holat esa tugal hisoblanishini inobatga olishlari lozim.

Javobgarlikni engillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar qatiy belgilangan moliyaviy sanktsiyalarни qo'llashda inobatga olinmaydi". Soliqqa oid huquqbazarlikni sodir etganlik uchun qo'llaniladigan jarimalarni eng ko'p tarqalgan turlaridan biri bu moliyaviy jarimadir.

Soliq kodeksining 112-moddasida moliyaviy sanktsiyalarva ularni qo'llash tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra, moliyaviy sanktsiyalar soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, pul undirish (jarimalar va penya) tarzida qo'llaniladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga - soliq to'lovchilarga moliyaviy sanktsiyalar sud tartibida qo'llaniladi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddati o'tkazib yuborilganligi uchun penya hisoblash, shuningdek soliq to'lovchi sodir etilgan huquqbazarlikdagi aybini tan olgan va jarimani ixtiyoriy ravishda to'langan hollar bundan mustasno.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy sanktsiyalar faqat sud tartibida qo'llaniladi, penya hisoblash hollari bundan mustasno.

Soliqlar, boshqa majburiy to'lovlari va penya materiallar sudga berilgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida ixtiyoriy ravishda to'langan taqdirda tadbirkorlik sub'ekti - soliq to'lovchi o'ziga nisbatan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaganligi uchun jarimalar qo'llanilishidan ozod qilinadi.

Moliyaviy sanktsiyalar soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, pul undirish (jarimalar va penya) tarzida qo'llaniladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga — soliq to'lovchilarga moliyaviy sanktsiyalar sud tartibida qo'llaniladi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddati o'tkazib yuborilganligi uchun penya hisoblash, shuningdek soliq to'lovchi sodir etilgan huquqbazarlikdagi aybini tan olgan va jarimani ixtiyoriy ravishda to'langan hollar bundan mustasno.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy sanktsiyalar faqat sud tartibida qo'llaniladi, penya hisoblash hollari bundan mustasno.

Qo'llaniladigan moliyaviy sanktsiya huquqbazarlikning oqibatlariga nomutanosib bo'lgan, javobgarlikni engillashtiruvchi holatlar aniqlangan taqdirda, shuningdek huquqbuzarning moddiy ahvolini inobatga olib, sud Soliq Kodeksining 17-bobida nazarda tutilgan moliyaviy sanktsianing eng kam darajasidan ham kamroq, biroq belgilangan sanktsiya eng kam miqdorining 25 foizidan kam bo'limgan miqdorda, sabablar va asoslarni albatta ko'rsatgan holda moliyaviy sanktsiya qo'llashga haqli.

Soliqlar, boshqa majburiy to'lovlari va penya materiallar sudga berilgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida ixtiyoriy ravishda to'langan taqdirda tadbirkorlik sub'ekti — soliq to'lovchi o'ziga nisbatan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaganligi uchun jarimalar qo'llanilishidan ozod qilinadi.

4.Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari hamda ularni sodir etganlik uchun javobgarlik

Soliq to'lovchining, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentining, bundan bir vaqtning o'zida davlat soliq xizmati organlarida va davlat statistikasi organlarida hisobga qo'yilgan holda davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan soliq to'lovchilar mustasno, davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishdan bo'yin tovlashi quyidagi miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi:

✓ agar faoliyat ko'pi bilan o'ttiz kun amalga oshirilgan bo'lsa, — eng kam ish haqining ellik baravari miqdorida, biroq bunday faoliyat natijasida olingan sof tushumming o'n foizidan kam bo'lмаган miqdorda;

✓ agar faoliyat o'ttiz kundan ortiq amalga oshirilgan bo'lsa, — eng kam ish haqining yuz baravari miqdorida, biroq bunday faoliyat natijasida olingan sof tushumming ellik foizidan kam bo'lмаган miqdorda.

Soliq to'lovchining, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentining davlat soliq xizmati organida ob'ektlar bo'yicha hisobga turishdan bo'yin tovlashi quyidagi miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi:

✓ agar hisobga turish bo'yicha belgilangan muddatdan ko'pi bilan o'ttiz kun o'tgan bo'lsa, — eng kam ish haqining ellik baravari miqdorida;

✓ agar hisobga turish bo'yicha belgilangan muddatdan o'ttiz kundan ortiq o'tgan bo'lsa, — eng kam ish haqining yuz baravari miqdorida.

Kirim qilinmagan tovarlarni saqlash, bundan ularning qonuniy kelib chiqishi tasdiqlangan hollar mustasno, —

kim qilinmagan tovar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Kirim qilinmagan tovarlar qo'zg'atilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yoki jinoyat ishi doirasida davlat daromadiga o'tkazilgan taqdirda, sanktsiya qo'llanilmaydi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish) —

tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) summasining 20 foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumning yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) summasiga qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini hisoblash amalga oshiriladi.

Ushbu moddani qo'llash maqsadida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish) deb quyidagilar e'tirof etiladi:

tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligi fakti hujjat bilan tasdiqlanganda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum summasining hisobga olish registrlarida aks ettirilmaganligi;

tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligi fakti to'g'risida dalolat beruvchi hujjatlar almashtirilganligi, soxtalashtirilganligi yoki yo'q qilinganligi;

hisobda realizatsiya qilinmagan deb ko'rsatilgan tovarlarning omborda yoki realizatsiya qilish joyida mavjud emasligi.

Soliq hisobotini o'z vaqtida taqdim etmaganlik yoki kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar asoslarini yoxud aniqlashtirilgan soliq hisobotini belgilangan muddatda taqdim etmaganlik uchun soliq to'lovchi — yuridik shaxsning mansabdor shaxsi yoki soliq to'lovchi — jismoniy shaxs ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Buxgalteriya hisobining mavjud emasligi yoki uni belgilangan tartibni buzgan holda yuritganlik hisoblanishi lozim bo'lган soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini aniqlab bo'lmasligiga olib kelsa, soliq to'lovchi — yuridik shaxsning mansabdor shaxsi ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganligi soliq to'lovchi — yuridik shaxsni buxgalteriya hisobini tiklash majburiyatidan ozod qilmaydi.

Faoliyat turlari bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanganlik uchun shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinmaydigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'limgan mahsulot etkazib beruvchilar tomonidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda qo'shilgan qiymat solig'ini hisobvaraq-fakturada aks ettirganlik —

-mahsulot etkazib beruvchilarga hisobvaraq-fakturada ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasining 20 foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Bunda mahsulot etkazib beruvchi hisobvaraq-fakturada ko'rsatilgan soliq summasini byudjetga to'lashi shart.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib oluvchilarga nisbatan jarima solish qo'llanilmaydi va ular qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha byudjet bilan qayta hisob-kitob qilmaydi.

Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini va (yoki) to'lovlarni plastik kartochkalar asosida qabul qilish bo'yicha hisob-kitob terminallarini ishlatish majburiy bo'lgani holda ularni ishlatmasdan savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko'rsatganlik, xuddi shuningdek sotib oluvchiga kvitantsiyalar yozib berish, talonlar, cheklar yoki ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlarni berish majburiy bo'lgani holda bunday hujjatlarni bermasdan tovarlarni realizatsiya qilganlik va xizmatlar ko'rsatganlik —

-eng kam ish haqining o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Harakatlar jarima qo'llanilganidan keyin bir yil ichida sodir etilganda —

-eng kam ish haqining etmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Texnik talablarga javob bermaydigan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik yoki fiskal xotirasining xizmat ko'rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik, shuningdek plastik kartochkalar asosida to'lovlarni qabul qilishni rad etganlik —

-eng kam ish haqining yuz baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Harakatlar jarima qo'llanilganidan keyin bir yil ichida sodir etilganda — eng kam ish haqining ikki yuz baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash muddatlarini buzish — to'loving belgilangan muddatidan keyingi kundan e'tiboran muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun, to'lov kuni ham shunga kiradi, 0,033 foiz miqdorida penya hisoblashga sabab bo'ladi. Bunda boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha ortiqcha to'langan summaga teng bo'lgan qarz summasiga penya hisoblanmaydi. Penya miqdori tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasidan oshib ketishi mumkin emas. Penya undirilishi soliq to'lovchini soliq majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi. Yuridik shaxs — tadbirkorlik sub'ekti ixtiyoriy tugatilgan taqdirda, yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran barcha turdag'i soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha penyalar hisoblash to'xtatiladi. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta boshlangan taqdirda, penya belgilangan tartibda qo'shib hisoblanadi hamda hisoblashlar to'xtatib turilgan butun davr uchun undiriladi.

Har bir soliq to'lovchi davlat soliq xizmati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat berish uchun davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga (yuqori turuvchi mansabdor shaxsiga) yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Davlat soliq xizmati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga (yuqori turuvchi mansabdor shaxsiga) shikoyat qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga shikoyat berilganligi shunday shikoyatni sudga berish huquqini istisno etmaydi.

Davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga yoki sudga shikoyat berish tegishincha shikoyat bo'yicha davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organi tomonidan qaror qabul qilinguniga yoki sudning qarori qonuniy kuchga kirguniga qadar shikoyat qilinayotgan qarorni yoki harakatni ijro etishni, shu jumladan qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini undirishni, shuningdek moliyaviy sanktsiyalar qo'llanilishini to'xtatib turadi. Soliq to'lovchi qaysi davlat soliq xizmati organining qarori yoki mansabdor shaxsining harakatlari ustidan shikoyat qilayotgan bo'lsa, o'sha organni davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga yoki sudga shikoyat bergenligi to'g'risida tegishli tasdiqllovchi hujjatlarni ilova qilgan holda xabardor qilishi shart.

Davlat soliq xizmati organining qarori, uning mansabdor shaxsining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat davlat soliq xizmatining tegishli yuqori turuvchi organiga yozma shaklda beriladi.

Davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga shikoyat soliq to'lovchi o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim

bo'lgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida beriladi. Shikoyatga uni asoslantiruvchi hujjatlar ilova qilinishi kerak.

Davlat soliq xizmati organining qarori, uning mansabдор shaxsining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan berilgan shikoyat davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organi tomonidan shikoyat olingan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmasdan ko'rib chiqiladi.

Davlat soliq xizmati organining qarori, uning mansabдор shaxsining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan berilgan shikoyatni ko'rib chiqish yakunlariga binoan davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organi quyidagilarga haqli:

- shikoyatni qanoatlantirmasdan qoldirish;
- davlat soliq xizmati organining shikoyatga sabab bo'lgan qarorini bekor qilish yoki o'zgartirish.

Davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organi davlat soliq xizmati organlari mansabдор shaxslarining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan berilgan shikoyatni ko'rib chiqish yakunlariga binoan mazmunan qaror chiqarishga haqli.

9-mavzu: Soliqlar va makroiqtisodiy holatning uzviy bog'liqligi

Reja:

- 1. Soliq siyosatining makroiqtisodiy samarasи.**
- 2. Soliq yuki, uni aniqlash tartibi.**
- 3. Laffer egri chizig'i va uning elastlikligi.**
- 4. Soliqlarni yalpi talab va yalpi taklifga ta'siri.**
- 5. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida soliqlar va investitsiyalarning o'zaro bog'liqligi.**

Tayanch so'z va iboralar: soliq siyosati, makroiqtisodiy samara, soliq dastaklari, soliq yuki, soliq yukini aniqlash, Laffer egri chizig'i, elastliklik, yalpi talab, yalpi taklif, investitsiya.

1. Soliq siyosatining makraiqtisodiy samarasи.

Iqtisodiyotning samarali rivojlanishi ko'p darajada davlat tomonidan iqtisodiy jarayonlarni boshqarishni to'g'ri tashkil etishga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu tufayli ham O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tish xususiyatlaridan biri davlatning iqtisodiy o'zgarishlarning tashabbuskori va bosh islohotchisi qilib belgilanganidir.

Bozor munosabatlariga o'tishning qiyin davrida aholining manfaatlarini faqat kuchli qayta taqsimlash vositasiga ega bo'lgan davlatgina himoya qilishga qodirdir. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki yillaridanoq davlat iqtisodiyotni tartibga solishda soliqlardan ushbu kontseptsiyaga asoslangan holda foydalanib kelmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darjasи, boshqa ko'pgina omillar bilan bir qatorda, unga nisbatan yurgizilayotgan soliq siyosatiga ham bevosita bog'likdir. Davlat soliq siyosatini ishlab chiqib va uni hayotga tatbiq etib, iqtisodiy rivojlanishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan davlat soliq siyosati orqali makroiqtisodiy samaradorlikka erishishi mumkin.

Soliq siyosatini amalga oshirishda xizmat qiladigan soliq dastaklari (imtiyozlar, stavkalar, soliqqa tortiladigan bazani shakllanishi va boshqalar) kuchli ta'sir etuvchi va qiyin boshqariladigan soliq qurollaridir. Masalan, soliq to'lovchilarga keng soliq imtiyozlarini berish byudjetning daromadlarini shakllantirish nuqtai nazaridan butunlay teskari oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Boshqa tomondan esa, soliq imtiyozlarining har tomonlama bekor qilinishi tadbirkorlik faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va korxonalarining ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish sohalariga kapital qo'yilmalarning sezilarli kamayishiga sabab bo'ladi. Buning oqibatida ba'zi tarmoqlardagi mavjud muvozanat buziladi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida yurgizilayotgan iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi bo'lган soliq siyosati mustaqil ravishda yurgizilayotgan soliq siyosati hisoblanib, uning markaziy vazifalaridan biri sifatida respublikamizda bozor munosabatlarini qaror toptirish va uni rivojlantirishga xizmat ko'rsatish qaralmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik muhitini yaratish va uni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etganligi uchun soliq siyosati ham bizning respublikamizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi, shak-shubhasizdir.

Bir vaqtning o'zida puxta ishlab chiqilgan soliq siyosatining hayotga qanday tadbiq etilishi shu siyosatni amalga oshirishda qo'llanilishi lozim bo'lган soliq mexanizmiga uzviy bog'liqdir.

Soliq siyosatining makroiqtisodiy holatga ta'siri juda katta bo'lib, mamlakatda yaratiladigan yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning o'zgarishi soliq siyosatining samarasiga bevosita bog'liqdir. Soliq siyosatining makroiqtisodiy holatga ta'sirini soliqlarning yalpi talab va yalpi taklifga, investitsion muhitga, iste'molga, iqtisodiy barqarorlikka ta'siri kabilar bilan baholash mumkin.

Soliq siyosatini amalga oshirishda muhim bir mezon bo'lib soliq stavkalari hisoblanadi.

Soliq stavkalarining o'zgartirilishi bevosita talablar yig'indisiga ta'sir qiladi. Iste'molning ham, investitsiyalarning ham hajmi soliqlarning katta-kichikligiga bog'liq bo'ladi. Masalan, byudjetga soliq tushumi kamayib, davlat xarajatlari avvalgicha qolgan paytda iste'mol va investitsiya xarajatlarining o'sishi rag'batlantiriladi.

Yalpi talab qanchalik ko'paygani bilan u iqtisodiyotni ishlab chiqarish imkoniyatlari (mavjud resurslar va texnologiyalarning shartli miqdori va sifati) doirasidan tashqariga «surib qo'yishga» qodir bo'lmaydi. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasiga yaqinlashganda yig'ma talabning o'sishi asosan real ishlab chiqarishning emas, balki narxlarning ko'tarilishi hisobiga ro'y beradi. Binobarin, rag'batlantiruvchi soliq-byudjet siyosati iqtisodiyot pasayish vaziyatida bo'lgandagina chinakam ijobjiy samara beradi. Soliq siyosati olib borilayotganda qisib chiqarish deb ataladigan vaziyat bilan to'qnashuv ro'y beradi. Masalan, davlat xarajatlari o'zgarmay turgan sharoitda soliq tushumlari kamaydi (yoki aksincha, davlat xarajatlari ko'payib, soliq tushumlari esa avvalgi darajasida qoldi). Davlat xarajatlari va daromadlari o'rtasidagi farqning ortishini (byudjet kamomadining o'sishini) davlat qarzlar hisobiga qoplashga majbur. Bunda davlat obligatsiyalar chiqarishi mumkin, bu obligatsiyalarning sotilishi moliya bozori mablag'laridan foydalanish imkonini beradi. Bunday sa'y-harakat moliya bozorida milliy jamg'armalar taklifi kamayishiga olib keladi. Natijada foiz stavkalari ko'tariladi va xususiy investitsiyalar hajmi tushib ketadi. Biz ko'rgan holatda soliqlarning kamayishi tufayli kelib chiqqan byudjet kamomadining o'sishi xususiy investitsiyalarni «surib chiqaradi»ki, buning natijasi o'laroq, yalpi talab darjasini o'zgarmay qoladi. Binobarin, qisqa muddat ichida surib chiqarish samarasi amal qilmaydi yoki sezilmaydigan darajada ro'y beradi: moliya bozori takomillashmagani

(korxonalar kapital mablag‘ sarflash uchun pul oladigan kredit haqidagi bitimlar ilgari tuzib qo‘yilgani) sababli investitsiyalar va jamg‘armalar uzoq istiqboldagina tenglashadi.

Soliq siyosatining samaradorligi sof eksport samarasini bilan cheklanadi. Biz aniqlaganimizdek, soliqlarning kamaytirilishi milliy jamg‘armalar miqdorini kichraytiradi hamda ichki foiz stavkalarini kattalashtiradi. Bunday vaziyat oqibatda faqat ichki (milliy) investitsiyalarning qisqarishigagina emas, balki mamlakatga chet el kapitalining oqib kirishi tezlashishiga ham olib keladi. Mazkur holatda xorij investitsiyalari o’sib borayotgan ichki foizli stavkalar bilan rag‘batlantiriladi. Chet el kapitalining oqib kelishi milliy valyutaga talabni oshiradi. Natijada valyuta kursi ko’tariladi, sof eksport miqdori qisqaradi. Valyuta kursi ko’tarilganida milliy tovarlar jahon bozorida ancha qimmatlashadi, xorij tovarlari esa ichki bozorda arzonlashadi. Shunday qilib, soliqlarni kamaytirish tufayli jamiyat xarajatlarining kengayib ketishi eksportning qisqarishi va importning o’sishi bilan bog‘liq yalpi talabning pasayishi hisobidan qisman tekislanadi. Bunday samara qayd etilgan valyuta kurslari sharoitida amal qilmaydi: soliqlar kamaytirilganida valyuta kursi avvalgi darajasida qoladi hamda sof eksport tegishli ravishda o’zgarmaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, rag‘batlantiruvchi soliq siyosati faqat qisqa muddatli turkumiy tebranishlar oqibati bo’lgan iqtisodiy pasayish sharoitida, faqat qayd etilgan valyuta kurslari paytida sezilarli makroiktisodiy samara beradi. Vaqtning uzoq oraliqlarida esa u ta’sirli bo’lmaydi.

Endi soliqlarni qisqartirish oqibatlarini yalpi taklifga ta’sirini ko’rib chiqaylik. Mazkur tadbirning samarasini shundan iboratki, bunda taklifning egri chizig‘i o’ngga qarab siljiydi - soliqlarning pasaytirilishi xarajatlarining qisqarishini (bu holat tadbirkorlarni ishlab chiqarishni kengaytirishga rag‘batlantiradi) hamda «sof» ish haqining o’sishini (bu holat esa yollanma xodimlarni mehnat taklifini ko’paytirishga rag‘batlantiradi) anglatadi. Bunda (soliqlarning kamaytirilishi oqibatida) yalpi talab odatda yalpi taklifga nisbatan ko’proq o’sib boradi. Shuning uchun ham ishlab chiqarishning kengayishi bilan bir qatorda narxlarning umumiyligi darajasi ko’tarilishi kuzatiladi.

Biroq yig‘ma taklif darajasining o’zgarishi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Shuning uchun ham makroiqtisodiy barqarorlik maqsadiga erishish uchun davlat eng avvalo yalpi taklifga emas, balki yalpi talabga ta’sir ko’rsatishga intiladi. Buning ustiga, hozirgi zamon iqtisodchilarining aksariyati hisoblashicha, makroiqtisodiy beqarorlik (iqtisodiy turkumlar) asosan yig‘ma talab beqarorligining oqibatidir. Masalan, iqtisodiyot yalpi talabning salbiy o’zgarishi ta’siri tufayli pasayish jarayonini boshdan kechirmokda. Bunday holatda davlat jamiyatning yig‘ma xarajatlarini soliqlarni kamaytirish va davlat xarajatlarini kengaytirish vositasida rag‘batlantirishga intiladi. Agar hukumat iqtisodiyotning «zo’riqishi»dan xavotirlansa yoki pulning qadrsizlanish sur’atlarini sekinlashtirishni istasa, u holda o’zining moliya siyosatini qattiq olib borishda soliqlarni oshirishi va davlat xarajatlarini qisqartirishi lozim bo’ladi.

2. Soliq yuki, uni aniqlash tartibi.

Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyotida soliq yukining eng qulay holatini aniqlash muammosi doimo mavjud bo'lib kelgan.

Soliq tushumlarining darajasi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida yuzaga keladi, balki soliq tizimidan samarali foydalanishga va uning o'z vazifalarini qay darajada bajarishiga ham bog'liq bo'ladi. Bu funktsiyalarning ta'siri haqida xo'jalik sub'ektlaridagi soliq yuki orqali mulohaza qilish mumkin.

Soliq yukining umumiylarini belgilash orqali iqtisodiyotni tartiblashning ham ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Iqtisodiyotni tartiblashga soliqlar orqali ta'sir o'tkazishda soliq yuki darajasi, uning iqtisodiy taraqqiyot jarayoniga aholining turmush darajasiga ta'siri ko'pgina iqtisodchi olimlar tomondan o'rganib chiqilgan. Soliq yukining muayyan davr uchun asoslangan,adolatli va real variantlarining qo'llanilishi ko'pgina rivojlangan davlatlarda iqtisodiyotning samarali rivojlanib borishini ta'minlamoqda. Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarishda, xususan, tarmoqlar o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashda soha va tarmoqlarda soliq yukining tegishli holatini o'rganish lozim bo'ladi.

Xo'jalik sub'ektlariga soliq yuki davlat soliq siyosatining natijasi bo'lib, har qanday soliq tizimining sifat tavsifini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda, olinayotgan soliqlar darajasi, bir tomondan, ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligi, boshqa tomondan esa, davlatning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji miqdori bilan belgilanadi. Shu sababli, soliq yukining og'irligini kamaytirish, birinchi navbatda, davlat xarajatlarini qisqartirish va ijtimoiy xizmatlarning to'lovililik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ayrim mutaxassislar soliq tizimining samaradorligini YaIMda soliqlarning hissasi bilan bog'laydilar. Boshqa bir guruhdagi mutaxassislar esa soliq yukini to'lovilarning barchasini birlashtirish yo'li bilan hisoblashni tavsiya etadilar. Bunda byudjetdan tashqari fondlarga va mahsulotni sotish hajmiga ajratmalar ham soliq yukining tarkibiga kiritiladi.

Jamiyat a'zolariga soliq og'irligining taqsimlanish darajasini tavsiflab aytish mumkinki, ishlab chiqarishdagi aksariyat soliqlar, xususan, egri soliqlar tovar tannarxi tarkibiga kiritiladi va pirovard natijada iste'molchi zimmasiga tushadi. Aholining soliq yukini, jon boshiga soliq salohiyatini olinadigan o'rtacha boshiga daromadga nisbatanani aniqlash mumkin.

Shu asosda butun mamlakatning soliq salohiyatini hisoblashda, barcha soliq summasi va sug'urta badallarining majmui sifatida hisoblash soliq yukini hisoblashda yollangan xodimlar mehnatiga haq to'lashda har bir so'miga barcha soliqlar summasining, shuningdek, soliq yuki salmog'ini, yalpi qo'shilgan qiymat salmog'i ulushi bilan aniqlanib, uni aholining soliq yuki koeffitsientiga tuzatish (ko'paytirish) kiritish taklif etiladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan soliq yukini YaIMdag'i soliq ulushi sifatida hisoblash metodologiyasi juda oddiy va tushunarlidir. Shuning uchun u chet mamlakatlarda keng qo'llaniladi. Ayni paytda, bu metodologiya turli ishlab chiqarish tarmoqlariga va iqtisodiyotning turli sektorlariga mansub bo'lgan

korxonalar uchun, uni taqqoslab mikrodarajadagi soliq yuki darajasini tadqiq etish imkonini bermaydi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi yuridik shaxslarga soliq yukini hisoblashning metodologiyasini tavsiya etgan. Unda soliq yuki barcha hisoblangan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar, byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlarining hisobga olingan summasi, mahsulot sotish hajmiga va boshqa sotuvdan tushumni o'z ichiga olgan nisbat orqali aniqlanadi.

Ish haqini to'lash bo'yicha xarajatlarning ortishi byudjetdan tashqari fondlarga to'loving ko'payishiga ta'sir etadi. Soliq yukining ortishiga, shuningdek, soliq to'lovlarining byudjetga o'z vaqtida o'tkazilmasligi natijasida to'langan jarimalar ham ta'sir etishi mumkin.

Soliq yukini aniqlashda absolyut va nisbiy soliq yukini farqlash lozim. Absolyut soliq yuki - bu jami to'langan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'lib, byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga o'tkaziladi, ya'ni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soliq majburiyatlarining absolyut miqdoridir. Statistik hisobotlarda bu ko'rsatkichga haqiqatda soliq to'lovlarining byudjetga o'tkazilganini va byudjetdan tashqari fondlarga o'tkazilgan majburiy sug'urta badallarini, shuningdek, bu to'lovlar bo'yicha boqimandalik kiritiladi.

Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan byudjetdan tashqari fondlarga to'lanadigan sug'urta badallari majburiy to'lovlar bo'lib, soliq xarakteriga egadir. Shu sababli, soliq yukini hisoblashda ularni hisobga olish zarur.

Biroq, absolyut soliq yuki soliq majburiyatlarining ziddiyatini ifodalamaydi. Bu ko'rsatkich soliq to'lovchilar miqdori bilan to'lash manbalarining mosligini aks ettirmaydi. Shu sababli, nisbiy soliq yuki ko'rsatkichidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Nisbiy soliq yuki deb uning absolyut miqdorining yangidan yaratilgan qiymatga munosabati tushuniladi, ya'ni soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar hissasi hamda yangi yaratilgan qiymatdagi boqimandalik ham bunga qo'shiladi.

Soliq to'lovlarini to'lash manbai bo'lib qo'shilgan qiymat hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat - tovar va xizmatlar qiymati bo'lib, oraliq iste'molga kamaytiriladi, ya'ni keyingi ishlab chiqarish nuqtai-nazaridan iste'molga kamaytiriladi. Soliqlarni undirishning turli usullari bir maqsadni, ya'ni qo'shilgan qiymatning bir qismini olishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida soliq yukining ta'sirchanligi shubhasizdir. Uning ta'siri, umumiyo ko'rinishda, salbiy yoki ijobji bo'lishi mumkin. Soliq yuki og'irlashgan paytda tadbirkorlik faoliyati susayadi va hatto, umuman to'xtab qolishi ham mumkin. Aksincha, soliq yukining nisbatan engillashuvi tadbirkorlik faoliyatining faollashuviga olib keladi. Lekin soliq yukini engillashtirishni tadbirkorlikni rivojlantirishning yakka-yu yagona sababi sifatida talqin etish maqsadga muvofiq emas. Undan tashqari soliq yukini engillashtirish ham o'zining mantiqiy chegarasiga ega bo'lib, bu chegara ko'p jihatdan davlat byudjetidan qilinishi lozim bo'lган xarajatlarning hajmi bilan bog'liqdir. Shu

munosabat bilan hozircha bizning nazarimizda O'zbekiston sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yanada faollashtirish uchun soliq yukini yanada engillashtirish emas, balki mavjud tarkib topgan soliq yukini iqtisodiyotning tarmoqlari o'rtasida qayta taqsimlashni dolzARB masala sifatida qaramoq lozim.

Bizga aniq bo'ldiki, soliq yuki ham ishlab chiqaruvchilar, ham iste'molchilar zimmasiga tushadi. Biroq yo'qotish hajmi odatda bir xil bo'lmaydi (yuqorida keltirib o'tilgan hisob-kitoblar faqat bizning shartli misolimizga xos). Soliq yukining xususiyati bozor talabi va bozor taklifining egiluvchanligiga bog'liq bo'ladi.

Ortiqcha soliq yuki jamiyatning soliqqa tortiladigan tovarni ishlab chiqarish va iste'mol qilishni ularning maqbul darajasidan qisqartirish oqibatida ko'rgan zarari hajmidir. Bu qoidadan kelib chiqadigan xulosa shuki, davlat iqtisodiyotni haddan tashqari katga soliqlar bilan qiyab qo'ymaslik uchun o'zining qayta taqsimlash siyosatini haqiqiy «zarur minimum» bilan cheklashi lozim. Nega deganda, daromadlarni qayta taqsimlash, biz aniqlaganimizdek, jamiyat uchun muayyan yo'qotishlarga sabab bo'ladi.

Respublikamiz soliq siyosatida mahsulot ishlab chiqaruvchi sohalar va jismoniy shaxslar uchun soliq og'irligini tobora kamaytirib borish tadbirlari ko'rilmoxda. Masalan, 2001 yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan davlat byudjetiga undirilgan soliq ulushi 26 foizgacha qisqardi. Ko'pgina xorijiy davlatlarda bu ko'rsatgich hozir o'rtacha 30-33 foizni tashkil etadi. Eng muhimi, soliq og'irligini bundan buyon ham kamaytirish siyosatini yurgizish, soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirib borish, ayniqla, tabiiy va mineral xom ashyolardan foydalanish borasida korxonalar faoliyatiga ta'sir doirasini kuchaytirish lozimligi ta'kidlab o'tildi. Soliqlar og'irligini faqat yuridik shaxslargagina emas, balki jismoniy shaxslarga nisbatan ham kamaytirish tadbirlari belgilangan.

Soliq og'irligini kamaytirish iqtisodiyotimizda yuridik shaxslarning o'z ixtiyorida qoladigan daromadlarini ko'paytirish va shu orqali ishlab chiqarishni kengaytirish, kreditorlik qarzlarini kamaytirish va nihoyat, boqimandalar bo'lmasligiga olib keladi. Bu esa soliqlarning iqtisodiyotga ta'sirini yanada kuchaytiradi, tadbirkorlikning erkin rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, O'zbekistonda iqtisodiyotni boshqarishning bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tishning tadrijiy yo'li tanlandi. Bugungi kunda butun dunyoda tan olingan iqtisodiy taraqqiyotning "O'zbek modeli" ishlab chiqildi va amaliyotda qo'llanilib, o'zining ijobiy natijasini berdi.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda bozor tamoyillariga to'liq javob beradigan yangi soliq tizimi shakllandi. O'zbekiston Respublikasining yangi Soliq kodeksi qabul qilindi, soliqlarni boshqarishning zamonaviy metodlari va mexanizmlari joriy etildi, soliq organlarining yaxlit tizimi yaratildi. O'zbekistonda olib borilayotgan soliq siyosati xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga soliq yukini yanada pasaytirishga, kichik va xususiy biznesni rivojlantirishga, fuqarolarning real daromadlarini oshirishga va ularning xarid qilish qobiliyatini ko'tarishga qaratilgan.

Respublikamizda soliq tizimini takomillashtirish jarayonida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan soliq yukini izchil kamaytirishga alohida e'tibor

karatib kelinmoqda. Bunda, birinchi navbatda, ularning daromadlaridan undiriladigan bevosita soliqlarning salmog'ini kamaytirish lozimligi alohida ahamiyatga ega. Buning natijasida korxonalar ixtiyoroda qoladigan mablag'lar ulushining ko'payishi evaziga ularning aylanma mablag'lari miqdorini ko'paytirib borish va optimal darajasini saqlash, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadida ko'proq investitsiyalar kiritish, xodimlar mehnatini yanada rag'batlantirish imkonini yaratiladi.

O'zbekistonda soliq yukini kamaytirishga korxonalar foyda solig'i, jismoniy shaxslar daromad solig'i, ish beruvchilar uchun mehnat haqi fondiga nisbatan ijtimoiy to'lovlar va boshqa shu kabi asosiy soliqlar stavkalarini qisqartirish, qator samarasiz soliqlarni bekor qilish yoki bazasini qisqartirish, shuningdek ayrim tarmoq va soha korxonalariga soliqlardan turli imtiyozlar berish orqali erishildi.

3. Laffer egri chizig'i va uning elastlikligi.

Jahon iqtisodiy taraqqiyotida o'zining muayyan o'rniغا ega bo'lgan taklif iqtisodiyoti nazariyasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Taklif iqtisodiyoti nazariyasi soliqlarni kamaytirish va korporatsiyalarga soliq imtiyozlarini berishni nazarda tutadi. Ushbu nazariyaga ko'ra yuqori soliq stavkalari tadbirkorlik qiziqishini kamaytiradi va investitsiya siyosati, ishlab chiqarishni yangilash va kengaytirishni cheklab qo'yadi. Bu nazariyaning asosiy g'oyalardan biri davlat xarajatlarini kamaytirishdir. Ularning shiorlaridan biri tartiblovchi kuch - bu bozorning o'zidir, davlat boshqaruvi va yuqori soliqlar faqatgina uni normal amal qilishiga xalaqit beradi.


Soliq stavkalari shkalalarini shakllanish darajasi bo'yicha umumiy qonun bor. Keng soliqqa tortiladigan bazaga nisbatan kamroq soliqqa tortish stavkasini qo'llash, etarli darajada kam bo'lgan soliq bazasiga nisbatan esa, buning teskarisi, alohida soliq turlarini yuqori stavkada qo'llash kerak. Ko'rinish turibdiki yuqori va past soliq stavkalari xo'jalik faoliyatiga va tadbirkorlarni ish faolligiga har hil ta'sir ko'rsatadi.

A.Smitning fikricha soliq yukini kamaytirilishi natijasida davlat ko'proq yutadi, ya'ni soliqdan ozod bo'lgan summadan ortiqcha daromad olish mumkin va natijada olingan daromad soliqqa tortish uchun qo'shimcha soliqqa tortish ob'ekti bo'ladi. Shu bilan birga soliq to'lovchilar soliq summasini o'z xohishlari va engillik bilan byudjetga o'tkazib berishadi. Bu esa davlatni ortiqcha xarajatlardan, ya'ni soliqlarni undirish, soliq bo'yicha jinoyatlarni topish va unga nisbatan jazolarni qo'llash xarajatlarini kamaytiradi. A.Smitning bu g'oyalari uning davomchilariga emas, balki keyingi iqtisodchi olimlar uchun aksioma bo'lib qoldi.

1980 yillarda AQShda iqtisodiy taklif nazariyasini rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlar M.Bernson, G.Stayn va A.Lafferlardir. Bu olimlar soliq stavkalarini pasaytirish orqali soliqni progressivligini kamaytirishga erishish, bu esa korxonalarini kelajakda investitsiya qilishlari uchun jamg'arma manbalarini ko'payishiga olib keladi deb hisoblashgan.

Neoklassik nazariyaning zamonaviy vakillari ingliz iqtisodchisi A.Laffer

o'zining ilmiy izlanishlarida soliq stavkalarini pasaytirish va soliqqa tortishning progressivligini kamaytirish orqali Keyns nazariyasidan farqli o'laroq davlat tomonidan investitsiyalarni ko'paytirishni emas, balki korxonalarga investitsiya uchun o'z jamg'armalarini ko'paytirish imkonini berish lozim, degan fikrni ilgari suradi. Uning ilmiy tahlillari tasdiqlaydiki, soliqqa tortishning shunday optimal chegarasi mavjud bo'lib, soliq stavkasi undan yuqoriga qancha ko'tarilmasin, soliq tushumlarini ko'paytirishga erishib bo'lmaydi. Soliq yukining ortib borishi soliq bazasining kamayishiga olib keladi. Uning natijasida esa, tadbirkorlar korxonalarni yopib qo'yadilar, yoki soliq bazasini yashirishga urinadi va shu tariqa yashirin iqtisodiyotni rivojlanishiga olib keladi. Bu holatni Laffer tomonidan ilmiy jihatdan asoslangan quyidagi egri chiziq asosida ko'rib chiqishimiz mumkin.



BD – byudjet daromadlari;
S_tN - soliq stavkasi;

D_{maks} – maksimal byudjet daromadlari;
S_tN_{maks} – maksimal soliq stavkasi.

A.Laffer progressiv soliq stavkasi va byudjet daromadlarini parabola ko'rinishidagi egri chiziq bilan ifodaladi va u quyidagi fikrga keldi: soliq stavkasini pastligi xususiy sektorning investitsiya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab iqtisodchilar soliq to'lovchilarning daromadini byudjetga olishning chegarasi borligi va soliq og'irligini ko'paytirib yubormaslik haqida yozib o'tganlar. Davlat milliy ishlab chiqarishni o'sishi yoki pasayishiga soliq stavkalarini o'zgartirish va byudjet xarajatlari orqali ta'sir ko'rsatadi.

A.Lafferning hisobiga ko'ra soliqlarni kamaytirish natijasida iqtisodiyotning o'sishi va davlat daromadlarining o'sishini isbotlab bergen. Bu tarixda Laffer egri chizig'i deb ataladi. Soliq stavkasi ma'lum darajaga etishi soliq tushumlarini ko'paytiradi, uning yanada oshirilishi aksincha soliq tushumlarini kamaytiradi.

Iqtisodiyot sub'ektlarining soliq stavkasi dinamikasiga ta'siri bir ondayoq sezilmaydi, balki ma'lum bir vaqt o'tganidan so'ng seziladi. Laffer egri chizig'i davlat daromadlarining o'sishi soliq stavkalarining kamayishiga ob'ektiv bog'liq ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bu egri chiziqda yotuvchi fundamental g'oya shundaki, soliq stavkasining

chegarasi qancha yuqori bo'lsa, individlarni soliqni to'lashdan chetlashlari shuncha ko'p bo'ladi. Chunki odamlar soliq to'lash uchun ishlamaydilar. Sof foyda, ya'ni daromadlardan soliqlarni ayirib tashlagan summa individlarni ishlamayaptimi yoki yo'qligini ko'rsatadi. Agar tadbirkor o'zining ishlab chiqarish faoliyatidan daromad olish kelajagiga ishonmasa, ya'ni uni daromadlari yuqori progressiv stavkali soliqlar bilan olib qo'yiladigan bo'lsa, tadbirkor bozorda normal faoliyat ko'rsatmay qo'yadi. Daromadning ko'p qismi soliqlar orqali tortib olib qo'yiladigan bo'lsa, tadbirkorni ishlab chiqarishni kengaytirishga, yangilashga va yangi ishlab chiqarishga investitsiya qilishga qiziqishi yo'qoladi.

Soliq stavkasining o'sishi faqatgina ma'lum darajaga etgunicha byudjetga tushadigan daromadlarni o'sishiga olib keladi, keyin bu o'sish sekinlashadi va yana oshgan sari byudjet daromadlari uning oshishiga nisbatan tezroq kamayadi. Shunday qilib soliq stavkasi ma'lum darajaga etganidan tadbirkorlik initsiativasi o'ladi, ishlab chiqarishni kengaytirishga bo'lgan rag'bat kamayadi, soliqqa tortiladigan daromadlar kamayadi, natijada soliq to'lovchilarning bir qismi iqtisodiyotni "qonuniy" sektordan "yashirin" sektoriga o'tadi. Laffer nazariyasiga ko'ra iqtisodiyotning rivojlanishi soliq yukini oshishiga to'g'ri proportsionaldir, ya'ni soliqlar oshishi bilan yashirin iqtisodiyot ko'payadi, natijada olingan daromadlarning ko'p qismi deklaratasiyada ko'rsatilmaydi. Bunga aksincha, soliqlarni kamaytirilishi iqtisodiyotni rivojlantirishga rag'bat beradi. Bu esa davlat daromadlarini soliq stavkasi va yukini ko'payishi hisobiga emas, balki soliqqa tortiladigan bazani ko'payishi hisobiga oshadi.

4. Soliqlarni yalpi talab va yalpi taklifga ta'siri.

Soliq siyosatining asosiy vazifasi oxir-oqibat iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilishi lozim. Aynan iqtisodiy o'sishga erishilgandagina ishlab chiqarish rivojlanishiga va uning samaradorligini ta'minlashga, aholining yashash darajasini oshishiga xizmat qiladi. Shu boisdan ham bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq tizimi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda doimo takomillashib borilishi lozim. Soliqlarning joriy qilinishi va mavjud soliq tizimiga o'zgarishlar kiritilishi bevosita yoki bilvosita yalpi talab va yalpi taklifga ta'sir etadi. Tovar narxi qancha yuqori bo'lsa, uni sotib olishga tayyor xaridorlar shuncha kam va uni ishlab chiqaruvchidar esa ko'proq taklif qiladilar. Bozor muvozanati talab va taklif kesishgan nuqtada to'xtaydi.

Talabning egiluvchanligi xaridorning taklif qilinayotgan tovarni sotish shartlariga bog'liq ravishda (eng avvalo narxiga qarab) sotib olishga tayyorligi darajasini ko'rsatadi. Xaridorlar kelishuvga qanchalik ko'p intilsalar, talab shunchalik kam egiluvchan bo'ladi. Talab egiluvchan bo'lmasa, sotuvchilar soliq yukini xaridorlar zimmasiga osongina o'tkazib yuboradilar.

Talabning narx egiluvchanligi asosiy omillariga quyidagilar kiradi:

1. O'rnini bosuvchi tovarlarning mavjud bo'lishi. Agar bozorda bir-birining o'rnini bosuvchi tovarlar qancha ko'p bo'lsa, talab ham shuncha egiluvchan bo'ladi: xaridorda qimmat tovarlarning o'rniga arzonrog'ini sotib olish imkoniyati tug'iladi.

Lekin bozorda bir-birining o'rnini bosadigan ne'matlar mavjud bo'lmasa, xaridor belgilab qo'yilgan narxga ko'nishga majbur bo'lib, bunday holatda talab egiluvchan bo'lmaydi.

2. Tovarga ketgan xarajatlarning xaridor byudjetidagi ulushi. Ne'matlar qiymati xaridor byudjetida qanchalik katta o'rin tutsa, unga talabning egiluvchanligi shunchalik yuqori bo'ladi. Agar qalamning narxi 10 foiz ko'tarilsa, unga talab sezilarli darajada pasaymasligi mumkin: qalamning narxi shu qadar kichikki, xaridor bu tovar narxi oshganini payqamasligi ham mumkin Lekin avtomobilning narxi 10 foiz oshsa (boshqa teng shartlar qatorida), talab ancha-muncha kamayib ketishi aniq: narxning mutlaq o'sishi xaridorning «hamyonii» uchun haddan ziyod katta bo'ladi.

3. Tovarning foydalilik darajasi. Kundalik ehtiyoj tovarlariga talab odatda egiluvchan bo'lmaydi; ziynat buyumlariga talab esa egiluvchandir. Masalan, non, gugurt, tuzga talab an'anaviy egiluvchan sanalmaydi. Aksincha, qimmatbaho, ko'ngilochar va shu kabi boshqa buyumlarga talab bir muncha egiluvchan bo'ladi.

4. Vaqt omili. Xarid qilish xususidagi qarorga kelish uchun muddat qancha ko'p bo'lsa, talab ham shu qadar egiluvchan tus oladi. Xaridorlar yangi narxga moslashishlari uchun vaqt kerak: ularning didi va iste'mol texnologiyasi asta-sekin o'zgarib boradi. Masalan, qimmatlashgan mol go'shti o'rniga ma'lum muddat mobaynida emish sifatida baliq va parrandalardan foydalaniladi. Mana, boshqa misol: 1970 yillarda g'arb davlatlarida neft narxi ko'tarilishi sababli eski texnologiyalarni energiyani tejaydigan yangi texnologiyalarga almashtirish jarayoni bir necha yil davom etdi, oqibat-natijada neft mahsulotlariga bo'lgan talab keskin kamayib ketdi.

Tovarga talab qanchalik kam egiluvchan bo'lsa soliqning katta qismi iste'molchilar zimmasiga tushadi, chunki bozordagi narx keskin ko'tariladi. Buning aksicha, xaridorlar qimmatlashgan tovarlarni olishdan osongina voz kechsalar narx deyarli ko'tarilmaydi va zararni sotuvchilarning o'zлari qoplashga majburdirlar.

Taklifning egiluvchanligi sotish sharoiti o'zgarganda taklif etilayotgan tovarlarning miqdorini sotuvchilarning ko'paytirish yoki kamaytirish imkoniyatlarini belgilab beradi. Sotuvchilar kelishuvga qanchalik ko'p intilsalar, bozor taklifi shunchalik kam egiluvchan bo'ladi. Taklif egiluvchan bo'limganida soliq yukini ma'lum darajada ishlab chiqaruvchilar o'z zimmalariga olishga «rozi» bo'ladi.

Taklif egiluvchanligining asosiy omili tovar sotish sharoiti o'zgarishiga munosabat bildirish uchun ishlab chiqaruvchi ixtiyorida mavjud bo'lgan vaqt miqdoridir. Iqtisodiyotning tarmoqlari o'rtasida resurslarni (ishchi kuchi, uskunalar, xom ashyo) qayta taqsimlash ma'lum muddatni talab etadi. Binobarin, tadbirkorlar ixtiyoridagi vaqt qancha ko'p bo'lsa, ular ishlab chiqarishning tuzilishini o'zgargan bozor sharoitiga moslashtirish uchun shunchalik katta imkoniyatga ega bo'ladilar hamda taklifning egiluvchanligi ham ortadi.

Egiluvchan taklifli vaziyatda bilvosita soliq joriy etilganda ishlab chiqaruvchilar mahsulot tayyorlash hajmini osongina qisqartirib, shu hisobdan bozorda narxni ko'tarishlari ko'rsatilgan. Bunday holatda soliq yukining katta qismi xaridor zimmasiga o'tkaziladi. Aksincha, taklif egiluvchan bo'limganida ishlab chiqaruvchilar mahsulot tayyorlash hajmini keskin darajada qisqartira olmaydilar va bozorda narx deyarli o'zgarmaydi. Bunday holatda soliq to'lovlarining asosiy qismini

tadbirkorlarning o'zлari qoplaydilar. Shunday qilib, soliq narxning o'sishi orqali iste'molchi zimmasiga o'tishi mumkin. Soliqning iste'molchi zimmasiga o'tkazilishi bozorning o'ziga xos xususiyatlariga, bozor talabi va taklifiga bog'liqdir. Agar tovarga talab barqaror bo'lsa, ya'ni kam egiluvchan vaziyatlarda soliqlarni iste'molchilar zimmasiga mahsulot bahosini ko'tarish yo'li bilan o'tkazishi mumkin. Agarda talab egiluvchan bo'lsa, bahoni ko'tarishga bo'lgan intilish tovar hajmining, shunga tegishli ravishda ishlab chiqarish, foyda va soliq hajmlarining kamayib ketishiga olib keladi. Talabning egiluvchanligi soliqqa tortishni tartibga solib turuvchi va cheklaydigan omildir.

5. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida soliqlar va investitsiyalarning o'zaro bog'liqligi.

Mamlakat iqtisodiyotin imodirnizatsiyalash jarayonida moliya tizimining eng muhim va murakkab unsuri bo'lgan moliyaviy resurslarning shakllanishi va ularning byudjet tizimidagi taqsimplanishi alohida o'rinnegallaydi. Moliyaviy resurslar avvalo xo'jalik yurutuvchi subyektlar faoliyatida yuzaga keladi va bu jarayonda qayta taqsimplanib, davlatning moliyaviy resurslarini shakillantiradi.

Davlat moliyaviy resurslarini mavjud bo'lshining eng muhim obyektiv omillaridan biri- bu davlatni o'z funksiyalarini amalga oshirish uchun muayyan miqdorda moliyaviy mablag'larga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqadi.

Amalga oshirilgan byudjet-soliq siyosati birinchidan, iqtisodiyotning istiqbolli soha va tarmoqlarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimida muhim fiskal omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Ikkinchidan, amaldagi faol ijtimoiy siyosat va kuchli ijtimoiy himoya tizimlarini shakllantirishda davlat byudjetiga alohida vazifalar yuklatilgan bo'lib, ushbu vazifalarni samarali ijrosi ta'minlanmoqda. Keyingi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida davlat moliyasining barqarorligi kuzatildi.

Soliq tizimi - iqtisodiyotni rivojlantirish uchun investitsiya faoliyatini qo'llab quvvatlashning samarali mexanizmini o'zida mujassam etishi lozim. Mamlakatda sog'lom investitsion muhitni shakllantirish murakkab makroiqtisodiy jarayonlardan biridir.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, har qanday xorijiy investor biror-bir mamlakatga o'z investitsiyasini kiritishdan oldin ushbu mamlakatdagagi investitsion iqlim to'g'risida tahliliy ma'lumotlarga ega bo'lsh maqsadida mahalliy konsalting xizmatlariga murojaat qiladi. Soliq maslahati ana shunday xizmatlar orasida muhimi bo'lib, u mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda katta ijobjiy ahamiyat kasb etadi. Aynan soliq maslahatchilarini tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar xorijiy investorlarga mahalliy soliq tizimi to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lsh, ularning o'z faoliyatlarini soliq qonunchiligiga rioya etgan holda samarali tashkil etish, shuningdek mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish imkonini beradi.

Soliq mexanizmidagi o'zgarishlar yalpi talab va yalpi taklifning o'zgarishiga ta'sir qilishi bilan birgalikda, investitsiyalar o'zgarishiga ham ta'sir etadi. Bunday

olib qaraganda soliqlar va investitsiyalar o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Soliqlar vositasida yangidan yaratilgan qiymatning davlat va soliq to'lovchilar o'rtasida taqsimlanishi soliqlar va investitsiyalar o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlaydi. Soliqlar bo'yicha engilliklar berilishi ko'p jihatdan soliq to'lovchilarni ishlab chiqarishga rag'batini kuchaytiradi, ularda ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilish moyilligini kuchaytiradi. O'z navbatida soliqlar vositasida investitsiyalarning rag'batlanrilishi kelajakda davlat byudjetiga undiriladigan soliq bazasini kengayishiga xizmat qiladi. Masalan, bu holatni birgina misol bilan izohlashimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishni rag'batlanrilish hamda ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlarining o'zaro munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 2002 yil 13 noyabrdagi 390-sون Qaroriga muvofiq yuqori sifatli, raqobatbardoshli iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni ko'paytirishni va ularning assortimentini kengaytirishni rag'batlanrilish, ichki iste'mol bozorini ular bilan yuqori darajada to'ldirish maqsadida 2003 yildan 2008 yilga qadar yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona soliq, ayrim turdag'i tovarlarga nisbatan belgilangan aktsiz solig'i, yer solig'i bo'yicha bir qator imtiyozlar belgilanganki, ushbu imtiyozlar vositasida korxonalarining investitsiya mablag'lari kengaytirilishiga erishishi asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Ushbu qayd etilgan imtiyozlarning eng xususiyatlari tomoni shundan iboratki, imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo'shaydigan mablag'lar korxonalar tomonidan faqat ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish, ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlarining assortimentini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq tadbirdargagina sarflanishi mumkin yoki boshqacha qilib aytganda bo'shaydigan mablag'lar yuqoridagi tadbirdargagina investitsiya qilinishi mumkin. Aks holda, ya'ni bo'shaydigan mablag'lardan boshqa maqsadlarda foydalanilgan hollarda ushbu mablag'lar, amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan jarimalarni hisobga olgan holda to'liq hajmda byudjetga undiriladi.

Soliqlar bilan investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni yoritar ekanmiz, shuni alohida qayd etishimiz lozimki, investitsiyalarning o'sishi ham o'z navbatida soliqqa tortiladigan bazaning oshishiga olib keladi. Yuqoridagi misolimizga qaytadigan bo'lsak, malakatimiz soliq tizimida amal qilayotgan ushbu imtiyozlar investitsiyalarni o'sishiga olib kelishi bilan birgalikda soliq bazasini ham kengayishiga xizmat qiladi.

Soliqlar vositasida yangidan yaratilgan qiymat ko'proq miqdorda davlat tomonidan o'zlashtirilsa korxonalarining ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini cheklaydi. Lekin bunda shuni ham ta'kidlash o'rinniki, buning ham ayrim ijobjiy jihatlari mavjud. Ma'lumki, davlat siyosatining muhim yo'naliшlaridan biri norentabel sohalarga investitsiya kiritishdan iborat. Ishlab chiqaruvchilarga qanchalik imtiyozlar berilgan bilan ularda norentabel sohalarni investitsiya qilishga moyillikni kuchaytirmaydi. Chunki, ularning bunday faoliyati ularga kelajakda foyda bermaydi. Ana shuning uchun davlat soliqlar hisobiga shakllantirilgan mablag'lar hisobidan ana shunday sohalarga investitsiya kiritishini

ham qaysidir ma'noda soliqlar va investitsiyalar o'rtasidagi aloqadorlikning bir ko'rinishi sifatida izohlash mumkin.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chucurlashtirish, korxonalarning investitsion faolligini tezlashtirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda birinchi navbatda investitsiyalarning ahamiyati yuqoriligini ta'kidlash lozim. Bularning natijasida ilg'or texnologiyalar tatbiq etiladi, yangi ish o'rnlari yaratiladi va shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarning, xususan xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy topishida asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilgan. Shuning uchun bugungi kunda davlat oldida turgan muhim vazifalardan biri real investitsiyalarning o'sishi va ular samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib berishdan iborat. Mamlakatda investitsion jarayonlarni rag'batlantirish maqsadida davlat soliq instrumentlaridan ham foydalanilishi sir emas.

Har qanday mamlakat iqtisodiyotida innovatsion taraqqiyotni amalga oshirishning asosiy omillaridan biri davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bilan belgilanadi. Bu qo'llab-quvvatlashlar boshqa iqtisodiy shart-sharoitlar bilan birgalikda, soliqlardan berilgan turli imtiyozlar va preferentsiyalarda ham namoyon bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bugungi kunda davlatning bosh vazifasi iqtisodiyotni modernizatsiyalashga qaratilgan rag'batlantiruvchi soliq mexanizmlaridan foydalanish asosida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hamda umummilliy manfaatlarni uyg'unligini ta'minlashdan iborat.

Mamlakatimizda bevosita xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga yanada kengroq imkoniyatlar yaratish, sanoat tarmoqlarida modernizatsiya, texnik va texnologik qayta jihozlash jarayonlarini faollashtirish, eksportbop va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, korxonalarda innovatsion faoliyatni yo'lga qo'yish orqali yangi tovar va xizmatlar turlarini ishlab chiqarishni kengaytirish hamda tayyor mahsulot sotishning istiqbolli bozorlarini o'zlashtirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonuniy baza yaratilgan. Ushbu normativ-huquqiy hujjalarning tizimli ravishda amal qilishi borasida qator ishlar olib borilmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni ko'proq jalb qilish masalasi bevosita tashqi iqtisodiy faoliyatda olib borilayotgan siyosatga ham bog'liq. Tahliliy ma'lumotlarning ko'rsatishicha, xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish 2011-2015 yillar davomida o'tgan davrga nisbatan 1,7 baravar o'sgan va jami 13 milliard dollardan ko'proq miqdorni tashkil etadi. Ushbu miqdorning qarayib 75%ni to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar tashkil etishi ayniqsa ahamiyatga moliq jihat hisoblanadi.

Yana shu narsani ta'kidlash kerakki, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasida berilgan soliq imtiyozlari milliy iqtisodiyotni tartibga solishda zaruriy vosita bo'lib xizmat qiladi. Soliq imtiyozlarini berilishi, soliq stavkasini

o'zgartirish orqali davlat iqtisodiy faollikni rag'batlantirishi yoki aksincha, cheklab qo'yishi ham mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsion faolligini kuchaytirishning bosh omili ular uchun soliqlar orqali tartibga solishning samarali vositalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 yanvarda qabul qilingan "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Xozarasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4931- sonli Farmoni alohida ahamiyatlidir⁵⁵. Farmonga asosan Samarqand, Buxoro, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, shu asosda yangi ish o'rirlari tashkil etish hamda aholi daromadlarini oshirish orqali hududlar mahalliy byudjet daromadlari bazasini kengaytirish belgilangan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini ta'minlash, xususiy mulkni himoya qilish va uning daxlsizligi kafolatlarining huquqiy mexanizmlarini yanada mustahkamlash, tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi byurokratik to'siklarni bartaraf etish, respublikada investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabridagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848-ton Farmoni o'z ahamiyatli jihatlari bilan dolzarbdir⁵⁶.

Farmonga ko'ra, 2017 yilning 1 yanvaridan boshlab, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangidan tashkil etiladigan ishlab chiqarish korxonalariga ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish vaqtida amalda bo'lgan soliq va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarini (resurs va bojxona to'lovleri bundan mustasno) besh yil mobaynida qo'llash huquqi berildi. Shuni qayd etish zarurki, ushbu imtiyoz investitsiya sifatida kiritilgan mablag'lar mikdoridan qat'iy nazar, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi barcha korxonalarga tatbiq etiladi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlanish uchun qulay shart-sharoit yaratish, xususiy mulk muhofazasi va kafolatlarining huquqiy mexanizmlarini yanada mustahkamlash, tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida byurokratik to'siklarni bartaraf etish, investitsiya muhiti va ishbilarmonlik holatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar izchil ravishda amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 iyundagi "Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlanish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5087-ton

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 yanvarida qabul qilingan "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4931-ton Farmoni. www.lex.uz.

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabridagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848-ton Farmoni. www.lex.uz.

Farmoni muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu Farmonga ko'ra, Respublikamiz tadbirkorlik sub'ektlarining xalqaro ishbilarmonlik hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, mahalliy korxonalar mahsulotlarining tashqi bozorlarga chiqarilishini ta'minlash, milliy brendlarni xorijda faol ilgari surish, ma.halliy va xorijiy investitsiyalarni, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni jalb etishda, jumladan, tashkil etilgan kichik sanoat va erkin iqtisodiy zonalarda ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etishga oid loyihalarni amalga oshirish doirasida tadbirkorlik sub'ektlari, jumladan xorijiy investorlarga har tomonlama yordam ko'rsatish vazifasi alohida belgilab berildi.

Rivojlangan davlatlarning soliq qonunchiligidagi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga nisbtana turli tuman soliq imtiyozlari qo'llaniladi va ular shuningdek muhim iqtisodiy yo'naliishlarni rivojlanishini rag'batlantirish maqsadida ham keng qo'llaniladi.

Fikrimizcha, investitsion jarayonlarni soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirilishi hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda soliq mexanizmini takomillashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- innovatsion faoliyat natijasida yangi turdag'i mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi sohalarga real soliq majburiyatlarini kamaytiruvchi rag'batlantirish tizimini qo'llash;

- mamlakat hududlarning daromadlarini shakllantirish borasidagi mustaqilligini oshirish maqsadida ularning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib manzilli soliq imtiyozlarini qo'llash;

- qishloq xo'jaligi sohalarida qayta ishlash jarayonini rivojlantirishga xizmat qiluvchi xorijiy investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish.

Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'naliishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor e'tibor berilmoqda. Eng muhimi, xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay, har tomonlama imtiyozli investitsiya muhiti yaratilgan.

10-mavzu: Soliq ishini tashkil etish asoslari

Reja:

- 1. Soliq xizmati va bojxona organlari faoliyatining huquqiy asoslari.**
- 2. O'zbekiston Respublikasi soliq xizmati organlarining tarkibiy tuzilishi.**
- 3. Davlat soliq qo'mitasining vazifalari va funktsiyalari.**
- 4. Soliq xizmati organlarining boshqa organlar va tashkilotlar, moliya-kredit muassasalari bilan o'zaro hamkorligi.**
- 5. AQSh soliq tizimida soliq idoralari faoliyati.**

Tayanch so'z va iboralar: soliq xizmati organlari, soliq idoralarining tuzilishi, bojxona organlari, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat soliq idoralari vazifalari, Davlat soliq idoralari vakolatlari, ichki soliq xizmati.

1. Soliq xizmati va bojxona organlari faoliyatining huquqiy asoslari.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining to'liq va barqaror yig'ilishini ta'minlash, davlatning moliya tizimi mustahkamligining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda, mazkur masalaning echimi soliq ma'murchiligi bilan uzviy bog'liq bo'lib, mamlakatimiz soliq tizimini takomillashtirish xususiy biznes va davlat o'rtaсидagi optimal munosabatlarni shakllantirish, soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligi sifatini yaxshilash ushbu jarayonning asosiy yo'naliшlaridan biri hisoblanadi.

Soliqlar yordamida iqtisodiyotni tartibga solish davlatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy masalalaridan bo'lib, uning yo'naliшi mamlakatning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini to'liq bajarilishini ta'minlashga qaratiladi.

Soliq ma'murchiligi qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni hisoblash, davlat byudjetiga o'tkazish va soliq qonunchiligini bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish bo'yicha soliq to'lovchilar va davlat organlari faoliyatini o'z ichiga oladi.

Soliq ma'murchiligi davlat tomonidan soliq munosabatlarini boshqaruв tizimi sifatida qaralib, davlat tomonidan ushbu boshqarishni amalga oshirish uchun uning usullari va shakllari belgilab olinadi. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va bozor iqtisodiyotiga o'tilishi iqtisodiy rivojlanishning yangicha shart-sharoitlari soliqqa tortishning mutlaqo yangi tizimini joriy qilishni talab qildi va bunday tizimning birmuncha optimal darajada amal qilishini ta'minlaydigan mexanizmning yangi tuzilmasini yaratishni taqozo etdi.

Respublikamizda hozirda amal qilayotgan soliq va bojxona idoralari tizimi o'zining muayyan tarixiga ega. Soliq idoralari sobiq Ittifoqda 60-yillarda ham mavjud edi va ularning tuzilmasi, tabiiyki, O'zbekiston hududida ham amal qilardi. Keyinchalik ular faoliyati to'xtatib qo'yildi va faqat 1990 yil 12 mayda qabul qilingan «Davlat soliq inspektsiyalarining huquqlari, vazifalari va mas'uliyati to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, 1990 yilning 1 iyulidan boshlab qayta tiklandi. Biroq bu tuzilmalar moliya organlari tizimida amal qilar edi.

Respublikamizda soliq idoralari faoliyati 1990 yilning oxirida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshida Davlat moliya-soliq bosh boshqarmasini tashkil qilish to'g'risida»gi Qarori (1990 yil 17 dekabrdagi 383-sonli) qabul qilinganidan so'ng faollasha boshladi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining «O'zbekiston Respublikasining davlat soliq idoralari to'g'risida»gi 1991 yil 14 iyundagi Nizomi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasining davlat soliq idoralari to'g'risida»gi 1991 yil 12 avgustdaggi 217-sonli Qarori qabul qilinganidan keyin davlat nazorati va boshqaruvining mustaqil tuzilmasi sifatidagi soliq idoralarining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishiga asos solindi. Respublika davlat boshqaruvining mazkur tuzilmasi 1994 yilgacha, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasini qoshidagi Davlat bosh soliq boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga aylantirilgunga qadar faoliyat ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining maqomi, asosiy vazifalari, funktsiyalari vakolat doirasi va faoliyatining tashkiliy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini qoshidagi Davlat bosh soliq boshqarmasini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga aylantirish to'g'risida»gi 1994 yil 18 yanvardagi Farmoniga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tashkil etish va faoliyat ko'rsatishi masalalari to'g'risida»gi 1994 yil 18 martda qabul qilgan Qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida»gi Nizomga binoan belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ushbu qaroriga binoan Davlat soliq qo'mitasi soliq va bojxona siyosatini amalga oshirish, shuningdek davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlari himoyasini ta'minlash sohasida davlat nazorati organi ekanligi belgilab qo'yildi.

1997 yil bojxona ishini tashkil etishni takomillashtirish, yagona bojxona siyosatini olib borish, respublika bojxona organlari faoliyatining tezkorligi va ta'sirchanligini oshirish, ularning mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashdagi rolini kuchaytirish, shuningdek, bojxona ishi sohasida xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasi tashkil etish to'g'risida»gi 1997 yil 8 iyuldaggi PF-1815-son Farmoniga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 1997 yil 30 iyuldaggi 374-son Qaroriga muvofiq Davlat Bojxona Qo'mitasi tashkil etildi, ya'ni soliq va bojxona faoliyatining funktsiyalari bir biridan ajratildi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi 1997 yil 29 avgustdaggi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 1998 yil 12 yanvardagi Qaroriga muvofiq soliq organlarining asosiy funktsiya va vazifalari belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrining davlat soliq boshqarmalari, viloyat davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar, shaharlar va shaharlardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari davlat soliq xizmatining quyi organlari hisoblanadi.

Davlat soliq xizmati organlari o'z faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonun va boshqa qonun hujjatlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Prezident farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga amal qiladi.

Davlat soliq xizmati organlari o'z faoliyatini davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy organlaridan mustaqil ravishda, qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida qabul qilinadigan qarorlar barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy hisoblanadi.

2. O'zbekiston Respublikasi soliq xizmati organlarining tarkibiy tuzilishi.

Davlat boshqaruvi organining tashkiliy tuzilishi (ichki tuzilmasi) deganda uning huquqiy va tashkiliy jihatdan nisbatan mustaqil va alohida tusdagi bir-biriga o'zaro bog'langan bo'linmalarining uyushmasi tushuniladi, ularning har biri alohida tarzda va barchasi birgalikda davlat vakolatlarining amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Organning tuzilishi unga yuklangan vakolatlarning samarali tarzda bajarilishini, har bir tarkibiy bo'linmaning vakolatlari va mas'uliyatining aniq chegaralab qo'yilishini, hammaning yagona bir butun mexanizmning unsurlari sifatida kelishilgan holda ish olib borishini ta'minlashi lozim. Davlat soliq qo'mitasi tuzilmasi va faoliyatini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 1998 yil 12 yanvardagi 14-son Qarori bilan tasdiqlangan «Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida»gi Nizomga va unga kiritilgan o'zgarishlarga asosan belgilangan.

Respublika soliq idoralarining tuzilishi bu uch darajali ierarxiya bo'lib, u markaziy idora, ya'ni Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, viloyatlar soliq boshqarmalarini hamda tumanlar va shaharlardagi soliq inspekpiyalarini o'z ichiga oladi.

Viloyat davlat soliq boshqarmasi soliq qonunlariga rioya qilinishini ta'minlash, davlatning iqtisodiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish sohasidagi davlat nazoratinining hududiy organi hisoblanadi.

Viloyat davlat soliq boshqarmasi O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi Nizomning bajarilishini ta'minlashda mahalliy bojxona idoralari bilan bahamjihat harakat qilinishini amalga oshiradi.

Tumanlardagi, shaharlardagi va shaharlar tumanlaridagi davlat soliq inspeksiyalari davlat soliq boshqarmasi tasarrufida bo'lgan va u bilan birgalikda soliq idoralarining bir yagona tizimini tashkil etadigan idoralar hisoblanadi.

Davlat soliq boshqarmasi o'zining faoliyati to'g'risida faqat O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi oldida javob beradi. Soliq inspekpiyasi esa o'zining bevosita rahbari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari oldida javob beradi.

Soliq inspeksiya Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi Nizomga amal qilgan holda ushbu Nizomning uning vakolatlariga tegishli talablarini to'liq amalgaga oshiradi. Tuman (shahar) soliq inspeksiya idorasining tuzilishi va xodimlar soni Qoraqalpog'iston Respublikasining Davlat soliq bosh boshqarmasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari tomonidan Davlat soliq qo'mitasi belgilagan ish haqi fondi va xodimlar soni doirasida tasdiqlanadi.

Davlat soliq qo'mitasining tuzilmaviy bo'linmalari, odatda, funktsional asosda tashkil etiladiki, uning mohiyati rahbarlikning mustaqil funktsiyalarga taqsimlanishi va har bir ana shunday funktsiyani maxsus tuzilmaviy bo'linmaning (boshqarma, bo'lim, sektor) amalgaga oshirishidan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tuzilishining negizini quyidagicha uchta tamoyil tashkil etadi.

Nazorat-muvofiqlashtiruvchi - tarmoqli tamoyil (savdo, xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini nazorat qilish, umumiy ovqatlanish korxonalarini nazorat qilish bo'limlarini o'z ichiga oladigan savdo va xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini nazorat qilish boshqarmasi; dehqonchilik - sanoat majmui korxonalarini taftish qilish bo'limi) nazorat-muvofiqlashtiruvchi - funktsional tamoyili (jismoniy shaxslarni, yuridik shaxslarni soliqqa tortish boshqarmalari) bilan birga qo'shib olib boriladi.

Nihoyat, tuzilmaviy bo'linmalar funktsional bo'linmalar (ular orasida mablag' bilan ta'minlash, buxgalterlik hisobi va hisoboti bo'limi va shu kabilar bor) va markaziy idoraga xizmat ko'rsatadigan bo'linmalar kotibiyati, rais huzuridagi inspeksiya va shu kabilar bilan to'ldiriladi.

Davlat soliq qo'mitasining tuzilmaviy bo'linmalari ushbu boshqaruv organining ishchi idorasi hisoblanadi. Ularning faoliyati rang-barang bo'lib, mazkur organ funktsiyalarining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Bu bo'linmalar turli materiallarni tayyorlaydi, Davlat soliq qo'mitasining boshqaruviga taalluqli o'zga faoliyatni bajaradi, shu jumladan muvofiqlashtirish tusidagi funktsiyalarni bajaradi, maslahatlar beradi, fikr-mulohaza va xulosalar taqdim etadi, loyihalarning ekspertizasini o'tkazadi, hujjatlarning loyihalarini, yuqori hokimiyat va boshqaruv organlariga takliflarni tayyorlaydi.

Boshqaruv organlarining butun faoliyati, barcha tashkiliy munosabatlari va huquqiy munosabatlari organning o'z vakolatlarini amalga oshirishining natijasi hisoblanadi. Idoraning vakolatida boshqaruvning irodaviy mazmuni hammadan ko'prok namoyon bo'ladi. Davlat huquqiy normalarni chiqarish yo'li bilan

boshqaruv idorasining vakolatini belgilar ekan ushbu organning har qanday sohadagi hatti-harakatlarining chegaralarini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 iyundagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi № pq-3802-sonli Qarorida O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini va 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi **bo'yicha** Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida soliq ma'muriyatichiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlari belgilab berildi.

Jumladan:

birinchidan, davlat soliq xizmati organlarini soliq to'lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imidjini yaratish orqali xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan "Soliq xizmati - insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori" degan maqsadli vazifani so'zsiz bajarish;

ikkinchidan, eksterritoriallik printsipi asosida soliq to'lovchilar o'z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishi, biznesni qonuniy, shaffof va qulay yuritish uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish, soliq to'lovchilarning qoniqish darajasining oshishini ta'minlash;

uchinchidan, soliq ma'muriyatichiligi va nazoratining mutlaqo yangi tizimini yaratish, shuningdek, korruptsiyaviy omillarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha preventiv va oldini olish choralarini qo'llash;

to'rtinchidan, soliq to'lovlarining o'z vaqtida va bir xildagi tushumini ta'minlash, ma'muriy tartib-taomillarni maksimal darajada kamaytirish va soddallashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va iqtisodiyotda xufiyona aylanmalarni qisqartirish hisobiga byudjetlarning daromad qismini barqaror shakllantirish;

beshinchidan, tekshiruvdan oldingi tahlil va masofaviy nazorat-tahlil ishlarini amalga oshirish uchun ma'lumotlarni to'liq yig'ish va qayta ishlashni ta'minlaydigan zamonaviy, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish choralarini yanada kuchaytirish;

oltinchidan, davlat soliq xizmati organlari xodimlariga korporativ etikani singdirish, davlat soliq xizmati organlarining strategik maqsad va vazifalariga erishish uchun o'z xizmat faoliyati samaradorligini oshirish motivatsiyasi tizimini joriy etish.

2019 yil 1 yanvardan davlat soliq xizmati organlari xizmat ko'rsatish, savdo va umumiyl ovqatlanish sohasidagi tadbirkorlik sub'ektlari uchun yagona soliq to'lovini, yagona er solig'ini, yuridik shaxslardan er solig'ini, shuningdek, bank aylanmalari haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, boshqa tashqi manbalar asosida deklaratsiya qilinadigan daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash tarzida soliq to'lovchilarga servis xizmatlari ko'rsatadi hamda hisoblangan soliqlar summasi haqida soliq to'lovchining "shaxsiy kabineti" orqali xabarnoma yuboradi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi, Markaziy banki va Savdo-sanoat palatasi bir oy muddatda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish yakuniga ko'ra tashqi ma'lumotlar va soliq to'lovchilarning deklaratsiyalari asosida davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar ro'yxatini bosqichma-bosqich kengaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni tasdiqlasini.

2018 yil 1 oktyabrdan:

davlat soliq xizmati organlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida o'tkazilgan xronometraj natijalariga ko'ra oxirgi hisobot davri uchun tovar (ish, xizmat)lar realizatsiyasidan kamaytirib ko'rsatilgan tushumni va xodimlar sonini qayta hisob-kitob qilgan holda soliqlarni hisoblashni amalga oshirish haqida talabnama yuboradi, kamaytirib ko'rsatish takroran aniqlanganda, ushbu harakatlar soliq to'lashdan bo'yin tov lash sifatida malakalanadi;

uchinchi shaxslar tomonidan soliq to'lovchi-jismoniy shaxs uchun to'langan soliq summasi soliq to'lovchining soliq solinadigan daromadi hisoblanmaydi;

davlat soliq xizmati organlari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash uchun asos bo'ladigan ko'zdan kechirish dalolatnomasini tuzish orqali soliq to'lovchilarning pasportlashtirilishini yuritadi.

Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini samaradorligini baholashning quyidagi asosiy mezonlari belgilandi:

davlat soliq xizmati organlari ishining sifatini qoniqarli baholaydigan soliq to'lovchilar, shuningdek, ularning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlarning soni;

kameral nazorat natijasi bo'yicha undirilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining umumiy summasi;

xronometraj va ko'zdan kechirish natijalari bo'yicha aniqlangan davlat byudjeti daromadlarini oshirish zaxiralari summasi va ularni undirish darajasi;

pasportlari tuzilgan soliq to'lovchilarning soni;

hisoblangan soliq va boshqa majburiy to'lovlar undirilishining to'liqligi va soliq qarzdorligining pasayish darajasi;

davlat soliq xizmati organlari bilan o'zaro munosabatlarda "shaxsiy kabinet" dan foydalanish darajasi;

elektron hisobvaraq-fakturalarni hisobga olish va onlayn nazorat-kassa mashinalarini avtomatlashtirilgan monitoring qilish bo'yicha dasturiy mahsulotlarni qo'llayotgan soliq to'lovchilarning qamrab olinishi.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko'zda tutilmagan xaratjatlar maxsus jamg'armasi (keyingi o'rirlarda Maxsus jamg'arma deb yuritiladi) hisobidan quyidagi summalarining 10 foiziga qadar miqdorda mukofotlanishi belgilandi:

kameral nazorat natijasi bo'yicha undirilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;

bir oy mobaynida xronometraj va pasportlashtirish natijasi bo'yicha aniqlangan, soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq;

soliq tekshiruvlari natijasi bo'yicha undirilgan soliqlar.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bir oy muddatda yakuniy natijalarga erishishdan kelib chiqib davlat soliq xizmati organlari faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini va ularni moddiy rag'batlantirish chora-tadbirlari tasdiqlandi.

Davlat soliq xizmati organlariga quyidagi huquqlar berildi:

soliq to'lovchi qayd etilgan manzilda bo'limgan, shuningdek, soliq to'lovchi tomonidan soliq yoki moliyaviy hisobot, kameral nazorat natijalari yuzasidan tafovutlarning asoslari yoxud aniqlashtirilgan soliq hisoboti belgilangan muddatda taqdim etilmagan hollarda soliq to'lovchi-yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish;

davlat ulushlari bo'yicha dividendlarni va davlat unitar korxonalarining sof foydasidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga ajratmalarini undirish;

soliq to'lovchi tomonidan taqdim etiladigan axborotning ishonchlilagini hamda soliq to'lovchining hisobotlarida aks ettirilgan soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llashning qonuniyligini tasdiqlash uchun kameral nazorat natijasi bo'yicha joyiga chiqqan holda mavzuga oid va ekspress-o'rganishlarni amalga oshirish;

yuzaga kelgan soliq qarzdorligini soliq to'lovchi-jismoni shaxslarning plastik kartalariga xizmat ko'rsatuvchi bank hisobvaraqlaridan oyiga eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdoridan ko'p bo'limgan summada so'zsiz hisobdan chiqarish.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tuzilmasida:

yirik soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish, jumladan, soliq hisobotlarini qabul qilish, kameral nazorat o'tkazish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish majburiyati yuklatilgan Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiysi;

davlat soliq xizmati organlari faoliyatining samaradorligini baholash va ularning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan Tahlil boshqarmasi tashkil etildi.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining
TAShKILIY TUZILMASI**

**O'zbekiston Respublikasi
Davlat soliq qo'mitasi**

**Qoraqalpog'iston Respublikasi,
viloyatlar va**

**Toshkent shahar davlat soliq
boshqarmalari**

**Tuman (shaxar)lar davlat
soliq inspekteziyalari**

**Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha
hududlararo davlat soliq
inspekteziyasi**

**O'zbekiston Respublikasi Davlat
soliq qo'mitasi
huzuridagi Malaka oshirish
markazi**

**Toshkent, Buxoro va Farg'onan
soliq kollejlari**

"Soliq-servis" davlat unitar
korxonasi*

"Yangi texnologiyalar" ilmiy-
axborot
markazi" davlat unitar
korxonasi*

"Xumson sanatoriysi" davlat
unitar korxonasi*

"G'azalkent sog'lomlashtirish
markazi"
davlat korxonasi*

"Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi
direktsiyasi"
davlat unitar korxonasi*

"Davolash-sog'lomlashtirish
majmuasi"
davlat muassasasi*

**) Xo'jalik hisobidagi idoraviy muassasalar*

3. Davlat soliq qo'mitasining vazifalari va funktsiyalari.

Davlat soliq qo'mitasining huquqlari uning boshqaruv faoliyati to'g'risida tasavvur beradi. Davlat idorasining huquqlari – biron bir vazifani amalga oshirish mumkinligi me'yordir, uning burchi esa - mazkur vazifani tegishlicha amalga oshirish me'yordir. Davlat idorasining funktsiyasi tegishlicha hatti-harakat me'yeri sifatida biron-bir boshqaruv harakatini ko'rsatish chog'ida kamroq konkretlashtirilgan burchdan farq qiladi, me'yoriy tarzda umumiyligida qaratilishi ifodalangan bir qator tipik burchlarning umumlashgani sifatida qaratilishi.

Huquqlar bilan majburiyatlar o'rtasidagi farq ularni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Huquqlar davlat organiga u yoki

boshqa masalalarni hal etishda tanlash erkinligini beradi. Majburiyatlar organning faoliyat yuritishini qat'iy tartibga solib turadi, ularni amalga oshirish shart-sharoitlari esa, qonunda aniq ifodalangan bo'lishi lozim.

Davlat soliq xizmati organining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- soliq qonun hujjatlariga rioxaliga etilishi, soliqlarning to'g'ri hisoblanishi, soliqlar to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- soliq qonun hujjatlariga rioxaliga etishda zarur shart-sharoitlarni ta'minlash, soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga yordam ko'rsatish;
- soliq siyosatini amalga oshirishda bevosita ishtirok etish;
- soliq solish sub'ektlari va ob'ektlarini to'liq va o'z vaqtida hisobga olishni ta'minlash;
- soliqqa doir xuquqbazarliklarni aniqlash, oldini olish va bartaraf qilish;
- nazorat qiluvchi organlar tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish va taftish qilishlarni muvofiqlashtirish.

O'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq Davlat soliq qo'mitasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Qonun hujjatlariga rioxaliga qilinishi, soliqlar to'g'ri hisoblangani, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi, ana shu maqsadda:

- soliq solish ob'ektlari va sub'ektlarini hisoblangan va to'langan soliqlarni to'liq hamda o'z vaqtida hisobga olishni, jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishining qonun hujjatlarida belgilangan tartibga rioxaliga qilinishi ustidan nazoratni ta'minlashga doir;
- soliq qonun hujjatlarini buzish faktlarini to'plash, tahlil qilish va baholashga hamda soliqqa oid huquqbazarliklarga imkon beruvchi sabab va sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritishga doir;
- yuridik va jismoniy shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularni ro'yxatga olish (identifikatsiya) raqamlarini bergen holda soliq to'lovchilar sifatida ularni hisobga qo'yish haqida hujjatlarni berishga doir;
- soliqlar tushimini ta'minlash ishida topshiriqlarni bajarish natijalarini tahlil qilishga doir;
- jismoniy shaxslar daromadlarini yalpi deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etishga doir;
- xorijiy investorlarning investitsiya faoliyatini soliqlar yordamida tartibga solish choralarini ishlab chiqishga, hukumatlararo bitimlar va shartnomalarni tayyorlash va tuzishga, soliq siyosatini, shuningdek, ikki tomonlama soliq solishni bartaraf etish bo'yicha bitimlarni muvofiqlashtirishga doir;
- muddatida to'lanmagan soliqlarni undirishga, musodara qilingan, egasiz mol-mulk, xazinalarni, shuningdek, meros qoldirish huquqi buyicha davlatga yoki fuqarolarning o'zini- o'zi boshqarish organlariga o'tgan mol-mulkni hisobga olish, baholash va sotish ustidan nazorat qilishga doir ishlarni tashkil etadi.

2. Yagona umumdavlat soliq siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi, ana shu maqsadda:

- soliq qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha uslubiy ishlarni olib boradi;

- O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi va O'zbekistan Respublikasining boshqa vazirlik hamda idoralari bilan hamkorlikda O'zbekistan Respublikasi hududida ijro etish uchun majburiy bo'lgan soliq qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha yo'riqnomalar va boshqa me'yoriy hujjatlarni belgilangan tartibda e'lon qiladi;

- byudjetga soliqlar tushishi prognozini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

- soliqlarni hisoblab yozish va to'lash bilan bog'liq hisob-kitoblar, deklaratsiyalar va boshqa hujjatlar shakllarini ishlab chiqadi;

- soliq qonun hujjatlari bo'yicha me'yoriy hujjatlar to'plamlarini tayyorlaydi va nashr etadi. O'z qo'l ostidagi organlarni qonun va yo'riqnomaviy materiallar, soliq to'lovchilarni hisobga olish shakllari bilan ta'minlash bo'yicha choralar ko'radi.

3. Yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonunlarda muhofazalanadigan manfaatlarini himoya qiladi, soliq solish masalalari va soliq qonun hujjatlarini buzishlar bo'yicha shikoyat va arizalarni belgilangan tartibda ko'rib chiqadi, ana shu maqsadda:

- soliq qonun hujjatlari masalalari bo'yicha me'yoriy hujjatlarni soliq to'lovchilarga o'z vaqtida etkazilishini ta'minlaydi;

- soliq qonun hujjatlari to'g'risidagi axborotni nashr etish, ko'paytirish va qo'l ostidagi tashkilotlarga etkazish uchun servis markazlar faoliyatini, soliq to'lovchilarni soliqlarni to'g'ri hisoblash, hisobot va deklaratsiyalarni taqdim etishga o'rgatishni, shuningdek, maslahat xizmatlari ko'rsatishni tashkil etadi.

4. O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy rivojlantirish yo'naliishlaridan kelib chiqib va davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq qonun hujjatlari qo'llanishi amaliyotini hisobga olib, davlat soliq xizmati organlari ishining ustun yo'naliishlarini belgilaydi, ular faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi, davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari va boshqa me'yoriy hujjatlar loyihibalarini ishlab chiqadi hamda belgilangan tartibda kiritadi.

5. Huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda soliqqa doir huquqbazarliklarga qarshi kurashning uzoq muddatli va joriy dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

6. Soliq qonun hujjatlarini buzishlar to'g'risidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni tekshiradi.

7. Xizmat vazifalarini bajarayotganida davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslari faoliyatining xavfsizligini ta'minlaydi.

8. Qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchi to'g'risidagi ma'lumotlar sir saqlanishiga doir ishlarni tashkil etadi.

9. Qo'l ostidagi bo'linmalar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

10. Davlat soliq xizmati hududiy organlarining kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha ishini tashkil etadi, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ular malakasini oshirishni yo'lga qo'yadi, ana shu maqsadda davlat soliq xizmati organlari idolarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ular malakasini oshirish bo'yicha markazlar tashkil etadi.

11. Davlat soliq xizmati organlari xodimlari lavozimlarining tavsifnomalarini ishlab chiqadi, rahbarlar va mutaxassislarini attestatsiyalashni, ularga belgilangan tartibda maxsus unvonlar berilishini amalga oshiradi.

12. Davlat soliq xizmati organlari ishining samarali bo'lishini ko'zlab:

- soliq axborotini qabul qilish, qayta ishlash, uzatish va saqlashning eng sermehnat jarayonlarini avtomatlashtirish maqsadida soliq, tushumlari, barcha soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarga ishlov berishning yagona kompyuter tizimini yaratadi va undan foydalanadi, soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslarning yagona reestrini shakllantiradi va yuritadi;

- davlat soliq xizmati organlarining moddiy-texnika ta'minotini, materiallar va uskunalarga ajratilgan fondlardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- davlat soliq xizmati organlarining ijtimoiy rivojlanish va moddiy-texnika ta'minoti maxsus fondini to'g'ri shakllantirish, taqsimlash va ishlatish ustidan nazorat qiladi;

- soliqlar va soliq to'lovchilarni hisobga olishning yagona kompyuter tizimini yaratish, davlat soliq xizmati organlarini moddiy-texnikaviy ta'minlash, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradi va xorijiy soliq organlari bilan hamkorlikni rivojlantiradi.

13. Yuridik va jismoniy shaxslarning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish hamda taftish qilishni belgilangan tartibda muvofiqlashtiradi, nazorat qiluvchi organlar tomonidan xo'jalik sub'ektlari moliya-xo'jalik faoliyati tekshirilishi va taftish qilishini to'xtatish to'g'risida takliflar kiritadi. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funktsiyalarni ham bajaradi.

4. Soliq xizmati organlarining boshqa organlar va tashkilotlar, moliya-kredit muassasalari bilan o'zaro hamkorligi.

Davlat soliq idoralari o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarni bajarish va o'z funktsiyalarini amalga oshirish davomida davlatning boshqa idoralari bilan doimiy hamkorlik qiladilar. Davlatning boshqa idoralari bilan o'zaro munosabatlarda aniq soliq idoralarining mazkur vazifa va funktsiyalarini qanday darajada bajarishini ham belgilab beradi.

Davlat idoralari tizimi umumiylashtirish, funktsional va tarmoq idoralarining bir butun holda o'zaro hamkorlik qiluvchi tizimini ifodalaydi. Shu sababli, davlat soliq idoralari davlatning boshqa tashkilotlari bilan o'zaro aloqalari xarakterini o'rghanish mustaqil tahlil va doimiy takomillashish ob'ekti sifatida qaralishi kerak. Soliq idoralarining respublika iqtisodiyotiga huquqiy ta'sirining ko'lami kengligini, mazkur idoralalar ish shakllari va faoliyat mazmunining o'ziga xosligini hisobga olsak, ushbu muammoga katta e'tibor berish juda muhimligi to'g'risida xulosa kelib chiqadi.

Soliq qonunlari so'zsiz ravishda o'zgartirishlarga muhtoj bo'lgan bir sharoitda davlatning soliq tizimi soliqlarning to'g'ri hisoblanishi va ularning byudjetga to'liq miqdorda kiritilishi, soliq idoralarini tashkil etish paytida ular oldiga qo'yilgan

maqsadlarga erishishi, soliq to'lovchilarning munosabatlari, soliq qonunlariga rioya qilinishi ko'p jihatdan respublikadagi soliq, huquqni muhofaza qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlarining muvofiqlashtirilgan tarzdagi amaliy, operativ ravishdagi bahamjihat harakatiga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo'mitasi davlat organlari bilan birgalikda soliq qonunlarining ko'llanilish amaliyotini muntazam tarzda tahlil etadi va umumlashtiradi, ular asosida amaldagi me'yoriy hujjatlarga respublikadagi iqtisodiy vaziyatning rivojlanishini talab qiladigan o'zgartirishlar va qo'shimchalarни kiritish yuzasidan tegishli takliflarni beradi.

Davlat soliq qo'mitasining ishtirokida amalga oshiriladigan ma'muriy-huquqiy munosabatlarni ko'rib chiqarkanmiz, ularning ichida Davlat soliq qo'mitasi davlat boshqaruvining mustaqil sub'ekti sifatida namoyon bo'ladigan munosabatlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Davlat soliq qo'mitasining ishtirokida amalga oshiriladigan ma'muriy-huquqiy munosabatlarni ko'rib chiqarkanmiz, ularning ichida Davlat soliq qo'mitasi davlat boshqaruvining mustaqil sub'ekti sifatida namoyon bo'ladigan munosabatlardir. Davlat soliq qo'mitasining respublikadagi davlat va ijrochilik hokimiyati rahbari Respublika Prezidenti bilan munosabatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi normalarida belgilab berilgan.

Konstitutsiyaning 89-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi, bunda u o'ziga yuklangan vakolatlarga muvofiq ravishda ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi, respublika oliv hokimiyati va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi, O'zbekiston Respublikasi vazirliklarini, davlat ko'mitalarini hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni Oliy Majlis tasdig'iga kiritadi.

Prezident, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini a'zolarini lavozimlarga tayinlaydi va bo'shatadi, respublika boshqaruv organlarining qabul qilgan hujjatlarini to'xtatadi va bekor qiladi, O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi. Prezidentning respublika Konstitutsiyasi va qonunlari asosida va ularni ijro etish yuzasidan chiqaradigan farmonlari ko'pincha direktivalar va aniq vazifalardan iborat bo'ladiki, bunda hukumatning va Davlat soliq qo'mitasining harakatlarining uyg'unligi ta'minlangan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining o'zaro munosabatlari masalasiga kelganda quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Bunday huquqiy munosabatlar uchun quyidagilar asosiy omil hisoblanadi: birinchidan, Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq uning vakolatlariga kiritilgan har qanday masalani, shu jumladan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilishga doir masalani o'zining ko'rib chiqishi uchun qabul qilishga haqlidir.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi 19-bandiga va «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi Qonunga

muvofiq Oliy Majlis Prezidentning vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tashkil etish va tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash Oliy Majlisning favqulodda vakolatlariga kiradi.

Agar respublika Prezidenti davlat boshqaruvi organlarining hujjatlariga nisbatan ularni bekor qilish huquqiga ega bo'lsa, Oliy Majlis bunday yuridik vakolatlarga ega emas. Oliy Majlis o'zining doimiy amal qiluvchi qo'mitalari va komissiyalari orqali Davlat Soliq Qo'mitasiining faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatib turadi.

Shunday qilib, Davlat soliq qo'mitasi bilan Oliy Majlisning bahamjihat harakati avvalo uning qonunchilik funktsiyalarini amalga oshirishi jarayonida namoyon bo'ladi.

Davlat soliq qo'mitasi bilan respublika hukumati, Vazirlar Mahkamasi o'rtaida juda mustahkam o'zaro munosabatlar mavjud. Vazirlar Mahkamasi - O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi va butun davlat boshqaruv organlari tizimiga ularning kelishilgan tarzdagi faoliyatini ta'minlagan holda rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq respublikaning faoliyat doirasiga tegishli bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va u to'g'risidagi Qonunga binoan Mahkamasining vakolatlariga kirdigan davlat va xo'jalik boshqaruvining hamma masalalarini hal etishga haqlidir.

Aynan Vazirlar Mahkamasi vazirliklar va davlat qo'mitalarining, idoralar va davlat boshqaruvining boshqa organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib turadi va yo'naltiradi, shuningdek, vazirliklar, davlat qo'mitalari to'g'risidagi tegishli Nizomlarni tasdiqlaydi, ya'ni davlat organining tuzilishini va uning vakolatlarini belgilaydi. Qonunning ushbu normalari boshqa barcha davlat boshqaruvi organlari singari Davlat soliq qo'mitasini ham Vazirlar Mahkamasiga bo'y sunishini va uning oldida mas'uliyatli ekanligini bildiradi.

Vazirlar Mahkamasining Davlat soliq qo'mitasiga bevosita rahbarlik qilishi Davlat soliq qo'mitasi amal qiladigan me'yoriy hujjatlar, umumiyl direktivalar yoki aniq (yakka tartibdagi) ko'rsatmalar chiqarish shakli orqali ham namoyon bo'ladi

Davlat soliq qo'mitasining hujjatlari xususida shuni aytish mumkinki, agar ular amaldagi qonunlarga zid bo'ladigan bo'lsa, Vazirlar Mahkamasi ularni bekor qilishi mumkin. Davlat soliq qo'mitasi soliq qonunlarini takomillashtirishga doir takliflarni belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish bo'yicha to'liq huquqga ega.

Davlat soliq qo'mitasi o'ziga yuklatilgan asosiy vazifalarga muvofiq ravishda, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlariga soliqlar va boshqa to'lovlarning kelib tushishiga doir toshpiriqlarning bajarilishi natijalarini tahlil etish va keyinchalik bu borada Vazirlar Mahkamasiga axborot berish vazifasini ham bajaradi.

Davlat soliq qo'mitasi xorijiy investorlarning investitsiya faoliyatini soliqlar orqali tartibga solish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda, soliq siyosatini muvofiqlashtirish masalalari bo'yicha xorijiy davlatlar bilan hukumatlararo bitimlar va shartnomalarini tayyorlash va imzolashda, ikkiyoqlama soliq solinishini bartaraf qilish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining topshirig'iga binoan hukumatlararo bitimlarni tasdiqdash va imzolashda ishtirok etadi.

Vakillik hokimiyatining mahalliy organlari davlat boshqaruvi organlari bilan turli yo'nalishlar bo'yicha bahamjihat hamkorlik qiladilar.

Davlat soliq organlarining mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikdagi harakati ularning O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan yagona soliq siyosatini amalga oshirishda, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlar byudjetlariga soliqlar va boshqa to'lov larning kelib tushishini ta'minlash borasidagi topshiriqlarning bajarilishi natijalarini tahlil etishda qatnashishida namoyon bo'ladi.

Davlat soliq inspeksiyalaring tegishli ma'muriy-hududiy birlikda markazlashtirilgan idora usuli va qonunchilik rejimida ish olib borishi ham ko'rib chiqilayotgan organlarning munosabatlarini tavsiflash uchun muhim ahamiyatga ega.

Hamkorlikdagi harakatning ayni shunday darajasida umumdavlat va hududiy manfaatlarning qo'shib olib borishning mahalliy hokimiyat organlari hududlarini kompleks tarzda rivojlantirishning turli xildagi muammolari vujudga keladi. Ularning muvaffaqiyatli tarzda hal etilishi, hamkorlik masalalarining birgalikda muhokama qilinishi, vakillik hokimiyati mahalliy organlari vakillarining ishtirokini taqozo etadi.

Davlat soliq qo'mitasi kundalik faoliyat jarayonida davlat boshqaruvinining boshqa organlari bilan tez-tez munosabatlarga kirishadiki, bunday munosabatlar davlat nazoratining ushbu markaziy organi faoliyati tusini aniq-ravshan ajratib ko'rsatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar uning asosiy tartibga soluvchi omili bo'ladi. Hokimiyat va boshqaruvning deyarli barcha organlari bu jihatni u yoki bu darajada hisobga olishi kerak bo'ladi va aynan shu holat Davlat soliq qo'mitasining ushbu organlar bilan ko'p turdag'i munosabatlarining ob'ektiv zarurligini belgilaydi.

Shu jihatdan olganda, davlat boshqaruvinining Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi singari organlar tizimining hamkorlikdagi harakati birmuncha muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo mazkur organlar oldida turgan vazifa va maqsadlarning umumiyligini ta'kidlab o'tish kerak bo'ladi. Moliya vazirligi moliya tizimi tarkibiga kiradigan organlarni boshqarish jarayonida O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi mexanizmining yaxlitligini, bozor munosabatlarining shakllanishi va aholini ijtimoiy himoyalash sharoitida narxlarni tartibga solishning iqtisodiy usullarining ahamiyatini kuchaytirishni ta'minlay borib davlatning moliyaviy, valyuta, narx-navo, monopoliyaga qarshi siyosatiga muvofiq keladigan soliq siyosatini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining soliq va moliya organlari korxonalarining xorijiy valyutadagi mablag'larini majburiy tartibda sotilishi lozim bo'lgan

summalarini, shuningdek korxonalarning to'laydigan soliqlarining to'g'riligi va o'z vaqtida amalga oshirilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Davlat soliq qo'mitasi bilan respublikaning bank tizimi o'rtasida g'oyat mustahkam hamkorlik qaror topgan. Ular o'tkaziladigan valyuta operatsiyalarining amaldagi qonunlarga muvofiqligini va buning uchun zarur ruxsatnomalarning mavjuddigini, rezidentlarning byudjetga soliqlar va boshqa to'lovlarni to'lashga oid majburiyatlarini, shuningdek, xorijiy valyutani O'zbekiston Respublikasining Markaziy bankiga sotishiga doir majburiyatlarini bajarishlarini, valyuta mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanimishni, xorijiy valyutadagi to'lovlarning asoslilagini, nihoyat, valyuta operatsiyalari bo'yicha hisob va hisobotning to'liqligini va ob'ektivligini birgalikda tekshiradi.

O'zbekiston Respublikasining barcha bank muassasalariga soliq boshqarmalari va inspeksiylarining taqdimnomalariga binoan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning hisobvaraqlaridan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga oid qarzlar summasini muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun 0,07 foiz miqdoridagi penyani hisoblagan holda undirib olish huquqi berilgan.

Bank yoki kredit muassasasining aybiga ko'ra soliq to'lovchining to'lov topshiriqnomasi ijro qilinmagan hollarda esa ushbu bank yoki kredit muassasasidan soliq to'lovchining yoki soliq idorasining topshiriqnomasi kelib tushgan kundan keyingi uchinchi kundan boshlab to'lov muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun soliqning to'lanmagan summasidan belgilangan tartibda penya undirib olinadi. Penyaning undirilishi bank yoki kredit muassasasini soliqqa oid topshiriqlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

Davlat soliq qo'mitasi asosiy faoliyatini O'zbekiston Respublikasining amaldagi soliqlarga oid qonunlariga rioya qilinishi, soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, to'liq hamda o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirish jarayonida respublika huquqni muhofaza qilish organlari tizimi bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish zarurati paydo bo'ladi.

Davlat soliq qo'mitasining O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati va va ularning joylardagi bo'limmalari bilan amaliy hamkorligi ularda davlatning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan qator umumiylarining vazifalarning mavjudligi bilan bog'liqdir. Ularning har biri o'z vakolatlari doirasida tegishli vosita va usullar orqali iqtisodiyotdagi jinoiy vaziyat xususida zarur axborotlarni yig'ishni amalga oshiradi, ularni tahlil qiladi va aniqlangan huquqbazarliklarga nisbatan choralar ko'radi.

Bunday chora-tadbirlar orasida O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi bajaradigan chora-tadbirlarga katta ahamiyat beriladi, bu organ soliq va bojxona idoralardan huquqni muhofaza qilish organlariga beriladigan materiallarni ko'rib chiqilishi ustidan amaliy nazorat yuritilishini ta'minlashi va ushbu materiallar yuzasidan qo'zg'atiladigan jinoiy ishlar bo'yicha tekshiruvlarning borishi, to'liqligi, sifati va muddatlari ustidan kat'iy nazorat yuritishi, sudsarning bunday ishlarni ko'rib chiqishida prokurorlarning albatga ishtirok etishlarini ta'minlashlari lozim bo'ladi.

Soliq idoralarining rahbarlari o'z xizmatlari va bo'linmalarining O'zbekiston Respublikasining soliqqa oid qonunlari buzishlarini o'z vaqtida aniqlash va ularga barham berishga, shuningdek o'zaro manfaatli bo'lgan boshqa masalalarni hal etishga oid harakatlarini doimiy ravishda muvofiqlashtirib turishlari shart. Shu maqsadlarda ishchi guruhlari tashkil etilishi, kelishilgan harakatlar uchun manfaatdor bo'linmalar vakillarining muntazam tarzdagi uchrashuvlar o'tkazilishi, eng muhim muammolar esa hay'atlarning birgalikdagi yig'ilishlarida ko'rib chiqilishi mumkin.

Birgalikdagi ishlar bo'yicha yagona dalolatnama tuziladi va uni bir tomonidan, ushbu tekshirishni o'tkazgan xodimlar, ikkinchi tomondan esa, tekshirilgan korxona, muassasa, tashkilotning rahbari va bosh hisobchisi yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan fuqaro imzolaydi.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda soliq xizmati organlari o'z oldiga qo'yilgan vazifa va funktsiyalarga muvofiq bir qancha organlar va tashkilotlar, moliya-kredit muassasalari bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi. Bunday hamkorlik respublikaning barcha hokimiyat idoralari, jumladan, respublika prezidenti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, sud organlari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Davlat soliq qo'mitasining ushbu idoralari bilan hamkorligi ko'pincha qonuniy aklarni ishlab chiqish, ijrosini ta'minlash kabi masalalarda ifodalansa, uning moliya-kredit muassasalari bilan hamkorligi bevosita soliqlarni undirib olishga qaratilgan vazifalarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

5. AQSh soliq tizimida soliq idoralari faoliyati.

AQShdagi soliq yig'ish tizimining uch pog'onaligi uning tarixiy rivojlanish evolyutsiyasini aks ettiradi. Shunga asosan, soliq idoralari uch bosqichda faoliyat ko'rsatadi.

Birinchi bosqich - AQShning federal soliq idoralari.

Ikkinci bosqich - Shtatlar soliq idoralari.

Uchinchi bosqich - Mahalliy (shahar, okrug) soliq idoralari.

Soliq idoralari bir-biriga bog'liq bo'limgan va o'zaro bo'ysunmagan holda faoliyat ko'rsatadi, ammo hamkorlikda ishlab, ma'lumotlar almashish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Federal idorani komissar boshqaradi. Bu AQSh Prezidenti tomonidan tayinlanadigan siyosiy lavozim. Komissar muoviniga esa kunlik operatsiyalarga va o'tkazilayotgan siyosatning turg'unligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan fuqaro xizmatchisi (shahodatlanmagan fuqaro) tavsiya etiladi. Federal soliq boshqarmasi (FSB) AQShning asosiy sanoat va madaniy markazlarida joylashgan 7 regional boshqarmaga ega (Nyu-York, San-Frantsisko, Tsintsinnati, Dallas, Filadelfiya, Atlanta, Chikago)⁵⁷.

⁵⁷ Jane Fracknall-Hughes. The Theory, Principles and Management of Taxation: An introduction, Routledge Taylor and Francis Group. 2017

Regional boshqarmalarni regional komissar boshqaradi. Regional boshqaruvning funksiyalari milliy boshqaruv tomonidan ishlab chiqarilgan dastur va siyosatning bajarilishini ta'minlash, bo'ysunadigan boshqarmalar (tuman boshqarmasi va soliq markazlari) ishlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilishdan iborat.

Hozirgi vaqtida AQShda 63 tuman boshqarmasi, 10ta xizmat ko'rsatish markazi va 3 kompyuter markazi mavjud.

Tuman boshqarmalari asosan yirik sanoat va madaniy markazlarda joylashgan va har bir shtatda kamida bittadan tuman boshqarmasi mavjud. Boshqarma boshlig'i - tuman direktori tomonidan tavsiya etiladigan fuqarolik lavozim.

Soliq idoralari dastur yo'naliishlari doirasida fuqarolar bilan bevosita muloqat olib boradilar. Ular muloqat chog'ida:

- soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish: axborotlar, konsultatsiyalar, soliq deklaratsiya shakllari va mos adabiyotlar bilan ta'minlash;
- to'ldirilgan soliq deklaratsiyalari va unga mos hujjatlarni tekshirish;
- to'lanmagan soliqlarni topish va soliq to'lovchilarning hisoblaridan mos summalarini olishni ta'minlash;
- soliq to'lovchilarning shikoyatlarini tahlil qilib, qoniqtirish ishlarini olib boradilar.

Soliqlarni to'lamanaganlarni aniqlash maqsadida o'tkazilgan tekshirish axborotlaridan foydalanib, bozorni o'rganish va soliqlarni ixtiyoriy to'lash darajasini ko'tarish uchun keng miqyosdagi texnologiyalardan foydalanadilar.

Xizmat ko'rsatish markazlari har bir regionda kamida bittadan joylashgan bo'lib, uning boshlig'i - xizmat ko'rsatish markazining direktori hisoblanadi.

Markaz direktorining vazifalariga FSB faoliyatiga xizmat ko'rsatish bilan birga soliq deklaratsiyalari va axborotlar hujjatlarini qayta ishlash, soliq deklaratsiyalarini dastlabki tekshirish va qo'shimcha axborot yoki hujjatlarini tasdiqlovchi ma'lumotlarni olish maqsadida soliq to'lovchilar bilan yozishmalar o'tkazish kiradi.

Kompyuter markazlari Dstroyt, Martinsburg va Memfisda joylashgan bo'lib ularning vazifalari quyidagilardan iborat:

- elektron pochta orqali qabul qilingan hamma soliq deklaratsiyalarini va to'lovlarini olish va qayta ishlash;
- dastlabki olingan ma'lumotlarni qayta ishlab, navbatdagi tahlil uchun muammolarni aniqlash yoki soliq to'lovchilar bilan muloqotning zarurlik darajasini aniqlash;
- hisobotlarni ro'yxatdan o'tkazish va mamlakatning FSBga hisobotlarni elektron ko'rinishda jo'natishdan iborat.

AQSh shtatlarining barchasiida o'zining mahalliy hukumatlariga bo'ysunadigan va shtatlarning soliqlari bilan shug'ullanadigan okrug soliq idoralari mavjud.

Shahar bosqichida shahar byudjetiga tushadigan soliqlar bilan shug'ullanuvchi o'z soliq idoralari faoliyat ko'rsatadi.

Soliq to'lovchilar AQSh Hukumatiga federal soliq, shtatga soliqlar va mahalliy soliqlarni to'laydilar va mos ravishda har yili soliq deklaratsiyalarining kamida 3 ko'rinishini to'ldiradilar.

Soliqqa tortish qonunchiligi soliqlarni to'lashdan bosh tortganlik uchun juda qat'iy sanktsiyalarni ko'zda tutadi, jumladan: butun mol-mulkini musodara qilishgacha etib boradigan jarimalar, 1 yildan 5 yilgacha muddatda qamoqda saqlash, ommaviy axborot vositalari orqali mas'uliyatsiz ST haqida xabar berish kabilar. Alovida kompyuter dasturi yordamida hamma soliq deklaratsiyalari-ning 1 foizi tanlanib, har yili tekshiriladi. Ixtiyoriy tekshirishlar esa faqat ilmiy-tadqiqot va tekshirish maqsadlari uchun o'tkaziladi.

AQShda davlat sektorining kamliyi hisobga olinib, daromadlarning asosiy qismi aholining daromadlaridan olinadi, bu tadbirkorlarning foydasi (80 foiz) va korporatsiyalarning foydasini ham o'z ichiga oladi.

AQShda soliq to'lashlar bo'yicha imtiyozlarga kichik biznes korxonalari, shuningdek, notijorat asosida ishlaydigan tashkilot va korxonalar, maorif, davlat o'quv muassasalari va hokazolar ega. AQSh soliq tizimi – soliq siyosati, moliya tadbirlari, davlatning tadbirkorlikka ta'sir o'tkazishi bozor munosabatlari rivojlangan bu mamlakat xo'jalik mexanizmining asosurlari hisoblanadi⁵⁸.

AQShda doimiy soliq tushumlarining aksariyat qismi federal byudjetga yuborilib, xususiy kapitalni iqtisodiyot sohasiga jalb etishga mo'ljallangan. Soliq imtiyozlari bevosita turli usullar orqali tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashadi. Aholidan olinadigan daromad solig'inining nisbati katta bo'lib, u o'sib boruvchi shkala bo'yicha hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urta ajratmalar federal byudjetda hajmi bo'yicha ikkinchi o'rinda bo'lib, uni ish beruvchi yoki ishchining o'zi to'laydi. To'lov stavkasi har yili o'zgarib turadi. Uchinchi katta soliq – korporatsiya solig'idir. Korporatsiyalar tabaqalashtirilgan stavkalarda 15, 25 va 34 foiz soliq to'laydi. Korporatsiyalardan shtatlar byudjetiga ham tegishli soliqlar olinadi. Odatda, uning miqdori 3-12 foizgacha bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti mexanizmi tadbirkorlikning erkinligini ta'minlaganligi sababli resurslar taqsimoti, narxlar tovarlar ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar asosida, foydaning o'rtacha miqdorini hisobga olgan holda belgilanadi. AQShda jismoniy shaxslar va korporatsiyalardan olinadigan soliq miqdori umumiyligi tushumning 75 foizdan yuqori qismini ta'minlaydi.

Shtatlar korporatsiyalar va fuqarolardan daromad solig'ini yig'ib oladilar. Sotuvlardan olinadigan soliq ularning daromad manbai bo'lib, uning bir qismi shahar byudjetiga o'tkaziladi. AQSh shtatlaridan 44tasida savdodan olinadigan soliq qo'llaniladi. Mahalliy soliqlarning tarkibi va stavkalari to'rt guruhga bo'linadi. Birinchi guruh – bevosita soliqlar (mulk solig'i, er solig'i, sovg'alar va meroslardan olinadigan mahalliy soliq) faqat shu hududda yig'iladi. Bilvosita soliqqa tortish turlicha bo'lib, asosan, savdo va maxsus aktsiz soliqlaridan iborat. Ikkinchi guruh – bu soliqlar mahalliy soliqlardan faqat shaklan farq qiluvchi umum davlat soliqlariga qo'shimcha bo'lib, uning ma'lum foizi mahalliy byudjetga

⁵⁸ Jane Fracknall-Hughes. The Theory, Principles and Management of Taxation: An introduction, Routledge Taylor and Francis Group. 2017

ajratiladi. Uchinchi guruh – transport vositalariga, mehmonxonalarga, musiqa va sport tadbirdilariga, kommunal xizmatlarga belgilangan soliqlarni o'z ichiga oladi. Iste'mol soliqlariga avtomashinalarni ro'yxatga olish, avtomashinalar turar joyiga, yonilg'iga soliq, aktsiz solig'i va yo'llar uchun olinadigan soliqlar kiradi. To'rtinchi guruh – mahalliy soliqlar, mazkur hududni boshqarish organlari ixtiyoriga o'tkaziladi. Bu guruhga ekologiya solig'i ham kiradi va u atrof-muhitni muhofaza qilish va tozalashga sarflanadi.

AQShda ichki soliq xizmati (ISX) soliq to'lovchilarni soliq hisobotlarini elektron holatda topshirishga undab, soliq hisobotlarining elektron fayllar turini ko'paytirmoqda. 2003 yil 51,2 million, 2004 yil hisobiga esa salkam 61 million soliq deklaratsiyalari onlayn tartibida to'ldirilgan. 2007 yilda ISX 80 foiz soliq deklaratsiyalarini elektron holatda to'ldirilishiga erishgan. Bunday holat esa joriy deklaratsiyalar sonini ikki barobar o'sishiga olib keladi.

ISX soliq to'lovchilarga elektron deklaratsiya dasturidan foydalanishning afzalliklarini yoritishda maxsus yo'riqnomalar chiqarib, radio va televideonie dasturlaridan foydalanadi. Elektron deklaratsiyalar soliq to'lovchilar uchun ham, ISX uchun ham juda qulaydir. Shuning uchun ham ISX soliq to'lovchilar uchun bepul elektron deklaratsiyalar dasturlarini qo'llashni tavsiya etadilar.

Elektron deklaratsiya AQSh soliq hukumati uchun juda katta iqtisodiy foyda keltiradi. 2004 yilda ISX elektron hisobot dasturini yangi (S va C) korporatsiyalarni hisobga olgan holda ilk marotaba kengaytirdilar. Bu esa o'z navbatida, elektron hisobot topshiruvchilar sonining kengayishiga olib keldi.

11-mavzu: Xalqaro soliqqa tortish.

Reja:

- 1. Xalqaro soliqqa tortishning asosiy tamoyillari, huquqiy asoslari.**
- 2. Jahon soliq kodeksini qabul qilish zarurati va ahamiyati.**
- 3. Xalqaro ikki yoqlama soliqqa tortishni tartibga solish.**

Tayanch so'z va iboralar: xalqaro soliqqa tortish, tamoyillar, huquqiy asos, Jahon soliq kodeksi, ikki yoqlama soliqqa tortish, rezident, norezident.

1. Xalqaro soliqqa tortishning asosiy tamoyillari, huquqiy asoslari.

Jahon hamjamiyati iqtisodiy tizimlari integratsiyasi va tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi xorijiy mamlakatlar soliq tizimlarini o'zaro ta'siriga olib keldi. Turli malakatlarda soliqqa tortishni u yoki bu masalalariga bo'lган yondashuvlarni bir biriga mos kelmasligi nizoli vaziyatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish ana shunday masalalardan biridir.

Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish deganda ikki yoki undan ortiq mamlakatda bir soliq to'lovchining faoliyati aynan bir xil yoki o'xhash soliq turi bilan bir vaqtning o'zida soliqqa tortish ifodalanadi.

Ikki tomonlama soliqqa tortishni belgilovchi ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- soliqqa tortish ob'ektining o'xhashligi;
- soliqqa tortish sub'ektlarining o'xhashligi;
- soliq to'lash muddatining o'xhashligi;
- soliq to'loving bir xilligi va boshqalar.

Har bir mamlakatda soliq qonunchiligini kengaytirish va huquqiy jihatdan mustahkamlash, shuningdek, tovar, xizmat va kapitalni eksport qiluvchilarga soliq imtiyozlari berish bilan bog'liq tadbirlarning umumiyligi yig'indisi mamlakatning tashqi soliq siyosati deyiladi. Ushbu siyosatning qaysi tomonga yo'nalishi muayyan vaziyatdan kelib chiqadi. U byudjet daromadlarini oshirish nuqtai nazaridan yoki eksportni qo'llab-quvvatlash maqsadidan kelib chiqishi mumkin. Ammo, shu narsani yoddan chiqarmaslik lozimki, bu sohada manyovrlashtirish imkoniyatlari ancha chegaralangan: yuqorida aytiganidek, hech bir mamlakat o'z fuqarolari yoki kapitali uchun boshqa mamlakatdan, mahalliy aholiga qo'llanilayotgan soliqqa tortishga nisbatan imtiyoziroq bo'lgan tartibni talab qilishga xaqli emas. Xuddi shuningdek, hech bir mamlakat o'z hududida faoliyat yuritayotgan xorijiy fuqaro va shaxslarga, soliq yukini mahalliy aholidan keskin farq qiluvchi nisbatlarda oshirishga xaqli emas. Bunday holatning yuz berishi, mazkur mamlakatning xorijiy bozorlaridagi faoliyatiga nisbatan ham xuddi shunday chora-tadbirlar qo'llanilishiga olib kelishi mumkin.

Aksariyat mamlakatlar soliq qonunchiligidagi xorijiy shaxslar va kompaniyalarni soliqqa tortishning faqatgina umumiyligi tomonlari belgilab beriladi va ular keyinchalik hukumat ko'rsatmalarida, sud qarorlarida, ma'lum milliy odatlarda va boshqalarda aniqlashtiriladi.

Har bir mamlakat uchun xalqaro soliq munosabatlarini tartibga solinishida quyidagilar asosiy vositalar hisoblanadi:

- bir yoklama chora-tadbirlar yoki milliy soliq siyosatining chora-tadbirlari bo'lib, boshqa mamlakatlar hukumatlari bilan hech qanaqa kelishuvlarsiz amalga oshiriladi (mamlakatda faoliyat yuritayotgan xorijliklar va mamlakatning xorijida faoliyat yuritayotgan fuqaro va korxonalariga nisbatan soliq tartibining belgilanishi);
- shartnomaviy chora-tadbirlar ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama asosda (xalqaro kelishuv), yoki "soliqlarning garmonlashuvi" deb nomlanadigan kelishuvlar doirasida (ya'ni, ikki yoki undan ortiq shartlashayotgan mamlakatlarning milliy soliq siyosatlarini o'zaro muvofiqlashtirish asosida) gi chora-tadbirlar.

Hozirgi kunda, amalda yuzdan ortiq soliq kelishuvlari mavjud. Bundan tashqari, u yoki bu darajada mamlakatlar o'rtasidagi soliq munosabatlariga tegishli bo'lgan turli xil xalqaro kelishuvlar ham mavjud.

Umuman, soliq kelishuvlari bir nechta tur va ko'rnishga ega. Ulardan ayrimlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- ma'muriy yordam ko'rsatish bo'yicha kelishuvlar;
- "chegaralangan" soliq kelishuvlari;
- umumiy soliq kelishuvlari;
- hadya va merosdan olinadigan soliqlar bo'yicha kelishuvlar;
- ijtimoiy sug'urta to'lovlari bo'yicha soliq kelishuvlari va boshqalar.

Hozirda ushbu kelishuvlarning barchasi ko'pchilik vaziyatlarda yangi kelishuv shakli bo'lган "Umumiyl soliq kelishuvi" bilan almashtirilmoqda (ushbu soliq kelishuvi to'liqligicha "Ikki yoqlama soliqqa tortishni bekor qilish hamda daromad va kapitalni soliqqa tortish sohasidagi chetga chiqishlarga qarshi kurash bo'yicha kelishuv" deb nomlanadi va asosan, birinchi jahon urushidan so'ng, keng qo'llanila boshlangan).

2. Jahon soliq kodeksini qabul qilish zarurati va ahamiyati.

Birlashgan millatlar tashkiloti u yoki bu xalqaro dasturlar asosida bozor islohotlarini amalga oshirayotgan davlatlarga ma'lum bir loyihalarni ishlab chiqish va joriy etishda yordam berish hamda hamkorlik qilishni amalga oshiradi. Bunday hamkorlik yo'naliishlaridan biri - zamonaviy xalqaro iqtisodiy talablarga javob beradigan milliy soliq tizimining yuzaga kelishiga, shakllanishi va rivojlanishiga yordam berishdir. Aynan shunday chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida, ya'ni xalqaro soliq dasturi doirasida Jahon soliq kodeksini tayyorlash fikri yuzaga keldi. Ushbu Kodeksning asosiy maqsadi - islohotlarni amalga oshirayotgan davlatlarga ilmiy asosda soliq munosabatlarini tashkil qilish, yagona terminologiya va yagona mazmundagi izohni yaratish imkoniyatlarini taqdim etishdir.

Jahon soliq kodeksi asoslari shaklidagi ushbu hujjat 1993 yilda tayyorlanib, nashrdan chiqarildi. Uning mualliflari Garvard universiteti (AQSh) mutaxassislari Uord M. Xassi va Donald S. Lyubik. Ushbu Kodeks asoslari 300 betdan iborat bo'lib, 591 ta modda va izohni o'z ichiga olgan.

Kodeksning kirish qismida mualliflar ko'pgina davlatlar tajribasidan o'tgan soliq tizimining zamonaviy ma'nosini ochib berishga harakat qilganliklarini yozishgancha.

Jahon soliq kodeksi namuna sifatida bo'lismiga qaramasdan, unda soliq to'lovlaring ariq stavkalari, uning minimumlari va imtiyozlar berilgandir.

Kodeks matni va unda berilgan stavkalari kodeksdan foydalanishni hohlovchi davlatlar uchun majburiy emas, balki tavsiyaviy tusga ega.

Milliy soliq qonunchiligi tayyorlanayotganda ushbu davlat mutaxassislari tomonidan mamlakatdagi ariq iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar inobatga olinishi kerak.

Kodeksda berilgan nizom alohida ahamiyatga ega. Nizomga ko'ra, soliq tizimi orqali iqtisodiy subsidiyalar berish to'g'ri subsidiya to'lovlari nisbatan kam samaralidir. Imtiyoz turlari va engilliklarning ko'pligi, soliq imtiyozlarini nazorat qilishning qiyinligi sababli, soliq tizimini murakkablashtiradi va

samaradorligini pasaytiradi, uning zarur bo'lgan egiluvchanlik xususiyatlarini yo'qotadi. Bundan kelib chiqib, kodeksda soliqlardan vaqtinchalik yoki doimiy ozod etish kabi imtiyozlar ko'zda tutilmaydi. Rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti xususiyatlarini hisobga olgan xolda, Kodeks mualliflari fikricha, ushbu davlatlar daromadlarining asosiy qismi bojxona bojlari, qo'shilgan qiymat solig'i, aktsizlar hamda korxona va tashkilotlar foydasiga soliq hisobiga shakllanadi. Bunday soliq tizimi soliqlarni undirish bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy xarajatlar jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqqa nisbatan kam bo'ladi.

Tavsiya etilayotgan Kodeksdagi soliqlar tizimiga faqatgina yuqori daromadlarga ega bo'lgan aholi qismiga qo'llaniladigan jismoniy shaxslardan olinadigan individual daromad solig'i ham kiritilgan. Bu bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davatlarda asosan rivojlanayotgan va sobiq sotsialistik davatlarda individual daromad solig'ini rivojlangan davatlardagi kabi keng miqyosda qo'llash uchun etarli darajadagi ma'muriy va huquqiy mexanizmlar mavjud emasligi bilan izohlanadi. Individual daromad solig'i soliq tushumlari maqsadida emas, balki tenglik hissini qaror toptirish maqsadida joriy etiladi.

Jahon soliq kodeksini ishlab chiqqanlar, soliq qonunlarini tayyorlash va qabul qilish soliq islohotiga dastlabki qadamdir deb hisoblaydilar. Asosiysi, soliq apparatining samaradorligini yaratishda deb biladilar. Adolatli va yuqori salohiyatli soliq xizmatining mavjudligi soliq islohotidagi muvaffaqiyatlarning zaruriy shartidir.

Jahon soliq kodeksi asosiy soliq turlari bo'yicha 5 qismga bo'linib, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davatlarda joriy etish uchun tavsiya qilinadi. Birinchi qism - daromad solig'i; ikkinchi qism - qo'shilgan qiymat solig'i; uchinchi kism - aktsiz soliqlari; turtinchi qism - ko'chmas mulkka soliq; beshinchi qism - soliq ma'muriyati, deb nomlanadi.

3. Xalqaro ikki yoqlama soliqqa tortishni tartibga solish.

Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etishning asosiy mexanizmlaridan biri ikki tomonlama soliq kelishuvlaridir. Soliq kelishuvlarining asosiy maksadi hamkor mamlakatlar o'rtaida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ikki yoqlama soliqqa tortishning barcha ko'rinishlariga barham berishdan iborat. Ushbu kelishuvlar ma'lum qoida va tadbirlar ketma-ketligini qat'iy tartibda amalga oshirishni ko'zda tutadi. Kelishuvlar ikki yoqlama soliqqa tortishga qanday qilib barham beradi?

Soliq kelishuvlari ikki yoqlama soliqqa tortishga barham berishning uch pog'onali tizimini qo'llashni ko'zda tutadi. Birinchi bosqichda, hamkor mamlakatlarda "rezident" va "daromad manbasi" qoidalari kelib chiqadigan ikki yoqlama soliqqa tortishga barham beriladi. Ushbu maqsadlarda kelishuvda ikki yoqlama rezidentlik va "moddiy" moddalar bo'yicha tortishuvlarni echishga qaratilgan qismlar mavjud bo'lib, ular tomonlardan biriga daromadlarning aniq turlari bo'yicha ma'lum soliqqa tortishda mutloq huquq beradi.

Ikkinchi bosqichda, "rezident" va "daromad manbasi" moddalar bo'yicha barcha munozaralar hal etilgandan so'ng, qolgan ikki yoqlama soliqqa tortishga

barham beriladi. Bunday barham berish har bir mamlakatning ichki me'yorlari asosida ta'minlanadi. Yangi soliq kelishuvida esa, ushbu me'yorlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi ko'rib chiqiladi. Oxirgi holatda, ikki yoqlama soliqqa barham berish bo'yicha yangi tartib, kelishuv asosida joriy etilishi mumkin. Odatda, quyidagi usullardan biri qo'llaniladi: "ozod qilish" usuli yoki "soliq krediti" usuli. Soliq kelishuvi tuzilayotgan paytda tomonlar ushbu ikki usuldan birini tanlashi, yoki ularni ikkalasidan ham zaruriy paytlarda foydalanishi mumkin. Ammo, shuni alohida ta'kidlash lozimki, soliq kelishuvlari "soliq krediti" usulidan ko'proq foydalaniladi. Bu holatni hattoki, ichki soliqqa tortish tizimida ko'proq "ozod qilish" usulidan foydalanadigan mamlakatlarda ham kuzatish mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri "soliq krediti" usulida soliqlarni to'lashda xalqaro chetga chiqish imkoniyatlarining ancha pastligidir.

Mustaqil ta'limni bajarishning yana bir shakli "*Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash*"dir. Talabaga biron bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) harakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi. Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma'ruza kafedrada himoya qilinadi.

Shunday qilib, taqdimot tayyorlash, referat tayyorlash va ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash hamda amaliy materiallardan foydalanish bir tomonidan, ilmiy ishlarning yakuni sifatida, o'z ustida ishlashlari, izlanishlariga yakun yasashi, ikkinchi tomonidan, ularni yanada yangi ishlarga rag'batlantiradi, dunyoqarashini rivojlanishiga, o'z faoliyatini aniq maqsadga yo'naltirishga, yanada chuqurroq bilim olish, o'z ustida ishlashga, iqtisodiy fikrlash, ilmiy izlanishga, fikrini mantiqiy izchillikda ham og'zaki, ham yozma ravishda bayon qilishga o'rgatadi. Mustaqil ta'lim bajarilishida talaba bu ishga ijodiy yondoshmog'i kerak. Talabalarni fanini mustaqil o'zlashtirishlari uchun quyidagi talablar qo'yilgan:

- + Referat reja asosida va talab darajasida tayyorlangan bo'lib, har bir reja bo'yicha talaba o'z fikr mulohazalarini bayon etishi shart;
- + biron bir mavzu bo'yicha ilmiy harakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash;
- + mavzuni yoritishda keltirilgan statistik ma'lumotlar aniq va to'g'rilingiga ishonch hosil qilish uchun manbasi ko'rsatilishi shart;
- + Referat tarzda (kompyuterda) yoziladigan bo'lsa (A4 format qog'oz, chap-3 sm, yuqori-2sm, past-2,5 sm, o'ng-1,5 sm va 14 shriftda, 1 interntervalda yozilishi kerak) 14-15 betdan, taqdimot ko'rinishida 10-15 slayddan iborat bo'lishi kerak, tarqatma materiallar esa 8-10 tadan kam bo'lmasligi lozim.

III. Mustaqil ta'limni baholash tartibi

Talabalarning reyting asosida baholash tizimida mustaqil ta'limning bajarilishi yakuniy sinov sifatida xizmat qiladi. Albatta, mustaqil ta'limning talabalar tomonidan bajarilish muddati, yozma yoki ilmiy loyiha ishlariiga qo'yilgan talabga qay darajada javob berilishi, tavsiya etilgan adabiyotlardan qanday foydalanganligi baholash me'zonida nazarda tutiladi.

Mustaqil ta'limning bajarilishini nazorat qilish va baholash tizimi darsdan tashqari vaqtarda oraliq nazoratlarda olib boriladi. Mustaqil ta'limlarning baholash me'zoni quyidagicha tashkil etish mumkin: barcha ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun - oraliq nazoratga ishchi dastur bo'yicha maksimal 34 (20/14) ball belgilangan bo'lib, shundan mustaqil ta'lim soatlarida bajargan ishlari, qilgan taqdimoti hamda iqtisodiy tahlil bo'yicha berilgan qo'shimcha topshiriqlarni bajarishi uchun maksimal 14 ball ajartilgan. Bu maksimal 14 ball oraliq nazorat o'tkaziladigan vaqtarda ikki marta maksimal 5 va 9 ballga ajratilgan holda rasmiylashtiriladi.

**Mustaqil ta'lim bo'yicha talabaning ballarda ifodalangan o'zlashtirishi
quyidagi mezonlarga asosan aniqlanadi:**

Ball	Baho	Talabaning bilim darajasi
26-30	A'lo	Mustaqil ta'lim talablari 86-100% bajarilgan, mustaqil ta'lim bo'yicha bajargan ishlari yuzasidan xulosa va qaror qabul qilish, ijodiy fikrlay olish, mushohada yuritish, mohiyatini tushuntirish, bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lish.
21-25	Yaxshi	Mustaqil ta'lim talablari 71-85% bajarilgan, mustaqil ta'lim bo'yicha bajargan ishlari yuzasidan xulosa va qaror qabul qilish, amalda soliqlarni hisoblash uslubiyatlarini qo'llay olish, mohiyatini tushuntirish, bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lish.
16,5-21	Qoniqarli	Mustaqil ta'lim talablari 55-70% bajarilgan, mustaqil ta'lim bo'yicha bajargan ishlari yuzasidan xulosa va qaror qabul qilish, tasavvurga ega bo'lish.
0-16	Qoniqarsiz	Mustaqil ta'lim talablari 54% bajarilgan, mustaqil ta'lim bo'yicha bajargan ishlari yuzasidan xulosa va qaror qabul qilishda aniq tasavvurga ega emaslik, bilmaslik, shuningdek belgilangan muddat va tartibda mustaqil ta'limni bajarmaslik.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MAVZULAR

1. Soliqlarning vujudga kelishi, ularning ilk ko'rinishi va turlari.
2. Soliqlarni joriy etishning asosiy tamoyillari va ularning ahamiyati.
3. Soliqlar va soliqsiz to'lovlar, ularning o'xshash va farqli jihatlari.
4. Soliq siyosati va uning asosiy yo'nalishlari.
5. Soliqlarni undirish usullari va ularning amaliyotda qo'llanilishi.
6. Soliqlarning tuzilish asoslari.
7. Soliq ob'ektlari, ularning xususiyatlari.
8. Soliq imtiyozlari va ularning turlari.
9. Soliqlar va byudjet tizimi, ularning o'zaro bog'liqligi.
10. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksini qabul qilinishini zarurligi va uning xususiyatlari.
11. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining rivojlanish bosqichlari.
12. Soliq tizimi va soliqqa tortish tizimi, ularning o'zaro farqlari.
13. Soliqlarning guruhanish asoslari.
14. To'g'ri soliqlar va ularning xususiyatlari.
15. Egri soliqlar va ularning xususiyatlari.
16. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliq siyosati, ularning o'zaro muvofiqlashtirish masalalari.
17. Soliq siyosatini amalga oshiruvchi organlar va ularning vakolatlari.
18. Milliy iqtisodiyotda investitsiyalarni rag'bathlanirishda soliqlarning tutgan o'rni.
19. Soliq imtiyozlarini belgilashning asosiy mezonlari (kriteriyalari).
20. Soliq siyosatini amalga oshirishda Davlat soliq qo'mitasining tutgan o'rni.
21. Soliq siyosatining yalpi talab va yalpi taklifga ta'siri.
22. Soliq stavkalari, uning iqtisodiyotni boshqarishdagi roli.
23. Soliqlar rivojlanishining tarixiy bosqichlari.
24. Amir Temur va temuriylar davrida soliq siyosati va uning avvalgi davrlar soliq siyosatidan farqi.
25. Soliqlarning klassik iqtisodchilar nazariyalaridagi talqini.
26. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
27. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni rivojlantirishda soliq imtiyozlarining ahamiyati.
28. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatiniing asosiy yo'nalishlari.
29. Soliqlar va soliqqa tortishning vujudga kelishi hamda rivojlanishi.
30. Umumiyligida soliq nazariyalari va ularning o'ziga xosligi.
31. Xususiy soliq nazariyalari va ularning asosiy yo'nalishlari.
32. Soliqqa tortish tamoyillari tizimi.
33. Soliq yuki tushunchasi. Soliqlarning elastiklik koeffitsenti.
34. Soliq nazorati: mazmuni va ahamiyati.

35. Soliqlarning mohiyati va funktsiyalari, soliqlarning boshqa to'lovlardan farqi.
36. Soliq to'lovchilarga beriladigan imtiyozlarning turlari, ularning guruhlanishi.
37. Soliqlarning rag'batlantirish funktsiyasi va uning ahamiyatini oshirish yo'llari.
38. A.Smit va hozirgi zamon iqtisodchilari tomonidan ishlab chiqilgan soliqqa tortish tamoyillari.
39. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq munosabatlarini takomillashtirish.
40. Kichik korxonalarda yagona soliq to'lovi qo'llanilishi xususiyatlari.
41. Soliqlarning ob'ektiv zarurligi va iqtisodiy mohiyati.
42. Soliqlar muhim moliyaviy resurs sifatida.
43. Soliqlarning umumiy belgilari va funktsiyalari.
44. Markaziy Osiyo mutafakkirlari g'oyalarida soliq munosabatlari.
45. Mahalliy hokimiyatlarning soliq-byudjet huquqlari.
46. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlar va investitsiyalarni o'zaro bog'liqligi.
47. Umum davlat soliqlari hamda mahalliy soliqlar va yig'imlar, ularning bog'liqlik va farqli jihatlari.
48. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar hamda yig'imlar, ularning mohiyati.
49. Respublikamizda soliq islohotlarini amalga oshirishda soliqqa tortishning klassik va zamonaviy nazariyalaridan foydalanishning ahamiyati.
50. Soliq siyosati tushunchasi va asosiy yo'nalishlari.
51. Soliq elementlari, mohiyati va tarkibi.
52. Soliqlarning fiskal funktsiyasi va uning ahamiyati.
53. Soliq ishini tashkil etish asoslari.
54. Xalqaro ikki yoqlama soliqqa tortishni tartibga solish.
55. Soliqqa tortish tamoyillari.
56. Soliq tizimini guruhash tartibi.
57. Soliqqa tortish to'g'risidagi ilmiy qarashlarning shakllanish bosqichlari.
58. Soliq mexanizmi va uning tarkibiy tuzilishi.
59. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalarni rag'batlantirishda soliqlarni tutgan o'rni.
60. Soliq va byudjet tizimining o'zaro bog'liqligi: uyg'unligi va muammolari.
61. Soliq xizmati organlarining tarkibi va asosiy funktsiyalari.
62. Soliq stavkalarining mazmuni hamda ulardan iqtisodiyotni boshqarishda foydalanish yo'nalishlari.
63. Yagona soliq nazariyasi va uning asosiy xususiyatlari.
64. Soliqlarni undirish usullari va ularning amaliyotda qo'llanilishi.
65. Soliqlarning guruhlanish asoslari va umumiy belgilari.
66. Soliq stavkalarini tabaqalashtirish mezonlari va ularni amalga oshirish jarayoni.
67. Xalqaro soliq kodeksi asoslarini qabul qilish zarurati va ahamiyati.

GLOSSARY

O'ZBEK TILIDA	INGLIZ TILIDA	RUS TILIDA	O'ZBEK TILIDAGI MAZMUNI
Aksiya	The campaign	Aktsiya	Aksionerlik jamiyatining kapitaliga hissa qo'shilganligi to'g'risida guvoxlik beruvchi qimmatbaho qog'oz. Aktsiya o'zining egasiga dvident shaklida foydani bir qismini olish (o'zlashtirish) huquqini beradi.
Budjet tizimi	Budget system	Byudjetnaya sistema	Turli darajadagi budjetlar va budjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, ularni tashkil etishni va tuzish printsiplarini, shuningdek budjet jarayonida paydo bo'ladigan ular o'rtaida o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi.
Budjetdan tashqari fondlar	Non-budget funds	Vnebyudjetnie fondi	A) ijtimoiy: ijitmoiy sug'urta fondi; pensiya fondi; bandlik fondi; majburiy tibbiyot sug'urtasi fondi; b) noijtimoiy: yo'l fondi; ekologiya va boshqa fondlardan iborat bo'lib, ularning barchasi budjet tizimida konsolidatsiyalanadi.
Balanslashgan to'lov	Balanced payment	Sbalansirovanni y platej	To'lovni uzish sxemasi - annuitet to'lovlarni oy(lar) kesimida teng ulushlarda to'lash nazarda sxema
Budjet dotatsiyasi	Budgetsubsidies	Byudjetnie subsidiy	O'z daromadlari va budjet tomonidan tartibga solinadigan barcha mablag'lar etishmagan holda quyi budgetning harajatlari bilan daromadlari o'rtaсидаги farqni qoplash uchun yuqori budjetdan quyi budgetga tekinga (haq olmay) ajratiladigan pul mablag'lari.
Budjet profitsiti	Budgetsurplus	Byudjetniy izbitok	Muayyan davrda budjet daromadlarining budjet xarajatlaridan ortiq bo'lgan

			summasi.
Budjet ssudasi	Budget loan	Byudjetniy kredit	Yuqori budgetdan quyi budgetga yoki respublika budgetdan rezident – yuridik shaxsga yoki xorij davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag‘.
Budjet subventsiyasi	Budget subventions	Byudjetnix subventsiy	Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ma‘lum maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budgetdan quyi budgetga tekingi (haq olmay) ajratiladigan pul mablag‘lari.
Budjet tashkilotlari	Budget organizations	Byudjetnie organizatsii	Davlat budgetida unga zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq faoliyatni moliyalashtirishning asosiy manbai bo‘lgan budgetdan mablag‘ ajratish nazarda tutilgan vazirlik, davlat qo’mitasi, idora, davlat tashkiloti.
Budjeti taqchilligi	Budget deficits	Defitsit byudjeta	(Defitsiti, kamomadi) – muayyan davrda budget harajatlarining budget daromadlaridan ortiq bo‘lgan summasi.
Budjet transferti	Budget transfer	Perevod byudjeta	Budgetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoki vakolotli organ orqali haq olmay (tekinga) ajratiladigan pul mablag‘lari.
Boqimanda	Arrears	Zadoljennost	Belgilangan muddatda o’tkazilmagan va so’zsiz undirilishi lozim bo‘lgan soliq yoki boshqa majburiy to’loving summasi.
Boj poshlinalari	Custom duties	Tamojennie poshlini	Iste’mol soliqlarining tarkibiga kiradi. Ularning maqsadi daromad olish bo’lmasdan, balki ichki bozorni, milliy sanoatni va qishloq ho’jaligini himoya qilishdir. Davlat

			iqtisodiy siyosatining instrumenti sifatida maydonga chiqadi. Import qilinadigan tovarlarning bahosi bilan ichki bozordagi xuddi shunga o'xshash tovarlarning bohasini tenglashtirish lozim.
Davlat budgeti	State budget	Gosbyudjet	Davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli fondlari mablag'larining) markazlashtirilgan fondi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.
Daromad solig'i	Incometax	Podoxodniy nalog	To'g'risoliqlarning asosiy shakli. Jismoniy yoki yuridik shaxslarning jami daromadidan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqxujjalalar bilan tasdiqlangan xarajatlarini chegirgan holda foizdahisoblangan ulushi.
Daromadlar to'g'risida deklaratsiya	Income declaration	Deklaratsiya o doxodax	Dvidentlar – taqsimlashga mo'ljallangan aksionerlarning sof foydasi (daromadi); aksionerlik jamiyati yoki korxona sof foydasidan har bir aksiya uchun aksionerlarga ma'lum davrdan so'ng (har yili, ayrim hollarda – har chorakda) to'lanadigan daromad.
Dotatsiya	Subsidy	Subsidiya	Davlat budgetidan qaytarilmaydigan tartibda beriladigan pul mablag'ları, (ziyon) larni qoplash uchun korxona va tashkilotlarga beriladigan davlat nafaqalari. Zarar (ziyon)lar korxonaga bog'liq bo'limgan sabalarga ko'ra vujudga kelgan paytda

			istisno tariqasida dotatsiya berilishi mumkin.
Daromad solig‘ining shedulyar shakli	Shedulyar income tax form	Shedulyar forma nalog na doxod	Daromadning manbaini inobatga olgan holda uning qismlarga (shedulyarga) bo’linishini taqozo etadi. Har bir shedul o’ziga manbai oldida “tutish”ni maqsad qilib qo’yadi. Mamlakatda bu sohada olti shedul amal qilib, ularning ayrimlari Yana ichki taqsimlanishga ham egadir.
Jarima	Penaltu	Sanktsiya	Soliqqa oid jinoyatlar uchun javobgarlik o’lchovidir.
Kapital o’sishidan olinadigan soliq	Capital gains tax	Nalog na prirost kapitala	Jismoniy va yuridik shaxslarning sotubi amalga oshirilgan kapitali o’sishidan undiriladigan daromad solig’i. Kapital o’sishi aktsiyalar, obligatsiyalar va qimmatli metallar va mol-mulkni sotish hisobidan olinadi. Kapitali o’sishi aktivlar birmuncha yuqori narxlarda sotilgan yoki ular bo'yicha qo'shimcha tarzdagi qiymat, masalan, dividend va foiz olinishi hisobiga yuzaga keladi. Kapital o’sishidan olinadigan soliq uning boshlang’ich va joriy bahosi o’rtasidagi farq hisobidan undiriladi. Kapital o’sishidan olinadigan soliq barcha mamlakatlarda ham qo’llanilmaydi, balki ayrim mamlakatlarda joriy etilgan va stavkalari turlicha ekanligi bilan ajralib turadi. Stavkalardagi farqlanish ularning jismoniy yoki yuridik shaxs ekanligi oqibatida yuzaga keladi.
Ikki marta	Doubletaxation	Dvoynoe	1. Turli soliqlarni daromad (kapital)ning yagona

soliqqa tortish		nalogoooblojenie	<p>manbaidan olinishi;</p> <p>2. Qo'shma korxona xorijiy ishtirokchisining foydasini xorijga o'tkazilayotgan paytda soliqqa tortish va xudi shu foydani xorijiy ishtirokchi mamlakatida soliqqa tortilishi;</p> <p>3. Sof foyda (daromad) (korporatsiyalar foydasi) v undan to'lanadigan dividentlarni ular shaxsiy daromadga aylanayotgan paytda soliqqa tortish. Boshqa mamlakatda to'langan soliqlarni bu mamlakatda hisobga olish yoki bir mamlakatdagi soliqqa tortish manbaini ikkinchi mamlakatda oliqqa tortishdan ozod qilish yo'li bilan ikki marta soliqqa tortishdan qutilish mumkin.</p>
Investitsion soliq krediti	Investment tax credits	Investitsionnie nalogovie krediti	<p>Soliq to'lovchi tomonidan ma'lum bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha juda muhim buyurtmani bajarganligi yoki shu hudud aholisiga juda muhim xizmatni taqdim etganligi uchun unga mahalliy hokimiyat organlari tomonidan soliq summasi doirasida beriladigan engillik, imtiyoz (soliq to'lovini kechiktirilish). Bu kredit soliq to'lovi va mahalliy ma'muriyat o'rtasida tuziladigan soliq bitimi bilan rasmiylashtirildi. Investitsion soliq kreditini taqdim etish (berish), rasmiylashtirish va qaytarish tartibi "Investitsion soliq kredit to'g'risida" gi qonunga muvofiq belilanadi.</p>
Imtiyoz	Privilege	Lgota	Ma'lum bir majburiyatlarni bajarishdan qisman (yoki to'liq)

			ozod etish, ma'lum bir afzalliklarga (qulayliklarga) ega bo'lish, masalan, soliq imtiyoziga.
Import solig'i	Import tax	Nalog na import	Bir necha mamlakatlardagi soliqlar guruhi, daromad sarf qilinayotgan paytda olinadi. Qo'shilgan qiymat solig'i va aksizlar ana shunday soliq tarkibiga kiradi. Boj poshlinalarini ham iste'mol soliqlari qatoriga kiritish mumkin. Bu soliqlarning ayrimlari davlat foydasiga olinsa, boshqa bir qismi mahalliy budjetlarga borib tushadi.
Yig'imlar	Tolls	Poshlini	Qonun aktlariga muvofiq belgilangan tartibda va shartlarda to'lovchilar tomonidan tegishli darajadagi budjetlarga yoki budjetdan tashqari fondlarga o'tkaziladigan majburiy badallar. Ularning tarkibiga savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig'im, shu jumladan, ayrim turdagи tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'imlari, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jiismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im, avtotrasport to'xtash joyidan foydalanganlik uchun yig'im, obodonchilik ishlari uchun yig'im va boshqalar kiradi.
Mahalliy soliqlar va yig'imlar	Local taxes and fees	Mestnie nalogi i sbori	Mahalliy budjetga olinadigan jiismoniy va yuiridk shaxslarning majburiy to'lovlari. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi: mol-mulk solig'i, yer solig'i, savdo-sotiq

			qilish huquqi uchun qig‘im, shu jumladan, ayrim turdag‘i tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig‘imlari, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro’yxatga olganlik uchun yig‘im, avtotransport to’xtash joyidan foydalanganlik uchun yig‘im, obodonchilik ishlari uchun yig‘im va boshqalar.
Mahalliy budjet	The local budget	Mestniy byudjet	Davlat budgetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari fondini tashkil etuvchi bir qismi bo’lib, unda daromad manbalari va ularning tushumlari miqdori, shuningdek, moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo’nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.
Ma‘muriy javobgarlik	Administrative responsibility	Administrativna ya otvetstvennost	Ma‘muriy huquqbazarlikni sodir etganligi uchun fuqarolar va mansabdor shaxslar yuridik javobgarligining shakllaridan biri.
Ortiqcha to’lovlar	Payment	Pereoplata	To’lovning budgetga tushgan ortiqcha summasi. Odatda soliq to’lovchining boshqa to’lovlar bo’yicha mavjud bo’lgan boqimondalarini uzish uchun hisobga olinadi va bu to’g‘rida unga ma‘lum qilinadi yoki moliya organining qarori nusxasi va bankning tegishli ko’chirmasi asosida soliq to’lovchiga qaytariladi.
Penya	Fine/surcharge	Penya	Qonunchilikda nazarda tutilgan yoki shartnomaga majburiyati bo’yicha belgilangan vaqtdan kechikkan har bir kun uchun

			bitim bo'yicha qayd etilgan summaning foizdag'i ulushi ko'rinishida qo'llaniladi.
Regressiv soliqqa tortish	Regressivetaxation	Regressivnoe nalogoblojenie	Soliq asosi (bazasi)ning o'sib borishi bilan soliq stavkasining pasayishini taqozo etadi. Soliq undirish og'irligi daromadga teskari proporsionaldir: daromad qancha kam bo'lsa, soliq to'lovchi uchun soliqning og'irligi shuncha og'irdir. Hozirgi paytda qo'shilgan qiymat solig'inining joriy etilishi bilan egri (bilvosita) soliqlarning regressivligi kuchayib bormoqda.
Real soliq	Real tax	Realniy nalog	Soliqto'lovchining ayrim mulklarini soliqqa tortadigan to'g'ri soliqlardan iboratdir.
Rezidentlar	Residents	Rezidenti	Kalendar yilda mamlakatda 183 kundan kam bo'lмаган muddatda yashagan, O'zbekistonda doimiy yashash joyiga ega bo'lgan va bo'lмаган soliq to'lovchilar (shu mamlakat hududida va undan tashqarida olinganlari ham) shu mamlakatda soliqqa tortilishi shart.
Respublika budjeti	Republican budget	Respublikanski y byudjet	Davlat budgetining umum davlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalilaniladigan qismi bo'lib, unda adromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Soliq agenti	Taxagent	Nalogoviy agent	Yuridik va jismoniy shaxslardan soliqni ushlab qolish va davlat byudjetiga o'tkazib beruvchi yuridik shaxslar. Bunda yuridik shaxslar, ular o'z faoliyatida bevosita yoki bilvosita ishga yollaganligi natijasida to'lanadigan ish haqidan, dividendlardan, doimiy muassasa orqali faoliyat ko'rsatmaydigan norezident yuridik va jismoniy shaxslardan ushlanishi lozim bo'lgan soliq summalarini ushlab qoladi va byudjetga o'tkazib beradi. Soliq agenti adabiyotlarda asosan fiskal agent sifatida e'tirof etiladi.
Soliqlar	Taxes	Nalogi	Qonunda beliglangan tartibdastavka bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlardan va fuqarolar (yuridik va jismoniy shaxslar) dan davlat tomonidan davlat yoki mahalliy budgetga olinadigan majburiy to'lovlar. Soliq, yig'im, poshlina va boshqa to'lovlar deyilganda qonuniy aktlar asosida beliglangan tartibda va shartlarda to'lovchilar tomonidan tegishli darajadagi budgetlarga yoki budgetdan tashqaridagi fondlarga majburiy badallarning to'lanishi tushuniladi. Belgilangan tartibda olinadigan soliqlar, yig'imlar, poshlinalar va boshqa to'lovlarning yig'indisi soliq tizimini tashkil etadi.
Soliq bazasi	The tax base	Nalogovaya baza	Soliq ob'ektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori. Hisoblanadigan soliq miqdori nafaqat soliq stavkalarining

			miqdoriga, shu bilan birgalikda soliq stavkasi qo'llaniladigan ob'ektning miqdoriga ham bog'liq bo'ladi.
Soliq kontseptsiyasi	The concept of tax	Ponyatie naloga	Bu soliqlarni yo'nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g'oyalarining yaxlitligidir.
Soliq siyosati	Tax policy	Nalogovaya politika	Bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. Utarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to'lovlarini amaliyotda ishslash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatlari organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir.
Soliq siyosati strategiyasi	Tax policy	Strategiya nalogovaya politika	Soliq siyosatining uzoq muddatli yo'nalishi bo'lib, ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergan ulkan masshtabli vazifalarni kelajakda bajarilishini ta'minlash ko'zda tutilgan moliyaviy tadbirlar yig'indisidir.
Soliq siyosati taktikasi	Tax policy and tactics	Taktika nalogovaya politika	Belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta'minlovchi, tez-tez o'zgarib turuvchi sayi-harakatlarni bildiradi, ya'ni qisqa muddatli va kichik masshtabli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yo'nalishlar majmuasi - soliq siyosati taktikasi sifatida qaraladi.

Soliq sub'ekti	The subject of tax	Subekti nalogaga	Soliq to'lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar yoki boshqacha qilib aytganda soliq sub'ekti - bu soliqqa oid munosabatlarning tashkil etuvchi tomonlarning o'zaro majmuasi bo'lib, unda bir tomondan soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) boshqa tomondan soliqni undirish vakolati yuklangan soliq xizmati organlari - Davlat soliq qo'mitasi, soliq boshqarmalari, tuman va shahar davlat soliq inspeksiyalari qatnashadi.
Soliq ob'ekti	The object of the tax	Ob'ekt nalogoooblojeniya	Soliq to'lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki tushuniladi. Soliq ob'ekti sifatida foyda yoki daromad, muayyan tovarlarni qiymati, yer maydoni, jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari, tabiiy resurslardan foydalanish miqdori va boshqalar kiradi.
Soliq organlari	Tax authorities	Nalogovie organi	Soliq qonunchiligiga rioya qilish, mamlakatning qonunlariga muvofiq belgilangan (o'rnatilgan) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlearning to'g'ri hisoblanishi, ularning to'liq va o'z vaqtida budjetga o'tkazilishi ustidan nazoratni ta'minlovchi yagona mustaqil markazlashtirilgan tizim. Davlat soliq qo'mitasining yagona tizimiga kiruvchi soliq organlari davlat boshqaruvinining markaziy organi (Davlat soliq qo'mitasi), viloyat, tuman va

			shahar soliq inspeksiyalaridan iboratdir.
Soliq inspeksiyalari	Tax inspection	Nalogovaya inspeksiya	Davlatsoliq qumitasiing yagona tizimi tarkibiga kiruvchi tuzilmaviy birlik. Ularning tarkibiy tuzililishi funktional belgigako'ra aniqlanadi. Buning asosi sifatida turli belgilar: mulkchilik shakli, xo'jalik faoliyatining turli, to'lovlar hajmi, soliqlarning turlari va o'.k.lar olinishi mumkin. Fuqarolarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish uchun soliq inspeksiysi nazorati ostida bo'lgan hudud uchastkalarga bo'linadi.
Soliq imtiyozlari	Tax incentives	Nalogovie lgoti	Soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha turli xil engilliklar bo'lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to'liq yoki qisman va boshqa ko'rinishlarda berilishi mumkin.
Soliq manbai	A source of tax	Istochnik naloga	Bu soliq to'lovchining to'laydigan soliqlari manbai, ya'ni daromadi. Soliq ob'ekti va soliq manbaini bir-biridan farqlash lozim. Ayrim soliq turlari bo'yicha, masalan, daromad (foyda)ga, yalpi daromadga, jismoniy shaxslarning daromadiga soliqlar bo'yicha soliq ob'ekti ham soliq manbai ham bir xil bo'ladi, ya'ni nima ob'ekt bo'lsa, uning o'zi manba hisoblanadi.
Soliq stavkasi	Tax rate	Stavka naloga	Soliqqa tortish birligiga to'g'ri keluvchi soliqning hajmi (miqdori, darajasi). Qat'iy soliq stavkalari daromadlarga bog'liq bo'lмагan holda soliqqa tortish birligiga nisbatan absolyut

			summalarida o'rnataladi.
Soliqqa tortish birligi	Unit of taxation	Edinitsa nalogoooblojeniya	Bu ob'ektning o'lchov birligi. Masalan, daromad yoki mol-mulk solig'ida ob'ektning o'lchov birligi bo'lib uning so'mdagi bahosi ifodalansa, yer solig'ida o'lchov birligi bo'lib kv.m. yoki gektar hisoblanadi.
Soliqqa tortish predmeti	The subject of taxation	Predmetom nalogoooblojeniya	Soliq solinadigan daromad, oborot, mol-mulk va boshqalarga bo'lgan huquq emas, balki ularning o'zidir, ya'ni soliq solish ob'ekti bo'lib biror-bir soliq predmetiga bo'lgan huquq tushunilsa, predmet bo'lib ana shu egalik qilinadigan daromad, yer uchastkasi, imorat va boshqalarning o'zi tushuniladi.
Soliq tizimi	The tax system	Nalogovaya sistema	Mamlakat doirasida (hududida to'lovlardan (yuridik va jisoniy shaxslardan) belgilangan tartibda olinadigan soliqlar,yig'implar va boshqa to'lovlar hamda ular tarkibiy tuzilishining shakli va uslublari yig'indisi.
Soliq qonunchiligi	Tax legislation	Nalogovoe zakonodatelstvo	Davlatda soliqlarning turi, ularni undirish mexanizmi va soliq majburiyatlarining vujudga kelishi, o'zgarishi va to'xtatishini tartibga solib turuvchi yuridik me'yorlar yig'indisi; moliyaviy huquq instituti. Soliq huquq davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi (qurilishi), uning vazifa va funksiyalari bilan belgilanadi.
Soliq badallari (to'lovlari)	Tax payments (payments)	Nalogovie plateji (plateji)	Soliq qonunchiligi bo'yicha belgilangan tartibda va muddatda soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan,

			hisoblangan yoki qat‘iylashtirilgan summalaridir. Ularni hisoblash tartibi har bir soliq turi bo‘yicha qonunga binoan aniqlanadi.
Soliq tushumlari	Tax revenues	Nalogovie postupleniya	Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan budjet daromadlari va xarajatlari klassifikatsiyasining daromadlari qismidagi ha rbir soliq va boshqa majburiy to’lovlariga mo’ljallangan qism, band, kod va moddaga muvofiq vakolothi banklarning hisob-kitob schyotiga yoziladigan, hisoblangan va haqiqatda kelib tushgan soliq badallari (to’lovlar) va moliyaviy sanktsiyalar.
Soliq hisob-kitoblari	Tax calculations	Nalogovie rascheti	Yuridik shaxslar tomonidan qonunda ko’zda tutilgan muddatlarda buxgalteriya hisoboti bilan birgalikda soliq organlariga taqdim etilib, o’zida ma’ulm hisobot davri mobaynida to’lanishi lozim bo’lgan hisoblangan to’lovlar summasini aks ettiradi. Soliq summalarini hisoblash tartibi soliq qonunchiligiga ko’ra har bir soliq turi bo‘yicha alohida-alohida belgilangan.
Soliq nazorati	Financial control	Nalogovie kontrol	Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarining to’liq va o’z vaqtida to’lanishini ta’minlash ustidan nazorat.
Soliqqa tortilmaydigan oborot	Tax-exempt turnover	Neoblagaemiy oborot	Qonunga muvofiq qo’shilgan qiymat solig‘iga tortilmaydigan oborot.
Soliqdeklaratsiyasi	Tax Declaration	Nalogovaya deklaratsiya	Soliq to’lovchining soliq organiga ma’lum bir davr oralig’idaolgan daromadlari hamda unga qo’llaniladigan

			chegirma va imtiyozlarni o'zida aks ettirgan maxsus shakldagi rasmiy bayonoti. Soliq organi unga va amaldagi soliq stavkalariga asoslanib, to'lanishi belgilangan soliq summalari undirilishini nazorat qiladi
Soliq majburiyati	Taxliabilities	Nalogovie obyazatelstva	Soliqlarni hisoblash va to'lash yuzasidan talab etiladigan va bajarilishi shart bo'lgan majburiyatlarni o'zida aks ettirgan iqtisodiy munosabatlar majmui. Bu jarayonda davlat o'zining vakolatli organlari orqali soliq to'lovchidan mazkur majburiyatlar bajarilishini talaba etish huquqiga egadir
Soliq mexanizmi	The tax mechanism	Nalogoviy mexanizm	Davlat, jamiyat va alohida sub'ektlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish yuzasidan markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag'lari fondlarini tashkil etish bilan bog'liq ob'ektiv munosabatlarni boshqarish usullari yig'indisi.
Soliq yuki	The tax burden	Nalogovoe bremya	Soliq to'lovchining muayyan vaqt oralig'ida to'lagan soliqlari yig'indisini ifodalaydi. Bunda soliq to'lovchilarning to'laydigan barcha soliqlar va soliqsiz majburiy to'lovlaring yig'indisini ifodalanadi. Soliq yukining aniq soliq to'lovchilar zimmasiga qancha to'g'ri kelganligini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi.
Soliq organi	Taxauthority/ taxbodies	Nalogoviy organ	Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq, soliqlar undirilishini amalga oshiruvchi davlat organlari tizilmasi.

Soliq Organlarining vakolatlari	The competence of the tax authorities	Kompetentsiya nalogovix organov	Soliq organlarining huquq va majburiyatlari majmui.
Soliq to'lovchi	Taxpayer	Nalogoplatelshchik	Qonunchilikka ko'ra, tegishli soliqlarni to'lash majburiyati zimmasiga yuklatilgan yuridik yoki jismoniy shaxs.
Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish	International double taxation	Mejdunarodnoe dvoynoe nalogoooblojenie	Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish deganda ikki yoki undan ortiq mamlakatda bir soliq to'lovchining faoliyati aynan bir xil yoki o'xshash soliq turi bilan bir vaqtning o'zida soliqqa tortish ifodalanadi.

ILOVALAR

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

Рўйхатга олинди:

№ БД-5230800-4.05

2017 йил “18” 08



Олий ва ўрта махсус
таълим вазирлиги

2017 йил “24” 08

СОЛИҚ НАЗАРИЯСИ

ФАН ДАСТУРИ

- Билим соҳаси: 200000 – Ижтимоий соҳа, иқтисод ва ҳуқук
Таълим соҳаси: 230000 – Иқтисод
Таълим йўналиши: 5230800 – Солиқлар ва солиққа тортиш

ТОШКЕНТ – 2017

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2017 йил “24” 08 даги “603” – сонли буйруғининг 2 -иловаси билан фан дастури рўйхати тасдиқланган.

Фан дастури Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълими йўналишлари бўйича Ўкув-услубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиқлаштирувчи Кенгашнинг 2017 йил “18” 08 даги “4” – сонли баённомаси билан маъқулланган.

Фан дастури Солиқ академиясида ишлаб чиқилди.

Тузувчилар:

- | | | |
|-----------------|---|--|
| Кузиева Н.Р. | — | Солиқ академияси “Солиқлар ва солиққа тортиш” кафедраси мудири, иқтисод фанлари доктори |
| Боймуротов С.Р. | — | Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси “Солиқ солиш методологияси” бош инспектори |
| Бозоров А.А. | — | Солиқ академияси “Солиқлар ва солиққа тортиш” кафедраси ўқитувчиси |

Тақризчилар:

- | | | |
|-----------------|---|---|
| Аллаберганов А. | - | Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси Солиқ солиш методологияси бошқармаси бошлиги, иқтисод фанлари номзоди |
| Альмарданов М. | - | ТДИУ, “Молия ва соликлар” кафедраси профессори, иқтисод фанлари доктори (<i>турдош OTM</i>) |

Фан дастури Солиқ академияси Кенгашида кўриб чиқилган ва тавсия қилинган (2017 йил “29” 06 даги “118” – сонли баённома).

I. Ўқув фанининг долзарблиги ва олий касбий таълимдаги ўрни

Давлат солиқ хизмати органлари ходимлари ўзларига юклатилган вазифаларни муваффақиятли ва мукаммал бажаришлари учун солиқлар ва солиққа тортишга доир амалий билимлар билан бирга, солиқларнинг моҳияти, белгилари, объектив зарурлиги, солиқ сиёсати, солиқ тизими ва солиққа тортиш назариялари ҳақидаги тушунчаларни чукур билишлари зарур. Бунинг учун солиқ назарияси фанини пухта ўзлаштириш керак. Бу фан жамиятнинг ҳар бир аъзосини ғоявий жиҳатдан йўналтириш, маънавий дунёқарашини кенгайтириш, солиқ маданияти ва солиққа оид билимларининг юксалишига аҳамиятли таъсир кўрсатади. “Солиқ назарияси” фанининг мазмунини чукур эгаллаган ҳар қандай мутахассис солиқларни ўрганишда ва уларни ҳаётга тўғри тадбиқ этишда адашмайди.

Фан бўйича ишлаб чиқилган дастур доирасида талабалар солиқларнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши, солиқлар ва солиққа тортишга доир илмий қарашлар, назариялар, солиқларнинг иқтисодий моҳияти, хусусиятлари, объектив зарурлиги, солиқ сиёсатининг назарий масалалари, солиқ тизими, солиқларнинг макроиқтисодий ҳолатга таъсири, солиқ ишини ташкил этиш асослари, халқаро солиққа тортиш ҳақида тушунча, билим ва қўникмаларга эга бўлади. Мазкур таъкиддан келиб чиқиб ушбу дастур солиққа тортиш йўналиши бўйича назарий билим бериш доирасини қамраб олган.

II. Ўқув фанининг мақсади ва вазифалари

Фанни ўқитишдан мақсад - талабаларда солиқлар ва солиққа тортиш муносабатларининг тарихи, элементлари, функциялари ва солиқ тизимининг назарий асосларини, Ўзбекистон ва иқтисодиёти ривожланган мамлакатларда солиқ тизимининг шаклланиш ва ривожланиш эволюциясини ўрганиш бўйича билим, қўникма ва малака шакллантиришdir.

Фанинг вазифаси – уни ўрганувчиларга:

- солиқларнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш тарихи;
- солиқ органларининг шаклланиш босқичлари;
- солиқлар ва солиққа тортишга доир илмий қарашлар;
- солиқларнинг иқтисодий моҳияти, хусусиятлари, уларнинг объектив зарурлиги;
- солиқ сиёсатининг назарий масалалари;
- солиқ элементлари;
- солиқ тизими;
- солиқларнинг макроиқтисодий ҳолатга таъсири;
- солиқ ишини ташкил этишни ўргатишдан иборатdir.

Фан бўйича талабаларнинг билим, қўникма ва малакаларига қўйидаги талаблар қўйилади. **Талаба:**

- солиқ түловчиларнинг хукуқлари;
- солиқтарнинг пайдо бўлиш ва ривожланиш тарихи;
- солиқтарнинг ижтимоий-иктисодий моҳияти, функциялари ва вазифалари;
- солиқ тўловчиларнинг хукуқлари;
- солиқ тўловчиларнинг мажбуриятлари;
- солиқ-бюджет тизими **ҳақида тасаввурга эга бўлиши;**
- солиқ сиёсатининг аҳамияти ва ўрни, унинг асосий йўналишлари;
- Ўзбекистон Республикасида солиқ тизимининг ислоҳ қилиш босқичлари;
- солиқ мажбурияти ва маданияти;
- Ўзбекистон Республикаси солиқ қонунчилиги асослари каби масалаларни **билиши ва улардан фойдалана олиши;**
- солиқ солиш манбалари ва базасини аниқлаш;
- солиқ юкини ҳисоблаш;
- солиқ ставкаларини қўллаш;
- юридик ва жисмоний шахслар фаолиятини рағбатлантириш бўйича уларга зарур имтиёзлар ва преференциялар бериш;
- солиқтарнинг бюджетга ўз вақтида ва тўлиқ тушишини таъминлаш;
- солиқка оид жиноятларни олдини олиш мақсадида солиқ тўловчиларга ёрдам бериш ва уларнинг бу борадаги билимларини оширишга кўмаклашиш, улар билан мунтазам иш олиб бориш бўйича **кўникмаларга эга бўлиши керак;**
- солиқ тортиси тамойиллари;
- солиқ қонунчилиги меъёрлари;
- солиқ ва бошқа мажбурий тўловлари;
- солиқ механизми ва элементлари;
- солиқ имтиёзлари турлари;
- солиқ назорати шакллари;
- солиқка оид ҳукуқбузарлик турлари ва жавобгарлик чоралари бўйича **малакаларига эга бўлиши керак.**

III. Асосий назарий қисм (Маъруза машғулотлари)

1-мавзу. “Солиқ назарияси” фанига кириш

Иқтисодиётда “Солиқ назарияси” фанининг предмети ва мазмуни. “Солиқ назарияси” фанининг вазифалари. “Солиқ назарияси” фани ижтимоий-иктисодий фан эканлиги. Солиқ назарияси – солиқлар ва солиқ тортиси оид бошқа фанларнинг услугий пойдевори ва давлат солиқ сиёсатининг илмий асоси эканлиги. Фани ўрганишдаги умумий ва алоҳида усуллар. “Солиқ назарияси” фанининг “Иқтисодиёт назарияси” ва бошқа фанлар билан ўзаро узвий боғлиқлиги.

“Солиқлар ва солиққа тортиш” таълим йўналиши бўйича кадрларни тайёрлашда ва илмий тадқиқотларни ўтказишда “Солиқ назарияси” фанининг ўрни ва аҳамияти.

2–мавзу. Солиқларнинг вужудга келиши ва ривожланиш тарихи

Солиқ тушунчаси. Солиқлар ва солиққа тортиш муносабатларининг вужудга келиши. Солиқларнинг вужудга келиш сабаблари. Солиқларнинг тарихи ва ривожланиш босқичлари. Солиқлар ва солиққа тортиш муносабатларига доир ғоялар ва назариялар. Классик ва неоклассик солиқ назариялари. Солиқларга доир замонавий назариялар.

Турли мамлакатларда солиққа тортишнинг шакл ва тартибларининг ривожланиш тенденциялари. Марказий Осиёда солиқларнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши. Амир Темур ва темурийлар давлатчилигига солиқлар ва солиққа тортиш тартиблари. Хонликлар давридаги солиқлар.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистон Республикаси солиқ тизимининг шаклланиш шарт-шароитлари ва хусусиятлари. Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.А.Каримов асарларида солиққа оид фикрлар. Давлат солиқ қўмитасининг “Солиқлар тарихи музейи”.

Ўзбекистон Республикаси солиқ тизимида солиқ назарияларининг ифодаланиши. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси ва унинг солиқ муносабатларини тартибга солишдаги роли.

3–мавзу. Солиқларнинг иқтисодий моҳияти ва тамойиллари

Солиқларнинг иқтисодий моҳияти ва объектив зарурлиги. Солиқларнинг тавсифи ва умумий белгилари. Солиқларнинг функциялари ва уларга доир иқтисодчи олимларнинг қарашлари. Бошқа мажбурий тўловлар тушунчаси. Солиқлар ва бошқа мажбурий тўловлар тушунчаларининг ўзаро бир-биридан фарқланиши ҳамда ўзига хос хусусиятлари. Солиқ, йиғим, бож ва солиқларга тенглаштирилган мажбурий тўловлар, уларнинг ўхшаш ва фарқли жиҳатлари. Жаҳон мамлакатларида амал қиласиган солиқ турлари, уларнинг ўхшаш ва фарқли жиҳатлари.

Солиқ тўловчиларнинг ҳукуқ ва мажбуриятлари. Солиққа тортиш тамойиллари ва уларга доир иқтисодчи олимларнинг қарашлари. Адам Смитнинг солиққа тортиш тамойилларига доир қарашлари. Ўзбекистон Республикаси солиқ қонунчилиги тамойиллари. Солиқ тўғрисидаги қонун ҳужжатлари ва уларнинг вақт бўйича амал қилиши. Солиққа тортишнинг умумий ва хусусий тамойиллари.

4–мавзу. Солиқ элементлари ва уларнинг тавсифи

Солиқ элементлари ва уларнинг моҳияти. Солиқ муносабатлари ва уларнинг иштирокчилари: солиқ тўловчилар (юридик ва жисмоний шахслар), солиқ агентлари, солиқ тўловчининг вакиллари ва ваколатли органлар (шу

жумладан, давлат солиқ хизмати органлари). Солиқ тўловчиларнинг статуси. Резидентлар ва норезидентлар. Доимий муассаса тушунчаси.

Солиққа тортиш предмети. Солиқ обьекти. Солиқ солиш билан боғлиқ обьект. Солиқ базаси. Солиқ даври. Солиқ бирлиги ва кўлами (масштаби).

Солиқ ставкаси ва унинг турлари. Прогрессив, регрессив ва пропорционал ставка. Солиқ ставкаларининг ўзгариш тенденцияси. Рамсейнинг солиққа тортиш назарияси. Солиқ имтиёzlари ва преференциялари, уларнинг турлари. Солиқ чегирмаси. Соликларни тўлаш муддатлари. Соликларни ҳисоблаб чиқариш ва ундириш усуллари. Солиқ ҳисботини тақдим этиш тартиби. Солиққа оид бошқа атама, таянч сўзлар ва тушунчалар.

5–мавзу. Ўзбекистон Республикаси солиқ тизими ва унинг шаклланишининг назарий асослари

Солиқ тизими ва унинг моҳияти. Солиқ тизимининг таркиби ва элементлари. Солиқ тизимини гуруҳлаш тартиби. Соликларнинг классификацияси. Соликлар ва бошқа мажбурий тўловлар. Тўғри (бевосита) ва эгри (бильвосита) соликлар. Ресурс соликлари. Умумдавлат ва маҳаллий соликлар. Солиқ солиш режими. Солиққа тортишнинг умумбелгиланган тартиби. Соддалаштирилган солиқ солиш тизими. Юридик ҳамда жисмоний шахслар тўлайдиган соликлар ва бошқа мажбурий тўловлар.

Солиқ қонунчилиги иборасининг назарий таърифи. Солиқ қонунчилигининг таркибий қисмлари. Солиқ қонунчилигининг таркибий қисмларини ташкил қилувчи асосий меъёрий-хукуқий хужжатлар, уларнинг соликлар ва солиққа тортиш муносабатларига дахлдорлигининг назарий асослари. Ўзбекистон Республикасида солиқ органлари тизимини ислоҳ қилиш ва модернизациялашнинг асосий йўналишлари.

6–мавзу. Солиқ муносабатлари субъектларининг хукуқлари ва солиқ мажбуриятларининг бажарилиши

Солиқ тўловчиларнинг хукуқлари. Солиқ тўловчиларнинг мажбуриятлари. Солиқ мажбурияти тушунчаси. Солиқ тўловчилар томонидан мажбуриятини бажариш тартиби. Солиқ мажбуриятини бажариш муддатлари. Солиқ мажбуриятининг тугатилиши. Солиқ мажбурияти бўйича даъво қилиш муддати. Солиқ солиш обьектларини ва солиқ солиш билан боғлиқ обьектларни аниқлаш хусусиятлари. Ҳисоб хужжатлари. Ҳисоб хужжатларини тузиш ва сақлаш. Алоҳида-алоҳида ҳисоб ва уни юритиш қоидалари. Солиқ тўловчилар томонидан солиқ ҳисботларини тузиш ва солиқ органлариги тақдим этиш хусусиятлари. Соликлар ва бошқа мажбурий тўловларни тўлаш мажбурияти. Юридик шахс тугатилганда соликлар ва бошқа мажбурий тўловларни тўлаш.

7–мавзу. Солиқ сиёсати ва унинг асосий йўналишлари

Солиқ сиёсати ва унинг таркиби. Фискал сиёсат. Солиқ сиёсатини амалга оширишда фискал-молия, ҳокимият ва бошқа органларининг роли. Ўзбекистон Республикаси солиқ сиёсатининг хусусиятлари. Солиқ сиёсатининг асосий йўналишлари. Мустақиллик йилларида солиқ сиёсати.

Бозор тамойилларига хос солиқ сиёсатининг шаклланиши. Солиқ сиёсатини такомиллаштиришда солиқ тўловчиларнинг фикр-мулоҳазаларини инобатга олиш, жамоат фикрини ўрганиш, миллий манфаатлар устуворлигини таъминлаш. Солиқ сиёсатини эркинлаштириш. Солиқ тўловчилар маданиятини юксалтириш чора-тадбирлари.

Солиқ сиёсатини такомиллаштиришда амал қилинадиган тамойиллар. Солиқ сиёсатининг асосий йўналишларини белгилашда ноқонуний фаолиятнинг салбий таъсири. Солиқ сиёсати стратегияси ва тактикаси. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитидаги солиқ сиёсати. Ўзбекистон ва ҳалқаро солиқ сиёсати: умумийлик ва ўзига хослик.

8–мавзу. Солиқقا оид ҳуқуқбузарлик тушунчаси, турлари ва жавобгарлик тўғрисидаги умумий қоидалар

Солиқقا оид ҳуқуқбузарлик тушунчаси. Солиқقا оид ҳуқуқбузарликларнинг турлари ҳамда уларни содир этганлик учун жавобгарлик. Жисмоний шахсларнинг солиқка оид ҳуқуқбузарликлар содир этганлик учун жавобгарлиги. Солиқقا оид ҳуқуқбузарлик учун жавобгарликка тортишнинг умумий шартлари. Солиқقا оид ҳуқуқбузарлик учун жавобгарликдан озод қилиш. Солиқ тўловчиларнинг солиқка оид ҳуқуқбузарлик содир этганликдаги айбини ва уни жавобгарликка тортишни истисно қиласиган ҳолатлар. Солиқقا оид ҳуқуқбузарлик учун жавобгарликни енгиллаштирувчи ва оғирлаштирувчи ҳолатлар. Солиқقا оид ҳуқуқбузарлик учун маъмурий жавобгарлик. Молиявий санкциялар ва уларни қўллаш тартиби.

9–мавзу. Солиқлар ва макроиқтисодий ҳолатнинг узвий боғлиқлиги

Солиқ сиёсатининг макроиқтисодий самараси. Солиқ юки ва уни аниқлаш тартиби. Макро ва микродаражада солиқ юкини аниқлаш тартиби ва хусусиятлари. А.Лаффер эгри чизиғи ва унинг эластиклиги. Солиқларнинг ялпи талаб ва ялпи таклифга таъсири. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида солиқлар ва инвестицияларнинг ўзаро боғлиқлиги. Солиқлар ва иқтисодий ўсиш.

10–мавзу. Солиқ ишини ташкил этиш асослари

Давлат солиқ хизмати органларининг ташкил этилиши. Солиқ идоралари фаолиятининг ҳуқуқий асослари. Ўзбекистон Республикаси солиқ

идораларининг таркибий тузилиши. Давлат солиқ қўмитасининг функция ва вазифалари. Давлат солиқ хизмати органларида хизматни ўташ тартиби. Давлат солиқ хизмати органлари ходимларининг касб одоби ва этикаси. Давлат солиқ қўмитаси қошидаги Эксперт кенгаши, унинг ҳукуқ ва мажбуриятлари. Солиқ хизмати идораларининг бошқа муассасалар билан муносабатлари.

Солиқ тизимида илғор ахборот-коммуникация технологияларининг жорий этилиши ва қўлланилиши. Интерфаол солиқ хизматлари. Солиқ назорати шакллари. Солиқка оид давлат назоратининг объектив зарурлиги. Солиқ текшируви шакллари ва турлари. Назорат принциплари: қонунийлик, холисслик, ошкоралик, солиқ тўловчилар ҳукуқларини ҳимоя қилиш, хўжалик субъектлари фаолиятига аралашмаслик. Назорат қилувчи органлар фаолиятини мувофиқлаштирувчи Республика кенгаши ваколатлари. Текширилаётган хўжалик субъектларининг ҳукуқлари. Назорат қилувчи органлар мансабдор шахсларнинг ҳукуқлари ва мажбуриятлари.

11–мавзу. Халқаро солиққа тортиш

Халқаро солиққа тортиш ва унинг асосий тамойиллари. Халқаро солиққа тортишнинг ҳуқуқий асослари. Евropa давлатларида солиққа тортиш. МДҲ ва Осиё давлатларида солиқ солишнинг хусусиятлари. Америка қитъаси давлатларида солиқ тизими. Ўзбекистон Республикасининг хорижий мамлакатлар билан солиқ соҳасидаги ҳамкорлиги. Халқаро икки ёқлама солиққа тортишни олдини олиш. Ўзбекистон Республикасининг хорижий мамлакатлар билан икки томонлама солиққа тортишга йўл қўймаслик, даромад ва капитал солиғини тўлашдан бўйин товлашнинг олдини олиш ҳақида шартномалар. Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитасининг халқаро ташкилотлар билан ҳамкорлиги.

IV. Амалий машғулотлар бўйича қўрсатма ва тавсиялар

Амалий машғулотлар учун қуидаги мавзулар тавсия этилади.

1. “Солиқ назарияси” фанига кириш.
2. Солиқларнинг вужудга келиши ва ривожланиш тарихи.
3. Солиқларнинг иқтисодий моҳияти ва тамойиллари.
4. Солиқ элементлари ва уларнинг тавсифи.
5. Ўзбекистон Республикаси солиқ тизими ва унинг шаклланишининг назарий асослари.
6. Солиқ муносабатлари субъектларининг ҳукуклари ва солиқ мажбуриятларининг бажарилиши.
7. Солиқ сиёсати ва унинг асосий йўналишлари.
8. Солиқка оид ҳукуқбузарлик тушунчаси, турлари ва жавобгарлик тўғрисидаги умумий қоидалар.
9. Солиқлар ва макроиқтисодий ҳолатнинг узвий боғлиқлиги.

10. Солиқ ишини ташкил этиш асослари.

11. Халқаро солиққа тортиш.

Амалий машғулотларни ташкил этиш юзасидан кафедра томонидан кўрсатма ва тавсиялар ишлаб чиқилади. Унда талабалар асосий маъруза мавзулари бўйича олган билим ва қўнималарини амалий масалалар, кейслар орқали янада бойитадилар. Шунингдек, дарслик ва ўқув қўлланмалар асосида талабалар билимларини мустаҳкамлашга эришиш, тарқатма материаллардан фойдаланиш, илмий мақолалар ва тезисларни чоп этиш орқали талабалар билимини ошириш, масалалар ечиш, мавзулар бўйича тақдимотлар ва кўргазмали материаллар тайёрлаш, меъёрий-хукуқий хужжатлардан фойдаланиш ва бошқалар тавсия этилади.

V. Мустақил таълим ва мустақил ишлар

Мустақил таълим учун тавсия этиладиган мавзулар:

1. Солиқларнинг пайдо бўлиш тарихи ва уларнинг иқтисодий моҳияти.
2. Солиқлар ва солиққа тортишга оид иқтисодчи олимларнинг назарий-илмий қарашлари.
3. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримов асарларида солиққа оид фикрлар.
4. Солиққа тортиш тамоиллари. Солиқларнинг функциялари.
5. Солиқлар ва бошқа мажбурий тўловлар тизими, уларнинг ўзига хос хусусиятлари.
6. Амир Темур ва темурийлар даврида солиқ сиёсати ҳамда унинг ўзига хос хусусиятлари.
7. Солиқ сиёсати ва унинг асосий йўналишлари.
8. Ўзбекистон солиқ тизими мустақиллик йилларида.
9. Солиқ элементлари ва уларнинг тавсифи.
10. Солиқ имтиёзлари ва уларнинг қўлланилиши.
11. Солиқ юки ва уни аниқлаш тартиби.
12. Солиқ мажбурияти ва уни бажариш тартиби.
13. Бевосита ва билвосита солиқлар, улар ўртасидаги нисбатни оптималлаштириш.
14. Мол-мулк ва ресурс солиқлари, уларнинг иқтисодий моҳияти.
15. Иқтисодиётни тартибга солиша солиқларнинг ўрни ва аҳамияти.
16. Ўзбекистон Республикаси солиқ тизими, унинг ўзига хос хусусиятлари.
17. Солиққа оид хукуқбузарлик турлари ва уларни бартараф этиш чоралари.
18. Ўзбекистонда ишбилармонлик мухитини яхшилашда солиқларнинг рағбатлантирувчи роли.
19. Солиқ механизми ва унинг таркибий тузилиши.
20. Солиқ қонунчилиги, унинг таркиби ва тавсифи.

21. Давлат солиқ хизмати органларининг таркиби ва асосий функциялари.

22. Давлат солиқ хизмати органларида илғор ахборот-коммуникация технологияларнинг жорий этилиши.

23. Солиқ тўловчиларга қўрсатилаётган интерактив хизматлар.

24. Халқаро икки ёқлама солиққа тортишни олдини олиш, унинг келиб чиқиши сабаблари.

25. Хорижий мамлакатлар билан солиққа тортиш соҳасида ҳамкорлик.

Фан бўйича курс иши. Фан бўйича курс ишини бажариш намунавий ўқув режада кўзда тутилмаган.

VI. Асосий ва қўшимча ўқув адабиётлар ҳамда ахборот манбаалари

Асосий адабиётлар:

1. Louis Kaplow. The Theory of Taxation and Public Economics. Princeton University Press. 2008.

2. Дж.Ю.Стиглиц. Экономика государственного сектора/Пер, с англ. — М.: Изд-во МГУ: ИНФРА-М, 1997. - 720 с.

3. Яхъёев Қ. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. Дарслик. Тошкент. 2003. 246 бет.

4. Завалишина И.А. Солиқлар: назария ва амалиёт. “Иқтисодиёт ва хуқук дунёси” нашриёт уйи, 2005. 544 бет.

5. Vahobov A.V., Jo'raev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T.: «Sharq», 2009 y. -448 bet.

Кўшимча адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси. Расмий нашр – Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Т.: «Адолат», 2016 й

2. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси. Расмий нашр – Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Т.: «Адолат», 2014 й

3. Мирзиёев Ш.М. “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг қундалик қоидаси бўлиши керак” – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 104 б.

4. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz” – Т.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” – Т.: “O‘zbekiston”, 2017. – 32 b.

6. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz” – Т.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 32 b.

7. Гатаулин Ш.Қ. Солиқлар ва солиққа тортиш. Ўқув қўлланма. Т.: 1996. – 303 б.

8. Абдуллаев Ё, Яхёев К. Солиқ мавзусида 100 савол ва жавоб. – Т.: Мехнат, 1997. – 192 б.
9. Ваҳобов А.В., Маликов Т.С. Молия. Дарслик / Тошкент молия институти. – Тошкент: «Ношир», 2011. 712-бет.
10. Маликов Т.С., Жалилов П.Т. Бюджет-солиқ сиёсати. Ўқув кўлланма. – Т.: “Академнашр”, 2011. - 472 бет.
11. Ҳайдаров Н.Ҳ. Солиқлар ва солиққа тортиш масалалари. Ўқув кўлланма. Академия. - Т.: 2007. - 214 бет.
12. Гадоев Э. ва б. Билвосита солиқлар. Ўқув-амалий кўлланма. - Т.: Норма, 2011.- 328 –б.
13. Гадоев Э. ва б. Фойда солиғи. Ўқув-амалий кўлланма. - Т.: Норма, 2011.- 408-б.
14. Gadoev E.F., Kuziyeva N.R., Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2012. – 336 b.
15. Gadoev E.F., Kuziyeva N.R., Ashurova N.B., O’rmonov J.J. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. - Т.: IQTISOD-MOLIYA. 2013. 592 b.
16. Майбуров И.А. Налоги и налогообложение. Учебник.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. - 655 с.
17. Майбуров И.А., Соколовская А.М. Теория налогообложения: Продвинутый курс. Учебник.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2011. - 591 с.
18. Пансков В. Налоги и налогообложение: теория и практика. Учебник. – М.: “Юрайт”, 2012 г. – 680 стр.
19. Заяц Н. Е. Теория налогов. Учебник: - М.: БГЭУ. 2011.-224 с
20. Тошматов Ш.А. Кичик бизнес субъектларини солиққа тортишнинг назарий асослари. “Молия” нашриёти, 2012. -205 б.
21. Ўрмонов Ж. Кичик бизнес субъектларини солиққа тортишни такомиллаш-тиришнинг долзарб масалалари. –Т.: Эл-Пресс. 2011. – 132 б.
22. Попова Л.В. и др. Теория и история налогообложения. Учебник. Дело и Сервис. 2011. - 368 с.

Интернет сайтлари:

1. www.soliq.uz
2. www.mf.uz
3. www.norma.uz
4. www.lex.uz
5. www.tekshirishlar.uz
6. www.ziyonet.uz
7. www.nalog.ru

TESTLAR

1.“SOLIQ NAZARIYASI” FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA METODI

1. “Soliq nazariyasi” fanining predmeti nimani o‘rgatadi?

- A. Soliq to‘lovchilar bilan davlat byudjeti o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni.
- B. Soliq to‘lovchilari bilan davlat byudjeti o‘rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni.
- C. Soliq to‘lovchilarning davlat byudjeti bilan iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini nazariy jihatlarini.
- D. Soliq to‘lovchilar bilan davlat byudjeti o‘rtasidagi munosabatlarni.
- E. To‘g‘ri javob mavjud emas.

2. Soliq to‘lovchi bilan davlat o‘rtasidagi munosabatni chuqur o‘rganish ularning iqtisodiy manfaatini e’tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish.....anglatadi.

- A. Fanning mohiyatini.
- B. Fanning predmetini.
- C. Fanning vazifasini.
- D. Fanning zarurligini.
- E. To‘g‘ri javob mavjud emas.

3. Soliq nazariyasi fanini o‘rganishning umumiyl usullariga qaysi usullar kiradi?

- A. Dialektik, grafik, jadval.
- B. Ilmiy izlanish, statistika.
- C. Dialektik, ilmiy abstraksiya, taqqoslash.
- D. Induksiya va deduksiya, ilmiy abstraksiya.
- E. B va C.

4. Soliq nazariyasi fani quyidagi qaysi fanlar bilan o‘zaro bog‘liq?

- A. Iqtisodiyot nazariyasi, soliq tarixi, soliq huquqi, marketing.
- B. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi, iqtisodiyot nazariyasi, moliya, davlat byudjeti.

C. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi, soliqlar va soliqqa tortish, sug'urta.

D. Moliya, soliq menjmenti, davlat byudjeti, tarix.

E. To'g'ri javob mavjud emas.

5. Fanni o'rghanishning alohida usullariga qaysi usullar kiradi?

A. Jadval, grafik taqqoslash, analiz va sintez, statistika.

B. Dialektik, statistik, ilmiy abstraksiya.

C. Analiz va sintez, mantiqiy fikrlash, deduksiya.

D. Jadval, grafik, taqqoslash, ilmiy abstraksiya.

E. To'g'ri javob mavjud emas.

6. "Soliq nazariyasi" fanining vazifasi nimadan iborat?

A. Muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilishni anglatadi.

B. Soliq to'lovchi bilan davlat o'rtasidagi munosabatni chuqur o'rghanish.

C. Mutaxassis kadrlarni nazariy bilimlar bilan qurollantirish.

D. Soliq to'lovchi bilan davlat o'rtasidagi iqtisodiy manfaatni e'tiborga olish.

E. B va D.

7. "Soliq nazariyasi" fanining mohiyati nimadan iborat?

A. Jismoniy shaxslar o'rtasidagi moliya munosabatlarini chuqur o'rghanish.

B. Soliq to'lovchi bilan davlat o'rtasidagi soliqqa oid munosabatni chuqur o'rghanish.

C. Yuridik shaxslar o'rtasidagi kredit munosabatlarini chuqur o'rghanish.

D. Soliq to'lovchi bilan davlat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatni chuqur o'rghanish.

E. C va D.

8. "Soliq nazariyasi" fanining o'rghanish usullari....ga bo'linadi.

A. Umumiy va alohida usullar.

B. Dialektik va ilmiy abstraksiya.

C. Induksiya va ilmiy abstraksiya.

D. Dialektik va jadval.

E. To‘g‘ri javob mavjud emas.

9. Induksiya - nima?

A. Fanning o‘rganish usullaridan biri bo‘lib, umumiy xulosalardan yakka xulosalar chiqarishni anglatadi.

B. Fanni o‘rganish usullaridan biri.

C. Fanni o‘rganish usullaridan biri bo‘lib, yakka faktdan-umumiy xulosa tomon o‘rganish degan ma’noni anglatadi.

D. Soliq elementlaridan biri.

E. To‘g‘ri javob mavjud emas.

10. Soliqlarni makroiqtisodiy darajada o‘rganish ko‘lamini ko‘rsating.

A. Respublika byudjeti.

B. Shahar byudjeti.

C. Tuman byudjeti.

D. Viloyatlar byudjeti.

E. C va D.

11. “Tahlil va sintez” tushunchasi bu.....

A. O‘rganilyotgan ob’ektini saralash.

B. O‘rganilayotgan mavzuni rejalar asosida o‘rganish.

C. O‘rganilayotgan ob’ektni qismlarga bo‘lib o‘rganish va umumiy xulosaga kelish.

D. “Jamlash” degan ma’noni anglatadi.

E. B va D.

12. Fanni “Dialektik” usulda o‘rganish yo‘nalishlarini ko‘rsating.

A. Ilmiy abstraksiya va taqqoslash.

B. Induksiya va deduksiya.

C. Induksiya va dialektika

D. Dedutssiya va taqqoslash

E. To‘g‘ri javob mavjud emas.

13. “Ilmiy abstraksiya” bu....?

- A. Mavxum ob'ektning bir tomoniga, o'rganilayotgan jarayonning ikkinchi darajali omillariga e'tibor qaratish.
- B. Mavhumlilik.
- C. Mavhum bo'lgan ob'ektni bo'lak qismlarga bo'lib o'rganish.
- D. Ilmdagi mavhumlik.
- E. Mavhum ob'ektning bir tomoniga, o'rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e'tibor qaratib, ikkinchi darajali omillarni hisobga olmay o'rganish.

14. Jadval, grafik, taqqoslash fanning.....usullaridir.

- A. Alovida.
- B. Umumiyl.
- C. Dialektik.
- D. Ilmiy abstraksiya.
- E. To'g'ri javob mavjud emas.

15. Fanni grafik usulda o'rganish bu.....

- A. Soliq voqe'liklarini chiziqlarda aks ettirish.
- B. Soliq voqe'liklarini koordinata o'qlarida egri chiziqlar orqali tasvirlash.
- C. Soliq voqe'liklarini o'sish-kamayish sur'atlarini ifodalash.
- D. Soliq turlari dinamikasini kuzatish.
- E. To'g'ri javob mavjud emas.

**2.SOLIQ MUNOSABATLARINING VUJUDGA KELISHI VA
RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

1. Soliqlarning dastlabki ko'rinishi qanday shaklda bo'lgan?

- A. Natura
- B. Natura, mol-mulk, pul.
- C. Mol-mulk, hosil, pul.
- D. Mol-mulk, pul.
- E. C va D.

2. Soliqlarning rivojlanish bosqichlari qaysi qatorda to'g'ri keltirilgan?

- A. 2 bosqich: 1. Eski davr soliqlari; 2. hozirgi davr soliqlari.

- B. 5 bosqich: 1. qadimgi davr soliqlari; 2. Arab istilosи davridagi soliqlar; 3.A.Temur davridagi soliqlar; 4.CHor Rossiyasi davridagi soliqlar; 5.hozirgi davr soliqlari.
- C. 3 bosqich: 1. qadimgi davr soliqlari; 2. 17-18 asr soliqlari; 3. 19-asr va hozirgi davr soliqlari.
- D. 3 bosqich: 1. 1991-1994 yillar; 2. 1995-1997 yillar; 3. 1997 yildan hozirgacha bo‘lgan davr.
- E. 1 bosqich: hozirgi davr soliqlari.

3. Arab istilosи davrida juzya(jon) solig‘ini kimlar to‘lagan.

- A. Xotin-qizlar, keksalar.
- B. Musulmon bo‘lmagan fuqarolar.
- C. Qullar, keksalar va kambag‘allar.
- D. Musulmonlar, savdogorlar hamda hunarmandlar.
- E. Nasroniylar.

4. Somoniylar davrida kirim-chiqim ishlarini, xususan soliqlarni yig‘ishni qaysi devon boshqargan?

- A. Qullar, keksalar va kambag‘allar.
- B. Devoni muxtasib.
- C. Devoni mushrif.
- D. Devoni mustafiy.
- E. B va C.

5. Somoniylar davrida “mulki xiroj”dan kimlar ozod etilgan?

- A. Musulmonlar.
- B. Qadimiy dehqon zadagonlar.
- C. Turk gvardiyasining ayrim rahbarlari.
- D. Sultonga tegishli Yerlarda ishlovchi dehqonlar.
- E. Ruhoniylar va saidlar.

6. Qaysi davrda “iqta” soliq yig‘ishning asosiy manbaiga aylandi?

- A. Qoraxoniylar davrida.

- B. Somoniylar davrida.
- C. Saljuqiylar davrida.
- D. Mo‘g‘ullar istilosи davrida.
- E. A.Temur davrida.

7. Mo‘g‘ullar istilosи davrida “kalon” solig‘ini kimlar to‘lagan?

- A. Chorvadorlar.
- B. Savdogarlar va dehqonlar.
- C. Dehqonlar.
- D. Hunarmandlar, savdogarlar.
- E. Hunarmandlar, chorvadorlar.

8. “Kopcho‘r” solig‘ini kim to‘lagan?

- A. Chorvadorlar.
- B. Ruhoniylar, savdogarlar.
- C. Boy dehqonlar.
- D. Savdogarlar.
- E. Dehqonlar va savdogarlar.

9. Amir Temur davrida dehqonchilikdan olinadigan asosiy soliq turlarini ko‘rsating.

- A. Xiroj va ushr.
- B. Mol o‘tloq va sarshumar.
- C. Mol sardaraxt va mirobono.
- D. Tamg‘a va qo‘nalg‘a.
- E.Juzya.

10. Amir Temur davrida bog‘dorchilik va chorvachilikdan qanday soliqlar olingan?

- A. Tamg‘a va qo‘nalg‘a.
- B. Mol o‘tloq, xiroj, qo‘nalga.
- C. Mirobona, tamg‘a, xiroj, molujihot, ixrojot.

D. Mol sardaraxt, mol o‘tloq, mol suvoq, mirobona.

E. Xiroj, molujihot, ixrojot

11. Amir Temur davrida savdogar va hunarmandlar qaysi soliqlarni to‘lashgan?

A. Peshkash va qo‘nalg‘a.

B. Tamg‘a va zakot.

C. Tamg‘a va xiroj.

D. Ushr va shilon puli.

E. Xiroj va qo‘nalg‘a.

12. Amir Temur davrida saroylarga qarash uchun maxsus yig‘im qanday nomlangan?

A. Peshkash.

B. Xonashumar.

C. Ixrojot.

D. Qunalg‘a.

E. SHilon puli.

13. SHayboniyalar davrida amal qilgan soliqlarni ko‘rsating?

A. Xiroj, tagor, ulufa, qo‘nalg‘a, madadilashkar, boj, tansuqot, tuhfa.

B. Xiroj, ushr, zakot, solg‘it, tanobona, mirobona, kalon.

C. Molujihot, ixrojot, shilon puli, ushr, tamg‘a.

D. Xiroj, ipak moli, omonpuli, ixrojot, xonashumar, juzya, zakot.

E. Xiroj, ixrojot, xonashumar, juzya, zakot.

14. Xiva xonligida natura shaklida to‘lanadigan o‘lpon yig‘uvchilarini qayday nomlashgan?

A. Oqsoqollar.

B. Bojmonlar.

C. Xokimlar.

D. Zakot yig‘uvchilar.

E. Mushriflar.

15. Xiva xonligida Yer solig‘i..... deb nomlashgan.

A. Mushrifona.

B. Olg‘ut.

C. Qo‘nalg‘a.

D. Solg‘ut.

E. Alaf puli.

16. Buxora amrligida mol-mulk solig‘i bilan shug‘ullangan amaldor qanday nomlangan?

A. Devonbegi.

B. Qushbegi.

C. Bojmon.

D. Zakotchi kalon.

E. Xokim.

17. Misaha, muqota, muqosama tarixda qaysi soliqning shakli bo‘lib hisoblanadgan?

A. O‘lpon.

B. Zakot.

C. Vazifa.

D. Jon solig‘i.

E. Xiroj.

18. Amir Temur davrida favqulodda qanday soliqlar joriy qilingan?

A. Molujihot, qo‘nolg‘a, ixrojot, xonamushar, sarmushar, peshkash.

B. Ixrojot, xonamushar, juzya, Yer solig‘i.

C. Sarmushar, peshkash, jon solig‘i.

D. Qo‘nalg‘a, shilon puli, zakot, jon solig‘i.

E. Zakot, jon solig‘i.

19. A.Makedonskiy hukmronligi davridagi asosiy soliq turlarini ko‘rsating?

A. Daromad solig‘i, Yer solig‘i.

- B. Yer, ehson va zakot.
- C. Daromad solig‘i, ehson, yig‘im.
- D. Daromad solig‘i, yig‘imlar, zakot.
- E. Xiroj va juzya.

20. Xiva xonligi davrida amal qilgan soliq turini ko‘rsating?

- A. Tanob yig‘imi, boy puli, solg‘it.
- B. Solg‘it, qazuv, kechuv, tanobona.
- C. Begor, qo‘nolg‘a, tanobona.
- D. Boy puli, ko‘chuv solig‘i, qazuv, begor.
- E. Misaxa, muqota.

3.SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TAMOYILLARI

1. Soliq - bu.....

- A. Qonunchilik asosida davlat tomonidan tashkil etiladigan yuridik va jismoniy shaxslarning davlat byudjetiga majburiy to‘lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlaridir.
- B. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan pul ko‘rinishidagi to‘lovdır.
- C. Davlat tomonidan qonun asosida olinadigan yuridik va jismoniy shaxslardan yig‘im.
- D. Qonunchilik asosida belgilab qo‘yilgan hajmda va o‘rnatilgan muddatda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan to‘lovdır.
- E. Yuridik shaxslardan olinadigan pul ko‘rinishidagi to‘lovdır.

2. “Soliq” tushunchasiga ta’rif bering.

- A. Soliq deganda davlat byudjetiga undiriluvchi majburiy to‘lov tushuniladi.
- B. Soliqlar - davlat va jamiyatning pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo‘yilgan hajmda va o‘rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to‘lovlardir.
- C. Yuridik shaxslar tomonidan byudjetga undiriladigan majburiy to‘lovlardan tushuniladi.

D. Jismoniy shaxslar tomonidan byudjetga to‘lanadigan majburiy to‘lovlar tushuniladi.

E. Soliq deganda davlat byudjetiga undiriluvchi ixtiyoriy to‘lov tushuniladi.

3. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati nimada?

A. Davlatning pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish.

B. Soliqlar majburiy to‘lovlarini ifoda etuvchi pul munosabatlari.

C. Sohalar o‘rtasida mutanosiblikni ta’minlash.

D. Soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa to‘lovlar hisobi davlat moliyaviy resurslarini tashkil etishda.

E.C va D.

4. Soliqlarning o‘ziga xos belgilarini ko‘rsating.

A. Foizlilik, qat’iy va doimiylik.

B. Majburiylik, ekvivalentsizlik, muddatlilik.

C. Majburiylik, qat’iy va doimiylik, foizlilik.

D. Davlat byudjetiga tushishlilik, ekvivalentsizlik.

E.Majburiylik, davlat byudjetiga tushishlilik, qat’iy va doimiylik, ekvivalentsizlik.

5. Soliqlarning ekvivalentsizlik belgisi deganda nimani tushunasiz?

A. Soliqlar qat’iy belgilangan va doimiy harakatda bo‘ladi.

B. Soliqlar majburiy bo‘lib, bunda davlat soliq to‘lovchining bir qism daromadlarini majburiy tarzda olinadi.

C. Soliqlar xazinaga davlat byudjetiga tushadi.

D. Davlatga to‘langan soliq summasi to‘lovchining o‘ziga to‘liq qaytmaydi.

E. B va C.

6. Soliqlarning fiskal funksiyasi nimani anglatadi?

A. Soliqlar yordamida davlatning moliyaviy mablag‘larni tashkil qilishni.

B. Davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga solishini.

C. Ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom ashyo resurslardan samarali foydalanishga ta’sir ko‘rsatishini.

D. Soliqlar vositasida shakllangan daromadlar haqida axborot bYerishni.

E. Soliq tushumlari ustidan nazorat qilishni.

7. Soliqlarning tartibga solish funksiyasi nimani anglatadi?

A. Soliqlar yordamida davlatning moliya resurslarini tashkil qilishni.

B. Ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom ashyodan samarali foydalanishga ta'sir ko'rsatishini.

C. Davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga solishini.

D. Soliqlar vositasida shakllangan daromadlar haqida axborot bYerishni.

E. Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rag'batlantirishni.

8. Soliq bazasini hisoblashning qanday usullari mavjud?

A. Kadastrli usul.

B. Kadastrli usul va manbadan olish usuli.

C. Kassa usuli va kadastrli usul.

D. Kassa usuli va hisobga olish usuli.

E. Daromad manbaidan.

9. "Fiskal" so'zining ma'nosi nima?

A. Byudjet.

B. Xazina.

C. Soliq.

D. Daromad.

E. Tartibga solish.

10. Soliqqa tortishning qanday tamoyillari mavjud?

A. Adolatlilik, oddiylik va xolislik, soliq yig'ish jarayonini arzonlashtirish, etarlilik, boshqarishga qulaylilik, maqbullilik, tadbirkorlik va investitsiyani rag'batlantirish, stavkalarini qiyoslash.

B. Etarlilik, tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish, boshqarishga qulaylik, soliq yig'ish jarayonini arzonlashtirish, me'yorlilik.

C. Adolatlilik, oddiylik va xolislik, boshqarishga qulaylik, soliq stavkalarini qiyoslash, rag'batlantirish.

D. Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag‘batlantirish, oddiylik va xolislik, boshqarishga qulaylik, soliq yig‘ish jarayonini arzonlashtirish.

E. Oddiylik va xolislik, boshqarishga qulaylik, soliq yig‘ish jarayonini arzonlashtirish.

11. A.Smit tomonidan keltirilgan soliq tamoyillari qaysi qatorda keltirilgan?

A. Arzonlik, me’yorlilik.

B. Aniqlik, tadbirkorlik va investitsiyani rag‘batlantirish.

C. Tenglik, aniqlilik, arzonlilik, qulaylilik.

D. Qulaylik, oddiylik.

E. Aniqlilik, arzonlilik.

12. Soliq to‘lovchining aybi isbotlanmaguncha, qaysi tamoyilga asosan ish tutiladi?

A. Soliq solishningadolatliliigi tamoyiliga.

B. Soliq solishning majburiyligi va soliq solishningadolatliliigi tamoyiliga.

C. Soliq solishning aniqligi va soliq tizimining yagonaligi tamoyiliga.

D. Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining oshkoraliqi tamoyiliga.

E. Soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi tamoyiliga.

13. “Mazkur tamoyilga muvofiq soliqqa tortish darjasи shunday bo‘lishi lozimki, u davlat intilayotgan halq xo‘jaligi samaradorligiga Yerishishni kafolatlay olsin” ushbu satrlar qaysi tamoyilni mazmunini ochib bYeradi?

A. Etarlik.

B. Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag‘batlantirish.

C. Oddiylik va xolislik

D. Adolatlilik.

E. Arzonga tushishlilik.

14. A.Smit soliqqa tortish tamoyillari qaysi kitobida asoslab bYergan?

A. “Xalqlar boyligi omillari va shakllari”.

B. “Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari”.

C. “Xalqlar boyligini orttirish uslublari”.

D. “Xalqlar boyligining kelib chiqish sabablari”.

E. “Xalqlar boyligining asoslari”.

15. Oddiylik va xolislik tamoyili nimani nazarda tutadi?

A. Soliqlarni undirib olishda samaradorlikka Yerishishni,soliqqa tortish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiy bo‘lish va xolisona to‘lanishini.

B. Soliq solishning majburiyligi va soliq solishning adolatliligi tamoyiliga.

C. Oddiylik va xolislik.

D. Soliqlarni eng muhim turlari bo‘yicha yagona stavkalar belgilashni, beriladigan imtiyozlarni iloji boricha kamaytirishni.

E. Soliqlarni eng muhim turlari bo‘yicha yagona stavkalar belgilashni.

16. O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi tamoyillar qaysi qatorda keltirilgan?

A.Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag‘batlantirish, hamma daromadlarni soliqqa tortish.

B. Oddiylik va xolislik.

C. Tenglik, soliq stavkalarini qiyoslash.

D. Soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, yagonaligi, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining oshkoraliqi, soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiysi.

E. Soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, yagonaligi.

17. “Soliq to‘lovchining haqligi prizumpsiysi” tamoyili qaysi tamoyillar guruhiiga mansub?

A. A.Smit tamoyillari.

B. A.Temur tamoyillari.

C. Soliq qonunchiligi tamoyillari.

D. Soliqlarning xarajatlardan oshib ketmasligi.

E.A va D.

18. Soliqlarning huquqiy tamoyillari Soliq kodeksining nechanchi bobida berilgan?

A. 2-bob.

B. 1-bob.

C. 5-bob.

D. 8-bob.

E. 4-bob.

19. “Soliq solishning majburiyligi” tamoyili Soliq kodeksining nechanchi moddasida keltirilgan:

A. 6-modda.

B. 3-modda.

C. 7-modda.

D. 11-modda

E. 5-modda.

20. A.Smit, Amir Temur tamoyillarida keltirilgan aynan o‘xhash tamoyilni aniqlang:

A. Oshkoraliq.

B. Aniqlilik.

C. Qonun hujjatlaring oshkoraligi.

D. Soliq tizimining yagonaligi.

E. Etarilik.

4.SOLIQ ELEMENTLARI VA ULARNING TAVSIFI

1. Qaysi satrda soliq elementlari keltirilgan?

A. To‘langan soliq summasi.

B. Soliq turlari.

C. Soliq agenti.

D. Soliq sub’ekti, soliq ob’ekti, soliq stavkasi, soliq bazasi, soliq normasi.

E. To‘g‘ri javob yo‘q.

2. Soliq sub’eki bu –

A. Soliq ob’ektining soliq stavkasi qo‘llaniladigan miqdori.

- B. Soliq to‘lovchining daromadi, oborot va mol-mulk.
- C. Soliq to‘lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar.
- D. Ob’ektning o‘lchov birligi.
- E. Soliq to‘lovchining foydasi.

3. Soliq ob’ekti qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan?

- A. Yuridik va jismoniy shaxslar.
- B. Soliq to‘lovchining soliq hisoblanadigan daromadi, oboroti va mol-mulki.
- C. Soliq to‘lovchilarga soliqlar bo‘yicha bYeriladigan imtiyozlar.
- D. Soliq to‘lovchining daromadi.
- E. To‘g‘ri javob yo‘q.

4. Soliq agenti qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A. Yuridik va jismoniy shaxslardan soliqning ushlab va davlat byudjetiga o‘tkazib beruvchi shaxslar.
- B. Soliq solinadigan daromad.
- C. Soliq to‘lovchining to‘laydigan soliqlar manbai.
- D. Yuridik va jismoniy shaxslar.
- E. Soliq to‘lovchining daromadi.

5. Soliq manbai bu –

- A. Soliq to‘lovchiga berilgan imtiyoz.
- B. Soliq to‘lovchining soliqqa tortish uchun asos bo‘ladigan daromadi, oborot va mol-mulki.
- C. Soliq ob’ektining soliq stavkasi qo‘llanadigan miqdori.
- D. Ob’ektning o‘lchov birligi.
- E. Soliq to‘lovchining daromadi.

6. Soliq bazasi deganda –

- A. Soliq ob’ektining soliq stavkasi qo‘llaniladigan miqdori tushuniladi.
- B. Ob’ektning o‘lchov birligi tushuniladi.
- C. Ob’ektining har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo‘yilgan me’yor tushunladi.

- D. Soliq to‘lovchining to‘laydigan soliqlar manbai tushuniladi.
- E. Soliq to‘lovchining soliqqa tortish uchun asos bo‘ladigan daromadi.

7. Soliq tortish birligi bu –

- A. Soliq ob’ektining soliq stavkasi qo‘llaniladigan miqdori.
- B. Ob’ektning o‘lchov birligi.
- C. Ob’ektning xar bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo‘yilgan me’yordir.
- D. Soliq solinadigan daromad, oborot, mol-mulk.
- E. Soliq to‘lovchining to‘laydigan soliqlar manbai tushuniladi.

8. Soliq stavkasi nima?

- A. Sub’ektlar uchun davlat tomonidan belgilangan soliq undirish me’yor tushuniladi.
- B. Soliq ob’ektining soliq stavkasi qo‘llaniladigan miqdori tushuniladi.
- C. Ob’ektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilangan me’yor.
- D. Soliq solinadigan daromad, oborot va mol-mulk.
- E. Soliq ob’ektining soliq stavkasi qo‘llaniladigan miqdori.

9. Soliq yuki tushinchasiga izoh qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A. Barcha fuqarolardan undirilgan soliqlar yig‘indisi.
- B. Soliq qonunchiligiga ko‘ra xar bir soliq turi bo‘yicha byudjetga kelib tushgan daromad.
- C. Yuridik shaxslarning to‘lagan barcha soliqlari yig‘indisi.
- D. Soliq to‘lovchining muayyan vaqt oralig‘ida to‘lagan soliqlari yig‘indisini jami daromadga nisbati.
- E. B va C.

10. Mezodarajadagi soliq yuki deganda nimani tushunasiz?

- A. Yuridik shaxslar miqyosidagi soliq yuki.
- B. Mamlakat miqyosidagi soliq yuki.
- C. Korxona miqyosidagi soliq yuki.
- D. Jismoniy shaxslar miqyosidagi soliq yuki.
- E. Soha va tarmoq miqyosidagi soliq yuki.

11. Mikrodarajadagi soliq yuki qaysi qarashda ifodalanadi?

- A. Aniq olingan sub'ektlar miqyosida.
- B. Mamlakat miqyosida.
- C. Vazirliklar miqyosida.
- D. Viloyatlar va tumanlar miqyosida.
- E. Soha va tarmoq miqyosida.

12. Soliq imtiyozlarining turlarini ko'rsating?

- A. Butunlay va qisman ozod etish.
- B. Yuridik shaxslarni soliqdan ozod etish.
- C. Jismoniy shaxslarni soliqdan ozod etish.
- D. To'liq ozod etish, vaqtincha ozod etish, qisman ozod etish.
- E. Vaqtincha ozod etish.

13. Soliqni undirish usullari qaysi javobda to'g'ri bYerilgan?

- A. Deklaratsiya usuli.
- B. Kadastrli, daromad manbaidan, daromad olgandan so'ng.
- C. Kadastrli va daromad manbaidan.
- D. Deklaratsiya hamda kadastrli usuli.
- E. Kadastrli va daromad olgandan so'ng.

14. Soliq stavkalari turlari qaysi javobda to'liq bYerilgan?

- A. Regressiv, progressiv va oshirilgan stavka.
- B. Proporsional va regressiv.
- C. Proporsional, regressiv, progressiv.
- D. Oraliq stavka va proporsional.
- E. Pasaytirilgan va oshirilgan.

15. Soliq bazasini hisoblash usullarini ko'rsating?

- A. Kassa va hisobga olish usuli.
- B. Chegirish va qo'shish usuli.
- C. Qo'shish va hisobga olish usuli.

D. Deklaratsiyalash va kassa usuli.

E. To‘g‘ri javob yo‘q.

16. Progressiv soliq stavrularining turlari qaysi javobda bYerilgan?

A. Oddiy va murakkab progressiv.

B. Oshirilgan va oraliq stavka.

C. Pasaytirilgan va murakkab progressiya.

D. Oddiy va oraliq stavka.

E. Murakkab va oraliq stavka.

17. Soliq stavkasining ko‘rinishiga ko‘ra turlarini aniqlang?

A. Progressiv, regressiv, proporsional, nollik.

B. To‘g‘ri, proporsional.

C. So‘mda va foizda.

D. Qat’iy, nisbiy.

E. Proporsional, nollik.

18. Jismoniy shaxslar daromad solig‘i stavkasi qaysi stavka turiga mos keladi?

A. Proporsional.

B. Regressiv.

C. Qat’iy.

D. Progressiv.

E. B va C.

19. Soliq mexanizmi bu -

A. moliya mexanizmining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

B. soliq munosabatlarini tashkil etish uchun qo‘llanadigan usullar yig‘indisi.

C. u yoki bu ob’ektga ta’sir o‘tkazish uchun ishlatalishi mumkin bo‘lgan vositalar, usullar, dastaklar va shakllarning ichki o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorliklarining yig‘indisini anglatadi.

D. soliqlarni hisoblash jarayoni.

E. to‘g‘ri javob yo‘q.

20. Soliqqa tortiladigan bazaga tarif bering.

- A. Soliq ob'ekti.
- B. Soliq manbaiga soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori.
- C. Soliq ob'ektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori.
- D. Soliq ob'ektiga uxshash bir xil tushuncha.
- E. B va D.

5. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI VA UNING SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

1. Soliqlar kelib tushish manbaiga ko'ra

- A. egri va to'g'ri soliqlarga bo'linadi.
- B. umumdavlat va mahalliy soliqlarga guruhanadi.
- C. shaxsiy va real soliqlardan iborat.
- D. yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar.
- E. to'g'ri javob berilmagan.

2. Resurs soliqlariga.....lari kiradi.

- A. yer solig'i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq, Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.
- B. yer solig'i, mol-mulk solig'i, daromad solig'i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq.
- C. yer solig'i, mol-mulk solig'i.
- D. transport vositalariga benzin, dizel va gaz yoqilgisidan foydalanganlik uchun soliq.
- E. mol-mulk solig'i va daromad solig'i.

3. To'g'ri soliqning tarifi qaysi javobda keltirilgan?

- A. Haqiqiy va huquqiy to'lovchisi boshqa-boshqa shaxslar bo'lgan soliq.
- B. Haqiqiy va huquqiy to'lovchisi yuridik shaxs bo'lgan soliq.
- C. Haqiqiy va huquqiy to'lovchisi bir shaxs bo'lgan soliq.

D. Haqiqiy to‘lovchisi yuridik shaxs va huquqiy to‘lovchisi iste’molchi bo‘lgan soliq.

E. Huquqiy to‘lovchisi yuridik shaxs bo‘lgan soliq.

4. Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra-.....

A. yuridik va jismoniy shaxslar soliqlari.

B. umumdavlat va mahalliy.

C. shaxsiy va real.

D. bilvosita va bevosita.

E. o‘zgaruvchan va o‘zgarmaC.

5. Soliqlar tizimi bu - ...

A. bir xil mohiyatga ega va o‘zaro munosabatda bog‘liq bo‘lib, markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq va yig‘imlar turlarining yig‘indisi.

B. davlatning soliq sohasidagi barcha tadbirlarni rejalashtirish, qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta’minalash hamda uni tashkil qilishdagi ishlab chiqilgan choratadbirlar yig‘indisi.

C. qonun chiqaruvchi idoralar tomonidan belgilangan va ijrochi idoralar tomonidan undiriladigan soliqlarning tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari yig‘indisi.

D. soliqlarning tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari yig‘indisi.

E. B va D.

6. Qaysi soliq turi soliq to‘lovchining moliyaviy holatini hisobga oladi?

A. Egri soliq.

B. Real soliq.

C. Xususiy soliq.

D. Umumiyl soliq.

E. Shaxsiy soliq.

7. Egri soliqlar keltirilgan javobni ko‘rsating.

A. Aksiz solig‘i va mol-mulk solig‘i.

B. QQS, aksiz, bojxona boji.

C. Qo‘shilgan qiymat solig‘i va yer solig‘i.

D. Real soliqlar.

E. Aksiz solig‘i, foyda solig‘i.

8. To‘g‘ri soliqlar keltirilgan javobni ko‘rsating.

A. Jismoniy shaxslar daromad solig‘i, yuridik shaxslar foyda solig‘i, yagona soliq to‘lovi, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig‘i.

B. Jismoniy shaxslar daromad solig‘i, yuridik shaxslar foyda solig‘i, yagona soliq to‘lovi, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, aksiz solig‘i.

C. Jismoniy shaxslar daromad solig‘i, yuridik shaxslar foyda solig‘i, yagona soliq to‘lovi, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, yer solig‘i, qo‘silgan qiymat solig‘i.

D. Yuridik shaxslar foyda solig‘i, resurs solig‘i, mol-mulk solig‘i, davlat boji.

E. Yuridik shaxslar foyda solig‘i, yagona soliq to‘lovi, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, yer solig‘i, qo‘silgan qiymat solig‘i.

9. Soddalashtirilgan soliq tizimi qanday soliqlarni to‘lashni nazarda tutadi?

A. Yagona soliq to‘lovi, yagona yer solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i.

B. Yagona soliq to‘lovi, yagona yer solig‘i, mol-mulk solig‘i.

C. Yagona soliq to‘lovi, yagona yer solig‘i, yakka tartibdagи tadbirkorlar uchun qat’iy soliq.

D. Qo‘silgan qiymat solig‘i, yagona yer solig‘i, mol-mulk solig‘i.

E. YAgona soliq to‘lovi, yer solig‘i.

10. Oborotdan olinadigan soliqlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A. Aksiz solig‘i, foyda solig‘i, mol-mulk solig‘i va QQC.

B. Mol-mulk va daromad solig‘i.

C. QQS va foyda solig‘i.

D. QQS, aksiz solig‘i, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘i va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari.

E. QQS, aksiz solig‘i, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘i va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, yer solig‘i.

11. Daromaddan olinadigan soliqlar qaysi javobda to‘liq keltirilgan?

- A. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.
- B. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, mol-mulk solig‘i va jismoniy shaxslardan daromad solig‘i.
- C. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, yer va mol-mulk soliqlari.
- D. QQS va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.
- E. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, aksiz solig‘i.

12. Davr xarajathlariga kiritiladigan soliqlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A. Yer solig‘i, mol-mulk solig‘i, aksiz solig‘i.
- B. Yer solig‘i, QQS va mol-mulk solig‘i.
- C. Yer solig‘i, mol-mulk solig‘i, yuridik shaxslarning undiriladigan foyda solig‘i.
- D. Yer solig‘i, obodonlashtirish va infratuzilma rivojlantirish solig‘i, mol-mulk solig‘i.
- E. Yer solig‘i, mol-mulk solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

13. Soliqlarning soliqqa tortish ob’ektiga ko‘ra guruhanishi qaysi bandda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A. Umumdavlat va mahalliy soliqlar.
- B. Oborotdan, daromaddan, mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlar.
- C. Egri va to‘g‘ri soliqlar.
- D. YUridik va jismoniy shaxslardan olingan soliqlar.
- E. Korxonalar foydasidan to‘lanadigan soliqlar.

14. Egri soliqlar tarkibi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A. QQS, yer solig‘i, mol-mulk solig‘i.
- B. QQS, aksiz solig‘i va mol-mulk solig‘i.
- C. QQS, aksiz solig‘i, bojxona bojlari, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganligi uchun olinadigan soliq.

D. QQS, aksiz solig‘i, bojxona bojlari, obodonlashtirish va infratuzilma rivojlantirish solig‘i.

E. Aksiz solig‘i, bojxona bojlari, obodonlashtirish va infratuzilma rivojlantirish solig‘i.

15. Qaysi soliq turlari guruhida soliqlarning haqiqiy va huquqiy to‘lovchisi farqlanadi?

A. Egri soliqlarda.

B. To‘g‘ri soliqlarda.

C. Umum davlat soliqlarida.

D. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarda.

E. Mahalliy soliqlarda.

16. Quyidagi soliqlardan qaysi biri resurs soliqlari tarkibiga kiradi?

A. Transport vositasi, benzin, dizel yoqilg‘i va suyultirilgan gaz ishlatish uchun soliq.

B. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘i.

C. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

D. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i.

E. Aksiz solig‘i.

17. Qaysi qatorda mahalliy soliqlar turlari ko‘rsatilgan?

A. Yagona soliq to‘lovi.

B. Yuridik shaxslardan undirilgan foyda solig‘i.

C. Egri soliqlar.

D. To‘g‘ri soliqlar.

E. Yer solig‘i, mol-mulk solig‘i.

18. Faqat yuridik shaxslar to‘laydigan soliqlar qaysi bandda ko‘rsatilgan?

A. Mol-mulk solig‘i.

B. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i.

C. Yer solig‘i.

D. Qo‘silgan qiymat solig‘i.

E. Aksiz solig‘i.

19. Ham yuridik ham jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlar qaysi bandda ko‘rsatilgan?

- A. Yer solig‘i, mol-mulk solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i.
- B. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq, aksiz solig‘i.
- C. Obodonlashtirish va infratuzilma rivojlantirish solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.
- D. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.
- E. Yer solig‘i, obodonlashtirish va infratuzilma rivojlantirish solig‘i.

20. “Soliqlar yordamida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmiga ta’sir etib, jumladan soliqqa tortishning progressiv shkalasini qo‘llash orqali jamiyat a’zolarining mulkiy tengsizligini tugatish mumkin”, - degan fikr kimga tegishli?

- A. Samuelson.
- B. A.Laffer.
- C. A.Smit.
- D. E.Jerarden.
- E. D.Rikardo.

**6..SOLIQ MUNOSABATLARI SUB’EKTLARINING HUQUQLARI VA
SOLIQ MAJBURIYATLARINING BAJARILISHI**

1.Soliq kodeksining qaysi moddasida Soliq to’lovchilarining huquqlari keltirilgan?

- A. Amaldagi soliq kodeksining 30-moddasida.
- B. Amaldagi soliq kodeksining 34-moddasida.
- C. Amaldagi soliq kodeksining 31-moddasida.
- D. Amaldagi soliq kodeksining 35-moddasida.
- E. Amaldagi soliq kodeksining 36-moddasida.

2.Amaldagi soliq kodeksining qaysi moddasida Soliq to’lovchilarining majburiyatları keltirilgan?

- A. Amaldagi soliq kodeksining 32-moddasida.

- B. Amaldagi soliq kodeksining 30-moddasida.
- C. Amaldagi soliq kodeksining 31-moddasida.
- D. Amaldagi soliq kodeksining 35-moddasida.
- E. Amaldagi soliq kodeksining 36-moddasida.

3. Soliq majburiyatiga ta'rif bering?

- A. Soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan huquqlari soliq majburiyati deb e'tirof etiladi.
- B. Soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e'tirof etiladi.
- C. Moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi hamda uni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishi.
- D. Vakolatli organlarning huquq va majburiyatları soliq majburiyati deb e'tirof etiladi.
- E. Soliq to'lovchilarga to'lanadigan mablag'lardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazishi.

4. Soliq majburiyatini bajarish tartibi soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

- A. Amaldagi soliq kodeksining 32-moddasida.
- B. Amaldagi soliq kodeksining 30-moddasida.
- C. Amaldagi soliq kodeksining 31-moddasida.
- D. Amaldagi soliq kodeksining 35-moddasida.
- E. Amaldagi soliq kodeksining 36-moddasida.

5. Soliq majburiyatini bajarish muddatlari soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

- A. Amaldagi soliq kodeksining 32-moddasida.
- B. Amaldagi soliq kodeksining 30-moddasida.
- C. Amaldagi soliq kodeksining 31-moddasida.
- D. Amaldagi soliq kodeksining 35-moddasida.
- E. Amaldagi soliq kodeksining 36-moddasida.

6. Soliq majburiyatining tugatilishi soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

- A. Amaldagi soliq kodeksining 37-moddasida.
- B. Amaldagi soliq kodeksining 30-moddasida.
- C. Amaldagi soliq kodeksining 31-moddasida.
- D. Amaldagi soliq kodeksining 32-moddasida.
- E. Amaldagi soliq kodeksining 36-moddasida.

7. Soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati soliq kodeksining qaysi moddasida keltirilgan?

- A. Amaldagi soliq kodeksining 37-moddasida.
- B. Amaldagi soliq kodeksining 36-moddasida.
- C. Amaldagi soliq kodeksining 38-moddasida.
- D. Amaldagi soliq kodeksining 35-moddasida.
- E. Amaldagi soliq kodeksining 39-moddasida.

8. Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin necha yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko'rib chiqishi mumkin?

- A. Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin uch yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko'rib chiqishi mumkin.
- B. Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin etti yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko'rib chiqishi mumkin..
- C. Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko'rib chiqishi mumkin.
- D. Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin o'n yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko'rib chiqishi mumkin.
- E. Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin olti yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko'rib chiqishi mumkin.

9. Soliq to'lovchi soliq davri tugaganidan keyin necha yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ortiqcha to'langan summalarini hisobga olishni yoki qaytarishni talab qilishga haqli?

